

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta mahsus ta’lim
Vazirligi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti**

Hind adabiyoti

Toshkent 2009

ANNOTATSIYA:

Mumtoz hind adabiyoti tarixi bo'yicha tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma Sharqshunoslik Oliygo'hrining bakalavriat guruxlari hamda Sharqshunoslik akademlitseyi yuqori kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda asosan hind adabiyotining qadimdan to kech o'rta asrgacha (XVII asrgacha) bo'lgan davr adabiyotining rivojlanish tarixi o'rganiladi.

Hind adabiyoti qadimiy adabiyotlar sirasiga kirib uning tarixi eramizdan oldingi to'rtinchi ming yilliklardan boshlanadi. O'quv qo'llanmani tayyorlashda muallif hind adabiyotshunoslari, rus va o'zbek sharqshunoslarining ilmiy izlanishlari, ilmiy asar va maqolalariga tayangan. Ushbu qo'llanma yordamida talaba asosan hind adabiyotining eng dastlabki yozma yodgorliklari, qadimda shakllangan adabiyotning turli yo'nalishlari, shoir va yozuvchilari, hamda hind diniy-falsafiy qarashlarining adabiyotga ta'siri kabi masalalar bo'yicha tushuncha va mahsus ilm hosil qiladi.

Tuzuvchi: Dots. Muhibova U.U.

Mundarija

Kirish

- 1 Bob Qadimiy Hindiston subkontinentidagi adabiy-tarixiy jarayon.**
- 2 Bob Qadimiy Hindiston adabiyoti**
 - 2.1 Vedalar - dastlibki yozma yodgorliklar**
 - 2.2. Vedanta - vedalarga diniy-falsafiy talkinlar.**
 - 2.3 Qadimgi hind eposlari:**
 - «Ramayana» eposi
 - «Mahabxarata» eposi.
- 3 Bob Buddizm adabiyoti**
 - 3.1 Buddizm maktablari va ularning hind adabiyotiga ta'siri**
 - 3.2 Jataki - Budda hayoti haqidaga asar**
 - 3.3 Arya Shura va «Jatakamala»**
 - 3.4 Ashvagxosha ijodi**
- 4 Bob Eramizning birinchi ming yilligi adabiyoti**
 - 4.1 Qadimgi hind ertak va masallari**
 - 4.2. Panchatantra - qadimgi hind masali**
 - 4.3. Vetalopanchovinshati - "Vetalaning 25 hikoyasi" ertagi**
 - 4.4 Sinxasanadvatrinshati - "Shoh taxti haqida 32 hikoya"**
 - 4.5 Hitopadesha - "Foydali maslahatlar"**
 - 4.6 Shukasaptati - "To'rtining 72 hikoyasi"**
 - 4.7 Bxaratakadvatrinshati - "Monaxlar haqida 32 hikoya"**
- 5 Bob Qadimgi hind dramaturgiyasi**
 - 5.1 Birinchi dramaturg Bxasa**
 - 5.2 Dramaturg Shudraka**
 - 5.3. Buyuk dramaturg Kalidasa**
- 6 Bob Roman va satiraning shakllanishi.**
 - 6.1 Lirik shoir Bxaratrixari**
 - 6.2 Vishakxadatta ijodi**
 - 6.3 Yetuk romanistlar: Dandin va Bana**
 - 6.4 Qadimgi hind satirasi vakili Xaribxada**
- 7 Bob Hindistonda forsiyzabon adabiyot**
 - 7.1 Hind forsiyzabon adabiyotining shakllanishi**
 - 7.2 Amir Xusrav Dehlaviy ijodi**
- 8 Bob Hind sufiy adabiyot**
 - 9 Bob Bxakti adabiyoti**

9.1 Nirgun bxakti vakili Kabir

9.2 Krishnabxakt shoir Surdas

9.3 Tulsidas rambxakt shoir

10 Bob Urdu adabiyotining shakllanishi

11 Bob Janubiy Hindiston adabiyoti (Telugu adabiyoti)

KIRISH SO‘ZI

Hind adabiyoti jahon adabiyoti tizimda qadimiy, boy va o‘ziga xos xalq adabiyoti hisoblanadi. Uning shakllanishi juda katta tarixiy davrni o‘z ichiga oladi.

Mazkur dasrlik hind adabiyotining qadimdan - meloddan avvalgi to‘tinchi ming yilligidan to melodning XVIII asrigacha bo‘lgan davr adabiyotini o‘zida qamrab oladi.

Darslik mazmunida shu davr adabiy jarayonlari haqida mulohazalar, har bir davr adabiyotining yetuk namoyandalari - shoir, yozuvchi, dramaturglarning ijodi, ular yaratgan adabiy meros, asarlardan parchalar hamda janrlar haqidagi bilimlar o‘rin olgan.

Darslik Oliy ta’lim dargohlari bakalavriat talabalari, akademitsey o‘quvchilari va keng kitobxon uchun mo‘ljallangan.

Ushbu darslikni tayyorlashda va uni nashr ettirishda hamkorlik qilgan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti rahbariyati, Hindistonning O‘zbekistondagi elchixonasi, xususan, elchi Skand Ranjan Tayal janob Oliylariga o‘zimning chuqur minnatdorchiligiمنى izhor etaman.

1 B o b Qadimiy Hindiston subkontinentidagi adabiy-tarixiy jarayon.

Prachin Bharat me itihāsik aor sahitik sthiti

Hindiston dunyoning eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biridir. Chunki koinotning birinchi odami sanalmish Odam Ato aynan shu mamlakatning hududlariga, Hindiston janubida joylashgan Seylon, ya'ni Shri Lanka orollariga tushgan degan tahminlar mavjud. Odam Ato Shri Lanka orollariga tushgan bo'lsa u yerdan quruqlik tomon yo'l esa faqat Hindiston orqalidir. Demak, yer yuzidagi insoniyat hayoti shu yerdan boshlangan degan tahmin asosli deyish mumkin.

Hindistonning qadimiyligini uning yozma yodgorliklari ham isbotlaydi. Masalan, vedalar na faqat Hindistonda balki jahon yozma yodgorliklari tarixida ham eng qadimiysi hisoblanib, ularning yozma adabiyotga kirib kelish davri eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarga borib taqaladi. Ularning yaratilish tarixi esa tahminan 4-ming yilliklarga to'g'ri keladi degan fikrni bildiradilar hind tadqiqotchilari.

Hindiston azaldan jahon xalqlarini o'zining qadimiy madaniyati, boy falsafiy merosi, go'zal tabiati va bitmas tunganmas tabiiy boyliklari bilan qiziqtirib kelgan. Bu borada qadimda turli mamlakat sayyohlarining Hindistonni o'rganish maqsadida u yerga qilgan safarlari va safar taassurotlari asosida yaratib qoldirgan esdaliklari yaqqol misol bo'la oladi. Ulardan, ayniqsa, gresiyalik Megasfen, xitoylik sayyoh Syuan Szin, O'rta Osiyolik Abu Rayxon Beruniy hamda Rossiyalik Afanasiy Nikitin va ular yaratgan «Hindiston» nomli qomusiy asarlar hanuzgacha barcha xalqlar

uchun Hindiston va hind xalqi haqida to'liq ma'lumot beruvchi eng qimmatli va boy asarlar sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Hindistonning geografik jihatdan joylashishi ham mamlakat uchun har sohada ancha qulayliklar yaratadi. Hindistonni uch tomondan ikki okean - sharqda Hind va g'arbda Tinch okeani suvlari bilan, shimolda esa quruklik bilan o'ralganganligi mamlakat uchun ham iqtisodiy ham siyosiy jihatdan ko'p qulayliklar yaratadi. Suv yo'llari Hindiston uchun bir tomondan boshqa mamlakatlar bilan savdo, madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchi tomondan mamlakat xalqining iqtisodiy ta'minoti uchun katta manba'dir. Suv yo'llari siyosiy va harbiy-strategik maqsadlarda ham Hindiston uchun juda katta qulayliklar tug'diradi. Bu ikki okean Hindiston subkontinentining tabiati va iqlimiga ham katta ta'sir ko'rsatib, uning tabiatining go'zal, yerining sermaxsul bo'lishini ta'minladi. Shimolda Hindistonning quruqlik bilan o'ralganligi mamlakatning Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan aloqa o'rnatishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratadi.

Hindistonning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning **ko'ptilli (bahudharmii)** va **ko'pdinli (bahubhashi)** mamlakat ekanligidir. Hindiston eng katta hududga ega bo'lgan mamlakatlardan biri bo'lib, unda ko'pgina millat va elatlar istiqomat qiladi. Bugungi kunda tadqiqotchilarning fikricha Hindistonda yashovchi barcha millatlar va elatlarning tili tahminan 800 atrofida ekanligi statistik ma'lumotlarda berilgan. Bu yirik geografik hududda istiqomat qiluvchi xalqlarni hindlar deb atalgani bilan aslida yerlik xalq turli millatlarga mansubdir. Bu millatlarning har biri o'ziga xos milliy xususiyat va an'analar asosida shakllangan. Shu bois Hindiston subkontinentida o'zining milliy tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari va adabiyotiga ega bo'lgan bir qancha millatlar va ular yashaydigan hududlar, ya'ni shtatlar mavjud. Jumladan, Panjob shtatida panjob millati va tiliga mansub bo'lgan xalq, Kashmirda kashmiri tili va shu millatga mansub xalq yashaydi, shu tarzda Rajastxon, Gujarat, Orissa va boshqa bir qancha shtatlarning va shu shtatlarda yashaydigan millat vakillari va ularning tillarini eslab o'tish mumkin. Hindistondagi barcha tillar jahon tillar guruhining asosan ikki guruhiga mansubdir, ya'ni shimoliy va markaziy qimlardagi shtatlar tili, ya'ni hindi, urdu, panjobi, gujaroti, rajastxani, kashmiri va boshqalar **hind-oriy (ariyan)** tillar guruhiga, janubiy hududlarda joylashgan shtatlar tili, jumladan, maratxi, tamili, telugu, kannar, orisi, malayalam va boshqa bir qancha tillar **dravid (dravid)** tillar guruhiga mansubdir. Lekin shunga qaramasdan Hindiston subkontinentini o'rganish asosida bu barcha millatlar va elatlar yaxlit bir hududda, yagona

mafkuraviy ildizga asoslangan holda shakllanganligini adabiy va tarixiy manba'larda kuzatish mumkin. Har bir millat adabiyoti o'zining rivojlanish tarixi va milliy merosiga ega bo'lgani bilan ularning ildizi bir ildiz asosida, ya'ni sanskrit tilidagi adabiy meros asosida shakllangan. Ko'pmillatlilik hind adabiyotining beqiyos boyligini ta'minlasa, sankrit adabiyotga tayanish ularning o'zaro o'xshashligini ta'minlaydi.

Bugungi kundagi davlat tili bo'lmish hindiy tili esa o'zining shakllanish jarayonida ko'pgina boshqa tillar asosida shakllangan. Uning dastlabki bosqichi, ya'ni meloddan avvalgi va melodning birinchi ming yilligi sanskrit tili bilan bog'liq. Eramizning birinchi ming yilligiga kelib sanskrit tilining adabiy til sifatida doirasi torayib mahalliy halk tillarining shakllanish jarayoni boshlanadi. Xalq tillarini o'sha davrda **«prakrit»**lar, ya'ni **«tabiiy»** tillar deb atashgan. Bu tillar rivojlanib sekin-asta ulardan mustaqil milliy tillar paydo bo'lgan.

Prakritlardan biri apabxaransha shauraseni (VII-VIII asrlar) keyinchalik braj tili sifatida shakllandi (XII-XVI asrlar), undan esa kxari boli (XVII-XVIII asrlar), kxari bolidan bugungi hindiy tili kelib chiqqan. Demak, hindiy tili hali yosh, ya'ni eramizning XVIII asrida shakllangan bo'lsa-da, uning ildizi juda qadimiydir, ya'ni sanskrit tili davri bilan bog'liqdir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda hindiy tilida so'zlashuvchilarning soni jahonda xitoy, ingliz va rus tilidan keyingi to'rtinchi o'rinni egallaydi. Hindistonda bu tilda so'zlashuvchilarning soni 170 mln.dan ortadi. 1950 yili Hindiston mustaqilligidan keyin qabul qilingan yangi Konstitutsiyada hindiy tili davlat tili deb e'lon qilingan, so'zlashuv tili sifatida asosan Hindiston yarim orolining markaziy va shimoliy qismlarida qo'llaniladi. Uning eng katta markazlari Dehli, Agra, Jaypur, Ilohobod, Banoras, Kalkutta, Lakxnau va shu shaharlar atrofidagi hududlardir. Bu hududlarda hindiy tilining dialektlari ham mavjud. Hindiy tili dialektlari asosan ikki guruhga ajratiladi:

1) *G'arbiy dialektlar*, ularga: ***kxari boli, bangaru, braj, kannauji, bundeli (khari boli, bangaru, braj, kannauj, bundeli)*** tillari kiradi.

2) *Sharqiy dialektlar*, ularga: ***avadxi, bagxeli va chxattisgarxi (avadhi, bagheli, chatitsgarhi)*** dialektlari kiradi.

G'arbiy dialektlar avvaliga *shauraseni prakrit* va undan keyingi davrda esa *apabxaransha shauraseni* asosida rivojlangan bo'lsa, sharqiy dialektlar *ardxamagadxa prakrit* va uning keyingi rivojlanish davri bo'lmish *apabxaransha ardxamagadxa* tillari asosida shakllangan. Hindiy tili tarqalgan hudud juda katta bo'lib unga Rajastxon shtatining g'arbiy chegaralaridan tortib Panjob va Bixar shtatlari hududi hamda shimolda

Himolay tog' etaklaridan to Uttar Pradesh markazlarigacha bo'lgan hudud kiradi. Aynan mana shu hudud qadimda «*Madhyadesha*», ya'ni «Markaziy mamlakat» deb nomlangan va u hamisha Hindistonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotining markazi bo'lib kelgan.

Hindiston shimolidagi Ganga va Jamuna daryolari hind xalqi hayotida diniy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan katta ahamiyat kasb etib kelgan. Diniy jihatdan bu ikki daryo ham muqaddas daryo sanalib Gang daryosi «Ramayana» eposidagi Ram ma'budi bilan, Jamuna daryosi «Mahabxarata» eposidagi Krishna ma'budi bilan bog'liq bo'lganligi sabab ular muqaddas sanaladi va hind xalqining diniy dunyoqarashdagi qismi ularga hanuzgacha sig'inab keladi. Iqtisodiy jihatdan ham bu daryolar hind xalqi hayotida dehqonchilik va baliqchilikda, siyosiy jihatdan turli shohliklarning hududlarini belgilashda, janglarda esa sipoxiylar va harbiylarni suv bilan ta'minlashda, dehqonlar uchun esa yerlarni serhosil qilish yo'lida katta ahamiyat kasb etib kelgan.

Janubiy shtatlarga keladigan bo'lsak, bu shtatlarda bugungi kunda har bir shtat o'zining milliy tilini davlat tili deb e'lon qilgan, hindiy tili esa ular uchun o'zaro muomala tili vazifasini bajaradi.

Hindiston ***ko'pdinli (bahubhashi)*** mamlakatdir. Buning uch asosiy sababini ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, hind xalqining diniy-falsafiy qarashlari, ma'lumki, ko'pxudolikka asoslangan, ya'ni hindular tili bilan aytganda har bir ma'bud Yaratganning xilma-xil qiyofadagi tajassumi deb tan olinadi. Bu insonning tabiat oldidagi ojizligi bilan izohlanib, tabiiy hodisalar - quyosh, shamol, oy, yomg'ir, momaqaldiraq, suv, tog' va o'rmonlar Yaratganning qudrati sifatida tan olinib ularga sajda qilingan.

Ikkinchidan, olam mavjudligining uch asosiy jarayoni - yaralish, saqlanish va yakson bo'lish jarayonlarini hindlar uch ma'bud nomi bilan ataganlar, ya'ni *Braxma-yaratuvchi*, *Vishnu-saqlovchi* va *Shiva-yakson etuvchi, tugatuvchi*. Mana shu uch jarayon uzluksiz bo'lib, borliq mana shu qonun asosida mavjud deb hisoblaydilar. Bu hind xalqining vedalardan keying davr diniy-falsafiy qarashlaridan biridir. Keyinchalik mana shu qarashlar asosida turli diniy yo'nalishlar shakllangan, ya'ni Braxma g'oyasi asosida *brahmanizm*, Vishnu g'oyasiga asoslangan *vishnuizm* va Shiva g'oyasi bilan bog'lik *shivaizm* diniy oqimlari shakllangan. Bugungi hinduizm esa mana shu uch diniy oqim qarashlari majmuasidan tashkil topadi. Hinduizm atamasi esa o'rta asrlarda shakllangan tushuncha. Uning shakllanishi musulmonlarning kirib kelishi va islom dinining tarqalishi bilan bog'liq. Xalq orasida musulmonlarning ko'payib borgan sari ular

mahalliy xalqni o'zlaridan ajratish maqsadida ularni hindular deb nomlay boshlaganlar. Natijada «*hindu dxaram*», ya'ni «*hindular dini*» degan atama paydo bo'ldi. Shunga ko'ra o'rta asrlargacha bo'lgan manba'larda «*hindu dxaram*» degan atama uchramaydi.

Uchinchidan, bugungi kunda jahonda agar oltita asosiy din (islom, xristian, hinduizm, buddizm, sikhizm va djayнизм) mavjud bo'lsa, ularning barchasi Hindistonda faoliyat ko'rsatadi. Bu dinlarning to'rttasi - hinduizm, buddizm, sikhizm va djaynizmlar esa Hindistonning o'zida shakllangan bo'lib, ulardan ayrimlari, jumladan buddizm, boshqa mamlakatlarga ham kirib borib, u yerda yetakchi din sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Islom va xristian dinlari turli xalqlarning Hindistonga bosqinchiligi asosida kirib kelgan. Ya'ni islom dini Hindistonning musulmonlar tomonidan zabt etilishi bilan bog'liq bo'lsa, xristian dini portugallarning Hindistonga bostirib kirishi natijasidir.

Bulardan tashqari, o'rta asrlarda shakllangan sidx va natx sektalari, bxakti va sufizm kabi diniy-islohotchilik harakatlari Hindistonning ko'pdinli mamlakat bo'lishiga olib kelgan omillardandir.

Hindistonga xos xususiyatlardan yana biri jamiyatning **varnalarga**, ya'ni kastalarga bo'linishidir. Hind diniy - falsafiy qarashlariga ko'ra qadimdan jamiyat to'rt asosiy guruhga, ya'ni kastalarga bo'lingan. Ular: **brahmanlar (brahman)**- ziyolilar, **kshatriylar (kshatri)** – harbiylar, **vayshyalar (vayshya)** - o'rta hollar, ya'ni hunarmandlar, o'qituvchilar, vrachlar va boshqa turli kasb egalari, **shudralar (shudra)** - eng past tabaqa vakillari (etikduzlar, farroshlar, idish-tovoq yuvuvchilar, kir yuvuvchilar va boshkalar). Jamiyatning kastalarga bo'linishi hind jamiyatida juda ko'p sotsial muammolarni keltirib chiqargan. Asrlar davomida hind xalqi mana shu kastachilik tizimining qurboni bo'lib kelgan va bu muammo ko'p jihatdan mamlakatning rivojlanishiga to'sqinlik qilib kelgan.

Demak, hind adabiyoti jahon adabiyoti tizimdagi eng qadimiy va boy adabiyotlardan biridir. Uning tarixi deyarli 40 asrlik davrni o'z ichiga oladi. Bu katta tarixiy davrda esa har bir xalq adabiyoti singari hind adabiyoti ham turli ijtimoiy-siyosiy va ular bilan bog'liq adabiy jarayonlarni bosib o'tgan. Adabiy jarayonlar, ma'lumki, o'z davrining mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda nomlanadi. Hind adabiyotidagi adabiy jarayonlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va diniy-falsafiy qarashlarini, ularning mazmun-mohiyatini o'zida aks ettirgan holda quyidagicha nomlanadi:

- *Vedalar davri*
- *Eposlar davri*
- *Vedanta yaratilish davri*

- *Ertak va masallar davri*
- *Buddizm adabiyoti davri*
- *Hind dramaturgiyasining shakllanishi*
- *Roman va satiraning shakllanishi*
- *Forsiyzabon adabiyot*
- *Urdu adabiyotining shakllanishi*
- *Hind sufiy adabiyoti*
- *Bxakti adabiyoti*
- *Riti davri adabiyoti*

Hind adabiyotining rivojlanish tarixini esa besh davrga ajratish mumkin-

- 1) *Qadimiy davr - meloddan avvalgi IV ming yillikdan melodning VIII asrigacha*
- 2) *Ilk o'rta asrlar - VIII - XIU asrlar*
- 3) *Kech o'rta asrlar - XU - XUIII asrlar*
- 4) *Yangi davr - XUIII asr oxiri va XX asr birinchi yarmi*
- 5) *Eng yangi davr - XX asr ikkinchi yarmidan bugungi kungacha*

Har bir davr o'zining turli muhim xususiyatlari va o'ziga xos merosi bilan ajralib turadi.

Birinchi, ya'ni **qadimiy davr**. Bu davr vedalar, ikki epos, hind dramaturgiyasi, ertak va masallar, dastlabki romanlar shakllangan adabiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Qadimiy davrga kirgan epik davr xalq qahramonliklari, urush va janglar tasviridan iboratligini nazarda tutgan holda hind adabiyotshunoslari uni «*Virgatxa kal*», ya'ni «*Qahramonlik hikoyalari davri*» deb ham nomlaydilar.

Qadimiy davr adabiyotining o'ziga xosligi uning sanskrit tilida yaratilganligidir. Sanskrit tilidagi adabiy meros, ayniqsa vedalar va eposlar, ko'p asrlar davomida xalq og'zaki ijodida yashab asrlar o'tganidan keyin turli avliyo va darveshlar hamda oliy tabaqa vakillari bo'lgan brahmanlar tomonidan yozma adabiyotga olib kirilgan. Tarix bizga *Manu*, *Yajnyavalkya*, *Agatya*, *Charaka*, *Sushruti*, *Vyasa*, *Valmiki* va boshqa bir qancha darvesh, avliyo va brahmanlarning nomini yetkazganki, ko'pgina adabiy yodgorliklar ularning nomi bilan bog'liq. Bu davrda badiiy adabiyotning eng asosiy janrlarni – drama, roman, rtak va masallarning shakllana boshlaganligi hind adabiyotining nazariy asoslarining ham qadimiyligini anglatadi.

Ikkinchi, ya'ni *ilk o'rta asrlar* davri adabiyotining muhim xususiyati shundan iboratki, bu davrda mahalliy tillarda yozma adabiyot shakllana boshlagan. Bu adabiyotlar esa keyinchalik, o'z navbatida, turli milliy

adabiyotlarga asos bo'lgan. Ilm o'rta asr davrida sanskrit tili adabiy til sifatida sekin-asta o'z mavqeini yo'qota borgan va «*prakrit*», «*tabiiy*» xalq tillari adabiyot shakllana boshlagan. Shu sabab ikkinchi davr adabiyoti qisman tarqoqlik, qisman yangi janrlarning bunyodga kela borishi, qisman esa qadimiy davr adabiy merosining mahalliy xalq tillariga tarjima qilinishi bilan bog'liq jarayonlar bilan harakterlanadi.

Uchinchi – *kech o'rta asrlar* davri adabiyoti hind adabiyotining eng ravnaq topgan davrlaridan biridir. Bu davr hind adabiyotida juda ko'p yangi g'oyalar, janrlar va yo'nalishlar, jahonga nomi taralgan shoirlar va yozuvchilar, ularning shoh asarlari bilan boyigan davrdir. Kech o'rta asr odatda «*bxakti kal*», ya'ni «*bxakti davri*» deb nomlanib, bu davr adabiy merosi esa «*bxakti adabiyoti*» deb nomlanadi. Bxakti adabiyoti bilan bir qatorda «*hind sufiy adabiyoti*» ning shakllanishi ham aynan shu davrga to'g'ri keladi. Hindistonga islom dinining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan sufiy adabiyot hind an'analarini o'zida mujassamlashtirgan holda o'ziga xos bir adabiyot sifatida shakllangan va o'zidan juda katta adabiy meros qoldirgan.

To'rtinchi – *yangi davr* XVIII asr oxiridan boshlanib mustaqillikkgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Hind adabiyotining bu yangi davri «*Rati kal*», ya'ni «*Riti davri*» deb ataladi. «*Riti*» so'zi hindi tilida «*an'ana*» degan ma'noni anglatadi. Bu davrda bxakti g'oyalari asosida kuchaygan adabiyotdagi diniy-falsafiy g'oyalar susayib inson o'zining kundalik muammolari bilan adabiyotda yetakchi o'rinni egallay boshlaydi. Bunga, albatta, Hindistonning inglizlar tomonidan bosib olinishi natijasida hind adabiyotiga g'arb g'oyalarining kirib kelishi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davr adabiyoti ko'proq hayotiy muammolar hamda qadimiy hind an'alarining zamonaviylashuvi bilan bog'liq ravishda rivojlanishi bilan harakterlanadi.

Beshinchi – eng yangi davr o'ziga mustaqillikdan keyingi davr va bugungi kun adabiy jarayonlarini o'z ichiga oladi. Uning mazmunida o'tgan to'rt davrda adabiy meroslarida aks etgan barcha g'oya, mazmun, shakl va qarshalarning zamonaviy tusda mujassamlashganini kuzatish mumkin.

2 Bob Qadimiy Hindiston adabiyoti

2.1 Veda – ilk adabiy yodgorlik

«Ved»

Qadimgi hind adabiyoti o'z mazmunida hind xalqining bitmas tunganmas ma'naviy, ahloqiy, diniy va falsafiy bilimlarini o'zida aks ettirgan boy bir merosni tashkil etadi. Undagi janrlar, syujetlar, obrazlar va g'oyalar

xilma-xilligi keyingi to‘rt davr adabiyotiga asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Vedalar mana shu merosning eng dastlabkisidir.

Qadimda borliq haqidagi dastlabki qarashlar turli miflar mazmunida o‘z aksini topganidek qadimgi hind jamiyatining dunyoqarashi ham vedalarda o‘z aksini topgan va bu qarashlar she‘riy misralarda bayon etilgan. Bu she‘riy misralar *gimnlar*, ya‘ni *diniy ko‘shiqlar*, *madhiyalar* bo‘lib ularning tarkibida lirikadan tortib falsafiy dialoglar, ibodat va sehr-jodu mavzusidagi, qurbonlik va tabiat go‘zalligiga bag‘ishlangan qo‘shiqlar mavjuddir. Bu qo‘shiqlar shunchaki qo‘shiqlar bo‘lmasdan ularda hind xalqining borliq, inson va tabiat haqidagi dastlabki diniy-falsafiy qarashlari aks etgan.

Vedalar ko‘p yillargacha diniy kitoblar sifatida adabiyotda o‘rganilmagan. Lekin keyinchalik boshqa yozma yodgorliklar topilmagach ularni qaytadan chuqurroq o‘rganish, ularning mazmuni bilan yaqindan tanishish natijasida vedalarni adabiy yodgorlik sifatida tan olish mumkinligi aniqlangan. Darhaqiqat, vedalar bilan birinchi bor tanishgan kitobxon turli ma‘budlarga atalgan gimnlarni o‘qib ularni diniy kitob sifatida qabul qilishi tabiiy hol. Aslida esa vedalar tarkibida din bilan bog‘liq bo‘lmagan oddiy tabiatga, tabiiy hodisalarga bag‘ishlab yozilgan qo‘shiqlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Vedalar Hindistonning shimoli-g‘arbida, ya‘ni Hind va Qobul daryolari o‘rtasida va hozirgi Panjob shtatining bir qismi bilan tutashgan hududlarda yaratilgan. Vedalar asrlar davomida yaratilgan bo‘lganligi sababli bizga yetib kelguniga qadar mazmun va shakl jihatdan ko‘p o‘zgarishlarga uchragan. Chunki vaqt o‘tishi bilan bu qo‘shiklarni keyingi davr jamoalari yangi-yangi bilimlar, qarashlar bilan to‘ldirib, boyitib borgan. Shu bois ularning mazmuni ham, ba‘zan hajmi ham o‘zgarib borgan, ba‘zilari bir necha sahifadan iborat bo‘lsa, ayrimlari to‘rt misra yoki bir sahifadan iborat. Biz vedalarni aniq bir adabiy turga kiritay olmaymiz, chunki ularning tarkibida mif ham, drama ham, epos ham shakllangan.

”Veda” so‘zi aslida sanskrit tilidan olingan so‘z bo‘lib «bilim, ilm» degan ma‘nolarni anglatadi. Veda qo‘shiqlari asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida yashab, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Yozma adabiyotga ancha keyin hind jamiyatining yuqori, ilimli tabaqalari tomonidan kiritilgan. Veda qo‘shiqlari, asosan, murojaat tarzida bayon etilgan. Chunki tabiat hodisalarining mavjudlik sababini tushunib yeta olmagan, o‘zini ularning oldida ojiz his qilgan o‘sha davr jamoalari ularga g‘ayri tabiiy, insonga bo‘ysunmaydigan, ma‘lum bir kuch-qudratga ega bo‘lgan ma‘bud sifatida qarab ularga kezi kelganda yordam va rahm-shafqat so‘rab sajda qila

boshlaganlar va bu o'z-o'zidan an'anaviy tus olib ketgan. Shu sabab har bir gimn tabiiy hodisalarni olqishlash, ularning kuch-qudratini maqtash bilan boshlangan. Lekin qo'shiqlar orasida, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, dindand, diniy g'oyalardan butunlay yiroq bo'lgan, insonning tabiatga bo'lgan munosabati, uning go'zalligini qay tarzda tasavvur etishini ifodovchi qo'shiqlar ham mavjud. Qo'shiqlar mazmunida ikki xil g'oyani - ham diniy-falsafiy, ham adabiy g'oyalarni shakllana borganini kuzatish mumkin.

Vedalar muallifi haqida ko'p yillar davomida turli fikr va mulohazalar bildirilgan. Umuman olganda, vedalar muallifi xalq deb tan olinadi. Bu xalqni esa hindlar «**oriylar**» deb ataydi. «*Oriy*» bu «*oliy irq*» degan ma'noni anglatib, ular yangi-yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida Hindistonning shimolidagi quruklik chegeralaridan kirib kelib mahalliy xalq bilan chatishishi natijasida shakllangan xalqlardir. «Oriylar»ga ko'pgina qadimiy yozma yodgorliklarda kuchli va zehni o'tkir irq sifatida ta'rif beriladi. «Oriy» so'zining leksik ma'nosi ham «*muqaddas, pok*» degan ma'noni anglatadi. Vedalarning yaratilishida ularning ahamiyati juda katta bo'lganligini ko'pchilik hind mutaxassislari tan oladilar. Vedalar asarlar davomida yaratilganligi sabab ularning muallifi bir yoki bir necha shaxs bo'lishi mumkin emas. Bu ko'shiqlar insoniyatning asrlar osha borliqni o'rganish va ma'lum bir xulosaga kelinish jarayonining natijasidir.

Vedalarning yaratilish davri masalasiga kelsak bu masala borasida ham hind mutaxassislari orasida turli tahminlar mavjud. Ayrim mutaxassislari ularning yaratilishini eramizdan avvalgi ikkinchi ming yilliklarga taqasalar, boshqalari undan ham ilgariga, to'rtinchi ming yilliklarda yaratilgan deb tahmin qiladilar. Vedalarning yaratilish davrining ikkinchi tahmini ko'proq to'g'ri hisoblanadi. Chunki ikki hind eposi «Ramayana» va «Mahabxarata»larning voqealari meloddan avvalgi ikkinchi ming yilliklarga to'g'ri keladi. Bu davrda esa vedalar allaqachon yaratilib bo'lib ularning yozma adabiyotga kirib kelish hamda ularga diniy-falsafiy talqinlar yozilish jarayoni boshlanib ketgan edi. Vedalar yaratilish davrini hind mutaxassislari «*samxitalar*» davri deb ataydilar. «Samxitalar» davri ham ikki asosiy davrga ajratiladi: .

■ *birinchi - vedalarning og'zaki yaratilish davri*

■ *ikkinchi - vedalarning yozma adabiyotga kirib kelish davri*

«Samxitalar»ning *birinchi* davri «**shruti**» (quloqqa chalingan qo'shiqlar) va «**smriti**» (yodda qolgan qo'shiqlar)lar bilan bog'liq, chunki «shruti» va «smriti»lar gimnlarning og'izdan og'izga ko'chib yurish davri hisoblanadi. *Ikkinchi*, yozma adabiyotga kirib kelish bilan bog'liq davri esa

turli avliyo va darveshlar tomonidan «samxitalar»ni chuqur o'rganilish davridir. Afsonalarga ko'ra, vedalarning o'rganilib yozma adabiyotga kirib kelishi o'n beshta afsonaviy «rishilar», ya'ni avliyolar nomi bilan bog'liqdir. Gimnlarga «veda» degan nom keyinchalik, ko'p asrlar o'tganidan keyin, ularning mazmuni olam va inson haqidagi qadimiy hind xalqining qarashlaridan iborat ekanligi aniqlanganidan keyin berilgan.

Veda «samxitalar»i tarkibiga kigan gimnlarni keyinchalik o'sha davr ziyolilari yana qayta yaqindan o'rganib ularni mazmuniga ko'ra guruxlarga ajratganlar va to'rt vedani yaratganlar. Bular:

1) Rigveda - birinchi veda. Tarkibida 1028 ta qo'shiq mavjud. «Rig» sanskritcha so'z bo'lib «ibodat» degan ma'noni anglatadi. Demak, Rigvedada ibodat haqidagi qo'shiqlar to'plangan.

2) Yajurveda - ikkinchi veda to'plami. Bu sanskrit tilidagi «yagya», ya'ni «qurbonlik» so'zidan olingan bo'lib, unda asosan qurbonlik haqidagi qo'shiqlar to'plangan. Bu ko'shiqlar kitobxonga qanday hollarda qaysi ma'budga nimani qurbonlikka keltirish mumkinligi va bu jarayonda qaysi qo'shiq ijro etilishi lozimligini o'rgatuvchi vedadir. Yajurvedada tarkibiga 2000 ga yaqin qo'shiq kiritilgan.

3) Samaveda - uchinchi veda kitobi bo'lib, unda qo'shiqlarni musiqaga solish ilmi o'rgatiladi. Samaveda qaysi qo'shiqni qaysi kuyda, qaysi marosimda va qaysi ma'budga bag'ishlab ijro etishni o'rgatuvchi ilmlar majmuasidan iborat. Uning tarkibida ham 2000 dan ortiq qo'shiq mavjud.

4) Atxarvaveda - bu to'rtinchi veda to'plami bo'lib, u yuqoridagi uch vedadan ancha keyin yaratilgan. Vedaga sehr-jodu qilish ilmini o'rgatuvchi gimnlar kiritilgan. «Atxarvaveda»ga yuqoridagi uch veda tarkibidan yaxshi yoki yomon niyatda sehr-jodu qilish maqsadida ijro etiladigan qo'shiqlar terib olib jamlangan. To'rt veda ichida faqat «Atxarvaveda» o'zining aniq muallifiga ega bo'lib uning nomi mualliflar *Atxarvana* va *Agniraslar* nomi bilan bog'lagan holda «Atxarvaveda» deb nomlangan. Uning tarkibiga jami 731 ta qo'shiq kiritilgan. Qo'shiqlar orasida turli kasalliklardan halos kilish, inson ruhiy olamiga zarar keltiruvchi yovuz kuchlarni haydash yoki chaqirish, yaxshi yoki yomon niyatda ma'budlarga murojaat qilish jarayonlarini amalga oshirish uchun ijro etiladigan qo'shiqlar to'plangan. O'z navbatida bu ishlarni amalga oshiruvchi mahsus shaxslar bo'lib odamlar ularga turli ruhiy yordam surab murojaat qilganlar.

To'rttala veda kitobi bir-biridan faqat mazmuni va qo'ygan maqsadiga ko'ra farqlanadi. Ularda ayrim qo'shiqlarning takrorlanishi veda qo'shiqlarining son jihatdan farqlanishiga olib kelgan. Jumladan, Rigvedadagi qo'shiqlarning ayrimlari Yajurvedada, va ayniqsa, Samavedada

ko'p uchraydi. Samaveda qo'shiqlarni kuyga solib ijro etishni o'rgatuvchi veda bo'lganligi sababli uning tarkibiga Rigveda va Yajurvedalardagi qo'shiqlarning ko'pi kiritilgan. Shu sabab Samavedani to'la takrorlanishdan iborat desak hato bo'lmaydi.

Vedalarning tili. Veda qadimiy sanskritda yaratilgan. Ma'lumki, sanskrit bugungi kunda o'lik til hisoblanib faqat qadimiy yodgorliklar majmuasidagina saqlanib qolgan. Sanskrit murakkab tillardan bo'lib, u o'zining murakkablik darajasiga qarab davrlarga ajratiladi. Eng murakkab sanskrit vedalar yozilgan sanskritdir. Bu davr sanskrit tilining *mumtoz* davri hisoblanib tarixda «*vedik sanskrit*» nomi bilan yuritiladi. Keyingi davr eposlar yaratilgan sanskrit bo'lib u birmuncha osonlashtirilgan sanskrit hisoblanadi va u «*epik sanskrit*» nomi bilan yuritiladi. Sanskrit tilining uchinchi davri esa eramizning birinchi ming yilligida qo'llanilgan sanskrit bo'lib, u avvalgi davr sanskritiga qaraganda ancha soddalashgan, mahalliy tillar bilan qisman chatishgan sanskritdir. Unda qadimiy hind ertak, masal, pricha, dramalar va she'riyatga oid nazariy kitoblar yaratilgan. Bu davrda sanskrit tili yozma adabiyotdan sekin-asta chetlasha borib mahalliy tillarga o'rin bera boshlab sekin asta o'lik tilga aylana boshlagan davr.

Vedalarda ma'budlar tizimi. Hind jamiyatida har bir davrning o'z ma'budlar tizimi mavjuddir. Vedalar davri ma'budlari ko'p asrlargacha hind jamiyatida insonlarning sajdagoxi bo'lib kelgan. Ya'ni har bir tabiiy voqea va hodisa ma'bud deb tan olingani sabab unga sig'inilgan. Jumladan, *Agni - olov, Vayu - shamol va havo, Surya - quyosh, Ushas - tong, Soma - ichimliklar, Rudra - o'rmon va tog'lar, Indra - osmon va momaqaldiraq* ma'budlari deb tan olingan. Indra esa *ma'budlar ma'budi* hisoblangan. Vaqt o'tishi bilan hind xalqi sig'inib kelgan ma'budlar tizimi jamiyat oldida o'z mavqeini yo'qota borgan va ular o'rnining o'rnini davr talabiga mos yangi g'oyalar bilan sug'orilgan ma'budlar eagllay boshlagan. Manba'larda aytilishicha, hindular dinida jami 3333 ta ma'bud mavjud ekan. Shu bois hind jamiyati tarixida ma'budlarning ham o'z hukmronlik davri, mazmun va mohiyati, vazifasi, jamiyatda tutgan o'rni va hududi mavjuddir.

Vedalar falsafasi. Vedalar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosan diniy mazmundagi qo'shiqlardan iborat bo'lib, ular olamni o'rganish jarayonida yaratilgan. Demak, o'z-o'zidan ravshanki, ularda qadimiy hind jamiyatining olam va borliq haqidagi dastlabki diniy - falsafiy qarashlari o'z aksini topgan. Qadimgi hind donishmandlarining borliq va insoniyatning paydo bo'lishi, uning rivojlanish asoslari, jamiyatning shakllanishi, undagi ijtimoiy tengsizliklarning sababi kabi muammolarga javob birinchi bo'lib Rigveda qo'shiqlarida uchraydi. Veda qo'shiqlari tarkibida nafaqat borliq va

insoniyat haqida balki u dunyo, inson vafotidan keyingi ruhiy olamdagi hayot bilan bog'liq turli tahminlar, falsafiy mushohadalar aks etgan. Hind diniy falsafiy qarashlariga ko'ra insonning bu dunyodagi hayoti ruh taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi bo'lib unda inson yaxshi yoki yomon qilmishlari asosida ruhini yoki gunohga botiradi, yoki gunohdan forig' qiladi, buning natijasida uning ruhi jannat yoki do'zaxga tushadi. Bu ta'limotlarning ildizi esa o'sha veda qo'shiqlari mazmuniga borib taqaladi.

Hinduizm diniy-falsafiy qarashlarida **qayta tug'ilish (punarjanam¹)** falsafasi mavjud. Unga ko'ra inson bir necha million bor qayta tug'iladi va bu jarayon inson to poklanib tangriga, absolyut ruhga qo'shilib ketmagunicha davom etaveradi deb tushuntiriladi. Qayta tug'ilishdan tezroq ozod bo'lishning yagona yo'li faqat yaxshi va to'g'ri amoldir. Yaxshi amol qayta tug'ilish sonini kamaytirib boradi va ruhning absolyut ruhga qo'shilib ketishini tezlashtiradi. Hind jamiyatida qayta tug'ilish falsafasi bugungi kungacha ham hindlarning diniy dunyoqarashida kun tartibidan tushmagan ta'limotlardan bo'lib, inson bo'lib tug'ilish ruh uchun jazo hisoblanadi. Jumladan, «Mahabxarata» eposida shoh Shantanuning ayoli Satyavati o'zining yetita zurriyotini tug'ilishi bilan Gang daryosiga oqizib yuboradi. Buning sababi so'ralganida - ular inson bo'lib tug'ilish badduosiga uchragan, lekin duo muddati kamaytirilgani bois yerda inson bo'lib yashash jazosidan ozod qilingan, shu bois men ularni chaqaloqligidayoq yashashdan mahrum etayapman, lekin sakkizinchi zurriyotim ozod bo'la olmaydi, u inson bo'lib yashab gunohini o'tashga majbur - deydi. Bu zurriyot esa «Mahabxarata»dagi panduzodalar amakisi Bxisham edi. Hind xalqi orasida hatto «qayta tug'ilish zanjirida yashagin» degan badduo ham mavjud.

Dunyoni o'rganishda hindlar tabiat ne'matlaridan ham keng foydalanganlar. Ular tushunchasiga ko'ra olam va jamiki mavjudot to'rt unsurдан tashkil topgan, bular - tuproq, havo, suv va efir. Shu sabab hind falsafasida nilufar guli eng muqaddas gul hisoblanadi. Chunki aynan mana shu gul o'sib unish jarayonida yuqoridagi to'rt unsur bilan hamisha chambarchas bog'lik ravishda unadi va yashaydi, ya'ni uning ildizi tuprokda, tanasi suvda va guli esa havoda ochiladi. Hattoki ko'pxudolik hukm surgan hind jamiyatidagi ilm xudosi Sarasvati ma'budasi ham hamisha nilufar guli ustida turgan holda tasvirlanadi. Qushlar orasida tovuş, uy hayvonlaridan sigir, yovvoyi hayvonlardan fil, maymun, sher va yulbars

¹ **Punarjanam- қайта туғилиш** - Қадимий диний манбаъларда ёзилишича, инсон жами 8400000 марта қайта туғилиши мумкин экан, инсон ўз дунёвий бурчларини бажармай рухий тараққиётга интилмаган тақдирда унинг руҳи турли жонзотлар танасида 8400000 марта яшаганидан кейин хоҳоласа хоҳламаса покланиб абсолют руҳга қўшилиб кетар экан. Бундан қайта туғилишнинг ҳам маълум бир чагараси мавжуд экан деган хулоса келиб чиқади.

muqaddas hayvon sanaladi. Sarasvati ma'budasi tasvirlarda sher yoki yulbars mingan holda ham tasvirlanadi.

Vedalardan keyingi davrda hind jamiyati dunyokarashida olam, tabiat va insonga nisbatan falsafiy qarashlar o'zgardi. Endilikda jamiyatda ko'proq inson va jamiyat muammolari bilan bog'liq ilmga muhtojlik kuchayib bordi va bunday qarashlar vedadan keyingi bosqichda yaratilgan adabiy yodgorliklar tarkibida, ya'ni eposlar mazmunida o'z aksini topdi. Jamiyatdagi bu yangi diniy-falsafiy qarashlar natijasida ma'budlarning soni ham, o'rni ham butunlay o'zgardi. Vedalardan keyin hind jamiyatiga yangi ma'budlar uchligi Braxma-Vishnu-Shiva kirib keldi. Bu uchlik jamiyatda hukmron ma'bud darajasini egallab veda ma'budlarini sekin-asta ikkinchi darajali ma'budlar darajasiga tushirdi.

Vedalarning ahamiyati. Hindistonda vedalarning bugungi kundagi ahamiyati masalasiga kelsak, bu borada shuni aytish mumkinki, vedalar Hindistonda barcha ilmlar asosi hisoblanadi. Darhaqiqat ularning mazmunida bugungi kun ilmlarining asosi shakllangan. Ayniksa, hind adabiyotining she'riyat, ya'ni nazm hamda dramaturgiyasining asosi vedalar tarkibida shakllangan. Nafaqat adabiyotda, balki tabiiy fanlar sohasidagi dastlabki qarashlar ham vedalarda o'z aksini topgan. Bugungi kunda ilmiy tadqiqot olib borayotgan har bir soha mutaxassisi o'z mavzusini, dastavval, vedalarda biron bir so'z yuritilganmi yoki yo'qmi degan muammoni hal qilish bilan boshlaydi. Demak, vedalar hanuzgacha hind jamiyati uchun olam, tabiat va inson haqidagi dastlabki ilm manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. U sanskrit tilini o'rganishda ham eng yaxshi manba sanaladi.

Veda mazmunini bugungi kunda yana turli xilda talqin qilish ham faylasuflarning sevimli mashg'ulotlari hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda veda, darhaqiqat, o'z mazmuniga ko'ra ilmdir. U ilm, ziyo, nur sifatida hind jamiyatiga sal kam qirq asrdan beri xizmat qilib kelmoqda.

2.2 «Vedanta»

«Vedant»

Vedanta hind adabiyotining vedalardan keyingi davr yodgorligi bo'lib uning mazmuni, asosan, vedalarga izoh berish bilan bog'liq. Asarning nomi ham «veda» va «ant» («oxiri, yakuni») so'zlaridan tashkil topgan bo'lib asar «vedalar yakuni» deb tarjima qilinadi. Ularning yaratilishi vedalarni asrlar davomida mazmun jihatidan o'rganib ularga falsafiy talqin berish jarayoni bilan bog'liq. Bu davrda hind jamiyati uchun vedalardan boshqa bironta ilm manba'i bo'lmaganligi sabab jamiyat har bir savolga vedalar mazmunidan javob izlagan. Hind ziyolilari vedalarni birma-bir o'rganib, tahlil qilib ularning mazmuniga falsafiy izoh berib borganlar. Bu izohlar, o'z

navbatida, o'sha davr hind jamiyatining ongini o'stirishda katta ahamiyat kasb ettgan.

Vedalarga izohlar uch yo'nalishda olib borilgan, shu sabab uch kitobdan iborat izohlar to'plami bunyodga kelgan. Ular - *Brahmanlar*, *Aranyaklar* va *Upanishadlar* deb nomlangan. Bu izohlardan keyin vedalar yana qayta chuqur o'rganilmagan va jamiyatda yangi qarashlar shakllana boshlagan. Shundan so'ng bu uch to'plamni vedalarga oxirgi talqinlar sifatida tan olib, ularga «Vedanta» - «vedalarning yakuni» deb nom berilgan.

“Vedanta”ning yaratilish davri uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Yozma adabiyotga meloddan avvalgi UIII-UI asrlarda kirib kelgan. “Vedanta” tarkibiga kirgan uch to'plamning mazmuni quyidagicha:

- *Brahmanlar* - inson hayotini davrlarga bo'lish bilan bog'liq falsafiy qarashlar to'plami.

- *Aranyaklar* – “O'rmon hayoti” deb nomlanuvchi bu kitobda insonning o'rmondagi darveshlik hayoti tavsiflanadi.

- *Upanishadlar* – “Foydali nasihatlar” - vedalarga sof falsafiy talqinlar to'plami.

1) Brahmanlar (Brahman). Hind jamiyati inson hayotini chuqur o'rganib uni to'rt davrga bo'linishini ilmiy asoslab bergan va shu xaqdagi ma'lumotlar «Brahmanlar» nomli asarda o'z aksini topgan. «Brahmanlar»ning yaratilish davri eramizdan oldingi UII-U1 asrlarga to'g'ri keladi deb tahmin kilinadi. Inson hayotining bu to'rt davri quyidagilardan iboratdir:

1) yoshlik, ya'ni o'quvchilik davri

2) grixastxa, ya'ni oilaviy hayot davri

3) darveshlikka o'tish davri

4) to'liq darveshlik davri

Har bir inson o'z hayoti davomida bu to'rt davrni bosib o'tadi. Bu davrlarga hind faylasuflari quyidagicha ta'rif berganlar:

- **Yoshlik (o'quvchilik davri)**, ya'ni o'quvchilik davrida inson dunyoga kelib unda yashashga o'rganadi, uni anglash jarayonini boshidan kechiradi. Bunda u inson nima uchun paydo bo'lgani, uning yer yuzidagi vazifa va burchlari nimalardan iborat, kelajakda nima ishlar qilishi mumkin degan turli hayotiy majburiyatlarni anglab yetib sekin - asta yangi hayotga, o'zining navbatdagi burchini bajarish uchun ikkinchi grixastxa, ya'ni oilaviy hayot davriga o'tadi.

- **Grixastxa (oilaviy hayot).** Bu davr ham inson hayotida butunlay yangi davr bo'lib, unda inson jamiyat va tabiat oldidagi o'z burchini -

insoniyatni ko'paytirish va uni tarbiyalash, uni ilm va biron-bir kasb egasi bo'lishida yordam berish kabi vazifalarni o'taydi. Bu davrning ham o'ziga yarasha bilim, majburiyat va javobgarliklari mavjud.

- **Darveshlikka o'tish davri.** Yuqoridagi ikki vazifani bajargan har bir inson hayotning achchiq-chuchugini, baland-pastini to'liq tushunib yetib, unda borliq va inson haqida ma'lum bir dunyoqarash shakllanadi va o'zining o'tgan umri davomida qilgan hato va kamchiliklarini sarhisobini qilib, hayotining qolgan davri haqida fikr mulohaza qiladi va sekin-asta darveshlik davriga, ya'ni barcha qilgan gunohlari uchun tavba-tazarruk qilish maqsadida jamiyatdan uzoqlashadi. Endi u o'zini Yaratganga bag'ishlab, undan kechirim so'rash maqsadida ibodat qilib o'zini narigi dunyodagi keyingi hayotiga tayyorgarlik ko'rishi lozimligini tushunib yetadi.

- **Darveshlik (tarkidunyochilik) davri.** Hind diniy-falsafiy qarashlariga ko'ra odatda darveshlik davri, ya'ni o'zini Yaratganga bag'ishlab tavba-tazarruk va ibodat qilish davri odatda uchun jamiyatdan uzoqda, yashash uchun qulay bo'lgan o'rmonlarda o'tkaziladi. O'rmon insonning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan ko'pgina qulayliklarga ega bo'lib u yerda yemish topish, yotib turish uchun qulayliklar mavjud, daraxtlar turli mavsumlarda boshpana, o't - o'lanlar esa o'rin-ko'rpa vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham «Vedanta»ning uchinchi kitobi «Aranyaklar», ya'ni "O'rmon hayoti" deb nomlangan. «» «» «»

2) **«Aranyaklar» («Aranyak»)** eramizdan avvalgi UII-U1 asrlarda yaratilgan deb tahmin qilinadi. Unda inson hayotining to'rtinchi, ya'ni darveshlik davri haqida so'z boradi. Chunki darveshlikning ham o'z qonun-qoidalari bo'lib, inson uni o'rmonda o'tashi lozim. «Aranyaklar»lar mazmunida darveshlik davri bilan bog'lik barcha jarayonlar - o'rmonda qanday hayot kechirish, ibodat va tavba - tazarruk jarayonini qanday o'tash, ibodatida qaysi ma'budlarga qay tarzda murojaat qilish kabi bir qancha tafsilotlar batafsil yoritib berilgan. Shu bois hind jamiyatida o'rmon alohida ahamiyat kasb etadi.

3) **«Upanishadlar» («Upanishad»)** vedalarga sof falsafiy talqinlar to'plami bo'lib, ular da ko'proq olam va uning yaralish sababi, inson va uning yerdagi hayoti, bu dunyodagi uning vazifalari, ruh, barcha tirik jonotlar haqidagi ma'lumotlar vedalar asosida tafsil etiladi. «Upanishad» so'zi sanskrit tilida «foydali nasihatlar» degan ma'noni anglatadi.

«Upanishadlar»ning tuzilishi suhbat tarzida, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi suhbat tarzida bayon etilgan. Bunda o'quvchi o'qituvchiga savol beradi, o'qituvchi esa javob beradi. Savollar albatta falsafiy mazmundagi,

dunyoviy muammolar bilan bog‘liq savollar bo‘lib olam nima, insoniyat va uning ruhi nima kabi falsafiy muammolarni ochib beruvchi savollar bo‘lib ustozning bu savollarga javobi vedalar ilmi asosida tayyorlangan. Aytilishicha, veda ilmini chuqur o‘rganish Yaratganga yaqinlashish yo‘llaridan biri hisoblanganligi bois uni har bir inson bilishi shart hisoblangan. Hind diniy falsafay qarashlarida Yaratganga yetishishning, asosan, to‘rt yo‘li mavjud bo‘lsa ulardan biri ilm yo‘li sifatida vedalarni bilish hisoblangan. Hind falsafasida bu yo‘l «*gyan marg*»- «*ilm yo‘li*» deb nomlanadi.

Manba’larda «Upanishadlar» 108 ta turli hajmdagi to‘plamlar bo‘lib ular turli vedalarga izohlar sifatida jami 5 ta yirik to‘plamga birlashtirilgan, ular quyidagilar:

- 1) *Rigveda buyicha 10 ta upanishad*
- 2) *Shukla - yajurveda buyicha 19 ta upanishad*
- 3) *Krishna- yajurveda buyicha 32 upanishad*
- 4) *Samaveda buyicha 16 ta upanishad*
- 5) *Atxarvaveda buyicha 31 upanishad*

Bulardan tashqari *Narayana*, *Nrisinx*, *Ramtapani* va *Gopal* nomli yana to‘rtta Upanishad mavjud. Lekin ular orasida mazmun jihatdan 13 ta Upanishad eng qadimiy va muhim Upanishadlar hisoblanadi. *Jagdaru Shankaracharya* 10 ta Upanishadga izoh yozgan. Ularning nomi: *Isha*, *Aytareya*, *Katxa*, *Kena*, *Chxandogya*, *Prashana*, *Tettiriy*, *Brixadaranyak*, *Mandukya* va *Mundaklardi*. Bu Upanishadlardan eng qadimiysi 8 ta, 3 tasi nazmda, 5tasi nasrda.

«*Aytareya brahmana*» 8 qismdan iborat bo‘lib unda asosan turli rasm-rusumlar haqida yozilgan.

«*Kenada*» Braxma va borliq haqida ma’lumotlar, Yaratganning buyukligi va unga erishganlar haqida so‘z yuritiladi. Faqatgina ma’bud Indra va Uma ma’budasi o‘z aqli yordamida unga erishgani ham bayon etiladi.

«*Teyttiriy*»da qurbonlik hamda o‘lim marosimlari bilan bog‘lik ma’lumotlar mavjud.

«*Katxa*»da esa asosiy ikki yo‘l - bilish va bilimsizlik yo‘llari haqida so‘z boradi. Yoga haqida ham ma’lumot uchratish mumkin.

«*Isha*»da mifologiya bilan bog‘lik ma’lumotlar, bilishning asosiy yo‘llari haqida ilmlar mavjud.

«*Prashana*»da hayotning, barcha jonzotlarning paydo bo‘lish tarixi, ulardan keyin tabiat, inson uchun zarur bo‘lgan oy, kun va yillarning paydo bo‘lishi haqidagi falsafiy qarashlar to‘plangan.

“*Mandukya*”ga Om tushunchasining tahlili kiritilgan.

“*Mundak*”da kim kimga ilm bera olish xuquqiga ega ekanligi haqida ma’lumotlar mavjud.

Upanishadlar hind falsafasidagi Atma va Braxma, ya’ni Ruh va Yaratuvchi o’rtasidagi munosabatlarni ta’riflab, borliq va insoniyatning mavjudlik sababi, ularning bu dunyodagi vazifa hamda burchlari haqida ma’lumot beradi. Upanishadlar mazmun jihatidan sof diniy-falsafiy bo’lishiga qaramasdan o’z davri haqida adabiy va ijtimoiy- siyosiy ma’lumot beruvchi asar sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Upanishadlarning yaratilish davri meloddan avvalgi UIII-U1 asrlar deb tahmin qilinadi. Asar sanskrit tilida bo’lib, keyinchalik barcha hind tillariga tarjima kilingan. U chet tillardan ingliz, fransuz, rus va nemis tillariga o’girilgan.

Upanishadlar ilmi Hindistonda ko’pincha maktab darsliklariga ham kiritiladi. Uning o’qituvchi va o’quvchining suhbat tarzida yaratilganligi maktab o’quvchilari uchun qulay va tushunarli hisoblanadi. Ayniqsa Upanishadlarning hozirgi hindi tilida juda soddalashtirilgan nushalari bolalar kitobi ko’rinishida Hindistonda juda keng tarqalgan.

2.3 «Hind eposlari»

«Mahakavya»

Veda davridan keyin hind jamiyati tarixining ikkinchi muhim davri *epik davr* boshlandi. Bu davr veda mafkurasi va ma’budlarining boshqa mafkura va ma’budlar bilan almashinish davri hisoblanadi. Bu jarayonning shakllanishiga hind jamiyatida yuz bergan tub o’zgarishlar sabab bo’ldi. Epik davr shaxsining ongi ancha taraqqiy etgan, dunyokarashi o’zgargan, mamlakatda avvalgidan ko’ra rivojlanganroq bir jamiyat, aniq siyosiy tizimga ega bo’lgan davlat va ijtimoiy munosabatlar shakllangan bir davr bo’ldi. Epik davrning olam, tabiat va inson haqidagi falsafiy bilimlari o’zgardi, u shu davr jamiyati ongiga mos ilmlar, diniy-falsafiy qarashlar bilan boyidi, Vedalardagi diniy-falsafiy qarashlar ko’proq tarqoq holdagi bilimlar majmuasidan iborat bo’lsa, eposlar mana shu qarashlarning davomi sifatida bir asar mazmunida tizimga solingan holda aniq voqealar asosida yaratildi. Shu bois epik davr insonning olamni o’rganish borasidagi yutuqlari aniqlik va ravshanlik bilan sug’orilgan. Bu jamiyatga qarashlar brahmanizm, vishnuizm va shivaizm oqimlari sifatida kirib keldi va, ayniqsa, vishnuizm «Ramayana» va «Mahabxarata» voqealari orqali hind jamiyatdan mustahkam o’rin egalladi. Eposlar mazmuni afsonaviy bo’lsa-da, vedalardan keyin Hindiston tarixiga oid muhim manba’ hisoblanadi.

Ular shunisi bilan qimmatlidirki, ularda shohdan tortib har bir fuqaroning burch va vazifalari aniq belgilab berilgan. «»

Eposlarning yaratilish davri va ularning yozma adabiyotga kirib kelish masalasiga hind mutaxassislari turli tahminlar bildiradilar. Ayrim tahminlarga ko'ra «Ramayana»ning qisqa mazmuni «Mahabxarata» eposining uchinchi kitobi bo'lmish «*Aranyakaparva*»da yozib qoldirilgan deyilsa, boshqa tahminlarga ko'ra «Mahabxarata» personajlari ko'pincha «Ramayana» personajlari Ram va Sitalar nomini tilga olib ularning o'gitlariga amal qilgan holda yashaganlilari haqida epizodlar mavjud. Bu mulohazalar «Ramayana» voqealari avvalroq bo'lib o'tganiga ishora qiladi. Lekin hind mutaxassislari ikki eposni til jihatdan qiyoslaganlarida «Ramayana» voqealarining avval bo'lib o'tganligini aniqlangan.

Ikkala eposda ham juda katta personajlar tizimi mavjud. Ikki eposda ham obrazlar (qaysi obraz bo'lishidan qat'iy nazar) ideal obraz darajasiga yetkazilgan. Eposlar diniy-falsafiy qarashlarga, milliy urf-odatlar va an'analarga, ijtimoiy-siyosiy voqealarga, ma'naviyat va ma'rifatning turli qonun-qoidalariga shunchalik boyki, ma'anaviyat va siyosatga oid bu qonun-qoidalar har bir inson rioya qilishi, unga bo'ysunishi lozimligi voqelikka asoslangan turli misollar orqali aniq ifodalab berilgan. O'z mazmun va mohiyatiga ko'ra ikkala epos ham hind ma'naviyatining bitmas tuganmas manbai sifatida hanuzgacha **xizmat** qilib kelmoqda. Hindiston Bosh Vaziri Javaxarlal Neru o'z vaqtida «Mahabxarata» va «Ramayana» eposlariga baho berib: «*Men hali tarixda insoniyat ongiga bunchalik uzoq vaqt o'z ta'sirini o'tkazib kelgan hech bir asarni bilmayman*» - degan edi.

Eposlarning hind jamiyatida bunday katta ahamiyat kasb etishiga yana bir sabab ikkala epos ham hinduizmning muqaddas kitobi sanaladi. Jumladan, har yili oktabr oyida *Dashaxri* diniy bayramida «Ramayana» eposi Ram ibodatxonalarida 12 kun davomida beto'xtov o'qib tushiriladi va 13-kuni yovuzlik timosli Ravan yengilganini, ezgulikning g'alabasi sifatida butun Hindiston bo'ylab Ravanning katta qo'g'irchog'ini yoqish bilan bayram qilinadi. «Mahabxarata» bilan bog'liq diniy bayramlar ham juda ko'p, jumladan, «*Krishna janam ashtami*» (Krishna tug'ilgan kuni) yoki «Mahabxarata» voqealari bo'lib o'tgan *Brajbxumi* hududida har yili Krishnaga atalgan bir oy davom etadigan Xoli xalq bayrami fevral - mart oylarida nishonlanadi.

«Ramayana» eposi

«Ramayan»

«Ramayana» hind xalqining sevimli eposlaridan biri bo'lib, u afsonalarga ko'ra Hindistonning shimoli-sharqida joylashgan *Ayodxya*

shohligida meloddan avvalgi ikkinchi ming yilliklarda bo'lib o'tgan voqealarni o'zida aks ettirgan. Yozma adabiyotga esa u eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarda kirib kelgan.

«Ramayana» qadimgi sanskrit tilida nazmda yaratilgan. Eposning nomi ikki so'zdan tashkil topgan, sanskrit tilida «*Ram*» shohning ismi, «*ana*» «keldi» degan ma'nolarni anglatib, asar «*Ram keldi*» deb tarjima qilinadi. Ram asarda ikki vazifani: *birinchidan*, Ayodxyaning odil shohi vazifasini, *ikkinchidan*, insoniyatni yovuzlikdan ozod etish uchun kelgan Vishnu ma'buning yerdagi beshinchi tasssumi ma'bud Ram vazifalarini bajaradi.

Epos ko'p asrlar davomida xalq og'zaki ijodida yashab kelgan, keyinchalik afsonaviy avliyo Valmiki tomonidan so'zlab berilishi natijasida yozma adabiyotga kirib kelgan. Shu bois Valmiki shartli ravishda eposning muallifi deb qabul qilingan.

«Ramayana» yetti kitobdan iborat. Aytilishicha, eposning asosiy mazmuni ikkinchi - oltinchi kitoblar mazmunida bayon etilgan. Birinchi va yettinchi kitoblar keyinchalik qo'shilgan bo'lib, ular kirish va hulosa qismlardan iborat. Epos hind adabiyotidagi an'anaviy ramkalash usulida, ya'ni syujet ichida syujet uslubida yaratilgan. Ramayana afsonaviy va fantastik asarlar sirasiga kiradi, chunki undagi voqealar g'ayri tabiiy, inson ongiga sig'maydigan, fantastik voqealar bilan to'la. Voqealarda ertakka xos bo'lgan elementlar, ya'ni turli ma'bud va hayvonlar (maymunlar, ayiq, turli qushlar va boshqalar)ning inson bilan muloqotga kirishishi, inson bilan birga yovuzlikka qarshi kurashishi asar voqealarining asosiy qismini tashkil etadi. Hind adabiyotshunosligida ertak janri Ramayana eposidan boshlangan deb hisoblanadi.

«Ramayana»ning voqealari bo'lib o'tgan Ayodxya shahri bugungi kunda ham mavjud bo'lib, u hanuzgacha hindularning muqaddas ziyoratgohi hisoblanadi.

Ramayana eposining qisqacha mazmuni “Ramayana” eposi yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash hamda yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini aks ettirgan yirik eposdir. Voqealar tasviri davomida ikki qarama qarshi g'oya tarafdorlarining ayanchli kurashlari ortida hind xalqining azaliy orzu-umidlari, odil shoh haqidagi tasavvurlari, hind ayollarining yorqin timsoli, ahloq-odob va ma'naviyat masalalari, milliy va diniy urf-odatlar to'la-to'kis aks ettirilgan.

Eposning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Ayodxya shohi Dasharatxa ko'p yillargacha zurriyotsiz qolib taxt vorisligi haqida qayg'ura boshlaydi. U farzand ko'rish niyatida azizu

avliyolar maslahatiga ko'ra katta qurbonlik marosimini o'tkazadi. Natijada u o'zining uch ayolidan bir vaqtning o'zida to'rt o'g'il farzand ko'radi. Birinchi ayoli Koshalyadan Ram, ikkinchi ayoli Kekeyadan Bxarata va uchinchi ayoli Sumitradan Lakshman va Shatrugxanlar dunyoga keladi. Barcha o'g'illari ahil va inoqlikda katta bo'ladilar. Dasharatxa ularga siyosat va harbiy ilmlarni, shu bilan bir qatorda shahzoda bo'lish uchun zarur bo'lgan barcha ilmlarni mukammal o'rgatadi. Eng katta o'g'li Ram o'g'illari orasida har tomonlama yetuk bo'lib yetishadi. U husn, zehn, tezkorlik, odillik va xalqparvarlikda ukalaridan ancha o'tkir bo'lgani sabab shohning ham, xalqning ham unga mehri va hurmati o'zgacha edi. Shu bois Dasharatxa Ramni bosh farzand hamda yetuk shahzoda sifatidla o'zidan keyingi taxt vorisi deb e'lon qiladi.

Dasharatxaning ikkinchi ayoli Kekeyaning yovuz fe'lli bir oq sochi bor edi. U Kekeyaning o'g'li Bxaratani enagasi edi. Shu ayol Kekeyaning ongini zaharlab, agar Ram kelajakda shoh bo'lsa undan keyin taxtga uning o'g'illari o'tirishi, uning o'g'li Bxarata esa borib-borib taxtdan butunlay mahrum bo'lishini uqtira boshlaydi. Bundan cho'chigan malika Kekeya o'g'lining kelajagidan havotirlanib qanday qilib bo'lsa ham taxt vorisi qilib o'zini o'g'lini o'tkazish yo'lini izlay boshlaydi. Bu yo'lda unga adbatta o'sha yovuz enaga yo'l ko'rsatadi. Bir vaqtlar shoh Dasharatxa Kekeyadan juda xursand bo'lgan vaktida unga ikki shartini bajarishga va'da bergan bo'ladi. Shu va'dani enaga Kekeyaga eslatadi va bundan foydalanish vaqti kelganini aytib ikki shart evaziga Ramni o'n to'rt yilga o'rmonga surgun qilish, taxt vorisi qilib esa Bxaratani e'lon qilishni talab qilish lozimligini uqtiradi. Hind jamiyatida esa shohning o'z va'dasidan qaytishi uning el-yurt oldida obro'sizlanishiga, elning unga nisbatan ishonchi yo'qolishiga olib kelishi aniq edi. Shu sabab bu gapni eshitgan Dasharatxa boshi berk ko'chaga kirib qoladi. O'z va'dasini qanday bajarishni bilolmagan shoh kundan kun uyga tolib, bir qarorga kela olmay so'nib boradi. Buni ko'rgan Ram otasidan uning g'amginlik sababini so'raydi. Bu savolga otasidan javob ololmagach Ram boshqalardan so'rab surishtirib haqiqatni bilib oladi. U otasining yoniga borib Kekeyaga bergan va'dasiga vafo qilishini va hech ikkilanmay Bxaratani taxt vorisi deb e'lon qilishini so'raydi. Dasharatxa bunga ko'nmaydi. Ram esa shoh so'zida turmasligi saltanatga putur yetkazishi, xalq oldida «yolg'onchi shoh» degan dashnom olishi surgundan ko'ra og'irroq ekanligini otasiga uqtirishga harakat qiladi, lekin bu qaror nohak qaror ekanligini anglagan shoh Ramning gapiga ko'nmaydi. Ram uchun esa o'zidan ko'ra otasi va saltanatning xalq oldida obro'si qimmatliroq bo'lganligi sababli o'z xohishiga ko'ra otasining va'dasini

amalga oshirish uchun o'rmonga ketadi. U bilan birga uning ayoli Sita va ukasi Lakshmanlar ham birga ketadilar. Bxarata esa taxt vorisi deb e'lon qilinadi. Ramga cheksiz mehrli bo'lgan shoh bu ayriliq va nohaklikka chiday olmagan shoh vijdon azobida qiynalib, kasal bo'lib olamdan ko'z yumadi. Bu paytda Bxarata onasining yurti Kashmirda dam olib yurgan edi. Ayodxyaga qaytganida xalq uni nafrat bilan qarshi oladi. Saroyda ham barchani motam kayfiyatida ko'rib Bxarata hech narsani tushunmaydi. Lekin haqiqatni bilgach onasidan qattiq ranjiydi, u bilan aytishib qoladi. O'z o'g'lini el-yurt oldida sharmisor qilgan onadan Bxarata yuz o'giradi va akasi Ramni olib kelish uchun uni qidirib o'rmonga yo'l oladi. Lekin Bxarata Ramni topib uni taxtga qaytishini iltijo qilib so'raganida Ram shoh amri farmon, uni faqat bajarish lozim deb 14 yilgacha Bxarataning taxtda hukmronlik qilishini buyuradi. Bxarata ham akasi kelmagach shoh bo'lishdan bosh tortib akasining oyoq kiyimini taxtga qo'yib, boshqarishni vazirlarga topshirib o'zi boshqa o'rmonga ketadi. Bu davr mobaynida o'rmonda turli voqealar bo'lib o'tadi. Ram yovuz kuch Ravanni yengadi. Lanka yurtidagi xalqni yovuz shoh Ravan azobidan qutaradi. 14 yil o'tgach Ram yana Ayodxyaga qaytib kelib o'z taxtida odil shoh sifatida taxtni boshqara boshlaydi

Asarda g'oya va personaj. Eposning asosiy goyasi yovuzlik va yaxshilik o'rtasidagi kurash va bu jarayonda Yaratgan Ram qiyofasidagi tajassumining yaxshilik himoyasi uchun kelganidir. Eposning asosiy maqsadi haqiqat va yaxshilik Yaratgan tomonidan qo'llanishi, yovuzlik g'alabasi vaqtincha ekanligini ko'rsatishdan iborat. Asarda bu Ram obrazida o'z ifodasini topgan.

«Ramayana» eposi orqali hind jamiyatiga buyuk Ram ma'budi kirib kelgan. U epik davr ma'budi, endi hind xalqi veda davri ma'budlari Agni, Indra, Surya yoki Rudra kabi ma'budlarga emas Ramga sig'inadilar, ya'ni Yaratuvchi endi ular uchun Ram qiyofasida kelgan.

Asar qadimiy hind xalqining diniy-falsafiy qarashlari bilan to'lib toshgan. Shu bois «Ramayana» hinduizmning muqaddas kitobi sifatida tan olinadi.

«Ramayana» hind adabiyotining an'anaviy ramkalash usulida, ya'ni syujet ichida syujet usulida yaratilgan. Asar ichida asarga bog'lik bo'lmagan bir qancha turli hikoya va voqealar tasvirini kuzatish mumkin. Shuning uchun «Ramayana» ko'p syujetli va ko'ppersonajli asarlar qatoriga kiradi. «Mahabxarata»ga nisbatan «Ramayana» bir muncha mustaqil adabiy asar ko'rinishiga ega.

Eposdagi obrazlar tizimi asar bosh g'oyasiga bo'ysungan holda yaxshilik himoyachilari va yovuzlik vakillari tizimidan iborat. Haqiqat va yaxshilik tantanasi uchun kurashuvchi obrazlardan Ram boshchiligida uning onasi Koshalya, rafikasi Sita va uning otasi, Ramning ukalari Lakshman va Bxarata, o'rmonda ularga haqiqat himoyasi uchun kurashda katta yordam bergan maymunlar shohi Xanuman va boshqa bir qancha kichik-kichik personajlar guruhini sanab o'tish mumkin.

Yovuzlik timsolidagi obrazlarga Lanka yurtining yovuz shohi Ravan, shoh Dasharatxaning ikkinchi ayoli Kekeya, uning enagasi, o'rmondagi Xanumanga qarshi chiqqan maymunlar guruhi, Ravan salatanatidagi uning tarafdorlari va boshqalar kiradi.

Ram (Ram) Ayodxya shohi haqiqat va yaxshilik timosli. Hindiston tarixida eng odil va xalqparvar shoh sifatida nom qoldirgan. Darhaqiqat, asar voqealari rivojida Ram eng ideal obrazdir, uning farzand, umr yo'ldosh, aka yoki shoh sifatida aytgan har bir so'zi, bosgan har bir qadami risoladagidek yaratilgan. Hind jamiyatida har bir odil shoh yoki aqlli farzand, namunali umr yo'ldosh va mehribon aka doim Ram obraziga qiyoslanishi an'anaga aylanib ketgan. Hindistonda hatto ayrim partiyalar Ramning so'zlarini o'z partiyalarining shiori qilib olgan, hind jamiyatida esa «Ram rajak din», ya'ni «Ram hukmronlik qilgan davr» degan frazeologik qotishma ham bor.

Sita (Sita) Ramning umr yo'ldoshi, hind jamiyati tarixida ideal ayol bu Sitadir. Uning go'zal husnidan tashqari ahloq odobi, muomala madaniyati, o'z oilasi va umr yo'ldoshiga bo'lgan sadoqati kabi ichki go'zalliklari har qanday ayolga namuna bo'ladigan darajada kuchlidir. Eposda "Sitaning pok-domonligiga hatto ma'budlar ham ta'zim qiladi" deb berilgan ta'rif u haqda to'liq tasavvur xosil qilishga yordam Sitaning husni va ahloqiga hatto yovuz Ravan ham bir ko'rishda oshiq bo'lib qoladi va uni o'rmondan o'g'irlab ketadi. Lekin Sita har qanday sharoitda ham o'z umr yo'ldoshi Ramga sodiq qoladi. Ram va Sita juftligi Hindistoda namunali oila juftligi sifatida tan olinadi.

Koshalya (Koshalya) Ramning onasi. Ayodxya shohi Dasharatxaning birinchi malikasi. Aql va odobda tengi yuq ayol. Unga, farzandlariga qilingan har qanday fitna va nohaqliklardan keyin ham o'zini vazmin va oqilona tuta oladigan, vaziyatni yumshatishda dono maslahatlari bilan saroyda ahillik muhitini yaratishga intilib yashagan ayol.

Bxarata (Bharata) Kekeyaning o'g'li. Aqlli va haqgo'y, o'z aka-ukalariga mehribon. Bxarata onasining qilgan hatosi tufayli ma'lum vaqtgacha saroy ahli va xalqning nafratiga uchraydi. Lekin u adolat yuzaga

chiqarmagunicha tinchimaydi. Akasidan avval taxt vorisi bo'lishni u o'ziga tuhmat deb biladi va xalq oldida o'z nomini oqlashga erishadi. Bundan keyin u xalq oldida avvalgidan ham ko'proq xalqning hurmatiga sazovor bo'ladi. Hindiston tarixida adolatli shahzoda sifatida nom qoldirgan.

Lakshman (Lakshman) Ramning ikkinchi ukasi. U Ramni o'zining qondosh akasi Bxaratadan ham ko'proq hurmat qiladi. Bxarata taxtg vorisi deb e'lon qilinganida o'z akasidan yuz o'giradi va Ram bilan o'rmonga surgunga jo'nab ketadi va u yerda 12 yil sadoqat bilan akasi Ram va kennoyisi Sitaga xizmat qiladi.

Ravana (Ravan) Shri Lanka yurtining shohi va eposda yovuz kuchlar timsoli. Lanka xalqi uning azoblaridan to'yib ketgan, lekin unga hech kimning kuchi yetmas edi. Faqat ma'bud Ramgina unga bas kelib xalqni uning yovuz changalidan ozod qiladi.

Xanuman (Hanuman) Ramning o'rmondagi hamkori, maymunlarning adolatparvar shohi sifatida tanilgan. Sitani Ravan changalidan qutqarishda, va umuman Ravanni yakson etishda Ramga o'z maymunlari bilan katta yordam ko'rsatgan. Ramayanadan keyin Xanuman ma'bud sifatida tan olinadi.

Bu personajlar bilan bir qatorda yana bir qancha haqiqat va ezgulik himoyachilari obrazi mavjudki, ularning barchasi hind adabiyotida folklor obrazlarga aylanib ketgan va hind xilqi uchun eng qadrdon obrazlardir.

«Mahabxarata» eposi

«Mahabharat»

Qadimiy hind adabiyotining ikkinchi yirik eposi bu «Mahabxarata»dir. Epos Hindiston tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, mamlakatning «Bxarat» deb nomlanishi «Mahabxarata» voqealaridan meros. Hindiston degan nom faqat o'rta asrlarda Hindistonga musulmonlar kirib kelganidan keyin shakllangan.

«Mahabxarata» so'zi ikki so'zdan, ya'ni «*maxan*» - «*buyuk*» va «*Bxarata*» shohning ismidan tashkil topgan bo'lib «*buyuk Bxarata*» deb tarjima qilinadi. Bxarata ham Hindistonda odil va xalqparvar shoh sifatida nom qoldirgan bo'lib, keyinchalik uning ismi butun mamlakatning nomiga aylanib ketgan.

Bxarata Hindistonning markaziy qismlarida joylashgan Hastinapur davlatining (hozirgi Dehlining atrofi) shohi bo'lgan. Bxarata aql va kuch qudratda tengi yuq shoh Uning davlatida barcha baxtli, farovon va to'q turmush kechirgan. Tarix sahifalarida shoh Bxarata nomi bilan bog'liq juda ko'p afsonalar mavjud. «Mahabxarata» eposi ham uning shohlik davrini

ta'riflash bilan boshlanadi va yettinchi avlodidagi taxt uchun kurash tarixini bayon qiladi.

Hastinapur shohligi an'anaga ko'ra avloddan avlodga o'tib kelavergan va uning barcha avlodlari ham o'z ota-bobolaridek odil va xalqparvar shoh sifatida nom qoldirganlar. Shu sabab bu mamlakatda ko'p asrlargacha tinch hayot hukm surgan. Lekin Bxarataning yettinchi avlodida tarixda birinchi marta amkivachchalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlangan. Mana shu kurash tarixi «Mahabxarata» asarining asosiy syujetini tashkil etadi.

«Mahabxarata» eposi «Ramayana»ga nisbatan hajm jihatidan ancha katta asardir. U o'n sakkiz kitobdan iborat ko'p syujetli asar an'anaviy qolplash, ya'ni hikoya ichida hikoya usulida yaratilgan. «Mahabxarata» sanskrit tilida nazmla yaratilgan bo'lib keyinchalik boshqa hind milliy tillariga va ko'pgina chet tillarga tarjima qilingan.

«Mahabxarata»ning yozma adabiyotga kirib kelish tarixiga kelsak, u, avvaliga, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida avloddan avlodga ko'chib kelgan. Bu davr mobaynida u yana yangi - yangi syujetlar bilan boyib borgan. Keyinchalik afsonaviy bir avliyo, «Mahabxarata» personajlaridan biri bo'lmish Vyasa tomonidan so'zlab berilishi natijasida uning yozma nusxasi dunyoga kelgan. deb tahmin qilinadi. «Mahabxarata» voqealari «Ramayana» voqealariga nisbatan keyinroq sodir bo'lishiga qaramasdan yozma adabiyotga «Ramayana»dan avval kirib kelgan. Hind mutaxassislarining aytishicha «Mahabxarata» voqealarining bo'lib o'tgan davri meloddan avvalgi ikkinchi ming yilliklar bo'lsa, uning bizgacha yetib kelgan eng daslabki yozma nusxasi melodning U-U1 asrlariga to'g'ri kelishi aniqlangan.

«Mahabxarata» ham «Ramayana» eposidek yarim afsonaviy va yarim tarixiy asardir. Uning afsonaviyligi eposdagi obrazlar tizimining ma'bud, yarim ma'bud, farishta, inson va hayvonlardan tashkil topib ular orasida bo'lib o'tadigan turli g'ayri tabiiy voqealarning tasvirlanishi bilan bog'liq bo'lsa, eposning tarixiyligi barcha davlatlar va shohliklar, ularning hukmdorlari, voqealar tafsilotida uchraydigan shaxs va joylar nomining tarixda haqiqatan ham mavjud bo'lganligi, ayrimlarining nomi esa hanuzgacha saqlanib qolganligi bilan belgilanadi.

«Mahabxarata» eposi hinduizmning muqaddas kitobi sanaladi. Chunki, bu asar orqali hind xalqi o'zining muqaddas kitobi «*Bxagavadgita*»ga ega bo'lgan va hind jamiyatiga ularning eng sevimli ma'budlaridan biri Krishna ma'budi kirib kelgan. «Mahabxarata»da ma'bud Krishnaning panduzoda Arjun bilan jang oldidagi suhbat. Uning Aprjunga

borliq va ruxiy olam, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, insonning bu dunyodagi burch va vazifalari haqidagi diniy-falsafiy o'g'itlari keyinchalik alohida ajratib olingan va hinduizmnining muqaddas kitobi sifatida unga «Bxagavad-gita» deb nom berilgan. Ikki so'z - «Bxagvan» - «xudo» va «gita» - «qo'shiq»dan tashkil topgan bu kitob «Xudo qo'shiqlari(yoki so'zlari)» deb tarjima qilinadi. Bugungi hind jamiyatini Ram va Krishnasiz butunlay tasavvur etib bo'lmaydi. Ram va Krishna esahinduizmnining vishnuizm oqimi g'oyasi targ'ibotchilaridir.

Eposning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Oy sulolasiga mansub bo'lgan shoh *Dushyanta* kunlardan bir kun o'rmonga ovga chiqib bir avliyoning *Shakuntala* ismli qizini ko'rib sevib qoladi va unga uylanadi. Ular bir o'g'il farzand ko'rib unga *Bxarata* deb ism qo'yadilar. *Dushyanta* juda odil va xalqparvar shoh sifatida xalq orasida obru qozongan edi. *Dushyanta* o'g'li *Bxaratani* taxt vorisi sifatida barcha ilmlarga o'rgatadi. An'anaga ko'ra *Bxarata* otasidan keyin taxtga o'tiradi va u ham xuddi otasidek odil shoh sifatida dong taratadi. *Bxaratani*ning o'zidan keyingi avlodlari ham o'z ota-buvalaridek mamlakat va xalqni tinchlik va osoyishtalik bilan ta'minlab, xalq manfaati uchun xizmat qiladigan siyosat olib boradilar. *Bxaratani*ning nabirasi *Hastin* shoh bo'lganidan keyin o'z yurtiga yangi poytaxt qurdiradi va bu shahar uning nomi bilan, ya'ni *Hastinapur* deb nomlanib *Bxaratalar* sulolasi davlatining poytaxtiga aylantiriladi. *Hastin* shohining nabirasi *Kuru* ham ko'p yillar shohlik qiladi. *Kuruning* nabirasi esa shoh *Shantana* edi. U *Ganga* daryosi ma'budasini sevib qoladi va undan bir o'g'il ko'radi. O'g'liga *Bxisham* deb ism qo'yadi. Vaqt o'tib bir baliqchining qizi *Satyavatiga* uylanadi va *Satvatidan* ham ikki o'g'il ko'radi. *Satyavati* o'z o'g'illarini taxt vorisi qilish maqsadida *Shantanani*ning katta o'g'li *Bxishamga* uylanmaslik shartini qo'yadi. *Bxisham* o'gay onasining shartiga ko'nadi. *Satyavati* o'g'illarini uylantiradi va oz vaqt o'tmay ikkala o'g'il ham olamdan o'tadi, kelinlari esa beva bo'lib qoladilar. Taxt vorissiz qoladi. Uning kelinlari *Ambika* va *Ambalikalar* farzandli bo'lishlari uchun *Satyavati* avliyo *Vyasadan* yordam so'raydi. Avliyo *Vyasa* taxt vorissiz qolgani sababli ikkala kelinga ham duo o'qib farzand ato etadi. Katta kelin *Ambika* bir ko'r o'g'il ko'radi va uning ismini *Dxritarashtra* deb qo'yadi. Kichik kelin *Ambalika* ham bir o'g'il ko'radi, u oq tanli bo'lib tug'ilgani uchun unga *Pandu* degan nom beradi. Uchinchisiga *Satyavati* xizmatkor ayolni kiritadi va undan ham bir o'g'il tug'ilib unga *Vidur* deb ism qo'yadilar. Katta o'g'il ko'r tug'ilgani uchun taxt vorisi qilib *Pandu* e'lon qilinadi. U qo'shni shohlikdagi shohning *Kunti* ismli qiziga uylanadi. Ko'r akasi *Dxritarashtra* ham shoh qizi *Gandxariga*

uyanadi. Panduning ikkinchi ayoli ham bor edi. Kunlardan bir kun u o'rmonga ovga ayollari bilan chiqqanida daydi bir nayza sanchilib Pandu olamdan o'tadi. Uning ayollari farzandsiz qoladilar. Birinchi ayoli Kunti qizlik davridama'budlar undan mamnun bo'lib unga bir duo marxamat qilgan bo'ladi. Bu duoni o'qib farzand ko'rish mumkin edi. Kunti o'sha duo yordamida osmon ma'budlaridan uch o'g'il ko'radi va ularga *Yudxishtxir*, *Arjun* va *Bxim* deb ism beradi. Bu duoni u o'z kundoshiga ham o'rgatadi va u ham ikki o'g'il ko'rib ismlarini *Nakul* va *Saxdev* deb ataydi. Natijada Panduning ikki ayoli besh o'g'illik bo'ladilar. Dxritarashtra esa yuzta o'g'il ko'radi va ularning orasida eng kattasi Duryodhan edi. Ularni kuruzodalar va Panduning o'g'illarini panduzodalar deb atay boshlaydilar. Bu akalarning farzandlariga har soha bo'yicha yaxshi ilm beradilar, ustoz Dron ularni harbiy san'at sirlariga o'rgatadi. Panduzodalar Bxarata avlodlari ichida har sohada kuruzodalardan ustun bo'lib ularning harbiy mahoratda, ahloq-odobda namunali ekanligi haqida ustozlar ham juda ko'p gapirar edilar. Shu sabab kuruzodalar yoshlikdan panduzodalarga dushmanlik tuyg'usida katta bo'ladilar. Kuruzodalarning pandularga qarshi tarbiyalashda, ayniqsa, ularning tog'asi Shakunining ta'siri katta edi. Shakuni panduzodalar deb taxt vorisligidan mahrum bo'lishi mumkinligini doim Duryodhan ongiga singdirib bora edi.

Shahzodalar katta bo'lgungaqadar Hastinapur taxtini ko'r Dxritarashtra o'z amakisi Bxisham va ukasi Vidurlar maslahati ostida boshqarib turadi. Farzandlar katta bo'lganidan so'ng an'anaga ko'ra Pandu o'g'illari taxt vorisi deb e'lon qilinadilar. Buni eshitgan ko'r Dxritarashtra va uning Duryodhan boshchiligidagi yuzta o'g'li gazabga kelib taxtni Panduzodalardan tortib olish rejasini tuza boshlaydilar. Ular Panduzodalardan qutilish maqsadida bir-necha marta turli nayranglar, suiqasdlar uyushtiradilar, lekin panduzodalarga hech qanday zarar yetkaza olmaydilar. Shundan so'ng Bxarata avlodi bir-biriga qarshi ikki dushman avlodga ajraladi: Duryodhan boshchiligida kuruzodalar va Yudxishtxir boshchiligida panduzodalar. Ularning bobosi Bxisham va bosh vazir Vidurlar taxtning asl vorisdorlari panduzodalar ekanligini yaxshi anglasalar-da, Hastinapurning shohi ko'r Dxritarashtra bo'lgani sabab adolatsizlik tomonida turishga majbur edilar. Chunki Dxritrashatraning ortida oddiy xalq turar edi. Bxisham o'z jiyanlari kuruzoda va panduzodalar o'rtasida urush chiqmasligi uchun qo'ldan kelgan barcha choralarni ko'radi, hatto urush oldini olish uchun Hastinapurni ikki avlod o'rtasida teng bo'lib beradi. Panduzodalar ularga berilgan hududda bir shahar barpo etadilar va uni ma'bud Indra nomi bilan *Indraprastxa* (hozirgi Dehli shahri)

deb ataydilar. Lekin oz vaqt o'tar-o'tmas taxtga to'ymagan kuruzodalar sarkardasi Duryodhan panduzodalar qurgan bu shaharga ham ko'z olaytira boshlaydilar va bu yerlarni yana qayta tortib olish maqsadida nayrang yo'liga o'tib panduzodalarni qimor o'yiniga taklif etadilar. Bu o'yinga Bxisham har qancha qarshi chiqmasin kuruzodalar asl maqsadlarini yashirgan holda «bu bir o'yin» deb buvasini ko'ndiradilar, Panduzodalar qimor o'yinida bor-yo'qlarini yutkazib o'yinga o'z yerlarini ham tikishga majbur bo'ladilar va uni ham qo'ldan boy beradilar. Oxiri kuruzodalar panduzodalarni sharmanda qilish maqsadida Draupadini tikishni talab qiladilar. O'ziga ishonishdan charchamagan panduzodalar malika Draupadini ham qimorga tikib yutqazib qo'yadilar. Ko'pchilik orasida sharmanda bo'lgan panduzodalarni qimor o'yini shartiga ko'ra Duryodhan o'ziga qul qiladi va ularni o'rmonga o'n ikki yilga surgun qiladi. O'n ikki yil davomida o'rmonda panduzodalar o'z onalari Kunti va ayoli Draupadi bilan juda ko'p qiyinchiliklar va sarguzashtlarga uchraydilar. O'rmondagi azizu-avliyolar bilan uchrashi, ular bilan suhbatlarda hayot saboqlarini oladilar. O'n ikki yilgi surgundan keyin panduzodalar o'z yurtlariga qaytganlaridan keyin ham kuruzodalar ularni tinch qo'ymaydilar va ular o'rtasidagi nizo urushgacha yetib boradi. Shundan so'ng bxarata sulolasi ikki avlodi o'rtasida Hindiston tarixidagi eng buyuk jang boshlanadi. Bu jangda kuruzodalar har jihatdan panduzodalardan ancha kuchli edilar. Panduzodalarning qudrati faqat adolat tomonida ekanligi edi. Bu adolat va razolat o'rtasidagi kurashda kuch adolatda ekanligini ko'rsatish eposning bosh g'oyasi bo'lganligi sabab panduzodalar ma'bud Krishna yordamida g'olib chiqadilar.

Panduzodalar tog'asi Krishna asarda oddiy bir cho'pon obrazida yaratilgan, lekin aslida u ma'bud Krishna edi. Shu bois u adolat tomonida bo'lib, haqiqatni yuzaga chiqishida o'z jiyanlariga har tomonlama yordam beradi. Jang maydonida Arjun dushman tomonida majburan kurashayotgan o'z bobosi Bxisham va amakisi Vidurlarga qarshi jang qilishdan bosh tortadi. Shunda Krishna Arjunga buvasi yoki amakisiga emas balki razolatga qarshi kurashayotganini uqtirish maqsadida unga adolat va razolat, borliq va inson, haqiqat va yolg'on nima ekanligi, tananing vaqtincha ruxning abadiyligi haqidagi hayot saboqlarini beradi. Bu suhbatdan keyin Arjun botirlik bilan razolatga qarshi jangga kirishadi va adolat yengib chiqadi,

Demak, «Mahabxarata» shoh Bxarata va uning avlodlari tarixi misolida qadimiy Hindiston subkontinentidagi xalqlarning ijtimoiy - siyosiy va diniy-falsafiy qarashlari, hind ma'anviyati va madaniyati, urf-odat va

an'analarni o'zida aks ettirgan, syujetlar va afsonaviy-tariyxiy voqealarga boy bir asar sifatida hind xalqi adabiyotida o'lmas asar bo'lib yashab kelmoqda.

Eposning kompozision tuzilishi. *Kompozisiya* lotincha “compositio” so'zidan olingan bo'lib, «tuzilish», «qurilish» degan ma'nolarni anglatadi. Badiiy asardagi qismlar, obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi muvofiqligini ta'minlash asar kompozisiyasidir. Ijodkorning maqsadi, g'oyaviy pozisiyasi izchil va aniq bo'lmasa, uning asari ham kompozisiya jihatidan mukammal bo'lmaydi. Shuning uchun ham badiiy asardagi detal, epizod yoki vosita doim biror narsaga xizmat qiladi, bir-biri bilan biror munosabatda bog'liq bo'ladi. Demak kompozisiya asar mazmunini eng mukammal tusda reallashtiruvchi shakliy kategoriyadir. Estetik jihatdan qaraganda, kompozisiya ijodkor g'oyasini, u aytmoqchi bo'lgan so'zini eng qulay, eng mukammal yuzaga chiqaruvchi asarning qurilish tarzidir. Kompozisiya asosan to'rt qismdan, to'rt elementdan iborat bo'ladi. Bular:

- *birinchisi* – «*ekspozisiya*», lotincha “*expositio*” - tushuntirish so'zidan olingandir. Bunda voqealar ro'y beruvchi o'rin-joy, asar qahramonlarining harakterini shakllantiruvchi ijtimoiy muhit va shart-sharoit kabilar tasvirlanadi. Ekspozisiya asar kompozisiyasining komponentlaridan biri sifatida ijodkorning maqsadiga bo'ysungan holda turli o'rinda va harakterda bo'lishi mumkin. Novella yoki hikoyada voqealar ko'pincha bir joy bilan bog'liqligi sababli, ekspozisiya ham qisqa bo'ladi, yoki voqea borishiga qarab butun asar davomida uchrashi mumkin. Ekspozisiya voqeadan oldin ham kelishi mumkin, keyin ham.
- *ikkinchisi* - «*tugun*»dir. Badiiy asar syujeti asosida yotuvchi konfliktni boshlab beruvchi nuqta. Tugun o'quvchini asar konfliktini ichiga olib kiradi, uni tasvirlanuvchi voqealarning keyingi oqimi va yakuniga qiziktirib qo'yadi.
- *uchinchisi* – «*kulminatsiya*», ya'ni chuqqidir. Bu so'z ham lotin tilidan olingan bo'lib «*culmen*», ya'ni «*chuqqi*» degan ma'noni anglatadi. Asardagi voqelar rivojining eng oliy nuqtasi, ish-harakat va kurashning o'ta keskinlashgan o'rne. Fojiaiy asarlarda kulminatsiya halokat(katastrofa) deb ham yuritiladi. Epik asarlarda harakter shakllanishining burilish nuqtasi yoki xarakterlarning o'zaro munosabatlari, ko'p syujetli asarlarda esa har bir syujet chizig'ining o'z oliy nuqtasi bo'ladi. Biroq bu cho'qqi asarning umumiy cho'qqisiga bo'ysundirilgan bo'ladi. Ijodkor uslubi, maqsadi va xohishiga ko'ra cho'qqi asarning boshlanishi, o'rtasi va oxirrog'ida ham bo'lishi

mumkin. Kulminatsiyaning eng muhim belgisi shuki, u badiiy asardagi voqealar oqimini, xarakterlarning o'z sifatidagi va boshqalar bilan munosabatidagi xislatlarni albatta o'zgartiradi. Demak, xarakterlarning bir sifatdan ikkinchi sifatga ko'chishi, mavjud sifatlarning esa keskinlashishi, voqealar oqimining o'zgarishini tasvirllovchi badiiy asar nuqtasi kulminatsiyadir.

- *to'rtinchisi* - «*yechim*». Badiiy asar asosida yotuvchi konfliktning hal etilishini bayon etuvchi qism asarning yechimidir. Yechim asardagi tugunning mantiqiy yakuni sifatida yuzaga kelganidagina o'quvchini ishonтира oladi. Yechimning xarakteri ijodkorning dunyoqarashi, mahorati bilan bog'liq bo'lishidan tashqari, u adabiyotdagi hukmron ijodiy metod, yo'nalish va oqimlar bilan ham bevosita bog'liqdir. Masalan, ertaklar, doston kabi asarlar yechimi muvaffaqiyat qozonishi yechim bilan bog'lik. Yechimning asar kompozitsiyasidagi o'rni aksariyat hollarda syujet kulminatsiyasidan keyin bo'lsada, biroq ba'zan yozuvchining xohishi, manerasiga bog'liq ravishda syujetning boshlanishida ham uchraydi, ya'ni asoslovchi voqealar tizmasi bayon etilishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan to'rt element asosan kompozitsiyani belgilaydi.

«Mahabxarata» eposi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek hind adabiyotidagi an'anaviy *ramkalash* usulida yaratilgan. Ramkalash usuli deb, ma'lumki, bosh syujet atrofida to'plangan o'z g'oyasi bilan asar bosh g'oyasiga tobe bo'lgan, lekin mustaqil syujet ega bo'lgan bir qancha kichik-kichik hikoyalarga aytiladi. Bunda ushbu hikoya mazmun jihatidan asarning bosh voqeasiga bog'liq bo'lmasada, lekin u o'z g'oyasi bilan asardagi ma'lum bir g'oyani tasdiqlash, to'ldirish vazifasini bajaradi. Ramkalash usuli qoidasiga ko'ra bunday hikoyalar cheksiz ravishda qo'shilaveradi. «Mahabxarata» eposining juda katta hajmdagi (18 ta kitob) asar ekanligiga sabab ham uning ramkalash usulida yaratilganligidir.

«Mahabxarata» asrlar davomida og'izdan-og'izga ko'chib yurgani bu davr mobaynida uning tarkibiga turli xil hikoyalar qo'shib borgan, lekin uning asosiy syujeti va g'oyaviy yo'nalishi deyarli o'zgarmagan.

Asar personajlari. «Mahabxarata» eng personaji ko'p asardir, ayniqsa ramkalash usulida orqali kirib kelgan qo'shimcha syujetlarni nazarda tutsak bu darajada personaji ko'p asarni jahon adabiyotidan topish qiyin. Shunga ko'ra asarda asosan ikki toifadagi personajlar mavjuddir. Eposning bosh syujeti bilan bog'liq personajlar qo'shimcha hikoyalar personajlari. Biz, asosan, bosh syujet doirasidagi personajlar ustida to'xtalaiz. Ularni biz asar g'oyasining kelib chiqqan holda ikki toifaga ajratamiz: adolat himoyachilari va adolatsizlik tarafdorlari:.

Eposda adolat va ezgulik timosllari: Hastinapur shohligida Satyavatining o'g'li shahzoda Bxisham, vazir Vidur, malika Kunti, uning ukasi Krishna, panduzodalar: Yudxishtxir, Arjun, Bxim, Nakul, Saxdev va ularning ayoli Draupadi hamda ular tomonida turgan barcha ustozlar va saroy ahli eposda adolat va ezgulik yo'lida zahmat chekkan personajlardir.

Eposda adolatsizlik va yovuzlik timosllari: Hastinapur shohi ko'r Dxritarashtra va uning Duryodxan boshchiligidagi yuz nafar o'g'li, ularning tog'asi Shakuni, Duryodxanning do'sti Karan va ularni qo'llab quvvatlagan saroy a'yonlari.

Bxisham (Bhisham) Kurulargacha Hastinapur shohi bo'lgan Shantananing o'g'li. Adolatpesha, otasidan keyin o'gay ona tufayli taxt vorisligidan voz kechgan, lekin umr bo'yi Hastinapur taxtini boshqarib u yerda haqiqatni o'rnatish, yo'lida kurashgan, pandu va kuruzodalar o'rtasidagi nizo qurboni bo'lgan kuch qudrat va adolatda tengi yo'q shahzoda.

Vidur (Vidur) Hastinapur shohining bosh masllahatchisi. Zehni o'tkir, haqparvar. Donolik, sezgirlik va vazminlikda tengi yo'q shaxs. Hastinapurda tinchlikni saqlashda katta hissa qo'shgan. Bxisham va panduzodalarga doim to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi. Onasi past tabaqadan bo'lganligi sababli shoh bo'lish huquqidan mahrum.

Yudxishtxir (Udhishthir) Panduzodalarning eng kattasi. Aql-odob va vazminlikda tengsiz, o'tkir siyosatchi, ukalariga va onasiga mehribonligi bilan xalq orasida hurmat qozongan. Ma'budlardan tug'ilganligi sabab jismonan juda kuchli.

Arjun (Arjun) «Mahabxarata» eposida Krishnadan keyingi hind xalqining sevimli qahramoni. O'tkir kamonboz, qobibiyatli shogird, yoshligidan o'tkir zehni va aniq nishonga olish qobiliyati bilan ustozlar e'tiborini qozongan. Darsda eng qiyin savollarga doim hozirjavob. Onasi va aka-ukalariga mehribon shahzoda. Krishna ham o'z o'gitlarini Arjun orqali hind xalqiga yetkazgan.

Bxim (Bhim) Pandularning uchinchi. Besh panduzodalar orasida jismonan eng baquvvatligi va mohir gurzibonligi bilan shuhrat qozongan. Ismi ham «Bxim», ya'ni «Botir» deb qo'yilgan. Hal qiluvchi janglarda doim Bximning gavdasi va kuch qudratidan foylanilgan.

Nakul va Saxdev (Nakul Sahdev) Panduning ikkinchi ayoli farzandlari. Asar davomida ular panduzoda akalarilarga yaxshi yordamchi sifatida ishtirok etadilar.

Kunti (Kunti) Shahzoda Panduning birinchi ayoli. Aql-odob va sadoqatda tengi yo‘q malika. Ma‘budlar e‘tiborini qozonib ularning duosiga sazovor bo‘lgan. Farzandlarini ham ma‘budlardan ko‘rgan.

Draupadi (Draupadi) Panduzodalarning ayoli. Uni 5 aka-uka o‘lja sifatida qo‘lga kiritganlar shu bois barcha aka-ukalar uchun birdek xizmat qiladi. ma‘bud Krishnaning himoyasidagi go‘zallik va farosatda tengi yo‘q ayol.

Shakuni (Shkuni) Kuruzodalarning tog‘asi. Eposda barcha yovuzliklarning sababchisi qilib ko‘rsatilgan. Kuruzoda va panduzodalar orasidagi nizoning sababchisi. Duryodxanning ongini zaharlab, turli nayranglar o‘ylab topishda usmtaomon shaxs obrazi.

Dxritarashtra (Dhritarashtra) Panduzodalar voyaga yetguncha Xastinapur taxtining shohi bo‘lgan. Ko‘zi ko‘r bo‘lganligi sababli taxtni uning amakisi Bxisham va ukasi- vazir Vidur boshqarganlar.

Duryodhan (Duryodhan) Dxritarashtraning eng katta o‘g‘li. Ular tog‘asi Shakuni boshchiligida panduzodalarni Hastinapur taxtidan chetlatish uchun turli nayrang va fitnalar uyushtirib yuradi, lekin ko‘pincha rejasi to‘liq amalga oshmaydi.

Karan (Karan) Eposdagi eng murakkab obraz. Karan ham ezgulik, ham yovuzlik timsoli. Duryodxanning bir umrlik sadoqatli do‘sti. Aslida Kuntining qiz bola vaqtida bilmay o‘qib qo‘ygan duosi orqali ma‘budlardan tug‘ilgan farzandi. Kambag‘al bir oila uni boqib olgan. Kamonbozlikda Arjun, kuch qudratda Bxim, aql-zavovatda Yudxishtxir bilan bellasha oladi. Lekin Duryodxanga bo‘lgan sadoqati tufayli yovuzlik tomonda turib adolatga qarshi kurashishga majbur.

«Mahabxarata» obrazlar tizimga boy asar. Yuqorida asar bosh g‘oyasini targ‘ib qilish vazifasini bajargan bosh personajlar haqida so‘z yuritildi.

Eposlarining bugungi kundagi ahamiyati. Hind xalqi o‘z tarixida hali hech bir asarni «Mahabxarata» va «Ramayana»dek e‘zozlamagan. Ularni har bir hind yoddan biladi desak hato bo‘lmaydi. Mana qirq asrdan oshiq vaqt o‘tibdi, lekin ikkala epos ham xalq uchun birdek sevimli asar bo‘lib qolmoqda, ayniqsa uning hinduizm dini bilan chambarchas bog‘liqligi hindlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Eposlar orqali hind jamiyatiga ular uchun sevimli bo‘lgan ma‘budlar - Ram va Krishna - kirib kelgan. Har ikkala ma‘bud ham ezgulikni saqlash, yovuzlikni yakson etish maqsadida hind zaminiga kelgan, lekin har birining bu yo‘lda o‘ziga xos siyosati, o‘ziga mos usuli mavjud. Jumladan, Ram ezgulik va adolat uchun kurashda qonun va axloq - odob qoidalariga rioya

qilishni ustivor deb bilsa, Krishna bu yoʻlda mehr va sadoqat yoʻlini eng toʻgʻri yoʻl ded hisoblaydi.

Adabiy jarayonda esa bu ikki epos vedadan keyingi butun Hindiston adabiyotining asosi desak hato boʻlmaydi. Chunki ikkala epos ham bitmas tunganmas syujetlar manbai boʻlib, oʻzidan keyingi davr adiblari uchun ijod manbai boʻlib xizmat qilib kelmoqda. Jumladan, qadimgi hind dramaturglari Bxasa va Kalidasalar, oʻrta asr bxakt shoirlari Surdas, Krishnadas, Mirabai, Tulsidas va boshqalarlar, zamonaviy hind adabiyotining koʻpgina namoyandalari nasr va nazmda yaratgan koʻpgina asarlarining syujet va obrazlarini mana shu ikki epos tarkibidan olganliklarini adabiyot sahifalarida koʻrishimiz mumkin. Kalidasaning jahon sahnalarini koʻrgan «Shakuntala» dramasining syujeti ham «Mahabxarata»dan olingan. «Mahabxarata» va «Ramayana» teleseriallari esa na faqat hind ekranlarida balki boshqa mamlakatlar teleekranlarida ham koʻp marta namoyish etilgan. Hind adabiyoti va sanʼatida Krishna yoki Ramni, Sita yoki Radxani, Arjun yoki Bhimni tilga olmaydigan biron bir shoir, yozuvchi, rassom yoki haykaltaroshni topish amri mahol. Ram va Krishna ibodatxonalari esa butun Hindiston boʻylab tarqalib ketgan.

Hindistondagi deyarli har bir milliy adabiyot (u tamilmi, maratximi, bengalimi yoki boshqa) oʻzining «Ramayana» va «Mahabxarata»siga ega boʻlib ular sanskritdagi eposlardan qisman milliylashtirilgani, oʻsha xalq dunyoqarashiga moslashtirilganligi bilan farqlanadi.

Umuman olganda, «Ramayana» va «Mahabxarata»ni bilmasdan turib hind madaniyati, maʼnaviyati, tafakkuri va qolaversa bu xalqning butun ichki dunyosini bilish mumkin boʻlmagan haqiqatdir.

3 Bob Buddizm adabiyoti

3.1 Buddizm maktablari va ularning hind adabiyotiga taʼsir

Hindiston subkontinentida eramizdan avvalgi U1-II asrlarda hind jamiyatida gʻoyaviy oʻzgarishlar sodir boʻldi. Bu davrga kelib hukmron diniy gʻoya boʻlmish brahmanizm jamiyatda oʻz mavqeini yoʻqota bordi. Brahmanizmning eskirib qolgan, hind jamiyatini ishonchini oqlamay qolgan gʻoyalarining oʻrniga yangi, oʻsha davr talablariga javob bera oladigan, taraqqiyparvar gʻoyalar shakllana boshladi. Brahmanizm, maʼlumki, hind jamiyatidagi eng yuqori tabaqa boʻlmish brahmanlarning manfaatini koʻzlovchi gʻoyalardan iborat boʻlib jamiyatning feodal-aristokratlari ham brahmanizm dini gʻoyalariga, uning qonun qoidalariga amal qilar edilar. Chunki uning mazmuni oddiy xalqni oʻziga tobe qilish uchun qulay boʻlgan qonun-qoidalar majmuasidan iborat edi. Brahmanizm gʻoyasiga koʻra faqat brahman kastasi vakillarigina jamiyatdagi bor imtiyozlardan foydalanish

huquqiga ega edilar. Vaqt o'tishi bilan bu g'oyalar ham brahmanlarga bo'lgan ishonch ham o'z ahamiyatini yo'qota bordi. Hind jamiyati ong jihatdan o'zgarib diniy aqidalarning jamiyat muammolarini hal qilishdagi o'rnini anglab yetadigan bir daraajaga yetgan edi. Taraqqiyot qonuniga ko'ra eski mafkura o'rnida yangisi shakllandi va u buddizm va jaynizm dinlari orqali hind jamiyatiga kirib keldi.

Buddizm dini hind jamiyatining kastachilik tizimiga zarba bergan birinchi din hisoblanadi. Bu din Hindiston hududida eramizdan avvalgi U1 asrlarda bunyodga kelgan. Uning asoschisi shahzoda **Siddxarta Gautama** bo'lib, uning ko'p yillar davomidagi falsafiy izlanishlari, amaliy harakatlari natijasida yangi bir mafkura yaraldi. Bu mafkura ong faoliyati bilan, aqlni peshlash bilan bog'liq bo'lganligi sababli u keyinchalik «Boddxa dxarm» atamasi bilan yuritila boshlandi. Bu atama sanskrit tilidan olingan bo'lib «**boddxa**» - «**aql**», «**dxarm**» - «**din**» degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur atama g'arb tillariga buddizm deb tarjima qilingan.

Buddizm butunlay yangi din deyish xato bo'lgan bo'lar edi, chunki u hinduizm asosida, undagi inson ongi taraqqiyoti yo'lida to'sqinlik qilib kelayotgan holatlarni qayta ishlagan holda shakllangan. Buddizm birinchi bo'lib jamiyatda tengsizlikning sababchisi bo'lgan hinduizmnining kastachilik tizimiga qarshi qaqshatqich zarba berdi. Buddizmnining yangi g'oyasi shundan iborat ediki, inson hayotidagi har bir yutuq va kamchiliklarga, azob-uqubatlarga o'zi sababchi va u dunyoning turli muammolaridan qutulishi uchun aqlini rasolashi kerakligini va bunga har bir inson, u qaysi kasta vakili bo'lishidan qat'iy nazar, erisha olishi mumkin ekanligini isbotlab berdi. Buddizm ilgari surgan yangi g'oya quyidagicha tavsiflanadi:

- *Bu dunyo azobining mavjudligi.*
- *Azobning kelib chiqish sabablari.*
- *Azobdan qutulish mumkinligi va uning zarurligi.*
- *Buning yagona yo'li istaklardan voz kechish ekanligi.*

Mana shu g'oyalarga asoslangan holda Buddizm dini insonni aqlni rasolashga, bu dunyoning aldamchi orzu-umidlariga, nafsga berilishdan o'zini to'xtatishi zarurligi va bu jarayonda esa inson uchun faqat aqlgina yordam bera olishini ta'kidlaydi. Dinning, yuqorida ta'kidlaganimizdk, «boddxa» «akl» degan so'z bilan bog'liqligi ham bejiz emas.

Buddizm g'oyalari Siddxarta Gautama tomonidan yaratilgan bo'sa-da uni yozma ravishda bir to'plamga to'plagan uning izdoshlari, yaqin shogirdlari hisoblanadi. Ular Budda fikrlarini anchadan keyin kelajak avlod uchun qoldirish maqsadida yozib to'plashni boshlaganlar. Bu yozuvlar

bugungi kunda buddizmning muqaddas kitobi sanalmish **“Tripitaka”**, ya’ni **“Uch savat”** nomli kitobga bitilgan.

Buddizm o‘zining dastlabki taraqqiyot davrida bir yo‘nalishda rivojlandi, lekin vaqt o‘tishi bilan buddizm targ‘ibotchilari bu g‘oyalarni o‘z izmlari bilan yuritib uni turli oqimlarga ajralib ketishiga sababchi bo‘lganlar. Natijada buddizm **Hinayana** va **Mahayana** oqimlariga bo‘lingan holda rivojlana boshladi. Hinayananing ma’nosi «kichik g‘ildirak» bo‘lsa Mahayana esa «katta g‘ildirak» deb tarjima qilinadi. Hinayana maktabi g‘oyasi avval shakllangan bo‘lsa-da uning nomi Mahayana maktabi shakllanganidan keyin vujudga kelgan. Chunki Hinayana maktabi g‘oyalari buddizm g‘oyalarini chegaralab, uni har bir inson uchun foydali qilib emas, aksincha insonlarni yana ajratishga olib keluvchi g‘oyalarni targ‘ib qila boshlaydi. Hinayana maktabi g‘oyasiga ko‘ra buddizm ta’limotidagi «nirvana», ya’ni «ruhiy ozodlik»ga har bir inson erisha olmas ekan. Buning uchun inson albatta ma’lum bir ilmlarni hosil qilishi va jamiyatning yuqori ilimli vakili bo‘lishi shart deb hisoblaganlar. Hinayana maktabi vakillari har bir insonning faqat o‘zigina arxatga, ya’ni ozodlikka erishishi lozim va bu yulda bir birini qo‘llab quvvatlashni noto‘g‘ri deb hisoblaganlar. Bu g‘oya buddizmda boddxisatva, ya’ni «haqqa intilgan inson» tushunchasidir. Bu g‘oyalarni Hinayana, ya’ni «kichik gildirak» deb nomlanishi ham bejiz emas, chunki uning g‘oyalari chegaralangan, keng jamiyat ahli manfaatini qamrab ololmaganlar. Shu sabab bu maktabga qarshi Mahayana maktabi shakllangan.

Mahayana maktabi aslida Hinayana maktabi g‘oyalari asosida shakllangan. Mahayana maktabi buddizm g‘oyalarini asl mohiyatiga qaytargan xolda har bir inson uchun teng xizmat qiladigan g‘oya sifatida targ‘ib qildilar. Mahayana maktabi buddizm dini ayrim olingan shaxslar uchun emas balki har bir «ruhiy ozodlikka intilgan» inson uchun ekanligini isbotladilar. Ularning fikricha har bir inson ongining taraqqiy etishi uning o‘ziga, uning intilishlariga bog‘liqdir. Buning uchun yuqori kasta vakili yoki alohida bilim egasi bo‘lish shart emas. Hatto butunlay savodi yo‘q inson ham ruhiy taraqqiyotning eng yuqori chuqqisiga, ya’ni «ruhiy ozodlikka» - «nirvana»ga erishishi mumkin. Mahayana maktabining bunday ta’limoti keng xalq ommasining diqqat- e’tiborini juda tez o‘ziga jalb etdi va buddizm g‘oyasi xalq orasida yana ham keng tarqala boshladi. Bu g‘oyalar tarafdori bo‘lgan ko‘pgina hinduizm dini vakillari buddizm dinini qabul qila boshladilar. Ular orasida turli kasta vakillari mavjud edi. *Ashvagxosha* ham shular jumlasidan bo‘lib, buddizm dinini qabul qilgan hind brahmanidir. U ham shoir, ham yozuvchi, ham dramaturg bo‘lgan.

3.2 «Jataki»

«Jataka»

Jataki Buddaning qayta tugʻilishi haqidagi hikoyalar toʻplamidan iborat. Jataki hikoyalari soniga koʻra Buddaning qayta tugʻilishi 546 marta deb hisoblaniladi, shunga koʻra Jatakidan ham 546 ta hikoya mavjud. Bu hikoyalar oʻz vaqtida buddizmning muqaddas kitobi «Tripitaka» («Uch savat») tarkibiga kiritilgan.

Jataki hikoyalari eramizdan oldingi III-II asrlarda yaratilgan degan tahmin bor. Jataki oʻsha davr xalq tillaridan biri boʻlmish pali tilida yaratilgan. Buddizm gʻoyalarini oddiy xalq orasida targʻib qilish maqsadida oʻsha davr xalq tillaridan biri pali tanlangan. Bu davrga kelib buddizm Hindiston va Seylonda ancha keng tarqalgan dinga aylanib boʻlgan edi. Jataki Hindiston xalqlarining meloddan avvalgi birinchi ming yilliklar hayotini oʻzida aks ettiruvchi asardir. Asar uch qismdan iborat:

- *Birinchi*, kirish qismida Buddaning hayoti, uning buddizm diniga asos solishiga boʻlgan sabablar haqida hikoya qilinadi.

- *Ikkinchi va uchinchi* qismlarida Buddaning turli davrlarda tugʻilib oʻtkazgan hayoti haqida hikoyalar pand-nasihat tarzida berilib boriladi. Bunda buddizmning asosiy gʻoyalari hayotiy misollar bilan isbotlanib shaxsan Buddaning hayotidan lavhalar keltirish bilan isbotlagan holda hikoya qilinadi.

Jataki asaridagi barcha hikoyalar Buddaning shaxsiy hayotidan olingan. Asarning kompozision tuzilishi qoliplash (yoki ramkalash), yaʼni hikoya ichida hikoya tarzida boʻlib, unda buddizm diniga hinduizmdan meros boʻlib qolgan qayta tugʻilish gʻoyasi asos boʻlgan. Ruhning taraqqiyot yoʻli hisoblangan qayta tugʻilish buddizm taʼbiri bilan aytganda «nirvana»ga erishguncha davom etadi. «Jataki»da Budda ruhiyatining nirvanaga yetishguncha boʻlgan har bir hayoti hikoya tarzida berilgan.

Hikoyalarda Budda turli obrazlarda ishtirok etadi. Ayrim hikoyalarda donishmand sifatida, ayrimlarida ustoz va yana boshqalarida suyak oʻyinchisi, maslahatchi yoki daraxtning ruhi sifatida ishtirok etadi. Agar Jataki asarida tahminan 546 ta hikoya boʻlsa, demak Buddaning besh yuzdan ortiq turli xil obrazlari yaratilgan desak hato boʻlmaydi.

Jataki tarkibiga kiritilgan Buddaning hayotini tasvirlovchi hikoyalardan birining qisqacha mazmuni quyidagicha:

Maymunlar shohi haqida jataki

(57- jataka)

Bu hikoyani ustoz Budda Veluvanda boʻlganida Devadattaga hikoya qilib bergan edi. Devadatta uning joniga qasd qilmoqchi boʻlgandi. Lekin

buni sezgan Budda uning niyatini amalga oshishiga yo‘l qo‘ymaydi. U deydi: Devadatta faqat bugun emas bundan oldin ham meni jonimni olishga harakat qilgan edi, lekin uning niyati u safar ham amalga oshmagan edi”- deb o‘sha volqeani so‘zlab beradi.

«Qadim zamonlarda Varanasida Braxmadatta shohlik qilgan davrda Boddxisattva maymun qiyofasida dunyoga kelgan edi. U katta bo‘lganida juda kuchli va zukko bo‘lib yetishadi. U daryoning bo‘yida yashar edi. Daryo o‘rtasida bir orolcha bor edi. Orolcha mango va boshqa mevali daraxtlar bilan to‘la edi. Qirg‘oq va orolcha o‘rtasida bir katta tosh turar edi.

Boddxisattva fil kuchidek kuchga ega bo‘lib, doim o‘sha tosh ustidan sakrab qirg‘oqdan orolchaga va orolchadan qirg‘oqqa sakrab yurar edi.

Orolchada kuni bo‘yi u mevalar bilan ovqatlanib so‘ng kech kirishi bilan yana o‘z qirg‘og‘iga o‘tib olar edi. U har kuni mana shunday hayot kechirar edi.

Mana shu daryoda bir timsoq o‘z ayoli bilan yashar edi. Timsoqning ayoli qirg‘oqdan orolga sakrab o‘tayotgan maymunni ko‘raverib uning yuragini yegisi kelib qoladi va er timsohga qarab «Men mana shu maymunlar shohining yuragini yegim kelayapdi» - deydi. Yaxshi, sening istagingni bajaraman deb bugun maymun orolchadan qaytayotganida uni tutib berishini timsoq o‘z ayoliga va‘da qiladi. U suzib borib o‘sha suv ustidagi katta tosh ustiga chiqib kutib yotadi.

Boddxisattva kun bo‘yi orolchada yuradi, kech bo‘lganda u orqaga qayta turib suv yuzidagi toshning avvalgidan ko‘ra balandroq bo‘lib qolganini sezadi. «Nega bunday bo‘lganiykin?» - deb hayron bo‘ladi Boddxisattva. Chunki u doim orolchaga kelayotganida suvning satxini va toshning balandligini bir ko‘rib qo‘yar edi. «hozir esa suvning satxi o‘zgarmagan bo‘lsa-da, tosh balandlashib qolibdi» - deb hayron bo‘ladi maymun. «U yerga qandaydir timsoh meni tutib olish uchun yashirinib olgan bo‘lsa kerak. hozir tekshirib ko‘raman» deb xulosa qiladi Boddxisattva. Xuddi tosh bilan gaplashayotgandek unga orolchadan turib savol beradi: «Ey, tosh» deydi u. Tosh javob bermaganidan keyin yana uch marta savol beradi. Lekin tosh jim turar edi. «Tosh, nega bugun javob bermayapsan?» - deydi Boddxisattva. Timsoh esa «Demak tosh har doim maymunga javob qaytarar ekan, bugun men javob bera qolay “ - deydi. «Nima deysan maymunlar shohi?»- deydi timsoh.

«Sen kimsan?»- deydi maymun.

«Men timsohman»- deb javob qaytardi timsoh.

«Nega bu yerda o‘tiribsan?»- deydi maymun.

«Men sening yuragingni sug‘urib olmoqchiman» - deb javob beradi timsoh.

«Endi men bu timsohni bir amallab aldashim kerak, boshqa ilojim yo‘q»- deb o‘ylaydi Boddxisattva va timsoqqa qarab deydi: «hurmatli timsoh, men o‘zimni sen uchun qurbon qilishga tayyorman, sen faqat og‘zingni och, men og‘zingga sakraganimdan keyin meni yeya qol».

Ma‘lumki, timsoh og‘zini ochganida uning ko‘zi berkiladi va timsoh hech narsani ko‘ra olmaydi. Timsoh esa hech narsadan hadiksiramay og‘zini ochadi, ko‘zi esa yumiladi. Boddxisattva timsohlarning bu odatidan xabardor bo‘lgani uchun orolchadan timsohning boshiga sakraydi va u yerdan yashin tezligida qirg‘oqqa qarab sakraydi.

«Qirg‘oqda maymunni ko‘rgan timsoh bu maymun meni axmoq qilganga o‘xshaydi» - deb o‘ylaydi. U maymunga qarab deydi: «Ey maymunlar shohi, kimda-kim bu dunyodagi to‘rt muhim sifatga ega bo‘lsa u hamisha dushmanlarini yengadi, senda esa, meningcha, mana shu to‘rttala sifat ham mavjud ekan» - shunday deb timsoh quyidagi misralarni so‘zlaydi:

*Kimda-kim maymunlar shohidek chidamli, haqgo‘y va aqlli bo‘lsa,
Kimda-kim o‘z burchini anglasa dushmandan u doim g‘olibdir.*

Shunday deb Boddxisattvani maqtovlarga belab timsoh o‘z iniga kirib ketadi.

Ustoz dedi: «Devadatta faqat hozir emas, ilgari ham meni jonimga qasd qilmoqchi bo‘lgan edi. «Bu pand-nasihatli hikoyani tugatib, o‘qituvchi qayta tug‘ilish mohiyatini tushuntirib beradi. Bu hikoyada Devadatta timsoh o‘rnida, Chinha brahmani timsohning ayoli obrazida, maymunlar shohi obrazida esa Boddxisattva ishtirok etadi.

#

Jataki tarkibidagi boshqa hikoyalarning nomlanishi quyidagichadir:

- *Nayza haqida jataki*
- *Shoh maymun haqida jataki*
- *Suyak o‘yinchisi haqida jataki*
- *Chiyabo‘ri haqida jataki*
- *Dum haqida jataki*
- *Qarg‘alar jataki*
- *Olovli gul haqida jataki*
- *Toshbaqa haqida jataki*
- *Brahman Satadxamma haqida jataki*
- *-She‘r terisi haqida jataki*
- *O‘g‘irlangan boylik haqida jataki*
- *Uchar ot haqida jataki*
- *Uy egasi haqida jataki*
- *Shoh Assaka haqida jataki*

- *Badduo haqida jatak*
- *To 'tiqush haqida jataki*
- *Turli istaklar haqida jataki*
- *Buyuk maymun haqida jataki* va boshqalar.

Jatakaybyu ham bir necha bor qayta ishlangan varianlari mavjud. Ulardan eng taniqlisi «*Jataka-mala*» - «*Jataka gulchambari*» nomli asar bo'lib uni eramizning 1U asrlarida yashab o'tgan *Arya Shura* degan shaxs yaratgan. Uning hayoti va ijodi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Faqat mana shu asarning muallifi sifatida ma'lum. Asarda o'ttiz to'rtta jataki mavjud. Jatakalarining barchasi o'sha pali tilidagi «*Jataka*» asaridan olinganligi aniqlangan. «*Jataka-mala*» esa sanskrit tilida yaratilgan. Uning «*Jataki*»dan farqi shuki, bunda turli xajmdagi she'rlar ko'p kiritilgan, tili ham biroz murakkab.

3.3 Ashvagxosha - Ashvaghosha

Ashvagxosha hind xalqining taniqli shoiri va dramaturgi. Uning yashab o'tgan davri aniq belgilanmagan. Tahminlar asosida u yashagan davr buddizm va xristian dinlari shakllanish davri o'rtalari deb hisoblanadi. Bu taxminiy davr melodning III asrlariga to'g'ri keladi.

Ashvagxosha, manba'larda aytilishicha, Hindistonning Gang daryolari bo'yida Banoras shahri yaqinida brahman oilasida dunyoga kelgan. U juda zeharli, aqlli va zukko bola bo'lgan. Yoshiligidan sanskrit tili va unda yaratilgan adabiyotni chuqur o'rgangan. U vedalarni ham juda yaxshi talqin qilgan. Ashvagxoshani hatto Pataliputra shohi uch ming tillaga sotib olgan degan afsonaviy gaplar ham mavjud. Yana bir afsonaga ko'ra Ashvagxoshani O'rta Hindistondan Kashmirga vedalarni mahsus o'rgatuvchi sifatida chaqirtirishgan ekan. U Panini grammatika kitobida yozilgan sanskrit tili qonun qoidalarini ham juda chuqur o'rganib chiqqan. Bundan tashqari astronomiya va boshqa tabiiy fanlarni, shular qatori musiqa ilmini ham juda yaxshi egallagan shoir bo'lgan ekan. Uning musiqalarida asosan hayot falsafasi, uning muammolari va ulardan ozod bo'lish, hayotdan voz kechish emas, unga qaytish va aql bilan yashash to'g'ri ekanligi haqidagi buddizm g'oyalari yangragan. Lekin eng yaxshi bilgani buddizmning muqaddas kitobi «*Uch savat*» asaridir. Ashvagxosha asarni yoddan bilgan va o'z asarlarida uning uchun ilg'or sanalgan buddizm g'oyalarini targ'ib qilishni maqsad qilib olgan. Uning bilimdonligi haqida ham turli afsonalar mavjud. Shoirning ismi ham sanskrit tilidan olingan bo'lib «*otning kishnashi*» degan ma'noni anglatadi. hinduizm g'oyalari bilan sug'orilgan sanskrit adabiyotigi hinduizmning fanatizmi yoshligidan Ashvagxoshada nafrat uyg'ota boshlagan. U o'ziga doim ruhiy panoh

beruvchi bir mafkura izlay boshlaydi va bu mafkurani buddizm dinidan topadi. Ashvagxosha kastachilik tizimi oddiy xalqni har bir narsadan siqib chiqara boshlaganidan keyin buddizmning tenglik g'oyasini hind xalqi o'rtasida targ'ib qilishni o'z oldiga maqsad qilib oladi va brahmanlik kastasidan voz kechib buddizmni qabul qiladi. Buning uchun Ashvagxosha Budda ta'limotini chuqur o'rganadi va ularni targ'ib qilishning eng qulay yo'li adabiyot deb hisoblab o'zining barcha asarlarida buddizm g'oyasiga tayangan holda yaratadi. Ashvagxosha buddizm g'oyalarini shunchalik chuqur o'rganganki, bu haqda hatto afsonalar ham to'qilgan. Ulardan birida shunday hikoya qilinadi:

«Kunlardan bir kun Budda shogirdlari bilan suhbatlashib ketayotganida bog'da bir bulbul kuylayotganini eshitib uning ovozigga oshiq bo'lib qoladi va uni: *«shunday go'zal va yoqimli ovozli bulbul keyingi tug'ilishida albatta inson bo'lib tug'ilsin»* - deb duo qilgan ekan. O'sha Budda duo qilgan qushcha Ashvagxosha qiyofasida dunyoga kelgan ekan. Shu bois u o'z brahmanlik kastasidan osonlikcha voz kechib buddizmga mehr qo'ygan shoir va dramaturg bo'lib yetishgan ekan». Hind adabiyotida Ashvagxoshani «buyuk hind buddisti» deb bejiz aytmaydilar. U qoldirgan adabiy meros Budda hayoti, buddizm g'oyalari bilan bog'liq asarlardan tashkil topgan. Ashvagxosha ijodi bilan tanishish XX asrning ikkinchi yarmidagina boshlandi. Bu merosga quyidagi asarlarni kiritish mumkin:

- 1) *Buddacharita* - *Buddaning hayoti*
- 2) *Vajrasuchi* - *Olmosdan yasalgan igna*
- 3) *Shariputrprakarana* - *Shariputrprakarana*
- 4) *Sutralamkara* - *Alankara haqida ta'limot*
- 5) *Sundarananda* - *Sundarananda*

«Buddacharita» («Buddhacharita») - «Buddaning hayoti»
Ashvagxoshaning shoh asaridir. Muqaddas kitob sifatida «Buddacharita» buddizmning «Uch savat»idan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu asarni Ashvagxosha Buddaning hayotini to'liq tasvirlash maqsadida yaratgan. Asar sanskrit tilida yaratilgan. Shu bois Ashvagxoshani sanskrit adabiyotiga buddizm ruhini olib kirgan shoir sifatida baholaydilar. Bu asar juda ko'p tillarga, shu jumladan, rus tiliga ham tarjima etilgan.

«Vajrasuchi» («Vajrasuchi») asarida Ashvagxosha asosan kastachilik tizimi haqida so'z yuritadi. Bu tizimni jamiyatda brahmanlarni qo'llab quvvatlovchi tizim sifatida qoralaydi.

«Sutralamkara» («Sutralamkara») asari buddizmga chaqiriq bilan sug'orilgan. U ham sanskrit tilida yaratilgan. Uning asl nusxasi yo'qolgan. Faqat hitoy tilidagi nusxasi bizgacha yetib kelgan deb yozadi hind

mutaxassisleri. Demak, asar chet tiliga, jumladan, xitoy tiliga ham tarjima qilingan.

«*Sundarananda*» («*Sundarananda*») asarida Ashvagxosha Buddaning ukasi Nandaning qanday qilib buddizm dinini qabul qilganligi haqida hikoya qilinadi. Asarning qiskacha mazmuni quyidagicha:

Nanda Sundari ismli qizga uylanib baxtli hayot kechiradi. U oʻz ayolini shunchalik qattiq sevadiki, hatto tangrini ham unutib yuboradi. Kunlardan bir kun oʻz gʻoyalarini shogirdlari bilan targʻib etib yurgan Budda ukasining uyiga boradi, lekin u sevgan ayolidan boshqa hech kimni sezmaydi. Budda ukasining sevgi azobida qiynalaganini koʻrib, bu narsa unga juda koʻp qiyinchiliklar keltirishini bilib uni buddizm yoʻliga kirishga daʼvat etadi. Uning nasihatleri hech kor qilmagach Budda uni Indra dargohidagi parilar dunyosiga sayr qildiradi va Sundaridan ham goʻzal parilar borligini koʻrsatadi. Bu goʻzallarni koʻrgan Nanda Sundarini unutib yer yuzidagi barcha narsa ruhiy iztirobdan boshqa hech narsa emas ekanligini, eng toʻgʻri yoʻl esa ruh ozodligi ekanligini tushunib yetadi va buddizm dinini qabul qiladi. Buni eshitgan Sundari umr yoʻldoshidan qattiq xafa boʻlib iztirobda qolib ketadi.

Ashvagxoshaning koʻpgina asarlari sahnalarni ham koʻrgan. Jumladan, «Buddacharita», «Sundarananda» asarlari sahnalashtirilgan. Bundan tashqari «Buddacharita» asarining ayrim qismlari alohida ravishda ham sahnalashtirilgan. Shu sabab hind mutaxassisleri Ashvagxoshani hind dramaturgiyasi rivojiga oʻz hissasini qoʻshgan dramaturg sifatida ham yuqori baholaydilar.

4 Bob Eramizning birinchi ming yilligi adabiyoti

4.1 Qadimgi hind ertak va masallari

Prachin Hindi katha sahitya

Ertak (choʻpchak) xalq ogʻzaki ijodiga xos epik tur janridir. Halk ertaklari barcha xalqlar ogʻzaki ijodiga xos qadimiy janrdir. Har bir xalqning ertaklarida mazkur xalqning dunyoqarashi, milliy harakteri, sinfiy munosabatlari, turmush tarzi maʼlum darajada oʻz ifodasini topadi. Har bir xalq adabiyotida millat ruhi aks etgan ertaklar majmuasi bor. Arab xalqining «Ming bir kecha» ertagi taniqli boʻlsa, oʻzbek xalqi «Oygul bilan Baxtiyor», «Zangori gilam», «Uch ogʻa-ini botirlar», «Zumrad va Qimmat» kabi bir qancha ertaklarni yaratagan. «Axmoq Ivan», «Zolushka», «Oltin baliqcha» kabi ertaklar esa rus xalq ertaklarining namnalaridir.

Jahon xalqlarida bir-biriga oʻxshash ertaklar xalqlarning qadimdan madaniy-iqtisodiy aloqada boʻlib kelganini, tarixiy taraqqiyotning maʼlum qonuniyat bilan rivojlanishini koʻrsatadi. Syujet va kompozision

yaqinlik barcha xalqlar ertaklariga xos xususiyatdir. Bu yaqinlikni og‘zaki ijodning o‘ziga xos bo‘lgan variantlilik, anonimlik, og‘zakilik bilan izohlash mumkin. Masalan, varianlilik tufayli bir ertak bir necha ertakning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi va natijada syujet va kompozision o‘xshashlik kelib chiqadi.

Xalq ertaklari o‘z mazmuniga ko‘ra fantastik, satirik, yumoristik, hayotiy-maishiy yoki ma’johiy ertaklarga bo‘linadi.

Ertaklar xalq orasida savodsizlik hukm surgan davrda, ayniqsa, keng tarqalgan. Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan xalq ertaklari hozirgi taraqqiyot davrida juda kam yaratilmoqda.

Masal ko‘proq she’riy shakldagi, ma’johiy harakterdagi qisqa hikoyacha bo‘lib, uning masal-epigramma, masal-dialog, masal-ertak, masal-novella, masal-drama kabi turlari mavjud. Masalning tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘lib odatda turli hayvonlar ma’johiy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal turli milliy adabiyotlarda taraqqiy etgan janr bo‘lib, rus adabiyotida Krilov mashhur masalchi bo‘lsa, Navoiy, Gulxaniy, Hamza, Yamin Qurbon va boshqalar o‘zbek adabiyoti masalchilaridir.

Pritcha (kinoyali hikoya) shaklan masalga yaqin turadigan ahloqiy didaktik nasihatlardan iborat kichik hikoya. Masaldagi ko‘p ma’noli bayondan farqli o‘laroq pritchada doim ma’lum ahloqiy-didaktik g‘oya mujassamlashgan bo‘ladi. Pritcha qadimgi rus adabiyotida keng tarqalgan bo‘lib, keyinchalik yangi Yevropa adabiyotida yangi ma’no kasb etdi. U yozuvchining ahloqiy-falsafiy fikrlarini ifodalashning asosiy vositalaridan biriga aylandi.

Ertak, masal va pritchalar o‘z nomi, kelib chiqishi bilan xalq og‘zaki ijodiga bog‘liqligidan ko‘rinib turibdiki, har bir ertak yoki masal o‘z zamonasining vakili, o‘z qarashi, ularning hayotga munosabati, ularni qiynab kelgan, hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarni, bu yo‘ldagi ularning kurashi va xalq orzu-umidlarini o‘zida aks ettiradi. Masalan, rus xalq ertaklari juda boy va xilma-xildir. Uning milliy xususiyati ertakning tilida hayot tasvirlarida yaqqol namoyon bo‘ldai

Ertak, masal va pritchalarning bir-biridan farqi shundan iboratki, masalda obraz yaratishda hayvonlar ishtirok etadi, pritchada esa ham hayvon (inson o‘rnida) ham inson ishtirok etishi mumkin. Lekin ertakda inson obrazida inson hayvon obrazida esa hayvon ishtirok etadi. Lekin hayvon inson kabi tilga kiradi.

Qadimgi Sharq adabiyoti insonni yashashga o'rgatadigan, oliyanoblik, insoniylik, yaxshi xulqlarni targ'ib qiladigan qutlug' bilimlar beruvchi kitoblarning bitmas tunganmas xazinalari bilan mashhur.

Hind adabiyoti ham ertak, masal va pritchalarga boy adabiyotdir. Uning shakllanishi ham uzoq o'tmishda boshlangan. Qadimgi hind adabiyotida ularning roli va ahamiyati katta bo'lgan. Bu asarlarning ko'pchiligi bizgacha sanskrit tilidagi adabiyotlar tarkibida yetib kelgan. Hind adabiyotida ertak va masallarning elementlari qadimgi hind eposlari tarkibidyoq shakllanishni boshlagan. Jumladan, «Ramayana» va «Mahabxarata» eposlarida juda ko'p ertak elementlari, masalan, hayvonlarning ishtirok etishi, ularning insonlar bilan bab-barobar tilga kirib haqiqat uchun kurashishlari yoki bo'lmasa turli g'ayri-tabiiy voqealarning ko'pligi fantastik ertaklarning bosh elementlari qatoriga kiradi. Umuman olganda hind mutaxassislari eramizdan avvalgi va eramizning birinchi asrlariga folklor asosida nasriy adabiyotning shakllanishi to'g'ri keladi deb tahmin qiladilar va bu jarayonning shakllanishida nasriy ertak janrining hisssasi katta deb hisoblaydilar.

Ayrim ertak va masallarni hisobga olmaganda qadimgi hind ertaklarining kompozision nuqtai nazardan to'liq shakllanib bo'lishi eramizning birinchi ming yilligiga to'g'ri keladi. Ularning ko'pchiligining syujet va mazmunini vedalar yoki eposlar tarkibida uchratish mumkin. Masalan, «Rigveda»da diniy marosimlarda kuylaydigan brahmanlarni masallarda kuylovchi qurbaqalarga o'xshatib tanqid ostiga olish, yoki bo'lmasa «*Chxandogya Upanishad*»da qurbonlik keltiruvchilarni vovullayotgan itlar bilan qiyoslash, masal janrini eslatuvchi buqa va o'rdaklarning o'z shogirdlariga nasihat qilishi haqidagi hikoyalarni eslab o'tish mumkin. «Mahabxarata» eposida ham qarg'a va ukkilar jangi haqidagi hikoya keyinchalik borib «Panchatantra» masali tarkibiga kiritilgan. Palma daraxti mevasi tagida qolib olamdan o'tgan qarg'a haqidagi masal, ayniqsa, hind xalqi o'rtasida keng tarqalgan. O'z vaqtida buyuk grammatist olim Patanjali ham mana shu masalni o'z asari tarkibiga kiritgan edi. Masal va ertaklar ko'pgina iqtisod va siyosat sohasiga oid kitoblar tarkibida ham uchrab turadi. Masalan, iqtisodga oid «*Artxashastra*» asarida yoki siyosatga oid «*Manushastra*» nomli asarlarda ham masal va ertaklarni uchratish mumkin.

Hind ertak va masallari ham, an'anaga ko'ra, ahloq yoki odob, pand-nasihat masalalariga bao'ishlangan. Jaynizm dini targ'ibotchisi Xaribxadra (VII asr) hind nasriy adabiyotini guruxlarga bo'lib chiqqan. Bunda u

asarlarning mazmunini, ya'ni ularning didaktik xususiyatini asos qilib olgan holda ularni uch guruhni ajratadi:

- *dxarmakatxa guruhi, ya'ni yaxshilikka chaqiruvchi nasihatlarni o'zida mujassamlashtirgan asarlar.*
- *artxakatxa guruhi, ya'ni amaliy foydani ko'zlashni o'rgatuvchi nasihatlar mujassamlashtirgan asarlar.*
- *kamakatkha guruhi, ya'ni ishqiy mavzuga atab yozilgan asarlar.*

Qadimgi hind ertak va masallarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning shakllanishida tashqi ta'sir bo'lmagan. Ular sof milliy an'ana, milliy til asosida o'z holicha shakllangan. Aksincha hind ertak va masallarining jahonning boshqa milliy adabiyotlariga ta'sirini kuzatish mumkin. Jumladan, mashhur arab masali «*Kalila va Dimna*» aslida hind masali «*Panchatantra*»ning arabcha varianti ekanligi asrimizning boshida ilmiy tadqiqotlar asosida aniqlangan. Mongol adabiyotidagi «*Sehrlil o'lik*» ertagi hind adabiyotidagi «*Vetalaning 25 hikoyasi*» ertagining mongolcha varianti ekanligi ham aniqlangan.

Qadimgi hind ertak va masallariga quyidagilar kiradi:

- Panchatantra* - *Besh kitob (masal)*
- Vetalopanchovinshati* - *Vetalaning yigirma besh hikoyasi (ertak)*
- Hitopadesha* - *Foydali maslahatlar (ertak)*
- Jataki* - *Jataki (ertak)*
- Shukasaptati* - *Tuti qushning yetmish hikoyasi(ertak)*
- Sinxasanadvatrinshati*-*Shohtaxti haqida o'ttiz ikki hikoya (ertak)*
- Bxaratakadvatrinshati* - *Monaxlar haqida o'ttiz ikki hikoya (ertak)*
- Brixatkatxa* - «*Katta hikoya*» va boshqalar.

Hind ertaklari ayrim she'riy kiritmalarni hisobga olmaganda asosan nasrda yaratilgan. Masallar esa nasr va nazm aralash holida yaratilgan. Ertak va masallarning deyarli barchasi sanskrit tilida yaratilgan. Hind ertak va masallarida jamiyatning turli vakillari ishtirok etadilar, ya'ni hunarmandlar, shohlar, oddiy xalq vakillari, dehqonlar, savdogarlar, sudxo'rlar, vazirlar, soqchilar va shunga o'xshash turli kasb - hunar vakillari bosh obraz yoki yordamchi obraz sifatida ishtirok etadilar. Barcha ertaklarga xos bo'lgan ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash va ezgulikning g'alabasi hind ertak va masallariga ham xosdir.

4.2 «Panchatantra» masali

«Panchatantra»

«*Panchatantra*» - «*Besh asosiy holat*» yoki «*Besh kitob*» deb tarjima qilinadi. «*Panchatantra*» masal janriga kiruvchi asardir, chunki undagi barcha obrazlar hayvonlar bo'lib, hayvonlar obrazi orqali insonning hayotiy

muammolari pand-nasihat tarzida yoritib berilgan. Tahminlarga ko'ra «Panchatantra» melodning III-IU asrlarida bunyodga kelgan. Asarning muallifi qandaydir brahman Vishnusharman deyiladi. «Pachatantra» sanskrit tilida yaratilgan. Uning ilk nusxalari hali topilmagan. Lekin asarning keyingi davrlarda Hindistonning turli qismlarida yaratilgan nusxalari mavjud. Janubiy Hindistonda esa jayn monaxlari yaratgan nusxalar mavjud. Bular ichida rohib Purnabxadra 1919 yilda barcha nusxalar asosida tuzgan jayn nusxasi eng mukammal hisoblanadi. Keyingi davr nusxalaridan Kashmir varianti «Tantrakxyaika» nomli varianti mavjud. Bu variantlar melodning birinchi ming yilligining ikkinchi yarmida yaratilgan deb tahmin qilinadi.

«Panchatantra» U1 asrda suryoniy tiliga tarjima qilingan. Shundan so'ng arab va paxlaviy tillariga o'girilgan. Shu tariqa masal tillardan tillarga, mamlakatlardan mamlakatlar osha, o'zining uzoq sharaflari yo'llarini bosib o'tgan. Vaqt o'tgan sari, tillardan tillarga ko'chgan sari «Panchatantra»ning shakli ham, mazmuni ham o'zgarib, uning yangidan yangi variantlari yaratilavergan. Har bir tarjimon unga o'zidan ko'p narsalar qo'shgan. Shu tariqa asl nusxalar bilan boshqa tillarga turli davrlarda qilingan tarjimalar o'rtasida juda katta farq yuzaga kelgan. 1972 yilda rus hindshunos olimi A.Sirkin tomonidan «Panchatantra» rus tiliga o'girilgan. O'zbek adabiyotiga «Panchatantra» birinchi bor o'zining arabcha varianti «Kalila va Dimna» asarining tarjimasi orqali kirib kelgan. «Panchatantra»ning o'zi esa I. Gofurov tomonidan 1993 yilda birinchi bor hindi tilidan o'zbek tiliga o'girib chot ettirilgan.

Hind adabiy an'anasi bu asarni «*siyosat darsi kitobi*» deb ham ataydi. Bu haqda hatto rivoyat ham mavjud. Unga ko'ra aqlli va donishmand Vishnusharman axmoq shahzodalarni hayot saboqlariga, siyosatga, davlatni va xalqni boshkarish siyosatiga o'rgatish maqsadida ushbu masalni yozgan ekan. Bu asar ham an'anaviy qoliqlash (ramkalash), ya'ni hikoya ichida hikoya tarzida yozilgan.

Asardagi besh qismning, ya'ni besh kitobning nomlanishi quyidagicha:

Birinchi kitob - «*Do'stlarning judo bo'lishi*». Bu qismda muallif asosan she'r va buqaning do'stligi va bu do'stlikning ayyor tulki tufayli buzilishi haqida hikoya qiladi.

Ikkinchi kitob - «*Dustlar orttirish*». Bu kitobdagi hikoya qarg'a, sichkon, toshbaqa va kabutar kabi kuchsiz hayvonlarning ahillik, do'stlik orqali qo'lga kiritgan yutuqlari, dushmani qanday qilib yengganlari hikoya

qilinadi. Muallif bu orqali do'stlik kuchda emas ahillikda ekanligini ko'rsatishni bosh maqsad qilib qo'ygan.

Uchinchi kitob - «*Qarg'alar va boyaqushlar*» deb nomlangan. Ushbu hayvonlar obrazi orqali urushni qanday olib borish va uning turli usullari haqida hikoya qilinadi.

To'rtinchi kitob - «*Erishilganni yo'qotish*». Hikoyada delfinning o'z do'sti maymunga qilgan sotqinligi haqida so'z boradi. Do'stining yomon niyatini sezib qolgan maymun jon saqlab qolish uchun delfinga turli hikoyalar so'zlab beradi va natijada omon qoladi.

Beshinchi kitob - «*Axmoqona ishlar*». Bu kitob oldingilariga qaraganda kompozision qurilishi jihatidan ancha farq qiladi. B qismda qoliplash usuli, ya'ni hikoya ichida hikoya usuli keng qo'llanilgan.

«Panchatantra» asari ta'siri ostida hind adabiyotida juda ko'p boshqa asarlar – hikoyalar, ertaklar, masallar va pritchalar bunyodga kelgan. Jumladan, «Hitopadesha», ya'ni «Ibratli hikoyatlar» «Panchatantra» tarkibidagi hikoyalar asosida bunyodga kelgan. Bu asar eramizning X-XSh asrlari orasida yaratilgan deb tahmin qilinadi. «Panchatantra» masalining dovrug'i o'z vaqtida Eron va Arab mamlakatlariga ham yoyilib ketgan. Rivoyatlarda aytilishicha, qadimgi Eron shohlaridan biri o'zining vaziri Burzoeni Hindistonga mana shu asarni o'g'irlab kelish uchun mahsus yuborgan ekan va u bu ishni uddasidan chiqib «Panchatantra»ning bir nusxasini olib kelib uni fors tiliga o'g'irgan. Keyinchalik fors tilidan «Panchatantra» masali arab tiliga tarjima qilingan. Tarjimalar jarayonida «Panchatantra»ning nafaqat mazmuni yoki tuzilishi balki nomi ham o'zgarib borgan. Tarjimonlar asarga erkin yondoshganlar, o'z davriga qarab asarga qo'shimchalar kiritganlar. Jumladan, arab adabiyotidagi mashhur masal «Kalila va Dimna» «Panchatantra»ning arabcha varianti emas, balki mustaqil bir asarga aylangan. «Kalila va Dimna»ning o'zbek tilida bir necha xil tarjimasi mavjud. Keyingi o'n besh yigirma yil mobaynida asar bir necha bor ko'p nusxalarda nashr etildi. Asarning Suyuma G'aniyev va Ibroxim G'ofurov tarjimalari ostidagi nashri kitobxonlar o'rtasida keng tarqalgan.

«Panchatantra» masalining yozilish tarixiga oid quyidagi rivoyat mavjuddir:

*Zaminda jamiki qutlug so'zlardan
Vishnusharman ajratdi asl mag'zini
Va yaratdi dillarga farog'at bergan
«Panchatantra» nomli besh kitobni.*

Janub o'lkasida Mahilaropya degan shahar bor edi. U yerda dunyoning barcha bilimlaridan xabardor bo'lgan shoh Amarashakti umr kechirar edi. Ko'pdan - ko'p shohlarning tojlarini bezagan la'lu javohirlar uning poyini nurafshon qilib turardi. Uning bilmagan hunari qolmadi, hammasida mislsiz yagona bilimdon bo'ldi. Podshohning xaddan ziyoda tentak uch farzandi bor edi: Vasushakti, Ugrashakti, Anantashakti. Podshoh o'z ug'illarida ilmu hunarga rag'bat yo'qligini ko'rib vaziru vuzarolarini chaqirib ularga aytadi: «Ma'lumingizkim, farzandlarim ilmu donishdan yuzlarini ugirdilar. Ug'illarimga qarasam, hatto g'animlar yo'qligi ham meni quvontirmay qo'yadi. Rostdan ham, to'g'ri aytilgan ekan:

*Dunyoga kelmaganu tark etgan ziyonsizdir,
Onadan tug'ma tentak barchani abgor qilur.*

Yana:

*Kimga kerak suti yo'q sigir?
Nodonu joxil o'g'il qanday naf bersin?*

Ishqilib, bir yo'lini topingkim, ularga aql kirsin!

Shunda vazirlar dedilar: «Olampanoh! Odamlar ilmu holning o'zini o'rganishga o'n ikki yil sarflaydilar. Uni batamom bilib olganlaridan so'ng kishiga donolik beruvchi qutlug' bilimlarni o'rganadilar. Ana shundan keyingina ularning aqlari kiradi».

Vazir Sumati dedi: «Olampanoh! Umrimiz bebaho. Nutq ilmini uzoq yillar o'rganish kerak. Farzandlaring qanchalik tez oqil bo'lib yetishsalar, shunchalik yaxshi. Bekorga aytmaganlar:

*Ilmning cheki yo'q, umr esa qisqa,
Bilsang bo'ldi faqat mohiyatini.
Suv aralashgan bo'lsa sutga urdaklar
Ajrati olurlar sutni bemalol.*

Oramizda Vishnusharman degan brahman bor. Ko'p ilmlarda olimu fozil. Shahzodalarni tarbiyalashni unga topshir. hech shubxa yo'qki, ularning aqlarini kiritib qo'yadi.

Podshoh buni eshitib, Vishnusharmanni chaqirtirib keladi va unga deydi: «Ey muxtaram zot! Sen shunday qilginki, mening farzandlarim jamiki ilmu hikmatda boshqalardan o'zib ketsinlar. Men senga tilaganingcha tuxfalar beraman».

Vishnusharman shunda podshohga qarab debdi:

«O, olampanoh! Senga gapning chinini aytay. Men o'z bilimlarimni hech qanday tuxfalarga almashtirmayman. Lekin agar olti oydan so'ng sening o'g'illaring qutlug' bilimlar egasi bo'lib yetishmasalar, men shu

paytgacha orttirgan o'z shuhratimdan voz kechaman. Ko'p so'z kimga kerak? Mayli, mening arslon yanglig' o'kirganimni jahon eshitsin. Men ta'ma qilib aytayotganim yo'q. Men saksonga kirdim, bebaho dunyoning nafsu havosini yeb, Sarasvati hunarini ado etayin. Senga so'zim shu, agar ushbu soatdan e'tiboran olti oy o'tib, sening farzandlaring dono bo'lib yetishmasalar, u chog'da olampanoh meni xudolar izmiga topshirib qo'ya kolsinlar -deb javob qaytaribdi.

Podshoh brahmanni bu g'aroyib so'zlarini eshitib, arkonu davlati oldida o'g'illarini Vishnusharmaga topshiribdi va dili taskin topibdi. Brahman podshoh o'g'illarini o'z uyiga olib kelibdi. Ko'p o'tmay u «Dustlarning judo bo'lishi», «Do'stlar orttirish», «Qarg'alar va boyqushlar haqida», «Erishganni yo'qotish», «Axmoqona ishlar» nomli besh kitob bitibdi. Ularni shahzodalarga o'qitibdi. Ular bu kitoblarni o'qib donishmand bo'libdilar. O'sha zamonlardan beri qutlug' bilimlar xazinasi bo'lgan ushbu besh kitob «Panchatantra» deb atalib kelinadi. Yoshlar undan ahloqu odobga o'rganadilar. «Panchatantra» asari debochasida ushbu so'zlar bitilgan:

*Kimki mashaqqat chekib, qutlug' ilmi bo'ldi
Xudolar shohi Shakra nobud qilolmas uni.*

Mana shu so'zlardan keyin «Panchatantra» asarining hikoyalari boshlanadi. Quyida «Panchatantra» masalidan bir namuna beriladi.

Beshinchi hikoya

Bir o'lkada juda katta banan daraxti o'sardi. Qarg'a unda o'z oilasi bilan makon qurgandi. Har safar qarg'alar bola ochganda, daraxt kavagidan qora ilon chiqib, ularni yeb qo'yardi. Qarg'alar bu falokatdan qanchalar bezor bo'lmasinlar, necha zamonlardan beri yashab kelgan qadrdon uyalarini tashlab ketishni xohlamasdilar. Chunki:

*Qarg'a, ohu va qo'rqoq eski joydan ko'chmaslar,
Lekin botir er va fil kezib yurar yurtma-yurt*

Kunlardan bir kuni qarg'aning xotini erining poyiga tiz cho'kib yalindi:

-Xo'jam, bu qonxur ilon dastidan o'lar bo'lsak o'lib bo'ldik. Hamma polaponlarimni yeb ketdi. Mening boshqa tobi toqatim qolmadi. Bu yerlardan boshim oqqan tomonga uchib ketsam deyman. Boshqa daraxtga ko'chaylik. To'g'ri aytganlar:

*Do'st yo'qdir sog'liqdan ko'ra ishonchli,
Kasallikdan ortiq yovuz dushman yo'q.
hammadan qudratli bolaning mehri,
Baridan yomonroq ochlik kulfati.*

Undan tashqari:

*Taskin toparmi axir dalasini suv bosgan,
Uyiga ilon kirgan, xotini buzuq chiqqan?*

Buning ustiga o'z hayotim ham xavf ostida qolmoqda.

Qarg'a xotinidan ham ko'proq alam chekkan bo'lsa-da, shunday dedi:

«Jonim, o'rgangan eski uyimizni tashlab qaerga boramiz? Menga ishon, ul ashaddiy dushmanimizni men albatta hiyla bilan yengaman. Xotini ishonqiramay dedi: «Bu ilon juda zaharli. Qanday qilib uni yengasan? Eri dedi: «Unga yolg'iz o'zimning kuchim yetmaydi. Lekin mening donishmand do'stlarim bor, ulardan yaxshi maslahat so'rayman. Ularning yordami bilan zolimdan o'ch olaman.

Qarg'a shu so'zlarni qahru g'azabi toshib aytgach, tagida o'z suyuqli do'sti shaqol yashaydigan daraxtga uchib kelib qo'ndi. Shaqol bilan hurmatini o'rniga qo'yib salomlashdi, unga o'z boshiga tushgan qayg'u-alamlarni so'zlab berdi va oxirida iltimos qildi: «Azizim, bizga to'g'ri yo'l ko'rsat! Polaponlarimizni ilon yutayapdi, bizni dardu hasrat ado qilyapti. Shakol dedi: «Nima qilish kerakligini men bilaman. G'am chekma, birodar. Zolim qora ilon o'z tubanligi tufayli albatta o'lim chohiga tushadi. Eshitmaganmisan:

*Laylak ochko'zlik qilib baliqlarni xo'p qirdi,
Lekin shum qisqichbaqa uning boshiga yetdi.*

Qarg'a so'radi: «Bu kanday bo'ldi? Shaqol hikoya qildi: (Bu hikoya oltinchi hikoya sifatida davom etadi).

4.3 «Vetalaning yigirma besh hikoyasi»

«Vetalopanchovinshati»

«Vetalopanchovinshati» asari sanskrit tilidan «Vetalaning yigirma besh hikoyasi» deb tarjima qilinadi. Bu asar ertak janridagi asar. Asarning bosh qahramoni Vetala ismli shayton asarning nomida aks etgan. Ikkinchi bosh personaj Vikram shohidir. Afsonalarga ko'ra, meloddan avvalgi 1-asrlarda Vikram degan donolikda tengi shoh o'tgan. U qadimgi Hindistondagi buyuk davlatlaridan biri bo'lgan Ujjayn shohligida shoh bo'lgan. U o'z hukmronligi davrida Hindistonda yangi sanaga asos solgan. Bugungi kunda bu sana uning nomi bilan, ya'ni «*Vikram samvat*» nomi bilan yuritiladi. Vikram kiritgan sana eramizdan avvalgi 57-yildan boshlanadi, ya'ni melodiy yildan 57 yil oldinda yuradi. (melodiy 2000 yilda Vikram sanasida 2057-yil bo'ladi). Vikramning donoligi haqida xalq orasida turli afsonalar yuradi. Afsonalarga ko'ra u botir, qo'rqmas, aqlli, bilimdon va saxiy shoh bo'lgan. Asarga Vikramning donoligi, hozirjavobligi, botir va qo'rqmasligini ochib beruvchi kichik-kichik hikoyachalar qoliplpsh usulida kiritilgan. Har bir hikoya mazmun jihatidan

bir-biridan farq qiladi, lekin ularning barchasi yagona maqsadga xizmat qiladi va yagona g'oya atrofida mujassamlashgan. Barcha hikoyalarning qahramoni bitta, ya'ni Vikram shohidir. Ikkinchi asosiy qahramon Vetala bo'lib, u bir murdani tanasiga joylashib olgan shaytondir. Hikoyalarning barchasidagi voqealar shayton Vetala va shoh Vikram o'rtasida bo'lib o'tadi. Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Vikram shohining oldiga har kuni bir kambag'al, bechorahol monax kelib unga bittadan ichida kimmatbaho toshi bor meva tashlab ketaveradi. Undan mamnun bo'lgan shoh uning istagan tilagini bajarishini aytadi. Monax shunda Vikramdan bir daraxtda osilib turgan, ko'milmay qolib ketgan murdani olib uni mozorga olib borishini aytadi. Lekin yo'lda u bir og'iz ham so'z aytmasligini, agar aytadigan bo'lsa murda yana qo'lidan chiqib daraxtga osilib qolishini aytadi. Vikram o'likni daraxtdan oladi va yelkasiga ortib mozorga yo'l olganida birdan murda, ya'ni Vetala tilga kiradi. Vetala shoh Vikramga bir topishmoq tarzidagi hikoyachani so'zlay boshlaydi. Hikoya yechimsiz bo'lib uning yechimini Vikram topishi kerak edi. Shu yo'sinda Vetala yigirma to'rtta hikoya aytadi, uning yechimini esa Vikram topib boradi va Vetala yigirma to'rt marta Vikramning qo'lidan chiqib ketib daraxtga osilib qolaveradi. Lekin yigirma beshinchisiga Vikram javob qaytarmaydi. Natijada Vetala yutqazadi va u Vikramga monaxning bu ishni qilishdan asl maqsadi sehr-jodu kuchiga o'zi ega bo'lib olib shohga yomonlik qilmoqchi ekanligini aytib beradi. Vikram o'tkir zehni va zukkoligi bilan o'lik tanaga joylashib olgan shayton Vetala ham yengadi, o'z jonini ham xavf-xatardan saqlab qolishga muyassar bo'ladi va sehr-jodu kuchiga o'zi ega bo'lib oladi.

Bu asarning ham turli davrlarga tegishli juda ko'p qayta ishlangan variantlari mavjud. Ular orasida nazm va nasr aralash holda yaratilganlari ham bor. Shivdas taqrizi ostida ishlangan varianti taxminan XII asrlarga qarashli, undan keyingi davrda Jambhaladatta varianti she'riy kiritmalarsiz yozilgan. Aniqrog'i nazmda yaratilgan varianti nasrga o'girib bayon etilgan.

«Vetalaning 25 hikoyasi» ertagi boshqa xalqlar adabiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, mongol adabiyotidagi «*Sehrli murda*» («*Siddi-Kyur*») ertagi, aniqlanishicha, «Vetalaning 25 hikoyasi» asarining mongol adabiyotiga ta'siri natijasida bunyodga kelgan ekan.

Mongol xalqi ko'chmanchi xalq bo'lishiga qaramasdan o'zining milliy adabiyotiga ega. Ayniqsa Mongoliyaning g'arbiy qismida istiqomat qiluvchi oyrat va qalmiq elatlari o'zining boy yozma adabiy merosiga ega. Mana shu meroslar ichida xalq orasida keng tarqalgan va sevib o'qiladigan asarlardan biri «*Siddi-Kyur*», ya'ni «*Sehrli murda*» asaridir. Asar ertaklar

majmuasidan iborat bo'lib, uning syujet va kompozitsiyasi va tarkibidagi ertaklarning mazmuni «Vetalopanchovinshati» asari bilan deyarli bir xil. Ularning bir-biriga o'xshashligi bilan bir qatorda farqli tomonlari ham bor. Ayniqsa mongolcha variantida asar g'oyasini tashkil etuvchi kirish so'z butunlay boshqacha qilib yaratilgan. Hind asaridagi brahman obrazi o'rnida mongollarning buddist avliyosi Nagarjuna ishtirok etadi. Vikram shohi obrazi urniga esa mongol shohi Amulung-Edlegchi obrazi kiritilgan. «Vetalaning 25 hikoyasi»da hinduizm elementlari kuchli bo'lsa, mongol asarida, albatta, buddizm g'oyalari kuchli. Ertaklarda esa Tibet xalqi urf-odatlari, milliy an'analari katta o'rin egallaydi. Umuman olganda, asar hind asarining mongolcha varianti bo'lishiga qaramasdan ertaklarda mongol xalqi milliy ruhi, urf-odat va an'analari kuchli ifoda etiganligi sabab u mongol xalqining mustaqil bir asariga aylanib ketgan.

«Vetalaning 25 hikoyasi» hind xalq ertagi sifatida ko'pgina tillariga, shu jumladan, rus tiliga ham tarjima etilgan. Asar tarkibiga kirgan ertaklarning nomi ularning topishmoqli, pand-nasihatchilik tarzidagi didaktik ertaklar ekanligini bildirib turadi. Ertaklarning nomlanishi esa quyidagicha:

- *Erning bevafoqligi va xotinning bevafoqligi.*
- *Oliyjanob qaroqchi.*
- *Shoh va uning qo'mondonining ayoli.*
- *Uch kuyov*
- *Ayyor va getera.*
- *Uch ota o'g'li.*
- *Hal qilib bo'lmas qarindoshlik.*
- *Adashtirib yuborilgan boshlar* va hokazolar.

Vetalaning Vikram shohiga so'zlab bergan hikoyalaridan birining mazmuni quyidagicha: (Shivadas variantidan olib rus tiliga tarjima etilgan).

Uch kuyov **(Uchinchi hikoya)**

Shoh Vetalani yana qayta olib ketayotganida Vetala o'zining yana yangi hikoyasini boshladi:

«Kalindi daryosi bo'yidagi Braxmaputra shahrida Agnisvami ismli bir brahman yashar edi. Uning Mandaravati degan bir go'zal qizi bor edi. Kunlardan bir kun uch brahman yigit bu qizni ko'rib qoladilar uning go'zalligiga mahliyo bo'lib uchchovlari sevgi azobida qoladilar va otasi Agnisvami yoniga kelib uni qo'lini so'raydilar. Otasi bir-biridan mard va soxibjamol bu yigitlarni ko'rib qay biriga qizini berishni bilmay boshi qotib deydi: «Sizlar uchchovingiz ham boy-badavlat, sohibjamol va yaxshi xonadon farzandlari ekansizlar. Mardlikda uchchovingizning ham

dong'ingiz olamga taralgan ekan. Lekin mening qizim esa bitta, uni qaysi biringizga beraman?». Shunda yigitlardan biri dedi: «Qizingizni menga bersangiz bu ikki do'stim jonini tark etadi, men esa gunohga qolaman». Agnisvami esa birovni gunohga qoldirishdan qo'rqib qizini ularning hech qaysisiga bermaslikka qaror qiladi.

Bu orada ollohning irodasi bilan Mandaravati olamdan ko'z yumadi. Uni yoqib yuborganlaridan keyin brahman yigitlardan biri uning kulini badaniga surtib, qizning sochini o'rib olib darveshlardek sayohatga jo'naydi. Ikkinchi brahman yigit esa uning suyaklarini terib olib turli muqaddas joylarni ziyorat qilgani ketadi. Uchinchisi esa qiz yoqilgan joyda uycha qurib uning ruhi pokiga duolar o'qib o'tiradi.

Kunlardan bir kun brahman darbadarlikda yurib Rudrasharman ismli bir brahmanning uyiga keladi va undan yemishlik biron narsa so'raydi. Shunda u **xotiniga** qarab: «Xotin, bu oliyjanob brahmanga yeyish uchun biron narsa ber» - deydi. Ovqat pishganida esa bolasi yig'lab qoladi va Rudrasharman bolani jahl ustida olovga otib yuboradi. Sayyoh brahman o'lik bolani ko'rib ovqat yeyishdan bosh tortadi va ketish taraddudiga tushib qoladi. Lekin buni ko'rgan Rudrasharman mahsus duo o'qib bolani tiriltiradi. Shundan so'nggina brahman qolishga rozi bo'ladi. U yerda ovqatlanib, duo kitobini olib qizi Mandaravati yoqilgan yerga boradi. Ikkinchi brahman esa qizning suyaklarini turli ziyoratgohlarga olib borib uni muqaddas Gang suvida yuvib u ham yana shu yerga qiz yoqilgan joyga qaytib keladi. Uchinchisi brahman esa haligacha shu yerda qizning ruhi pokiga duolar o'qib o'tirar edi. Ikkinchi va uchinchisi brahmanlar qizning suyak va qo'llarini yig'ib Mandaravatini tanasini yasaydilar, otasi esa o'sha kitobidan mahsus duoni o'qib unga jon kiritadi. Qizni tirilganini ko'rgan uchchala brahman uni talashib yana urishib qoladilar. Aytchi shoh, ulardan qaysi biri qonunan qizning eri hisoblanadi? «Ey, Vetala, duo o'qib jon kiritgan uning otasidir, chunki u uni dunyoga keltirdi. Suyaklarini olib muqaddas joylarni ziyorat qilgan uning o'g'li, chunki u o'g'illik vazifasini bajardi. U yoqilgan yerda uycha qurib uning ruhi pokiga duolar o'qib o'tirgan brahman qonunan uning eridir. Chunki u erning vazifasini ado etgan» deb javob beradi shoh Vikram. Shoh shu gapni aytishi bilan Vetala yana uning qo'lidan chiqib ketib daraxtga osilib qoladi.

Shu yo'sinda hikoyalar davom etaveradi. Oldingi barcha yigirma to'rtta hikoyaga Vikram to'g'ri javob qaytaradi, lekin indamaslik shartini buzadi. Shu sabab har safar murda uning qo'lidan chiqib ketaveradi. Oxirgi yigirma beshinchi hikoyaga javob qaytarmagach Vikram shartni bajargani uchun yutib chiqadi va Vetalani mozorgacha yetkazib olib boradi.

4.4 «Shoh taxti hakida o‘ttiz ikki hikoya»

«Sinhasanadvatrinshatika»

«Sinhasanadvatrinshatika» asari sanskrit tilidan «Shoh taxti haqida o‘ttiz ikki hikoya» deb tarjima qilinadi.

Qadimgi hind adabiyotida Vikram shohi nomi bilan bog‘lik ertak janridagi ko‘pgina asarlar Ulardan biri «Vikramacharita», ya‘ni «Vikramning hayoti» yoki «Sinhasanadvatrinshatika» («Shoh taxti haqida o‘ttiz ikki hikoya») deb nomlanadi. Bu asar ham qoliplash usulida yozilgan bo‘lib, unda Vikram hayotiga bog‘liq turli hikoyalar hikoya qilinadi. Unga ko‘ra Indra ma‘budi shoh Vikramga antiqa o‘ttiz ikki haykalchadan iborat taxt sovg‘a qiladi. Keyinchalik esa bu taxtlar osmon ma‘budlari tomonidan sehrlab qo‘yiladi. Vikram vafotidan keyin esa taxtlarni yerga qazib qo‘mib qo‘yiladi. Chunki taxtni egallashga loyiq hech kimsa topilmaydi. Yillar o‘tib shoh Bxoja bu taxtlarni topib oladi va ularni o‘zi egallamoqchi bo‘ladi. Shunda taxtdagi haykalchalar tilga kirib shohga: «Sen agar oliyjanoblikda Vikramga yeta olsang bu taxtlarga ega bo‘lishing mumkin» deb tayinlaydilar va Vikramning qilgan oliyjanobliklaridan birini so‘zlab beradilar va bunday hikoyalardan o‘ttiz ikkitasi so‘zlandi, hikoyalar esa har safar haykalchalarning quyidagi murojaati bilan tugaydi: «Ey shoh Bxoja, agar senga ham shunday oliyjanoblik xos bo‘lsa unda bu taxtga o‘tirishing mumkin». Shoh esa hikoyani eshitganicha jim turar edi.

«Shoh taxti haqida o‘ttiz ikki hikoya» asari X1 asrlarda yaratilgan deb tahmin qilinadi. Chunki shoh Bxoja Paramar avlodidan chiqqan shoh bo‘lib u X1 asrning birinchi yarmida shohlik qilgan bo‘lib, u ham o‘zining aqli, adolatparvar, xalqparvarligi va jasurligi bilan dong chiqargan shohlardan bo‘lgan ekan. Balki asar Bxojaning hayotligidayoq yaratilgan degan tahminlar ham mavjud.

«Shoh taxti haqida o‘ttiz ikki hikoya» asarining ham bir qancha variantlari mavjud. Bizgacha yetib kelganlari «janubiy» varianti, «jayn» varianti hamda «qofiyali» variantlaridir. Ularning barchasi ham asl nusxa bo‘lmasdan qayta ishlangan variantlardir. Asarning muallifi ham ma‘lum emas. Quyida asar tarkibidagi hikoyalardan namuna keltiriladi.

«Shoh va qurbonlik keltiruvchi»

(Ikkinchi haykalcha hikoyasi)

Shoh Bxoja yana taxtga yaqin kelib unga o‘tirmoqchi bo‘lganida, undagi haykalcha tilga kirib deydi. «O shoh! Agar sen Vikramdek oliyjanob bo‘lsang mayli unda taxtga o‘tiraqol! Shunda shoh Bxoja so‘raydi: «Haykalcha, Vikramning oliyjanobligi haqida so‘zlab berchi». «Ey shoh, tingla bo‘lmasa hikoyamni» deb haykalcha hikoyasini boshlaydi.

«Bir kuni shoh Vikramaditya shohlik qilayotgan vaqtida o‘z xizmatchilarini chaqirib «Ey xizmatchilar, borib dunyoni kezinglar, qaerda antiqa bir narsa, yoki muqaddas bir joy, yoki bo‘lmasa ajoyib bir voqeani ko‘rsanglar menga kelib xabar beringlar, men albatta uni o‘z ko‘zim bilan ko‘rgani boraman» - deydi.

Bir qancha vaqt o‘tgach, dunyo kezgan xizmatchilardan biri kelib shohga shunday xabar yetkazadi: «O shoh, Chitrakuta tog‘i yonbag‘ridagi o‘rmonda bir ajoyib ibodatxona bor ekan, u yerda gunohkorlar o‘z gunohlari uchun Yaratgandan kechirim so‘rash uchun ibodat qilar ekanlar. Tog‘ cho‘qqisidan u yerga musaffo suv oqib turar ekan. Kimda kim agar u suvda cho‘milsa barcha gunohlaridan, hatto kechib bo‘lmas gunohlaridan ham, ozod bo‘lar ekan. Undan tashqari u suvda agar juda katta gunoh qilgan shaxs cho‘milsa suv uning tanasidan qop-qora bo‘lib oqib tushar ekan. Bu suvda cho‘milgan har bir inson poklanib chiqar ekan. Undan tashqari bir brahman ko‘p yillardan beri u yerda olov yokib qurbonlik ham keltirayotgan ekan. Brahman bu ishni necha yillardan beri davom ettirib kelayotganini hech kim bilmas ekan. U yoqib tamom qilgan o‘tinlarning qoldig‘i tog‘ bo‘lib ketgan. U hech kim bilan gaplashmas ham ekan. Men ko‘rgan ajoyibot shundan iborat».

Bu gapni eshitgan shoh o‘sha xabarchisi bilan o‘sha yerga borib bu joyning buyukligiga o‘zi ishonch hosil qilib debdi: «Darhaqiqat, bu yer juda muqaddas joy ekan. Bu yerda haqiqatan ham Jagadambika (ma’nosi «Tinchlik onasi», Shiva ma’budining ayoli Parvatining bir epiteti) yashar ekan. Bu yerga kelishim bilan o‘sha zaxotiy oq ko‘nglim juda ravshan topib, o‘zimni yengil his qilayapman». Shunday deb shoh muqaddas suvda cho‘milibdi, ibodatxonani ziyorat qilibdi va brahman qurbonlik qilayotgan joyga borib undan so‘rabdi: «Ey brahman, qurbonlik keltirishni boshlaganingga necha yil bo‘ldi?» Brahman javob beribdi: «Men qurbonlik keltirishni boshlaganimda «Yetti donishmand» (ya’ni «Katta ayiq» yulduzlari) yulduzi oyning Revati uyining birinchi bo‘lagida edi hozir esa u oyning Ashvini uyida (hind astrologlari oyning joylashishiga qarab osmonni «Oyning 28 uyiga ajratadilar va ularni oyning 28 ayoli sifatida ta’riflaydilar. Revati va Ashvini o‘sha ayollarning ismidir) Oradan yuz yil o‘tdi. Lekin xudo haligacha mening gunohimdan o‘tgani yo‘q». Buni eshitgan shoh xayolan xudoga murojaat etib o‘z qo‘li bilan qurbonlik uchun ajratilgan narsani olovga tashlabdi. Lekin xudo shunda ham javob bermabdi. Shunda shoh o‘ylab turib: «Endi men o‘z boshimni qurbonlikka keltira qolay» deb qilichini bo‘yniga tirabdi. Shunda xudo uning qilichini ushlab qolib: «Ey shoh, men sendan mamnunman, tila tilagingni» - debdi. Shunda shoh:

«Mana bu brahman senga necha yillardan beri qurbonlik keltirar ekan, nima uchun uni shuncha vaqtgacha gunohidan kechmading? Menga tez e'tibor qilganingning boisi nimada?» - deb so'rabdi. Shunda samodan shohga quyidagi javob kelibdi: «Ey shoh, bu brahman ibodat qiladi, kechirim so'raydi, lekin yuragida qat'iylik yo'q. Shu sabab u mening e'tiborimni qozona olmadi. Axir aytilganku: *Kimda kim nomiga ibodat qilsa, kimda-kim beo'xshov ibodat qilsa, kimda-kim tarqoq fikr, xayolparastlik bilan ibodat qilsa,- ularning ibodati kuchga ega bo'lmay bekorga ketadi.*

Demak, xudo daraxtda ham emas, toshda ham emas, tuproqda ham emas. Yaratgan - insonning yuragidadir. Shu sabab - har bir narsaning asosi yurakdir.

Yana aytilgan: *Ibodatda, ziyoratda, brahman bilan, Yaratgan bilan, ustoz bilan suhbatda va dori-darmon qabul qilayotganda unga bo'lgan ixlosga ko'p narsa bog'liqdir.*

Shoh debdi: «Yaratgan egam, agar sen mendan rozi bo'lsang, mana shu brahmanning ham istagini bajo ayla». Yaratgan debdi: «Ey shoh, sen chinor daraxtidek barchaga soya berib yaxshilik qilib yurasan. Sen o'zingga zarar keltirib bo'lsa ham boshqalarga foyda keltirasan. Aytilganku axir: *«Bahaybat daraxtlar o'zlari o'tob tig'ida kuysalar ham yosh daraxt va novdalarni o'z himoyasida saqlaydilar va o'zlari uchun emas balki boshqalar rohati uchun meva ham beradilar. Demak, boshqalar rohati uchun daryolarda suv oqadi, boshqalar hayoti uchun sigirlar sut beradi, boshqalarni ta'minlash uchun daraxtlar meva beradi, boshqalarning baxti uchun oliyjanob odamlargina yashaydilar».* Shohni shunday maqtovlarga belab Yaratuvchi xudo o'sha brahmanning ham tilagini bajo aylabdi. Shoh esa o'z yurtiga qaytib ketibdi».

Shu hikoyani so'zlab, haykalcha shoh Bxoja debdi: «Ey shoh, agar sen ham shunday oliyjanob bo'lsang, unda taxtgga o'tirishing mumkin». Shoh Bxoja esa hikoyani tinglagancha jim turar edi.

4.5 «Ibratli hikoyatlar»

«Hitopadesha»

«Hitopadesha» asari «Panchatantra»dan yoshroq. U 10-14 asrlar mobaynida Bengal viloyatida yaratilgan. Hind adabiy an'anasiga ko'ra, Narayan Pandit mazkur asarning muallifi hisoblanadi. Asar sanskrit tilida yozilgan.

«Hitopadesha» tuzilishi jihatidan «Panchatantra»ga o'xshaydi. Bir qator mavzular «Panchatantra» va boshqa manba'lardan olingan. «Panchatantra»dan olingan syujetlar qayta ishlangan. «Hitopadesha»ning tili «Panchatantra»ga qaraganda sodda va ravon, maqol, matal va hikmatli

soʻzlarga juda boyligi bilan ajralib turadi. Shu sababga koʻra asar nixoyatda maroq bilan oʻqiladi. Lekin uning tarkibida «Panchatantra»ga kirmaydigan butkul mustaqil masallar ham juda koʻp.

«Hitopadesha» toʻrt qismga boʻlingan. Birinchi ikki qism «Panchatantra»ning birinchi va ikkinchi kitoblariga mos keladi, yaʼni unda avval doʻstlar orttirish haqida soʻngra esa doʻstlarning judo boʻlishi haqidagi masallar jamlangan. Uchinchi va toʻrtinchi qismlariga esa «Panchatantra»ning uchinchi kitobidagi masallardan tanlab kiritilgan. Bu qismlarda urushni olib borish haqidagi masal «Panchatantra»dek qargʻa va boyqushlar oʻrtasidagi kurash tarzida emas balki oʻrdak va tovuslar oʻrtasidagi kelishmovchilik tarzida hikoya qilinadi.

«Hitopadesha»da «Panchatantra»ga nisbatan pand-nasihatga eʼtibor koʻproq qaratilgan. «Hitopadesha»ni dunyoga mashhur qilgan tomoni uning ramkalash, yaʼni syujetning hikoya ichida hikoya shaklida tuzilgani, voqealarning deyarli hammasi parranda va hayvonlar tilidan soʻzlanishi va hikmatlarning koʻpligidir.

Ushbu asar oʻz tabiatiga koʻra didaktik asarlar jumlasiga kiradi. Har bir hikoya ezgulik, yaxshilikka undaydi, toʻgʻri yoʻlga boshlaydi. Tarbiyaviy ahamiyatga katta boʻlgan mazkur asarni hindlar «ilm-hikmat xazinasini» deb bejiz aytmaydi. «Hitopadesha» koʻplab garb va sharq tillariga, jumladan, rus va oʻzbek tillariga ham tarjima qilingan. XX asrning oʻzida rus tilida uch marta uch xil tarjimada nashr etilgani bu asarga boʻlgan qiziqishning naqadar zoʻrligini koʻrsatadi. «Hitopadesha» oʻzbek tiliga ham hindi tilidan Ansoriddin Ibroximov tomonidan tarjima qilinib 1997 yili nashrdan chiqarilgan.

«Hitopadesha» qariyb ming yil ilgari yaratilgan. Tabiiyki, asarda oʻsha davr va oʻsha makonning aksi bor. Lekin baribir undagi umuminsoniy fazilatlar har yerda, har davrda deyarli oʻzgarmaydi. Kitobda ota-onaga hurmat, ahloq-odob, hurmat-sadoqat, ilm-maʼrifat, rostgoʻylik, jasurlik kabi fazilatlar kuylanadi. Va aksincha, xiyonat, igʻvo, zoʻrlilik, razolat kabi nuqsonlar fosh etiladi.

Quyida «Hitopadesha» asaridagi ayrim qisqa masallar namuna sifatida keltiriladi.

«Qargʻa, sichqon va toshbaqa»

Qargʻa bilan sichqonni koʻrib, toshbaqaning sevinchi ichiga sigʻmay ketibdi. Darrov uyiga taklif qilib, sidqidildan ularning xizmatida boʻlibdi.

Axir aytadilar-ku, *mehmonning katta-kichigi boʻlmaydi* deb. Xoh bola boʻlsin, xoh keksa, bundan qatʼiy nazar, mehmon xudoning bir qiyofasidir.

Bordi-yu yuqori toifaga mansub kishining uyiga past toifadagi odam mehmon bo'lib kelsa, u ham xuddi shunday izzat-ikromga loyiqdir. Mehmon har kimning ham uyiga kelavermaydi, baxtiyor kishilarnikiga keladi.

Qarg'a sichqonni toshbaqaga tanishtira turib dedi:

O'rtokjon gapimni eshit: mana shu mening eng qadrdon do'stimdir. Boshida mendan cho'chib hadiksirab, do'st tutinishga unamay turgan edi. Qancha gapirdim, so'zladim. Oxiri to'g'riligimga ishondi. Shundan keyin do'stlashishga ko'ndi. Bu yog'ini so'rasang, uchalamizning ichimizda eng aqllisi shu. Bizning do'stligimiz bundan faqat yutadi. Ana endi uchchalamiz birga yashayveramiz.

Qarg'aning gapidan keyin toshbaqa sichqonni quchoqlab oldi. Uning yelkalarini silab turib dedi.

«Biz bilan do'st tutinib juda boplabsan. Bu do'stligimizni ham butun olam gapiradi.

«Raxmat, do'stim, sizlarga har qancha minnatdorchilik bildirsam oz. Sizlarning o'rtangizdagi mehr-muhabbatni ko'rib, kechmishim esimga tushib ketdi» - debdi sichkon.

«Qanday kechmish ekan? Eshitsak bo'ladimi?» - ikkovi baravar so'rabdi.

«Marhamat. Mana eshitinglar. Shunday deb sichqon so'zlashga tushibdi.

«Yana bir yangi do'st»

Bir kuni sichqon, toshbaqa va qarg'a ko'l bo'yida suhbat qurib o'tirishardi. Shu payt qayoqdandir o'qday uchib halloslab kiyik kelib qoldi. Kiyikni ko'rib sichqon qo'rqqanidan qochib ketdi, toshbaqa o'zini suvga tashladi, qarg'a esa qag'-qag'lab uchib daraxtga qo'ndi. Uning qag'-qag'iga bir gala qarg'a uchib keldi.

«Xoy birodar!» - deya gap boshladi toshbaqa kiyikka qarab - ayt, nimadan bunchalik qo'rqayapsan? Qo'rqmay bemalol suvingni ich, keyin birpas xordik chiqar. So'ng ketarsan o'rmonga.

«Birodar, men bu yerga bir ovchidan qochib keldim. Bu o'rmonda mening hech kimim yo'q, yoru birodarim yo'q. Shuning uchun men bilan o'rtoq bo'lsang. Yolg'iz daraxt xunuk ko'rinadi, deyishgan ulug'lar. Sichqon kiyikka qarab dedi:

«Birodar, sen bilan shundoq ham do'st tutinib bo'ldim. Do'st to'rt xil bo'ladi: o'z farzanding, qarindosh-urug'ing, er tomondagi qarindoshlar va kulfat tushganda kunga yaraydigan do'stlar. Oldimizga kelgan ekansan, endi bizga do'st bo'ldim, deyaver.

Bu gaplar kiyikning cho'kkan ko'nglini ko'tardi, ko'ngli ancha taskin topdi. Qo'rquvi ham biroz kamaydi-da, bir daraxtning soyasida yotib dam ola boshladi. Qarg'a kiyikning oldiga keldi-da, so'z qotdi: «Qani, rostini ayt-chi, o'rtoq, nimadan qo'rquvding? Bu o'rmonda ham ovchilar bormi? «Ha, o'rtoq. Bu yerlarda ham ovchilar paydo bo'lib qoldi. Gap shundaki, shu kunlarda Magadxaning hukmroni Ganga daryosining qirg'ogiga kapa tikkan. Ular saharlab bu ko'lga keladi. Shuning uchun, menimcha, bu yerda qolish hatardan holi emas. Agar gap shundoq bo'ladigan bo'lsa darhol gapga qo'shildi toshbaqa - demak, unda bu yerdan juftakni rostlab qolish lozim. Menimcha, tirik qolishning birdan-bir chorasi shudir.

«Ha-a, gaping to'g'ri» - dedi sichqon toshbaqaning gapini ma'qullab. «Bo'lmasa ovchilar bizni sog' qo'ymaydi. Lekin bir narsaga hech aqlim yetmayapdi».

«Nima ekan u?» - so'radi toshbaqa hayron bo'lib turgan sochqonga tikilib. Birodar, mana sen-ku biron-bir ko'lga borib o'sha yerda yashayverasan. Qarg'a ham biron daraxtga oshyon qurib oladi. Lekin qiyin bo'lganda menga qiyin. Men in yasamasam iloji yo'q, bunga esa vaqt ketadi, chunki suv jonivorining uyi suvdir, lashkarning ishongani qal'a, podshoning ishongani esa lashkar - degan gap bor.

Endi bir yo'lini qilmasak bo'lmaydi. Ulug'lar aytganki, har narsani chuqur o'ylash darkor, har ofatning chorasi va har g'amning nihoyasi bordir. Lekin buning uchun biroz aqlni ishlatish kerak. Aqli borning hamma narsasi bor deyaver. Xuddi shu aql kuchi bilan ayyor shaqol bahaybat filni botqoqqa botirib, o'ldirgan ekan. «Nima deding? Shaqol filni o'ldiribdi deysanmi? - hammalari anqaygancha sichqonga qarab qolishdi. «Ha, mana eshitinglar. Men sizlarga o'sha shaqol haqidagi hikoyani aytib beraman.

4.6 «To'tining yetmish hikoyasi»

«Shukasaptati»

Hind ertaklari orasida xalq etiborini qozongan ertaklardan yana biri bu «Shukasaptati», ya'ni «To'tining yetmish hikoyasi» asaridir.

Sanskrit tilida yaratilgan Ushbu asarning asl nushasi bizgacha yetib kelmagan. Lekin barcha hind ertaklari singari «Shukasaptati» ertagi ham ko'p marta qayta ishlangan. Ulardan ayrimlari yetib kelgan. Jumladan, birinchisi, sanskrit tilida *Chintamani Bxatta* tomonidan qayta ishlangan to'liqroq varianti, va ikkinchisi esa, ko'p vaqtlar o'tganidan keyin nazmda yaratilgan variantini soddaroq tilda nasrda qayta ishlangan variantidir. Asarning prakrit tilida nazmda yozilgan variantlari ham mavjud. Hind mutaxassislarining tahminiga ko'ra o'sha prakritdagi nazmda yaratilgan variantidan keyinchalik nasriy varianti ishlab chiqilgan. «Shukasaptati»

asarining bu qayta ishlangan variantlari tahminan XII-XI asrlar o'rtasida amalga oshirilgan deb tahmin qilinadi.

Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Savdogar Madanavinoda safarga yo'lga chiqadi va yosh ayoli Prabxavatini uyda yolg'iz qoldiradi. Bir necha kundan keyin erisiz zerikkan ayol begona erkak bilan do'stlashishga qaror qiladi. Ularning uyida bir to'tiqush bor edi. Mana shu to'tiqush ayolni gunoh yo'ldan to'xtatish maqsadida uni chalg'itib turli hikoyalar so'zlab beradi. To'ti qiyin ahvolga tushganda nima qilish lozim, bu holdan qanday qilib chiqish mumkin, ahloq-odob yo'lida qanchalik katta foyda borligi va shu kabi turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalarni so'zlab beradi. Lekin hikoyalar orasida ahlokiy normalardan chetga chiquvchi hikoyalar ham yo'q emas, masalan erni qanday qilib aldash, uni o'z izmiga tushirib olish va shunga o'xshash ayolarga xos nayranglar haqida ham hikoyalar mavjud.

Quyida to'tiqush hikoyalaridan ayrimlari namuna sifatida keltiriladi:

«Muladevaning qarori»

Keyingi kun Prabxavati uchrashuvga borish uchun yana javob so'raydi, shunda to'ti debdi:

«Mayli bora qol, men sening yo'lingni to'smayman, lekin qiyin ahvolga tushib qolganingda sen ham Muladevadek javob bera olsang bas».

«Dunyoda murdalarni yoqadagan Bxutavasa (Shiva ma'budiga xizmat qiluvchi yovuz devlar makoni) degan bir joy bor. U yerda Karala va Uttala ismli ikki dev yashar ekan. Ularning birining ayolining ismi Dxumaprabxa ekan, ikkinchisining ismi esa Megxaprabxa ekan. Ikkala dev ham kimning ayoli go'zalroq deb doim bahslashar ekanlar. Kunlardan bir kun ikkala dev ham o'z ayollari bilan sayr qilib yurib Muladeva ismli bir shaxsni ko'rib qolib uni qo'lidan ushlab olib unga: «Bu ikki ayoldan qay biri go'zalroq? deb savol beribdilar, agar to'g'risini aytmasang o'ldiramiz deb qo'rqitib ham qo'yibdilar». Aksiga olib ikkala ayol ham bad-bashara, qo'rqinchli va qari ekan. Nima deb javob berish mumkin! Muladeva debdi:

«Dunyoda insonga o'z sevgilisidan go'zalroq hech kim bo'lmaydi». Ayyorlar xudosi Muladeva shunday deb javob berganidan keyin ular uni qo'yib yuboribdilar.

Bu hikoyani eshitib Prabxavati uxlab qolibdi.

«Shukasaptati»dagi o'ttizinchi hikoya mana shundan iborat ekan

4.7 «Monaxlar haqida o'ttiz ikki hikoya»

«Bharatakadvatrishati»

«Monaxlar haqida o‘ttiz ikki hikoya» asari «Panchatantra», «Shoh taxti haqida o‘ttiz ikki hikoya» yoki bo‘lmasa «To‘tining yetmish hikoyasi» kabi asarlardagidek qoliplash (ramkalash) usulida yozilmagan. Bu asarga qoliplash usulining zarurati ham bo‘lmagan. Chunki hikoyalar bir-biri bilan to‘qima syujet orqali bog‘lanib ketavergan. Bir tomondan, hikoyalar Afandi hikoyalari tarzida bo‘lib ularda axmoqlar ustidan kulish bosh maqsad qilib olinadi, lekin tanqidga olinganlar jamiyatning istagan vakili emas, balki aynan monaxlardir, lekin istagan monax emas kambag‘allar toifasiga kirib qolgan monaxlardir. Ularni hind jamiyatidagi shivaitlar «Bxarataka» deb nomlaydilar. Asar haqida turli tahminlar mavjud. Ulardan biri I.Xertel tahmini bo‘lib, uning fikricha “Bxaratakadvatrishati” hikoyasida jayn dini monaxlari haqida so‘z boradi. Asar muallifi jayn dini vakili Munisundari (1360-1447) deb tahmin qilinadi. Asar hikoyalarida jayn monaxlarining shivaitlar bilan g‘oyaviy kurashi tasvirlangan. Bu albatta tahminiy fikrlardir. Lekin shunga qaramasdan jaynlar orasida keng tarqalgan anekdotlar bu fikrda qandaydir asos borligini, qisman bo‘lsa-da, isbotlaydi.

Asarning uslubi juda oddiy, hattoki tili anchagina sodda, leksik jihatdan kambag‘al desak ham hato bo‘lmaydi. har bir hikoya boshiga kiritilgan ikki misra she’ri hisobga olmaganda she’riy kiritmalar deyarli yo‘q. Asar tarkibidagi dialektlarning (ayniqsa gujarati dialekti) ko‘pligi ham asarning xalq og‘zaki ijodidan ko‘p foydalannllganligidan darak beradi. Hikoyalar tarkibida savodsiz va madaniyatsiz o‘qituvchilarni masharalash, o‘qituvchilar tilida tez-tez ishlatiladigan iboralarning ko‘pligi hikoyalarni «maktab qissalari» janriga yaqin turishini ko‘rsatadi.

Quyida asar hikoyalaridan ayrimlari namuna sifatida keltiriladi.

«Karlikning davosi»

*So‘z ma’nosin chaqmagan, bajarar chalkash ishni
O‘g‘lin urgan olimdek bo‘lar sharmanda doim.*

Karantaka kishlog‘ida bir qari karquloq monax yashar ekan. Uning o‘quvchisi ustozining karligidan qiynalar ekan va unga davo izlamochi bo‘libdi. Bir kuni u bir tabib uyiga dori so‘rab kelibdi. U yerda esa tabib shu kuni birinchi marta sakkiz yoshlik o‘g‘lini maktabga jo‘natayotgan ekan. Otasi unga g‘azab bilan qichqirsa ham ugli quloq solmayotgan ekan.

Shunda otasi debdi: «Ey, nima eshitmayapsanmi?»

«U hech javob bermabdi». Shunda g‘azabdan otasi bolani ustunga bog‘lab qo‘yib rosa uribdi. Kaltakdan joni og‘rigan bola: «Otajon, eshitayapman, eshitayapman» deb javob beribdi.

Eshik ortida turgan monax bularning hammasini ko'rib turib o'ziga hulosa qilibdi: «Karlikdan qutulishning davosi shu ekan-da. Men ham ustozimni shunday qilib davolayman». O'quvchi uyiga kelib xuddi shunday qilibdi.

Shunda odamlar kuch bilan ustozni o'quvchining qo'lidan tortib olib debdilar: «Ey, noma'kul, nega ojiz ustozingni kaltaklaysan?»

Shunda u debdi: «Ey, ahmoqlar. Siz nimani ham tushunar edingiz? Men o'z ustozimning qulog'ini karini tuzatayapman. Sizlarning nima ishingiz bor?».

Odamlar so'rabdilar: «Kim senga bunday davoni o'rgatdi?»

O'quvchi javob qaytaribdi: «Men bugun bir tabib uyiga borgan edim, u yerda tabib o'zining kar o'g'lini shunday qilib tuzatayotganini ko'rdim. Bola ko'z oldimda tuzaldi. Shu yerda odamlar bolani rosa koyib haydab yuboribdilar.

Aqlli odam bunday ishni hech qachon qilmaydi.

Bu o'n to'rtinchi hikoya edi.

Ochko'z o'quvchi

Ahmoqni shogird qilmas aqlli ustoz

Ustozni aldab qochar bundayin ahmoq.

Kateraka qishlog'ida uzun sochli Luntxaka yashar ekan. Uning Kuntxaka degan shogirdi bor ekan. U juda ahmoq va ochko'z bola ekan. Unga kunlardan bir kun bir bayram munosabati bilan uyidan o'ttiz ikkita yog'da qovurilgan gumma tegibdi. Ularni olib ustozni yoniga ketayotganida ochlik uni qiynabdi, shunda u o'ylabdi: «Bularni olib borsam ustozim baribir menga yarmini beradi, o'sha yarmini hozir yeb qo'ya qolay debdi». Shunday deb u o'n oltita gummani yeb olibdi. Yo'lda yana o'ylabdi: «Bu gummani olib borsam menga uning yarmi tegadi, o'sha o'zimning ulushimni hozir yeb qo'ya qolay deb sakkizta gummani yana yeb qo'yibdi. Qolganini olib borib ustoziga beribdi. Shunda ustozni: «Iya, bu nimasi? Senga uydin faqat sakkizta gumma tegdimi? Yoki birontasini yo'lda yeb qo'ydingmi?» - deb so'rabdi. Shunda bola javob beribdi: «Menga o'ttiz ikkita gumma tekkan edi, qolganini esa yeb qo'ydim». Ustozni so'rabdi: «Qanday qilib?». Shunda o'quvchisi qolgan gummalarni ham hammasini og'ziga solib yeb bo'lib: «Mana shunday qilib yeb qo'ydim» deb tushuntiribdi. Ustozni esa shunday qilib och qolgan ekan. Buni eshitgan odamlar ham hayratdan yoqa ushlabdilar.

5 Bob Qadimgi hind dramaturgiyasi

Bharatanatyashastra

Hind dramaturgiyasi eng *qadimiy* dramaturgiyalar sirasiga kiradi. Qadimiyligining *birinchi asosi* - uning dastlabki shakllanishi hind adabiyotining birinchi yodgorliklari bo'lmish vedalar davridayoq boshlanganidir. Chunki dramaturgiyag elementlari hisoblangan *dialog*, *mimika* va *raqs* turlari vedalar davrida ma'budlarga qurbonlik keltirish jarayonlarida ijro etilgan.

Dramaturgiya qadimiyligining *ikkinchi asosi* - hind eposlari davri bilan bog'liq bo'lib, «Mahabxarata» eposidagi *nata*, ya'ni *pantomimo* san'ati haqida so'z borgani, xalq teatrlari orasida qo'g'irchoq va soya teatrlarining keng tarqalganligi, hamda «Ramayana» va «Mahabxarata» eposlarining uzoq asrlar davomida xalq teatrlari sahnalarida ijro etilib kelingani hind dramaturgiyasi takomilida katta ahamiyat kasb etganini kuzatishimiz mumkin.

Dramaturgiya qadimiyligining *uchinchi asosi* – «*Natyashastra*» asari bo'lib, u dramaturgiyaga oid eng yirik va mukammal bilimlar to'plamidan iborat. Hindistonning teatr va kino san'atida ushbu kitob hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Dramaning *yaratilishi* haqida «*Natyashastra*»ning o'zida bir afsona keltirilgan. Afsonada aytilishicha, oltin asr tugagach, ilohlar yeru-ko'kni yaratgan Braxmadan barcha kasta a'zolari bahra olishi mumkin bo'lgan biron narsa yaratishini so'raganlar, shunda Braxma dramani yaratgan ekan. Donishmand Bxarata o'zining yuzta o'g'liga teatr san'atini o'rgatadi va uni ma'bud Shivaga namoyish etadi. Dramadan lol qolgan Shiva uning yana ham go'zalroq bo'lishini tilab unga raqs san'atini sovg'a qilgan ekan. Shundan so'ng drama yetuk bir san'at turiga aylangan deyiladi. Bxarataning fe'lidan mamnun bo'lgan osmon ma'budlari esa biroz vaqt o'tgach Bxarata orqali dramani xalqqa taqdim etishga ruhsat berganlar. Mana shu afsonaga ko'ra Bxarata «*Natyashastra*» asarining muallifi deb qabul qilingan. Raqs san'ati ma'budi to'rt qo'l va to'rt oyoqli bo'lib «*Natxraj*» nomi bilan yuritiladi. Shundan beri san'at sohasi bilan bog'liq har bir ish «*Natxraj*» ma'budiga sig'inish bilan boshlanishi qadimdan an'anaga aylanib ketgan.

Hind dramaturgiyasi turli *janrlarga* bo'linadi. Mutaxassislar ularni asosiysi 10 ta, ikkinchi darajali janrlar esa 18 ta deb hisoblaydilar. Dramaturgiya qoidasini yaratgan olimlar *Kaviragu*, *Dxapayyu*, *Bxosattvalardir*. Asosiy janrda («*rupik*», «*pitak*» janrlari) bosh qahramon sifatida faqat ma'budlar, shohlar yoki afsonaviy qahramonlar bo'lishi mumkin. Ikkinchi darajali janrlarda («*uparuka*» va b.) esa bosh qahramon sifatida inson ishtirok etishi mumkin.

Hind dramaturgiyasida *tomoshabin kayfiyati* birinchi o‘rinda turadi. Chunki san‘at, avvalom, bor insonning baxti, xursandchiligi, uning hayotini go‘zallashtiruvchi, unda hayotga nisbatan mehr uyg‘otish uchun xizmat qilishi lozim deb qaralgan. Shu bois qadimdan hind teatr sahnasida insonni kamsituvchi, uni yerga uruvchi, tomoshabinda g‘azab va umidsizlik hissini uyg‘otuvchi epizodlar, yomon so‘zlar ishlatish man etilgan. Teatrda har bir detal tomoshabin kayfiyatini hisobga olgan holda sahnalashtirilgan. «Natyashastra»da ham tomoshabin e‘tiborini ko‘proq jalb etish uchun inson ichki dunyosiga kirib borish, unga ijobiy tasir ko‘rsatishning xilma-xil usullar nazariy asoslab berilgan. Sahnasida har bir personaj taqdiriga ham jiddiy yondoshib, uning har bir muammosi iloji boricha ijobiy hal qilinishi ta‘minlangan. Shu bois sahna asarlari, va umuman san‘at, hind xalqi uchun dam olish, ruhiy ozuqa olish, kelajakka va yaxshilik g‘alabasiga ishonch ruhini tarbiyalash, sevgi va mehr-muhabbatni olqishlash kabi xususiyatlarni rivojlantirish yo‘lida xizmat qilgan.

Sahnada turli *hodisalarning bajarilishi*, masalan, arava g‘ildiragining tovushi, qahramonning sahnadan yo‘q bo‘lib qolishi kabi turli hodisalar aktyorlar mimikasi yoki ma‘lum bir musiqa bilan tomoshabinga yetkazilgan. Hattoki abstrakt his tuyg‘ular ham o‘z belgilariga, ya‘ni ranglariga ega bo‘lgan:

<i>Xursandchilik sahnasiga</i>	<i>oq rang</i>
<i>Sevgi sahnasiga</i>	<i>to‘q ko‘k rang</i>
<i>G‘azab sahnasiga</i>	<i>qizil rang</i>
<i>Qahramonlik sahnasiga</i>	<i>kul rang</i>
<i>Qo‘rqinch sahnasiga</i>	<i>qora rang</i>
<i>Xayronlik sahnasiga</i>	<i>sariq rang</i>

Sahnaga ma‘budlar ham voqealar mazmuni asosida tanlangan, jumladan:

<i>Xursandchilik sahnasiga</i>	<i>Ram ma‘budi</i>		
<i>Sevgi sahnasiga</i>	<i>Vishnu</i>	<i>yoki</i>	<i>Krishna</i>
<i>G‘azab sahnasiga</i>	<i>Sakra ma‘budi</i>		
<i>Qahramonlik sahnalariga</i>	<i>Varuna ma‘budi</i>		
<i>Qo‘rqinch sahnalariga</i>	<i>Yama ma‘budi</i>		
<i>Hayronlik sahnalariga</i>	<i>Braxma ma‘budi</i>		

Syujet voqealarining borishiga qarab yuqorida keltirilgan shartli belgilar asosida sahna bezatilgan va ular, o‘z navbatida, tomoshabinga asar ta‘sirini kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Teatrda *til xilma-xilligini* ham kuzatish mumkin. Personajlar agar ma‘bud, brahman yoki shoh bo‘lsa sanskrit tilida so‘zlashgan. Aksincha

personaj oddiy xalq vakili bo'lsa, ular prakritlarda, ya'ni o'z ona tillarida so'zlashganlar. Prakritlar ham bir xil bo'lmagan. Masalan, savdogar yoki dehqon tili bir-biridan farqlangan, harbiylarniki yoki hunarmandlarniki yana o'zgacha bo'lgan. Har bir kasb vakili o'z shevasida so'zlashgan. Masalan, Bxasaning «*Pancharatra*» («*Beshkecha*») asarida *Brixannalaning* aravakashi prakritda gapirib turib birdaniga boshqa tilga ya'ni, sanskrit tiliga o'tib ketadi. Tilni o'zgartirish usuli esa o'sha davr dramaturgiyasining sevimli odatiga aylanib ketgan.

Kompozisiya jihatdan esa, pesalar aniq bir ramkaga solinmagan, ya'ni, murakkab kompozisiyali bo'lgan. Dramaturgiya uchun xos bo'lgan birgina umumiylik bu teatrning boshlanish va yakunlanish qismlarining tashkil etilishi edi. Teatr boshlanishining o'ziga xosligi dastur boshlanishidan oldin sahnada teatr direktori paydo bo'lib tomoshabinni teatrning qisqacha mazmuni bilan tanishtiradi, ya'ni uni psixologik jihatdan teatr voqeasi ichiga olib kirish vazifasini bajaradi, natijada tomoshabin o'zini xuddi voqea ichida tasavvur eta boshlaydi. So'ngra direktor g'oyib bo'lib birdaniga so'zlanayotgan voqea boshlab yuboriladi. Bu usulda tomoshabin tashqi dunyodan butunlay uzilib qanday qilib teatr voqealari ichiga ruhan kirib ketganini sezmay qoladi. Bu esa teatr muvaffaqiyatini, tomoshabin olqishini ta'minlovchi eng yaxshi usullardan biridir.

Dramada bundan tashqari *nasr* bilan *nazmning* aralash ishlatilishi ham dramaning ta'sir doirasini ta'minlovchi omillardan hisoblanadi. Oddiy suhbatlar nasrda bo'lsa, sevgi va ehtiros bilan bog'liq epizodlar musiqa va qo'shiqlar bilan ijro etiladi.

Hindistonda teatr, asosan, ikki yo'nalishda rivojlangan: *saroy teatri* va *xalq teatri* yo'nalishlarida. Teatrlar, ko'pincha, alohida ajratilgan saroy yoki mahsus binolarda namoyish etilgan. «*Natyashastra*» asarida teatr binolarining qurilish rejasi ham ishlab chiqilgan. Unda har bir kasta vakillarining o'z o'rindiqlari, joylashish joylari aniq belgilangan. Shohlar va saroy ahli bir tomonda, o'rta tabaqa vakillari, ya'ni shifokor, o'qituvchi, injener va shu kabi turli kasb egalarining joyi ikkinchi tomonda, oddiy xalq uchun ajratilgan joylar ham alohida bo'lib, hech kim bir-birining joyiga o'tira olmagan. Harbiylar va san'at ahli ham o'z o'rindiqlariga ega bo'lganlar. Teatr sahnasi esa «*Natyashastra*»da quyidagicha tasvirlangan: «*Teatr sahnasida raqs uchun ajratilgan sahna keng va chiroyli bo'lishi va u ustunlar bilan bezatilgan bo'lib ustunlar zalning toqisi bilan tutashgan holda bo'lishi kerak. Ustunlar esa teatr vaqtida gulchambarlar bilan bezatilgan bo'lishi lozim. Teatr oldidan orkestr kirib musiqa ijro etadi va aktyor parda ortidan chiqib tomoshabinlar bilan salomlashib, ularga ham*

gullar ulashib sekin - asta tomoshabinlarni teatr voqeasiga olib kiradi. Teatr sahnasida qirqqa yaqin aktyor ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Teatr sahnasi pardalar bilan bir necha qismlarga bo'lingan va voqeaning borishiga qarab sahnaning ma'lum bir qismi ochilib boravergan. Aktyorlar qo'shiq aytish va raqsga tushish san'atini juda yaxshi egallagan bo'lishi lozim edi».

Shu yo'sinda hind dramaturgiyasi turli xil o'ziga xos qonun - qoidalar asosida qadimdan rivojlanib kelgan va bugungi kunda ham o'sha qoidalarining ko'pchiligi amalda saqlanib qolganligining shohidi bo'lishimiz mumkin.

Qadimgi dramaturgiyaning bizgacha yetib kelgan asosiy vakillari Bxasa, Shudraka va Kalidasa hamda Ashvagxoshalardir. Ular o'zlarining sermazmun dramatik asarlari bilan qadimgi hind teatrini boyitib, uni taraqqiyotning yuqori cho'qqisiga yetishida katta ahamiyat kasb etganlar.

5.1 Birinchi hind dramaturgi BXASA

BHAASA

Qadimgi hind adabiyotida o'zining ajoyib dramatik asarlari bilan iz qoldirgan adib Bxasadir. Lekin uning asarlari haqidagi ma'lumotlar faqatgina XX asr boshlarida ma'lum bo'lgan. Bxasa sanskrit adabiyotida birinchi dramaturg hisoblanadi. Uning ismi birinchi Kalidasaning «*Malyavika va Agnimitra*» nomli dramasiining ilovasida uchragan. Unda Kalidasa o'zidan avval yashagan uch dramaturgning nomini qayd etgan, ular: *Bxasa*, *Saumilla* va *Kaviputrlardir*. Kalidasaning yozishicha ularning yaratgan pesalari shu qadar xalq orasida ommabop bo'lganki, ular bilan musobaqaga kirishish befoyda bo'lgan. Lekin bu uch dramaturg: haqidagi ma'lumotlar faqat Kalidasaning asarlari bilan cheklanganicha qoldi. 1909 yildagi Hindistonning janubiy qismida olib borilgan arxeologik qazilmalar davrida hind olimi *Ganapati Shastri* tomonidan kutilmaganda sanskrit tilida 10 ta pesaning qo'lyozma nusxasi topilgan. 1910 yilda esa *Ganapati Shastri* tomonidan yana uchta pesa topiladi. Bu uch pesada ham muallifning nomi qayd etilmagan edi. Ushbu uch pesaning ichida «*Svapnavasavadatta*» («*Xayoliy Vasavadatta*») dramasi bor edi. O'rta asrdagi hind she'riyatining nazariyotchilari bu asarni Bxasa tomonidan yaratilganligini ta'kidlab o'tgan edilar. *Ganapati Shastri* topilgan pesalarni «*Svapnavasavadatta*» bilan qiyochslab ularni bir muallif, ya'ni Bxasa yaratilganligini isbotladi. 1915 yilda *Ganapati Shastri* pesalarni Trivandrum shahrida chop ettirdi va ular ilmiy adabiyotda «*Trivandrum pesalari*» nomi bilan yuritiladi. Afsuski, pesalardan ham Bxasaning hayoti haqida hech qanday ma'lumot topilmagan.

Ganapati Shastri tomonidan topilgan 13 ta pesaning syujeti uchun mavzular, asosan, «Ramayana» va «Mahabxarata» eposlaridan olinganligi aniqlangan. Masalan, «*Madhyama vyoga*» («vyoga»- sanskrit tilida oʻrtancha oʻgʻil degani) «*Dutaghatotkach*» («Elchi Ghatotkach»), «*Dutavakya*» («Elchilik»), «*Karnabxara*» («Karnabxaraning takdiri»), «*Urubxanga*» («Singan son»), «*Pancharatra*» («Besh kecha») dramalarining syujeti «Mahabxarata» eposidan olingan. «*Pratimanataka*» («Nataka haykali haqida») va «*Abxishekantaka*» («Nataka surkash haqida») pesalari «Ramayana» asosida yaratilgan. «Ramayana»ning Krishna haqidagi bir boʻlimi asosida «*Balacharita*» («Krishnaning bolaligi») asari yaratilgan. Udayana shohi haqidagi nomaʼlum ikki afsona asosida «*Pratidjnyaugandxarayana*» («Yaugandxarayananing qasamyodi») va «*Svapnavasavadatta*» («Xayoliy Vasavadatta») pesalari yaratilgan. Pesalarning barchasi maʼbud Vishnuga bagʻishlangan. Matnda barcha ilohlarning nomlari qayd etilgan.

Sanskrit dramaturgiyasida *chopar* obrazi anʼanaviy obrazlardan biridir. Bunga sabab choparlar asar davomida ishtirok etib, ular boʻlayotgan va boʻlib oʻtadigan voqealar haqida maʼlumot berib turadilar. Trivandrum pesalarida ham odatda choparlar obraziga katta ahamiyat berilgan. Masalan, ayrim pesalarga birdaniga uchta chopar obrazi kiritilgan boʻlib, oldinmakin turli xil voqealar haqida maʼlumot berib turadilar. «*Pancharatra*»ning birinchi qismida uch brahman Duryodxonning qurbonlik marosimini tasvirlab bergan. «*Urubxanga*»da uch jangchi jang maydonini hamda Duryodxon va Bxim oʻrtasidagi jangni tasvirlagan. Bxasa oʻzining «*Madhyamavyoga*» dramasida «Mahabxarata»dagi ota - bola Bxim va Ghatotkachlar oʻrtasidagi uchrashuvni syujetning asosi qilib olgan.

Bxasaning «*Dutaghatotkach*» dramasida Gxatotkachning Dxritrashtra oldiga elchi boʻlib borishi tasvirlangan. («*duta*» sanskrit tilida «*elchi*» degan maʼnoni anglatadi).

Bxasaning yana bir dramasi «*Dutavakya*»dir. Bu asarda ham mavzu elchilik, lekin bu safar elchi qilib maʼbud Krishna olingan. Krishna ikki avlod jangi boshlanishidan avval kurularning oldiga sulh tuzish taklifi bilan yuboriladi, lekin uning taklifi rad etiladi.

Bxasaning yana bir dramasi bu «*Pancharatra*»dir. Bu asar ham «Mahabxarata» asosida yaratilgan. Asarda pandularning oʻn uch yillik sargardonlik davri baʼzi bir oʻzgartirishlar kiritilgan holda qayta yaratilgan.

Bxasaning «*Urubxanga*» va «*Karnabxara*» asarlari «Mahabxarata» personajlari Karn va Duryodxon munosabatlariga ba-ishlangan. «Karnabxara»da Karnning Arjun bilan boʻlib oʻtgan soʻnggi jangi

tasvirlangan. Birgina shu asardagi voqealar «Mahabxarata»dagi voqealar bilan mos keladi.

Bxasa ijodining o'ziga xos tomonlaridan biri «Natyashastra»da belgilangan qoidalarining uning dramalarida buzilishidir. «Urubxanga» shunday dramalardan biri bo'lib, unda Durodxanning o'limi tasvirlangan, ya'ni uning Bxim bilan so'nggi jangi aks ettirilgan.

Bxasaning «*Balacharita*» pesasi Krishna ma'budi haqida bo'lib, ushbu asar diniy-didaktik va afsonaviy harakterga ega.

Bxasaning boshqa ikki asari «*Abxishekanataka*» va «*Protimnataka*» pesalari «*Ramayana*» asosida yaratilgan. Asar bosh personaji Ram. Lekin bu asarlar «*Ramayana*» eposidan unchalik farq qilmaydi, birgina farqi, «*Ramayana*»da Ram okean sohiliga kelib qo'shinlar yordamida okean ustiga ko'prik qurdirsa, «*Abxishekanataka*»da Ram okean sohiliga keladi, lekin kupprik qurilishi haqida suz bormaydi.

«*Pratimanataka*»da asarida «*Ramayana*»dagi bir qancha muhim voqealar yoritilmagan. Masalan, Ram va Ravan o'rtasidagi jang, *Vibxishan*ning Lanka taxtiga o'tirishi va shunga o'xshash bir qancha voqealar yoritilmagan. «*Pratimanataka*»da «*Ramayana*»da mavjud bo'lmagan bir xolat, ya'ni Bxarataning ibodatxonadagi avliyo bilan bo'lib o'tgan suhbat kiritilgan.

Bxasaning lirik asarlari bu «*Svapnavasavadatta*» va «*Avimaraka*»lardir. Tanqidchilar «*Avimaraka*»ni Shekspirning «*Romeo va Juletta*» asari bilan tenglashtiradilar. Asarda afsonaviy voqea va hodisalar o'z aksini topgan. Asarda Bxasa tabiat manzarasini shu qadar ko'p tasvirlaganki, uning hech bir pesasida tabiat manzaralari bu qadar mohirona tasvirlanmagan.

Ikkinchi lirik asar bu «*Charudatta*»dir. Asarda oddiy xalq, ya'ni hunarmandlar, dehqonlar, kisovurlar, chorvador va shu kabilarning hayoti tasvirlangan. Asarning bosh qahramonlari *Charudatta* (savdogar) va *Vasantasenalar*dir. Asarning yetakchi g'oyasi muhabbat va kambag'allik hamda ular asosida kelib chiqqan muammolar.

Bxasaning so'nggi asari «*Pratidjnyaugandxarayana*» («*Yaugandxarayananing qasamyodi*»)dir. Asarda birinchi o'rinda siyosat, undan keyin esa muhabbat turadi. Asarning bosh qahramonlari *Udayana*, *Vassavadatta* va *Yaugandxarayanalar*dir. *Yaugandxarayana* fe'lidagi uch sifat uni asarning bosh qahramonlardan biriga aylantirgan. Bu uning sadoqatlilik, donoligi hamda qat'iyatli ekanligi.

Xulosa qilib aytganda, Bxasa o'zining yaratgan pesalari bilan Hindiston adabiyoti, xususan uning dramaturgiyasining rivojiga o'zining

ulkan hissasini qo'shgan adib. Bxasaning har bir pessasi o'zining xilma-xilligi, tarixiy va milliyliги bilan har bir o'quvchining e'tiborini jalb eta oladi.

5.2 Dramaturg Shudraka ijodi

Shudraka

Shudraka qadimgi hind dramaturgiyasining namoyandasi. U haqda, ya'ni uning hayoti va ijodi bilan bog'liq hech qanday ma'lumot topilmagan. Uning bizgacha yetib kelgan birgina dramasi asosida uning yashab o'tgan davri aniqlangan, unga ko'ra Shudraka eramizning III asrida yashagan deb tahmin qilinadi. Uning asl ismi ham noma'lum. Shudraka ismi dramaning kirish qismida yozilgan. Shu asosda u eng past «shudra» tabaqasiga mansub bo'lgan deb tahmin qilinadi.

Shudrakaning adabiy merosi borasida ham aniq bir ma'lumot yo'q. uning birgina «*Loydan yasalgan aravacha*» nomli dramasi yetib kelgan, Shudraka nomi bilan boshqa hech qanday asar topilmagan.

«*Loydan yasalgan aravacha*» pesasi hind xalqining sevimli dramalaridan biri bo'lib qolgan, shu sabab Shudraka ham ommabop dramaturg sifatida elga tanilgan. Drama sanskrit tilida yaratilgan bo'lib, «*Mrichchxakatika*» deb nomlanadi. Lekin Shudrakaning bu pesasi undan oldin yashab o'tgan dramaturg Bxasaning «*Bechora Charudatta*» asarining qayta ishlangan varinati ekanligi aniqlangan. Shu bois ikki dramaturgning asarida ma'lum o'xshashliklar va farqlar mavjud. Shudraka Bxasa dramasiining syujetiga yana bir qo'shimcha syujet kiritib ikki liniyali, ya'ni ikki syujetli hamda yakuni o'zgartirilgan drama yaratgan. Bxasaning asari esa bir syujetdan iborat. Ikki dramaturgning pesalari g'oyaviy jihatdan ham farqlanadi. Ikki pesada birinchi syujet voqealarining rivojlanishi boshlang'ich to'rt ko'rinishda deyarli bir xil boradi, keyin o'zgaradi. Ikkala asarda ham birinchi syujetda *Vasantasena* va *Charudattan*ning sevgisi tasvirlangan bo'lsa, Shudraka dramasiida kiritilgan ikkinchi syujet voqealari orqali dramaning yakuni o'zgartirilgan. Ikkinchi syujet sifatida dramadagi *Aryakaning* o'z amakisi *Palaka* bilan taxt uchun kurash voqeasi kiritilgan. Bxasaning dramasiida esa urush syujeti mavjud emas.

Ikkala dramada ham bosh qahramonlar va syujet kompozitsiyasi bir xil bo'lsa-da, Shudraka pesasiida ayrim kichik - kichik epizodlar o'zgartirilgan, ya'ni Bxasa dramasiida *Maytreya Charudatta*ga ustki kiyim emas balki gulchambar sovg'a qiladi. Shunga o'xshash boshqa 2-3-4 qismlarda ham ayrim epizodlar o'zgartirilgan, lekin umumiy voqea o'zgarishsiz qolgan.

Umuman olganda, ikkala asar ham qadimiy hind jamiyatidagi an'anaviy bo'lgan getera ayol taqdiri mavzusiga bag'ishlangan. Geteralar,

ma'lumki, hind jamiyatida ayollar kasbi bo'lib, bu kasb egalarining taqdiri o'z qo'lida emas, balki shoh qo'lida bo'lib, ularning butun umri shoh va saroy xizmatida o'tadi. Geteralar, ayiqsa, qadimgi hind jamiyatida juda katta ahamiyat kasb etgan bo'lib ular o'zi yashagan shohlikning mulki hisoblangan, geteralar sotilishi ham, sotib olinishi ham mumkin bo'lgan, shu bois bu kasb hind jamiyatida ayollar hayotiga salbiy ta'sir etuvchi kasblardan hisoblangan. Lekin shu bilan bir qatorda geteralar saroyga katta mablag' keltiruvchi manba' hisoblanib, ularning faoliyati ma'lum bir qonunga ko'ra nazorat qilingan. Geteralarning saroyda kattagina bir jamiyati bo'lib, ular hatto davlat siyosatiga ham aralashib, kezi kelganda, hatto shohga ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Geteralar shohona hayot kechirgan, ularning o'ziga qarashli alohida yashash joylari, xizmatkorlari, farzandlari uchun ta'lim beruvchi ustozlar, ularni himoya qiluvchi qo'riqchilari bo'lgan. Geteraning farzandi ham getera bo'lib yetishgan, agar farzand o'g'il bo'lsa, ko'pincha harbiy soha bilan shug'ullangan. Ularning farzandlarini har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun saroyda barcha shart-sharoitlar yaratilgan va buning uchun juda katta mablag' sarflangan. Shoh hurmatiga sazovor bo'lgan geteralar hatto davlat siyosatiga ham aralasha olgan. Katta shohliklardagi geteralarning esa, hattoki, o'z harbiy armiyalari, kattagina mablag'lari ham bo'lgan. Geteralik kasbi qadimdan mavjud bo'lganini shundan ham bilish mumkinki, ularning faoliyati mahsus qonunlar asosida yuritilgan. Qonunga ko'ra getera o'z kasbidan o'z istagiga ko'ra keta olmagan. Qonunda geteralikdan ozod bo'lishning faqatgina ikki holati ko'rsatilgan:

-*Birinchisi* - shoh getera ayolni o'z umr yo'ldoshi, ya'ni saroy malikasi deb e'lon qilgan holdagina bu kasbdan ozod bo'lish mumkin.

-*Ikkinchisi* – getera ayolni ma'lum bir shaxs sotib olish huquqiga ega bo'lgan. Bunda xaridor shoh talab qilgan mablag'ni to'lay olishi shart edi.

Getera obrazi hind adabiyotida an'anaviy obrazlardan biri bo'lib kelgan. Jumladan, «*Brixatkatxa*» asaridagi hikoyalarda, *Bxasa*, *Shudraka*, *Kalidasa* dramalarida, *Dandin*, *Mirza Rusva* romanlarida hamda boshqa bir qancha yozuvchilarning asarlarida bir-biridan qiziqarli va serjilov getera ayollar obrazi yaratilganligini kuzatishimiz mumkin.

5.3 Dramaturg Kalidasa **Kalidas**

1789 yili ingliz sudyasi Vilyam Djons Ost-Indiya kompaniyasida xizmat qilayotganida sanskrit tilini ham o'rganadi va Kalidasaning «*Shakuntala*» nomli asarini ingliz tiliga tarjima qiladi. Ushbu ingliz tilidagi asarni 1791 yili nemis sayyohi, olimi va inqilobchisi Georg Forster nemis

tiliga o'giradi. O'z tarjimasining bir nusxasini u Gyotega yuboradi va Gyote bu asarga yuqori baho beradi.

1792-1793 yillarda rus yozuvchisi N.M.Karamzin jurnalda «Shakuntala» asarining to'rt qismining tarjimasini nashr ettiradi va unga kattagina kirish so'zi yozadi. U shunday deb yozgan edi: «Ijodiy ruh faqat Yevropani emas balki butun dunyoni kezadi. U butun jahon grajdanidir. Inson hamma yerda ham insondir. Uning yuragi hamma yerda ham bir xilda his etadi. O'z yurak ko'zgusiga butun yeru - osmonni sig'dira oladi. Asarning deyarli har bir sahifasida she'riyatning go'zal timsolini, yurakning nozik his qilish qudratini, may oyining mayin shamolidek yoqimli tuyg'usini his qildim. Gomerning asari Qadimiy Gresiyani qanday tasvirlasa Kalidasa asari ham qadimiy Hindistonning go'zal tasviri deyish mumkin. Unda qadimgi hind xalqining urf-odatları va milliy an'analarini aniq ko'rish mumkin.

«Shakuntala» asari shu yo'sinda jahon xalqlari adabiyotiga kirib borib ularni Hindistonga, va aynan, Kalidasa ijodiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Yevropaliklarning Hindiston va hind xalqi faqat bosib olish va talon-taroj qilishgagina yaroqli mamlakat degan tushunchalari chippakka chiqdi va bu yer juda katta madaniyat va ilm-fan uchog'i bo'lganligini tushunib yetadilar. U bilan yaqin tanishgandan keyin esa hind adabiyoti o'zining hech bir xususiyati bilan qadimgi grek adabiyotidan qolishmasligiga ishonch hosil qiladilar.

Shu tarzda, XIX asr boshiga kelib Yevropada Kalidasa ijodiga, va ayniqsa, qadimgi Hindiston adabiyotiga qiziqish kuchayib ketadi. Kalidasa ijodi esa Hindiston adabiyotini Yevropaga tanishtirgan birinchi yozuvchi bo'lib qoldi.

Kalidasa yashagan davr esa uning asarlarining tili va voqealari asosida aniqlangan. Unga ko'ra Kalidasa *Guptalar* imperiyasi davrida yashagan deb tahmin qilinadi. Guptalar imperiyasi esa, ma'lumki, shimoliy Hindistonda eramizning U-U1 asrlarida hukmronlik qilgan sulola. Yevropalik mutaxassislar ham Kalidasa yashagan davr masalasida hind mutaxassislari fikriga qo'shiladilar. Ushbu fikrni Kalidasa ijodi bilan yaqindan tanishgan hind adabiyotshunos olimi *Bxagavatsharan Upadhyay* ham ilmiy tadqiqotlar asosida tasdiqlab bergan.

Guptalar imperiyasi davri Hindistonda «Oltin davr» nomini olgan. Guptalar imperiyasi hukmronlik qilgan davrda Hindistonda har bir soha o'zining rivojlanish cho'qqisiga yetgan. Chunki Guptalar ilm-fan, arxitektura va madaniyatning rivojlanishiga barcha shart-sharoitlarni yaratgan. Bu davrda, asosan, matematika, astronomiya, tibbiyot (medicina)

fanlari, grammatika bo'yicha qonun-qoidalar kitobi, san'at va adabiyot hamda arxitektura rivojlangan. Buyuk grammatist *Patanjali*, algebra asoschisi *Aryabhatta*, astronom *Braxmaguptalar* aynan shu davrda yashab ijod etgan. Hozirgi Hindistonning ko'pgina arxitektura yodgorliklari aynan guptalar davrida bunyodga kelgan va bugungi kunda hind madaniyati va arxitekturasining o'lmas yodgorliklari sifatida tan olinadi. Ular - Dehlidagi *Kutb-Minor* va undagi zanglamas temir ustun, *Ajanta-Elloradagi* toshdan yasalgan haykallar ham o'sha Guptalar imperiyasi davrida bunyodga kelgan. Kalidasa ijodi ham shu davrga to'g'ri kelib, uning ijodi hind dramaturgiyasini taraqqiyot cho'qqisiga olib chiqdi.

Kalidasa o'z davrining ilg'or va ilmli shaxslaridan bo'lgan. Uning ijodi orqali hind adabiyotida birinchi bor gumanistik g'oyalar shakllangan. Diniy dunyoqarash va kastachilik tizimi hukm surgan bir davrda hind jamiyatida gumanistik g'oyalarning adabiyotga kirib kelishi, o'z navbatida, adabiyotning, va umuman, hind jamiyati ongining taraqqiyotidan darak beradi.

Kalidasaning shaxsiyati va uning hayoti haqida, afsuski, haligacha aniq ma'lumot yo'q. U haqidagi barcha ma'lumotlar faqat afsona va rivoyatlar hamda uning asarlaridan olingan ma'lumotlardir.

Rivoyatlarga ko'ra u kambag'al oiladan chiqqan savodsiz, lekin juda e'tiqodi kuchli cho'pon bo'lgan. Uning asl ismi ham noma'lum, Kalidasa uning tahallusi. Rivoyatlarda aytilishicha, bir kun u «*Kali man*» - «*Qora ona*» (ya'ni, Parvati ma'budasining bir epiteti) ibodatxonasida uxlab qoladi va kechasi Kali man ma'budasi uning miyasiga barcha bilimlarni kiritib qo'yadi. Ertalab turganida u o'zining bilimdonligidan hayratda qolib o'zini «*Kali man quli*» deb hisoblab Kalidas ismini oladi. Boshqa rivoyatlarga ko'ra u elchilik ham qilgan.

Kalidasa Hindiston jug'rofiyasi va tabiatini shunchalik yaxshi bilganki, uni qaerda tug'ilib, qaerda o'sganini aniqlab bo'lmagan. Chunki u asarlarida Hindistonning har bir burchagini shunchalik ustalik bilan tasvirlaganki, uni o'qigan kitobxonga, bexosdan, Kalidasa shu yerda o'sib - ulg'aygan degan fikr kelidi. Ayniqsa, uning «*Meghaduta*» («*Xabarchi bulut*») va «*Ritusamxara*» («*Yil fasllari*») nomli asarlarida Hindistonning har bir qishloq va shaharlari barcha ikir-chikirlarigacha aniq tasvirlagan.

Hind dramaturgiyasi sahnasiga ko'ptillilikni olib chiqqan dramaturg ham Kalidasadir. Chunki uning dramalarida har bir qahramon o'z tilida, ya'ni agar qahramon ma'bud yoki brahman bo'lsa sanskrit tilida, aksincha, qahramon oddiy xalq vakili bo'lsa xalq tilida, ya'ni prakritda so'zlagan. Prakritlar ham bir xil bo'lmagan. Masalan, turli kasb egalari o'z shevalarida

soʻzlaganlar. Bu esa Kalidasaning oʻz vatandoshlarining har biriga nisbatan boʻlgan hurmatini koʻrsatadi. Sahnaga chiqqan prakrit tillari badiiy jihatdan sayqallana boshlagan va Kalidasaning ijodi prakrit tillarining adabiy til sifatida shakllanishiga asos boʻlgan desak xato boʻlmaydi.

Kalidasaning adabiy merosi. Kalidasaning ijodi hind dramaturgiyasini rivojlantirdi. Chunki, Kalidasa na faqat dramalar yaratgan, sahnalashtirgan, balki unda aktyorlik qobiliyati ham yuksak darajada rivojlangan boʻlgan, Obrazlarni yuqori darajali, tomoshabinga taʼsirchan qilib yaratish sirlarini ham barcha aktyorlarga oʻzi oʻrgatgan.

Kalidasa nomi bilan bogliq juda koʻp asarlar topgan, lekin mutaxassislar Kalidasa qalamiga mansub jami yetita asarni tan oladilar. Bu quyidagi liro-epik pesalar:

- 1) *Shakuntala* - *Shakuntala*.
- 2) *Ritusamxara* - *Yil fasllari*
- 3) *Meghaduta* - *Xabarchi bulut*
- 4) *Malyavika Agnimitra* - *Malyavika va Agnimitra*
- 5) *Kumarasambhava* - *Oʻgʻilning tugʻilishi*
- 6) *Vikramurvashi* - *Qahramonlik bilan qoʻlga kiritilgan Urvashi*
- 7) *Ragxuvansha* - *Ragxu avlodi*.

Kalidasa oʻz ijodida qadimiy hind adabiyotigeng koʻp tayangan adib U avval qadimiy davr adabiy merosini oʻrgnaib chiqqan va ulardan taʼsirlangan holda oʻzining shoh asarlarini yaratgan. Ayniqsa hind eposlari unda katta qiziqish uygʻotganini asarlari syujetida kuzatishimiz mumkin. Uning shunday asarlaridan biri bu «Shakuntala» dramasidir.

«Shakuntala» («Shakuntala») Kalidasaning shoh asar boʻlib u jahon miqyosida dong taratgan asar. «Shakuntala» dramasining syujeti «Mahabharata» eposidan olgan. Drama Bxarat shohining dunyoga kelishi bilan bogʻliq afsonaviy haqiqat asosida yaratilgan. Drama sanskrit tilida yaratilgan, keyinchalik u juda koʻp mahalliy hind tillariga tarjima qilingan va uning sansritcha varianti deyarli yoʻqolib ketgan. Dramaning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Shoh Dushyanta oʻz xizmatkorlari bilan ovga chiqadi va oʻrmonda ov qilib yurganida bir goʻzal qizni uchratib qoladi. U qiz bilan tanishib ancha vaqt u bilan suhbatlashadi. Suhbat davomida Dushyanta qizning husni - jamoli va odobiga mahliyo boʻlib qattiq sevib qoladi. Bu qiz avliyo Kanvaning asrab olgan qizi Shakuntala edi.

Dushyanta Shakuntalaga sevgi izhor etadi va unga uylanadi Ular bir qancha vaqt birga boʻladilar va yurtidan qaytib uni izzat- ikrom bilan olib ketishi va uni malika deb eʼlon qilishini vaʼda berib qaytib ketadi.

Shakuntala uni kutib otasi bilan qoladi. Kunlar o'tadi, kunlar ketidan oylar o'tib Shakuntala bir o'g'il ko'radi va unga Bxarata deb ism qo'yadi. Shakuntala o'z sevgilisi Dushyantani kutishda davom etadi. Lekin undan ko'p vaqtgacha darak bo'lmaydi. Kunlardan bir kun Shakuntala hijron azobida Dushyanta haqida o'ylab o'tirganida ularning uyiga bir avliyo uning otasi Kanvani so'rab keladi. Dushyanta haqida uy-xayollarga berilib ketgan Shakuntala avliyoning kirganini ham sezmay qoladi. Bundan g'azablangan avliyo undan norozi bo'lib «kim haqida o'ylab uyga kelgan mehmonni sezmagani bo'lsang, u ham seni shunday unutib yuborsin» - deb duoibad qiladi. Duoibadga uchragan Shakuntala Dushyantani olti yil kutadi. Darhaqiqat avliyoning qarg'ishi ta'sirida Dushyanta ham uni unutib yuborgan edi. O'g'li olti yoshga to'lganida Shakuntala otasidan oq fотиha olib o'z sevgilisi yurtiga ravona bo'ladi. U shaharga borib darhol saroyga yo'l oladi. Saroy qo'riqchilariga o'zini shohning ayoli deb tanishtiradi. Bundan g'azablangan soqchilar bu xabarni shohga yetkazadilar. Shoh juda hayronlik bilan «qaysi qo'rqmas ayol bunday botirlik bilan o'zini mening ayolim deb ayta olibdi» - deb o'ylab ayolni ko'rishga qaror qiladi. Shakuntala shoh meni va o'g'lini ko'rib juda quvonsa kerak degan hayol bilan saroyga yo'l oladi, lekin shoh na ayolni va na o'z o'g'lini taniy oladi. Shoh o'zicha: «ularni ochlik yolg'on gapirishga majbur qilgan bo'lsa kerak: - degan xayolga borib saroy xizmatchilariga unga hayr - ehson berib jo'natib yuborishlarini aytadi. Tushkunlikka tushgan Shakuntala nima qilishini, qaerga borib, kimdan yordam so'rashini bilmay shaharda darbadar kezib yuradi. Dushyanta o'rmonda Shakuntalaga o'z sevgisining timsoli sifatida shoh muhr tushirilgan bir uzuk sovg'a qilgan edi, lekin Shakuntala uni ham Gang daryosi suvida ibodat qilayotganida tushirib yo'qotib qo'yadi. Shoh Shakuntalani tan olmadi. Pokiza ayolning sevgisi oyoq osti bo'ldi. Endi haqiqatni yuzaga chiqarish payti yetib keldi va buni hind xalqining milliy an'analariga ko'ra ma'budlar amalga oshiradilar. Ular sevgisidan voz kechgan Dushyanta oldida asl haqiqatni ochish uchun bu voqeaga aralashadilar. *Indra* ma'budining izboshchisi *Matali* samodan tovush berib shoh Dushyantaga Shakuntalani kim ekanligini eslatadi. Shundan so'ng shoh barcha o'tgan voqealarni eslab, o'z qilmishidan uyalib, saroy qo'riqchilariga o'sha ayol va bolani darhol topib keltirishlarini buyuradi. Xizmatchilar ularni so'rab-surishtirib tezda topib shoh saroyiga keltiradilar. Dushyanta esa Shakuntalaga to'y tamosha bilan uylanadi va el-yurt oldida o'z malikasi de, Bxaratani esa o'z o'g'li deb e'lon qiladi.

Dramaning bir necha xil variantlari mavjud. Boshqa bir variantida Shakuntalaning Dushyanta tomonidan tanilishi yo'qolgan uzuk orqali

amalga oshiriladi. Unga ko'ra Shakuntala muqaddas Gang suvida ibodat qilayotganida o'zi bilmagan holda Dushyanta sovg'a qilgan uzukni tushirib qo'yadi. Uni esa baliqlar yutib yuborgan bo'ladi. Baliqchilar ovlab tutgan baliqlaridan birini qornini yorganlarida uning qornidan shoh muhr tushirilgan uzuk chiqadi. Bundan hayratda qolgan baliqchilar muhrsni tanib darhol uzukni saroyga olib boradilar va bo'lgan voqeadan shohni xabardor qiladilar. Uzuk esa shohga bundan olti yil avval bo'lib o'tgan tarixni eslashiga yordam beradi. Uzuk orqali Dushyanta kelgan ayol Shakuntala, u bilan birga kelgan bola esa ular o'rtasidagi muqaddas sevgining mevasi ekanini darhol tushunib yetadi va tezlik bilan soqchilar orqali Shakuntalani toptiradi. Soqchilar ularni suv bo'yidan topib keladilar. Dushyanta Shakuntaladan kechirim so'raydi va katta to'y tomosha qilib unga uylanadi. Shakuntalani saroy malikasi va o'g'li Bxaratani esa taxt vorisi deb e'lon qiladi. Shu bois ham asar ba'zi boshqa tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham «Yo'qolgan uzuk» nomi bilan tanilgan.

«**Xabarchi bulut**» («**Meghaduta**») Kalidasaning lirik asarlari qatoriga kiradi. Asar go'zal bir ayolga bag'ishlangan sevgi qo'shig'idir. Asarning syujeti quyidagicha: Asar qahramoni *Yaksha* qandaydir hatoga yo'l qo'yadi va uni janubga surgun qilib yuboradilar. U o'z ma'shuqasidan ajraladi, hijron azobida qiynaladi. Asar tuzilishi hijron azobida qolgan ikki oshiqning bir-biriga yo'llagan maktublari tarzida bo'lib, bunda bulut xabar yetkazuvchi sifatida qo'llanilgan. Bulut bir oshiq xabarini ma'shuqaga yetkazish maqsadida qanchadan-qancha yerlarni - shahar, qishloq, bog'-rog', tog', cho'l va vodiylarni - bosib o'tib xabar kutayotgan ikkinchi oshiqqa ma'shuqasidan xat yetkazadi. Asarda ko'proq insonlar emas yarim ma'budlar ishtirok etadi. Bunda *Yaksha* doim bulutga murojaat qiladi, u bilan ma'shuqasi haqida suhbatlashadi. *Yaksha* janubdagi *Ramagiri* tog' etaklaridagi o'rmonlarda yashaydi. Bu yerdagi daryoda o'z vaqtida *Ramayana* qahramonlari *Sita* va *Ram* cho'milgan ekan. Kalidasa o'z asarida bu qadimgi eposlar «Mahabxarata» va «*Ramayana*» hamda «*Brixatkatxa*»lardan ham foydalanib o'z asarini yanada qiziqarli qilib yaratgan. Bu esa Kalidasa o'z asarlarni yaratishda xalq ijodidan qanchalik ko'p foydalanganligidan darak beradi.

Kalidasaning o'z ona yurti Hindistonning har bir daryo, tog' va bog'-rog'lari, dashtu-biyobonlarini qanchalik yaxshi bilishini aynan mana shu asari ko'rish mumkin. Har joyni tasvirlaganida muallif uni o'sha ma'shuqa go'zalligi, uning sevgi ehtirolari va hijron azoblari bilan bog'lagan holda tasvirlaydi. Birinchi bor hind she'riyatida *Yaksha* mifologik qahramon emas, balki oddiy bir oshiq inson sifatida yaratilgan. *Yaksha* aslida boylik

ma'budi Kubera tomonidan janubga surgun qilingan edi. Asar qahramonlari yarim ma'budlar bo'lsa-da, oddiy insonlarning hayoti, ichki kechinmalarining bayoni sifatida hikoya qilingan.

«Megxaduta» asari faqat she'riy asar emas, balki Hindiston geografik tuzilishining tasviri desak hato bo'lmaydi. Ikki oshiq o'rtasidagi masofanani bosib o'tuvchi personaj sifatida Kalidasa bulut obrazini olgan. Bulut shimoldan janubgacha bo'lgan kattagina hududni - Himolay tog'laridan tortib janubdagi Ramagiri tog'larigacha bo'lgan masofa orasida joylashgan barcha mamlakatlarni to'liq tasvirlab beradi. Bunda muallif na faqat turli shohliklarni, balki ularda yashovchi xalqlar haqida ham to'liq ma'lumot berib boradi. Bunda Kalidasa ularning urf-odatlarini, tili, turli kasb-hunarlarigacha gapirib o'tadi. Ular orasida dehqonlar ham, ularning dalada mehnat qilayotgan ayollari ham, turli **ziyaratgohlarni** ziyorat qilib yurgan sayyohlar ham, uchrashuvlarga shoshilayotgan oshiq qizlar ham, gul sotuvchilar ham va shu kabi turli xalq vakillarining tasvirini uchratish mumkin. Ularni tasvirlashda Kalidasa she'riyatning «*mandakranta*» (ya'ni sekin-asta harakatlanuvchi) usulidan foydalangan.

«**Ragxular sulolasi**» («**Raghuvansha**») quyosh sulolasiga mansub Ragxular avlodiga bag'ishlangan asar. Asar boshida Kalidasa Ragxular avlodi haqida o'zidan avval o'tganlar fikrini keltiradi. Kalidasa Ragxular avlodining barchasi haqida so'z yuritmaydi, faqat shoh qanday bo'lishi kerak degan savolga javob berganlar fikrini keltiradi. Jumladan, *Dilip, Ragxu, Aji, Dasharatxa, Rama, Kushi* kabi odil shoh sifatida dong taratgan shohlar nomini tilga oladi. Masalan, Kalidasa Dilip shohi haqida shunday deydi: «U dehqonlardan hosilning oltidan bir qisminigina boj sifatida olar edi». Shungtarzda, Kalidasa har bir shohning faqat ijobiy hislatlari haqidagina so'z yuritgan.

«**O'g'ilning tug'ilishi**» («**Kumarasambhava**») asarida Parvati ma'budining Shiva ma'budiga bo'lgan muhabbati bayon etilgan. Avvaliga Shiva Parvatining muhabbatini rad etadi, lekin Parvati o'z muhabbat kuchi bilan Shivani yana qayta o'ziga qarata oladi. Asar ma'budlar hayoti haqida bo'lsa-da xuddi insonlar hayotidek tasvirlangan, lekin unda oddiy insonlar ham ishtirok etadilar. Shunisi qiziqki, Kalidasa asarlarida, ko'pincha, inson o'z his tuyg'usi bilan hatto ma'budlarni ham zabt etish xususiyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi.

«**Malyavika va Agnimitra**» («**Malyavika Agnimitra**») Asar hind adabiyotidagi an'anaviy getera ayolning hayoti va uning sevgi mojarolari muammosiga bag'ishlangan. Asarda Malyavika getera, Agnimitra esa shoh. Ular o'rtasida sevgi mojarosi yuz beradi. Getera ayolning saroyda qanchalik

ahamiyat kasb etishi va ularning bu kasbdan qanday qilib ozod bo'lishi mumkinligi mana shu asar mazmunida yoritilgan.

«Yil fasllari» («Ritusamhara») Hindistonda jami oltita fasl bor. Demak, ularning har biri ikki oydan davom etadi. «Ritusamxara» asari mana shu fasllar tasviriga bag'ishlangan. Bu asar nafaqat qadimiy, balki bugungi kun hind adabiyotida ham fasllar haqidagi yagona va qimmatli asar hisoblanadi, chunki Kalidasadan oldin ham undan keyin ham hech bir yozuvchisi yoki shoir fasllarni bunchalik go'zal va batafsil tasvirlab bermagan. Unda fasllar quyidagicha berilgan:

«Nidagxa kal» («Nidagha kal») - *birinchi faslning* (may-iyun) nomi. Bu faslda quyosh nuri kunduzi yeru-ko'kni qizdirib hammani behol qilsa, kech kirganda quyosh botib oyli tun boshlanadi va faqat shundagina inson o'zini yaxshi his qilib, kechasining biroz salqinidan, oy nuridan bahra olishi, biroz cho'milib, gullar taqib, kechki salqinda boshlanadigan gavjum hayotni tasvirlaydi. Issiq hatto hayvonlarni ham lohas qilib qo'yadi. Bunda ular hatto o'z dushmaniga bo'lgan g'azabini ham, muhabbatini ham unutib yuborishi, ilon tovusni quvlamay, she'r esa filni ketiga tushmay, ilonni toshbaqaga tegmay qo'yishi va har bir jonzot faqat o'z jonini issiqdan asrash talvasasiga tushib, salqin joy yoki muzdek suv qidirishdan boshqa tashvishi bo'lmasligi haqida so'z boradi. Asar oxirida muallif kitobxonga yoz faslini yaxshi o'tkazib olish niyatini bildiradi.

«Varsha kal» («Varsha kal») - *ikkinchi fasl nomi* (iyul-avgust). Bu fasl ham o'zgacha gasht olib keladi. Issiq havodan keyin kelgan yomg'ir fasli barchaning joniga oro kiradi. Sevishganlar yomg'ir tagida uchrashib sevgi va visol lahzalarini o'tkazadilar. Indra ma'budi osmonga bulutlarni haydab yomg'ir quydiradi. Tabiat yomg'irdan yana qayta uyg'ongandek bo'ladi. Changlardan tozalangan tabiat yanayam go'zallashadi, bundan tashqari yomg'ir yaxshi hosil garovidir. Bu faslda qattiq yoqqan yomg'irdan ariqlar, ko'llar va daryolar toshadi, yomg'irdan keyin ochilgan gullar bilan ayollar sochlarini bezab tabiat qo'yniga, tog' yon bag'irlariga aylangani chiqadilar. Hindistonda bu fasl «Barsat ka maxina» yoka «Savan ka maxina» («yomg'ir oyi») deb ham ataladi va xalq orasida bu fasl sevgi fasli nomi bilan yuritiladi. Shu bois muallif bu faslni tasvirlashni tugatishda har bir kitobxonga «Barsat oyi senga muxabbat olib kelsin» deb tugatadi.

«Karat» («Karat») - *uchinchi kuz faslining nomi* (sentyabr-oktabr). Bu faslni Kalidasa xuddi kelinchakka o'xshatadi. U xuddi kelinchakka o'xshab «kasha» guliga bezanib keladi. Kuz ayol go'zalligi bilan qiyoslanib, uning bilaklaridagi bilak uzuklarining qo'ng'iroqdek ovozi bilan solishtiriladi. Qizil nilufar ayolning labi, tovusning yurishi ayolning

yurishlari, ko'k nilufar ayolning qoshi bilan qiyoslanadi. Bu faslning ham o'ziga yarasha qulayliklari haqida ham so'z boradi. Unda odamlar sekin asta issiq havodan qutulib kelayotgan sovuq qishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar.

«**Xemant**» («**Hemant**») - qish faslining birinchi qismi (noyabr-dekabr). Bu faslda daraxtlar bargini to'kadi, nilufar gullari uyquga ketadi, yerni tuman qoplaydi. Ayollar so'ligan va hidini yo'qotgan gulchambarlardan o'zlarini va uylarini tozalay boshlaydilar.

«**Shishar**» («**Shishar**») - qish faslining nomi (yanvar-fevral). Bu faslda hamma sovuqdan jon saqlash payiga tushib qoladi. Issiq kiyimlar kiyib, pechkani oldida issiq choy ichib o'tirish odamlarga odat tusiga kiradi. Lekin sovuq faslning o'z gullari mavjud. Ayrim daraxtlar shunday gullaydiki, hatto yoz faslida ham bunday gullarni uchratish qiyin.

«**Vasant**» («**Vasant**») - fasllarning go'zali bahor faslining nomi (mart-aprel). Bu faslda hammayoq ko'kalamzorga aylanadi. Mango gullari va asal arilar uyini buzganidek hammada sevgi va quvonch tabiat bilan birga uyg'onadi. Bahorda tabiat qayta tug'ilib yana ham go'zallashadi. Daraxtlar gullar bilan to'ladi. Kunduzlar yoqimli issiq, kechalar yoqimli salqin bo'ladi. *Ashoka* daraxti gullaydi. Bu faslda yerda sevgi xudosi hukm suradi. Sevgilisidan ayrilganlar iztirob bilan kuylab, bulutdan bu haqda sevgilisiga xabar yetkazishini iltimos qiladi. Bulut go'yoki uchib yurib yulda qizga bu haqda xabar yetkaza olishiga ishonib unga murojaat qiladilar. Bunda kezib yurgan bulut bosib o'tayotgan yo'ldagi tabiat go'zalliklari, shaharlar va saroylar, sharq bozorlari va boshqa turli ko'rinishlar kitobxon ko'z oldidan o'tadi. Bu asarda ham Hindistonning tabiati go'zalliklari va geografiyasi bilan yaqindan tanishamiz.

«**Qo'lg'a kiritilgan Urvashi**» («**Vikramurvashi**») asarining syujetini Kalidasa qadimgi hind adabiyotidan olgan. Bu drama afsonaviy bo'lib, shoh *Pururvasa* va *Urvashi* haqidadir. *Urvashi* osmon ma'budasidir. Shoh *Pururvasa* esa *Soma* xudosining o'g'li *Buddxaning* o'g'li. U oy sulolasiga mansub. Onasi *Ila* bashariyat onasi hisoblanmish *Manuning* qizidir. Kalidasa asarlarida shoh obrazi ko'p, lekin *Pururvasa* eng yaxshi shoh obrazidir. U dramada ko'proq shoh sifatida emas, balki sodiq oshiq sifatida gavdalangan. Shohning sevgi iztiroblarini tasvirlash uchun Kalidasa katta-katta monologlardan foydalangan. Uning sevgilisi *Urvashi* esa osmon qizi bo'lgani sababli u yerga qaytib chiqib ketishi lozim edi. Yer yuzida u, to farzandi tug'ilguncha yashashi lozim edi. Lekin Kalidasa uchun sevgi eng muqaddas tuyg'u bo'lganligi sababli oshiqlarni bir-biridan ajratgisi kelmaydi va farzand tug'ilganligi haqidagi xabarni osmondan yashirish

epizodini kiritadi. Diniy nuqtai nazardan qaraganda, har bir inson Yaratganga intilishi, yerdagi gunohlardan tezroq qutulib abadiy rohatga intilishi kerak, lekin Kalidasa baxtni faqat yerda, va aynan sevgida, deb biladi va bu baxtni eng yuksak baxt deb biladi. Urvashi ham jannatdek go'zal osmon hayotini yerdagi sevgiga almashadi. Shu tarzda asar yaxshilik. Ya'ni sevgi g'alabasi bilan tugaydi.

Kalidasa ijodining ahamiyati. Kalidasa ijodining keyingi davr adabiyotiga, xususan, hind dramaturgiyasiga ta'siri juda katta. Hind dramaturgiyasida Kalidasa yaratgan an'ana bugungi kungacha ham hind teatr sahnalarida qo'llanib kelinmoqda. Kalidasadan ta'sirlanib dramatik asarlar yaratgan uning bir qancha shogirdlari ham bo'lgan. Ulardan ayrimlarining nomini Kalidasa o'z asarlarida tilga olgan. Jumladan, *Bxasa*, *Saumilu*, *Kaviputru* va boshqalar.

Kalidasa o'z dramalarida ko'proq shoh saroyi, uning atrof muhiti bilan bog'liq voqealarni va shu bilan bir qatorda shohning shaxsiy hayotidagi muhabbat mojarolarini ko'proq tasvirlagan. Bu obrazlarda Kalidasa shohning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ochib berishni, uning kamchiliklariga sababchi bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini ochiq tanqid ostiga olgan. Shu bois uning shoh obrazidagi qahramonlari odil va xalqparvar bo'lish bilan bir qatorda o'z vazifasini, o'z majburiyatini unutgan, uni suiiste'mol qiladigan shohlar ham bo'lgan. Lekin asar yakunida ular, ko'pincha, ma'budlar yoki xalq donishmandlari yordamida to'g'ri yo'lni topib o'z orzu va maqsadlariga erishadilar.

Kalidasa o'z pesalarini sahnalashtirishda o'zidan oldin o'tgan turli mualliflarning teatr san'atiga oid yaratgan traktatlari bilan yaqindan tanishib ulardagi hali sahna yuzini ko'rmagan qonun qoidalarni teatr sahnasiga olib chiqadi va ular yaratgan yangiliklarni birinchi bor sahnada qo'llashni boshlaydi natijada teatr san'atini yanada yuqori pog'onaga ko'tarilishiga sababchi bo'ladi. Shu bois Kalidasa davrida hind dramaturgiyasi o'zining taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan deb bejiz aytilmaydi.

Kalidasaning teatr sahnasiga olib kirgan yana bir yangiliklaridan biri ko'ptillilikdir. Ko'ptillilik ilgari ham bo'lgan bo'lsa-da, Kalidasa uni yana ham rivojlantirdi va har bir sahna ko'rinishiga kiritdi. Bu esa maxalliy tillarning badiiy jihatdan sayqallanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Kalidasa o'z pesalarini yaratishda xalq donishmandligiga ko'p murojaat qilgan. Shu sabab uning pesalarida xalq maqol va matallari juda ko'p. Kalidasa saroy dramaturgi bo'lsa-da, hech qachon xalq manfaatlaridan uzoqlashmagan. U shohni, lozim bo'lsa maqtov ostida qoldiradi, lozim

bo'lsa tanqid ostida. Jumladan, Shakuntala dramasida shoh Dushyantaning Shakuntalani unutib uni ko'p yillik azobga qo'yishini shohning salbiy tomoni sifatida bemalol tanqid ostiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, Kalidasa ijodi bizga qadimgi hind dramaturgiyasi va teatr san'ati haqida to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi. U nafaqat qadimgi hind dramaturgiyasining balki butun Hindiston dramaturgiyasining eng yirik vakilidir. Uning drama sohasiga, uning ravnaqiga qo'shgan hissassi bekiyosdir. Uning pesalari esa hanuzgacha hind xalqining eng sevimli dramalari bo'lib qolmoqda.

6 Bob Roman va satiraning shakllanishi

6.1 Shoir Bxaratrixari ijodi

Bharatrihari

Bxaratrixari yashagan davr imperator *Xarsha* shohlik qilgan davrga to'g'ri keladi. U haqidagi dastlabki ma'lumot Xitoylik sayyoh *I.Szin* asarlarida uchraydi. Unga ko'ra *Bxaratrixari* VII asr o'rtalarida yashagan deb tahmin qilinadi. Lekin uning qachon olamdan o'tgani xaqida ma'lumot yo'q. *I. Szinning* *Bxaratrixari* haqidagi ma'lumoti ko'p asrlargacha Xitoy chegaralaridan tashqariga chiqmagan. Faqat XIX asrda *I. Szinning* **sayoxat** taassurotlari ingliz tiliga tarjima etilganidan keyin Yevropa *Bxaratrixari* nomi bilan birinchi bor tanishadi. Hindistonda esa uning nomi dastlab IX asrda *Somadeva Surning* «*Yanastilaka*» asarida uchraydi. Noma'lum muallif tomonidan yozilgan bir she'rda ham *Bxaratrixari* haqida so'z yuritilgan bo'lib u quyidagi misralarni bitgan:

*Est mnogo velikix poetov,
Est mnogo velikix uchenix,
No tolko odin Bxaratrixari
Velik kak poet i ucheniy.*

Bxaratrixari o'z dunyoqarashiga ko'ra umumjamiyat qarashlaridan farqli ravishda diniylikdan yiroq bo'lgan. *Bxaratrixari* she'riyatining mazmuni muqaddas kitoblar, ulardan ham avval yaratilgan vedalar, va qolaversa, Yaratganni ham tanqid qilish bilan bog'liq bo'lgani sabab o'z davrida va undan keyingi ko'p asrlar davomida uning shaxsiyati ham, ijodi ham tan olinmay kelingan va unga qarshilar ham juda ko'p bo'lgan. Ayniqsa, uning «*Vakyapadiya*» - «*So'z haqida ilm*» asari haqida turli xil fikrlar bildirilgan. Faqatgina X asrda *Utpalacharya* birinchi bor *Bxaratrixarining* nomini tilga olgan. Uning grammatika sohasida ko'p yangiliklar, nazariyalar yaratgani, ayniqsa sanskritni o'rganish borasidagi ilmiy izlanishlariga ko'p tanqidiy fikrlar bildirilgan. Jumladan, *S. Ayyar* *Bxaratrixari* asari haqida fikr bildirib, «*Bxaratrixarining hatosi shuki, u*

sanskrit tilining qoidalarini tushuntirish o‘rniga falsafiy qarashlarga berilib ketgan» degan edi. Lekin bu xususiyat deyarli barcha davr adabiyotiga xos bo‘lib hind adabiyotini falsafasiz tasavvur etib ham, falsafasiz tushunib ham bo‘lmaydi. Ularda «artxa» - *boylik*, «kama» - *sevgi*, «dxarma» - *dunyo* haqida fikr mulohazalarning hayotiy ahamiyati aynan adabiyot sahifalarida yoritib beriladi. Jumladan, *moksha* - ruh ozodligi haqidagi qarashlar esa «Mahabxarata» eposining o‘n ikkinchi kitobini to‘liq egallagan. U «Mokshadxarma» deb ataladi. Bxagavadgitaning oltinchi kitobi ham shu muammoga bag‘ishlangan. Bxaratrixari asosan grammatist bo‘lgan. U *Patanjali*, *Panini* kabi buyuk grammatistlarning asarlariga ham izohlar yozgan. U grammatikani barcha bilimlarning asosi deb bilgan va uni quyidagicha baholagan:

*Visochayshim iz podvijnichestv,
Naiblijayshim k Brahmanu,
Mudrie nazivayut pervoy
Grammatiku sredi ved.*

Yana bir she’rida:

*Est pervaya stupen
Na lestnise k osvobojdeniyu;
Eto pryamaya doroga
Dlya vsex, jajduux mokshi.*

Grammatikani bilmasdan turib gapni to‘g‘ri tushunish mumkin emas, demak gapni to‘g‘ri tushunmaslik vedalarni to‘g‘ri tushunmaslikka olib keladi. Shu sabab grammatikani bilimlar asosi deb hisoblagan Bxaratrixari. Uning bunday qarashlari ortodoks brahmanlar fikriga doim qarshi bo‘lib ular bilan doim to‘qnashuvga uchrar edi. Shu sababli ham ko‘p vaqtlargacha u haqida hech kim hech narsa yozmagan. Uning hayoti haqidagi ma’lumotlar ko‘pincha ikkinchi darajali manba’ deb qaraladigan meroslar tarkibidan qidirilgan. X asrgacha Bxaratrixari haqidagi faqat uchta eslatmani uchratish mumkin va ularning hammasi tanqidiy mazmunda. XI asrda Kshemendra o‘z asarida uning nomini tilga olgan. XIII-XIV asrlarga qarashli bir yozma yodgorlik tarkibida ham uning nomi uchraydi, lekin asar muallifi aniq emas. Tahminlarga qaraganda muallif *jayn dini* vakili *Merutunga* deb hisoblashadi. Asar «*Yarim tarixiy shaxslar hayoti haqida afsonalar kitobi*» deb nomlangan. Bxaratrixari haqida u yerda birinchi marta ijobiy fikr bildirilgan: «*Bir brahman Panini grammatikasini yaxshilab o‘rganish uchun Ganesha ma’budiga murojaat qiladi. Ganesha esa uning iltijosini qabul qiladi va amalga oshiradi. Brahman esa saroyga borib grammatikani to‘liq gapirib beradi va shoh uning bu bilimi uchun*

taqdirlaydi. Natijada u to'rt xotinlik bo'ladi: to'rt ayoli to'rt kasta vakillari edi. Kshatri kastasi vakili bo'lgan xotinidan Vikramaditya tug'iladi, shudra kastasidagi ayolidan Bxaratrixari tug'iladi. Past tabaqa vakili bo'lganligi sababli darsda barcha o'quvchilar bilan birga o'tirib emas, balki pastda, yer ostida o'tirib bilim oladi. Ustozi ikki misra she'rni tahlilga berganida yuqoridagi uch o'g'il she'rning ikkinchi qatorini tushunmaganligini bildirishi kerak edi. Shuni qilmaganligi uchun ustozdan gap eshitadi. Shunda u o'rnidan turib yuqoriga chiqib ikkinchi misrani mazmunini aytib beradi. Ustozi esa uning bilimdonligidan hayratda qolgan ekan».

Gollandiyalik missioner Roger ham Hindistonga safar qilib u yerda Bxaratrixari haqida eshitganlarini o'z kitobida yozib qoldirgan. Ko'p kitoblarda Bxaratrixariga «shudra» kastasi vakili, lekin juda aqlli, zehnli, ilimli deb ta'rif beriladi.

Bxaratrixari, yuqorida aytganimizdek, asosan grammatist sifatida tanilgan. Lekin u yaxshigina shoir ham bo'lgan va undan ajoyib mazmundagi she'rlar meros bo'lib qolgan. Bxaratrixari ikki yangi janr yaratish bilan o'z davri she'riyati rivojiga katta hissa qo'shgan. Ular: «shataka» va «dashaka» («o'z miralik») janrlari bo'lib «shataka» «yuz misra», «dashaka» esa «o'n misr» degan ma'nolarni anglatadi. Bxaratrixarining «shataka» janrida yaratgan uchta asari ma'lum, ular: «Nitishataka», («Siyosat haqida»), «Shringarashataka» – («Sevgi haqida»), «Veyragya – shataka» («Hijron haqida»).

Roger asarida birinchi marta Bxaratrixari asarlarining shakli haqida ma'lumot berilgan. Uning yozishicha, har bir shataka o'n bobga bo'lingan. Demak. Bir «shataka»da o'nta «dashaka» bo'lib, o'nta o'n misralik dashakadan bitta yuz misralik shataka tuzilgan. Gollandiyalik Roger Bxaratrixarining «Nitishataka» hamda «Veyragyashataka» asarlari to'g'risida so'z yuritadi va ularni didaktik ahamiyatga ega bo'lgan, xalq ilmini o'zida mujassamlashtirgan, xuddi kinoyali hikoyalar, ya'ni pritchalarga o'xshab yozilganligini ta'kidlab o'tadi, lekin ikkita shatakada to'qqizinchi va o'ninchi boblar yo'qligi ham aytib o'tadi. Darhaqiqat, shatakalar, hanuzgacha, xuddi shu shaklda mavjud. Roger Bxaratrixarining yana bir asari haqida so'z yuritadi. Bu «Shatakatrayam» bo'lib uni «Trishati», ya'ni «Uch yuz misra» deb ham ataydilar. Bu asar to'liq holda mavjud. Bxaratrixariga tegishli boshqa asarlar haqida boshqa so'z yuritilmagan.

XVII-XVIII asarlarga kelib Bxaratrixarining aniq uchta asari borligi aniqlangan. Bular: «Shatakatrayam», «Vakyapadiya» va «Maxabxashyatika».

«Shatakatravam» 1948 yilda hind matematigi, filologi va tarixchisi D.D. Kosambi tomonidan ishlangan. U bu asarning tanqidiy matnini nashr ettiradi. Kosambi sakkiz yuz misralik asarni to'liq o'rganib chiqadi. Asarning birinchi qismi «Nitishatakadir». U ma'budni kuylash bilan boshlanadi. Mana shu qismda muallif haqida ma'lumot borilgan.

«Niti» so'zining leksik ma'nosi *siyosat, etika, bilim* va shunga o'xshash ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Lekin bu yerda uning ma'nosi «*Haq qarashlari*», ya'ni «*Yaratganning siyosati*» ma'nosida qo'llanilgan bo'lib Bxratrixari Yaratgan haqidagi o'z qarashlarini mana shu asar mazmunida bergan. «Nitishataka»da ham o'nta «dashaka»dan tashkil topgan. «Dashaka»larning nomlanishi quyidagicha, Masalan, «*Ahmoqlar haqida o'nlik*», «*Olimlar haqida o'nlik*», «*Boylik haqida o'nlik*», «*O'zgalarga yordam haqida o'nlik*», «*Taqdir haqida o'nlik*», «*Karma haqida o'nlik*» va boshqalar. Masalan, «*Axmoqlar haqida o'nlik*» dan namuna:

*Chtob skrit nevestvo,
Molchane sozdano Tvorsom-
Vsegda glupsov ono ukrasit.
Osobenno v sobrane mudrix.*

She'rlardan birida Bxaratrixari shunday deydi:

*Ne ruhnet etot mir,
Poka jiv chelovek,
Kotoriy rodichey svoix
Nasitit smojet,
I k slugam – dobrim bit,
I xitrim – s podlesom,
S saryami – diplomatom,
Doblestnim – s vrachom,
Reshitelnim – sred jenuin,
Terpenya polnim, -
S dryaxlim starikom
I k dobrim lyudyam –
Polnim dobroti.*

*Kogda sloni moguchie v okovax,
Tomyatsya ptisi v kletkax,
Zatimneni planetami Luna i Solnse,
a mudriy niu, - ya veryu v mou Sudbe.*

Yana bir she'rda deydi:

*Esli xochesh, mudres, nasladitsya blajenstvom,
Ne stremis ti ni k podvigam, ni k prestuplenyu,
Znay, lish molis pred boginey Krivuley –
Ved eto ona chestnix v merzavsev,
Umnix lyudey v durakov obrauqet.
Druzey vo vragov i nezrimoe – v zrimoe,
Amriti sladost – v smertelneyshiy yad!*

Bxaratrixari dunyoni, uni anglash uchun yaratilgan barcha bilimlarni, undagi qonun qoidalarni, barcha dinlarni, inson hayotinin har bir ikir-chikirini, g'am-tashvish va muammolarini chuqur o'rganadi. Avvaliga adib bu bilimlarning barchasiga, xoh ular diniy bo'lsin, xoh falsafiy, xoh xalq tajribasi mevasi bo'lsin, qattiq ishonadi va ularni insonni baxt-saodatga eltuvchi bilimlar sifatida qabul qiladi. Lekin hayoti davomida na mantra(tilovat)lardan, na ibodatdan, na olgan chuqur bilimlaridan inson baxtli, saodatli hayotga erisha olmayotganligini kuzataverib bu bilimlar hayotda o'z mazmunini oqlamasligini, ular insonning hech bir muammosini hal qila olmasligini tushunib yetadi. Hech qaysi bilimdan o'z savollariga to'liq javob topa olmagan Bxaratrixari Yaratuvchini bir «Krivulya», ya'ni «O'z o'zini paysalga soluvchi» ekan degan xulosaga keladi va bu xulosalarini o'zining she'riy misralari orqali bayon etadi. Bxaratrixaridagi bu ichki qarama-qarshiliklar uning olam va undagit bilimlar haqidagi fikrlarining tubdan o'zgarishiga olib keladi. Shoir o'z yashayotgan davrini, va umuman, dunyoning asliyatini tushunib yetadi. O'zining va jamiyatning hayoti tajribasi asosida borliq va insoniyat olamining muhim muammolari ularning sabab va oqibatlari, barcha dinlar va turli diniy g'oyalarning hayotdagi ahamiyati va o'rni nimadan iborat ekanligini tushunib yetib ular u kutga natijani berishga qodir emasligiga ishonch hosil qiladi. Natijada Bxaratrixarining olam haqidagi xulosasi uni qabul qilish emas, balki inkor etishdan iborat bo'lib dunyo tuzatib bo'lmas bir chigallik ekan degan xulosaga keladi.

6.2 Vishakxadatta ijodi

Vishakhadatta

Vishakxadatta ham hind dramaturglari va satiriklari qatoriga kiradi. U U1 asr oxiri va UII asr boshlarida yashab o'tgan deb tahmin qilinadi. Vishakxadatta, asosan, dramalar yaratgan. Uning hayoti haqida aniq ma'lumot yo'q. Uning ilmi, ziyoli va yaxshi ta'minlangan oiladan chiqqan shaxs bo'lganligi uning asarlaridan ma'lum bo'ladi. Dramaturgiyada Vishakxadatta tarixiy drama asoschisidir. Uning bizgacha yetib kelgan asarlari quyidagilar:

- 1) *Ragxavananda* - *Ragxavananda «Ramayana»dan olingan.*
- 2) *Abxisarikavanchitaka* - «*Sevgilisiga aldangan*»
- 3) *Devichandragupta* - «*Chandragupta va malika*»
- 4) *Mudrarakshasa* - «*Rakshas ministrining muhr*»

Bu asarlar orasida «Mudrarakshasa» dramasi Vishakxadattaga shuhrat olib kelgan. Asar tarixiy syujet asosida yaratilgan. Dramadagi voqealar *Chandragupta Mauriyalar* sulolasi hukmronlik qilgan davrga oiddir. Qadimgi hind dramaturglari va yozuvchilari, ko'pincha, afsona yoki eposlarga tayanib ijod qilgan bo'lsalar, Vishakxadatta tarixiy voqealarga murojaat etgan. Uning pesalarida uydirma yoki fantaziyalar uchramaydi. Muhabbat bilan bog'liq syujetlar ham kiritilmagan. Faqat siyosat va hukumat ishlariga oid voqelargina tasvirlangan.

«Mudrarakshasa» siyosiy dramadir. Dramada *Rakshasa* va *Chanakya* o'rtasidagi siyosiy muammo ko'tarilgan. Chanakyalar - uzoqni ko'ruvchi, qahri qattiq, o'z manfaati yo'lida hech narsadan tap tortmaydigan sulola vakillari. Rakshasalar esa ularning aksi bo'lib, juda ishonuvchan, vijdonli va oliyjanob insonlar vakilidir. Mana shu ishonuvchanlik Rakshasalarning barcha niyat va rejalarini puchga chiqaradi. Asar yakunida «Mauriyalar saltanati ikki mamlakatni boshqaradi» - degan fikr bilan chiqqan Chanakyalar g'olib chiqadilar. Dramada ayol obrazi deyarli yo'q.

Pesa prolog bilan boshlanadi. Sahnada taniqli vazir Chanakyaning ovozi eshitiladi. U brahman kastasi vakili bo'lib, Chandraguptaning ishongan vaziri. U saroyda shoh Chandraguptaga qarshi bir fitna uyushtirilayotganini sezadi. Avvalgi taxtdan ag'darilgan vazir Rakshasa Chandraguptaning vazirlari bilan til biriktirib unga karshi ig'vo uyushtirayapdi deb o'ylaydi. Chanakya Rakshasaning o'z shohiga sodiq qolganligidan hayratda qoladi va uni Chandragupta tomonga o'tishiga harakat qiladi. Rakshasaning muhr bosadigan uzugi uning qo'lga tushib qoladi. Uzunni Rakshasa oilasini yashirib yurgan savdogar Chandidas uyida qo'lga kiritadi. Savdogar Chanakya ig'vosiga qo'shilmaydi, shu sababli Chanakya uni qamoqqa tashlaydi.

Rakshasa uning odamlari o'ldirilganini eshitib endi Chandragupta bilan Chanakyani urishtirib qo'yish yo'lga o'tadi, lekin Chanakya buni ham bilib qolib, bu ig'voni Rakshasaning o'ziga qarshi ig'voga aylantirib yuboradi.

Uchinchi qism Chandragupta bilan Chanakya to'qnashuvi haqida. To'qnashuv qisqa vaqt davom etadi. Chunki ikkovi ham bir-birini yaxshi bilgani uchun masala tez hal bo'ladi. Chandragupta Chanakyasiz ish tutishga o'tib oladi. Rakshas esa bundan foydalanadi. Chanakyaga aynan

shu narsa kerak edi. Chanakya Rakshasa muhridan foydalanib Rakshasani Chandragupta tomoniga o'tkazish haqida bir xat uyushtiradi. Uning bu ishidan sheriklari nafratlanadi va shoh o'g'li tomonidan o'limga hukm qilinadi. Asar yakunida Chanakya Rakshasani Chandraguptaga xizmat qilishga rozi qiladi.

6.3 Romanist Dandin

Dandin

Hind adabiyotining Dandin yashagan davri sanskrit adabiyotining tugab borishi va mahalliy tildagi adabiyotlarning shakllana boshlanish davriga to'g'ri keladi. Bu Guptalar sulolasi hukmronlik qigan davr edi. Bu sulola davrida Hindistonni katta bir markaziy davlatga aylantirib, uni har tomonlama rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Matematika, astronomiya, grammatika, falsafa, adabiyot va boshqa fanlar bo'yicha yirik - yirik ilmiy ishlar, izlanishlar va tadqiqotlar aynan shu davrda bunyodga keldi. Adabiyotda she'riyatga oid katta-katta ilmiy traktatlar bir yaxlit asar sifatida bunyodga keldi. *Aryabxattaning* matematika bo'yicha, *Paninining* grammatika bo'yicha yirik asari, dramaturgiyada Kalidasa ijodi va boshqalar shu davr bilan bog'liq, shu jumladan Dandin ijodi ham Guptalar davriga to'g'ri keladi. U sanskrit tilida ijod qilgan oxirgi yozuvchilardan biri hisoblanadi.

Hind adabiyotida eramizdan avval janr turlari juda kam bo'lgan. Ular, asosan, nazmda yaratilgan adabiyot bo'lgan. Eramizning birinchi ming yilligiga kelib hind adabiyotida ham turli nasriy janrlar shakllana boshladi. Ulardan biri «*nasriy qissa*», ya'ni bugungi kun adabiyotidagi «*roman*» janri bo'lib, uning bunyodga kelishi Dandin ijodi bilan bog'likdir.

Ma'lumotlarga ko'ra, Dandin eramizning U1-UII asrlarida yashab o'tgan. Uning qaerda yashagani faqat tahminlarga asoslanadi. U yoki *Magadxada* (Janubiy Bixar hududi) yoki *Malva* shohligida yashagan deb tahmin qilinadi. Dandin asari ko'proq yoshlarga mo'ljallangan asarlardir. Uning asarlarida yoshlarning qanday yashash kerak degan savoliga javob g'ayri tabiiy ma'noda jaranglaydi. Uning dunyoqarashi hech bir yozuvchi yoki shoir dunyoqarashi bilan mos kelmaydi. Dandinning o'z asarlarida ko'tarib chiqqan ma'anaviyat adabiyotning va ahloq - odobning normalariga javob bermaydi. Dandin o'ziga xos bir shaxs bo'lib, hayotni u diniy nuqtai nazaridan, yoki ahloq - odob nuqtai nazaridan emas, balki zamon talabi, dunyoviy rohat nuqtai nazari bilan o'lchagan va shunday baholashni to'g'ri deb hisoblagan. Jumladan, u «*Sevgi qoidalari*» nomli asarida shunday deb yoshlarga nasihat qiladi: «*Avval hayot qonunlari bilan tanishgach, sovg'alar, g'alabalar, savdo va to'lovlar yoki bo'lmasa meros*

va shunga o'xshash boshqa turli yo'llar bilan orttirilgan boylikka inson, avval, o'z uyini qurib, so'ngra dunyoviy hayot lazzatini olib yashashi lozim. Buning uchun u taraqqiyparvar insonlar yashaydigan shahar bo'lmish poytaxtlarda yoki biron bir katta shaharning markaziy qismlarida, ya'ni o'z hunari va kasbiga mos yerda yashashi lozim. Bundan tashqari u shahar tashqarisida, biron bir suv bo'yida o'ziga dala hovli, mehnat qilish uchun maydoncha va oromgoh ko'rib olishi lozim» deb yoshlarga yaxshi yashash yo'llarini o'rgatadi. Keyin kasblar va hunarlarning turlari haqida ham so'z yuritadi. Yoshlar peshindan keyin, albatta, o'zlariga oro berib ko'chalarga, bog'-rog'larga sayr qilgani, sevgi onlarini o'tkazish uchun chiqishlari, musiqa eshitib, raqsga tushib dam olishlari lozim - degan fikrlarni bildiradi. Ayrim kunlari ibodatxonalarga ham borib, u yerda go'zal nasihatlariga ham quloq solib turishlari, teatrlarga va geteralar raqsini tomosha kilgani, san'at va madaniyat bahslari bo'ladigan mahsus joylarga ham borib turishlari kerakligini ta'kidlaydi. Dandin asarlarining o'quvchilari asosan savdogar va **sudxo'rlar**ning boylikdan taltayib ketgan farzandlari, saroy ahli, doim rohat farog'atda yashovchi puldor shaxslardir. Uning asarlarining qahramonlari ham, asosan, jamiyatning shu turdagi vakillari bo'lgan.

Hind mutaxassislarining fikricha, Dandin asosan uch asar muallifidir. Ulardan faqat ikkitasi bizgacha yetib kelgan.

- «*Dashakumaracharita*» - «*O'n shahzoda sarguzashti*».
- «*Kavyadarshana*» - «*She'riyat ko'zgusi*»

Hind mutaxassislari Dandinning «O'n shahzoda sarguzashti» asarini o'qishdan avval uning «*She'riyat ko'zgusi*» asarini o'rganishi lozim deb hisoblaydilar. Chunki ularning aytishicha, Dandinning she'riyatga bag'ishlangan asarini o'qigan kishigina uning «O'n shahzoda sarguzashti» nomli romanining mag'zini to'g'ri tushunib yeta oladi. Dandinning «O'n shahzoda sarguzashti» asari ahloq –odob chegaralariin buzgan holda yaratilgan asar bo'lishiga qaramasdan hind jamiyatida juda katta shuhrat qozongan. U nafaqat o'sha davrda, hattoki, bugungi kunda ham hind xalqi tomonidan juda sevib o'qiladi. Hindlar bu asarga «*Uch dunyoni zabt etgan shoh asar*» deb baho berganlar.

«O'n shahzoda sarguzashti» asarida shahar hayoti tasvirlanadi. Romanda tasvirlangan shaharlarning nomi va voqealarning mazmunidan asarning yaratilgan davrini aniqlashga harakat qilingan. Unga ko'ra roman eramizning tahminan 585 yilida yaratilgan. Roman kirish, sarguzashtlar qissasi va epilogdan iborat. Lekin ayrim sanskrit adabiyoti

mutaxassislarining aytishicha, kirish va epilog boshqa shaxs tomonidan yozilgan.

Romanning kompozision qurilishi «Panchatantra» yoki «Ming bir kecha» asarlarining kompozision qurilishini eslatadi, ya'ni qadimiy hind adabiyotidagi an'anaviy ramkalash (ya'ni, qoliplash) usulidan foydalangan. Bosh g'oyaga qo'shimcha g'oyalar kichik-kichik voqealar tafsiloti tarzida ulanib ketaveradi..

Asarning voqeasi Magadxa va Malva shohliklarining o'zaro urushidan iborat. Urushda yutqazgan Magadxa shohi o'z malikasi bilan o'rmonga tarki dunyo qilib ketadi. U yerda ular bir o'g'il ko'radilar. Uning ismini *Rajavaxan* deb qo'yadilar. U katta bo'lgach o'z do'stlari bilan juda ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirib Magadxaga boradi va u yerda otasi qo'lidan chiqargan taxtni qo'lga kiritadi. Otasi esa an'anaga ko'ra taxtni o'z o'g'liga taxt vorisi sifatida topshiradi.

Romanda Rajavaxan va uning do'stlarining sarguzashti kichik-kichik mustaqil hikoyalar tarzida kiritilgan. Dandin romandagi kiritma syujetlarda folklor syujetlardan foydalangan, natijada asar juda qiziqarli bo'lib chiqqan. Jumladan, «*Qahri qattiq xotin*» haqidagi hikoya xalq orasida yuradigan hikoya syujetidan olingan.

Bir adabiy turga kiruvchi roman va hikoya janrlari o'rtasida o'zaro ichki bog'liqlik mavjud. «O'n shahzoda sarguzashti» asarida bir qancha hikoyalarning bir qahramon yoki bir voqea atrofida mujassamlashuvi natijasida mustaqil bir roman paydo bo'lgan. Shu sabab asarni ramkalanagan povest yoki roman deb atash mumkin. Lekin «Panchatantra» asariga qaraganda «O'n shahzoda sarguzashti» tarkibidagi hikoyalar kompozision tuzilishi jihatidan bir-biriga ko'proq bog'liqdir.

Roman shahzodalarning sarguzashtlari bilan bog'liq bo'lganligi sabab ularda turli noo'rin voqealar, man qilingan turli suyak o'yinlari, yolg'onlar, o'g'riliklar, o'z maqsadiga erishish yo'lida qilingan sotqinliklar va shunga o'xshash axloqiy noto'g'ri hisoblangan voqealar tasvirlangan. Hikoya qahramonlari shohlar, saroy ahli, brahmanlar, darveshlar, monaxlar, savdogarlar, geteralar, enagalar, sevishganlar va boshqalar Hikoyalarda g'ayri tabiiy voqealar, firibgarliklar, yovuz kuchlar harakati, sehr-jodu kuchlaridan foydalanish, xullas fantastika katta o'rinni egallaydi.

Hikoyalarda ishtirok etuvchilarning soni juda ko'pchilikni tashkil etadi. Personajlar ko'pligidan muallif ham ayrim o'rinlarda ularning nomlarini ham unutib qo'yadi. Sevgi mojarolariga juda katta o'rin berilgan.

Asarning boshqa asarlardan tubdan farqi shundan iboratki, personajning har qanday hatti harakati, yolg'onchi yoki sotqinligi, pastkash

yoki xudbinligi o'z maqsadiga erishish yo'lidagi oddiy bir zarurat sifatida muallif tomonidan tanqid ostiga olib emas, balki qo'llab quvvatlagan holda tasvirlangan. Maqsadga erishish esa har bir insonning bu dunyoda haq - huquqi deb hisoblaydi muallif. Dandin bu voqealarni juda qiziqarli tilda ifoda etgan. Roman personajlarining tilida ishlatilgan iboralar xalq og'aki ijodidan olingan bo'lganligi hamda asarning komik asarlarga o'xshab yozilganligi hind kitobxonni diqqatini o'ziga jalb eta oladi va kitobxon uni juda sevib o'qiydi.

Asarda tanqid ham yo'q emas va u o'z o'rnida ustalik bilan ishlatilgan. Dandin monaxlarni, brahmanlarni, geteralarni ham ayrim voqealar tasvirida tanqid ostiga oladi. Dandin jamiyatdagi turli ijtimoiy guruxlarning o'zaro munosabatlarini o'rganib, ularning munosabatiga tanqidiy baho beradi. Romanda savdogarlarning shohlar bilan munosabati, shohlarning geteralarga va boshqa diniy guruxlarga bo'lgan munosabatlariga ham alohida ahamiyat berilgan. Dandin qahramonlari uchun hayotda barcha muammoni hal qiluvchi, inson uchun eng katta baxt keltiruvchi narsa bu pul va boylikdir degan g'oya yetakchi o'rinni egallaydi. Ulardan keyin esa hayotiy lazzatlar, aysh-ishrat va ishq hayotni go'zallashtiruvchi omil sifatida tasvirlanadi. Dandin qahramonlari faqat bugungi kun xursandchiligi bilan yashaydigan, ertangi kun bilan ishi yo'q shaxslardir. Shu sabab ham ular rohat - farog'at, aysh-ishrat va sevgi yo'lida hech qanday razilliklardan, xudbinliklardan bosh tortmaydilar. Dandin bu asarda hech kachon xalq hayoti, uning manfaatlarini tasvirlashni maqsad qilib qo'ymagan bo'lsada, ayrim joylarda oddiy xalq hayoti bilan ham tanishish mumkin. Masalan, ochlikdan oddiy xalqni shilib yashayotgan puldorlar emas, o'sha mehnatni bajarayotgan mehnatkash azob chekishi ochiq - oydin bayon etiladi. Asarning ayrim yerlarida xalqning norozilik ovozi ham eshitilib qoladi. Romanda o'z xo'jayiniga sodiq qullar hayoti, dinga ko'r-ko'rona ishonib, xudoning sodiq quliga aylangan qariyalar hayotini tasvirlovchi epizodlar ham uchrab turadi.

Dandinning «O'n shahzoda sarguzashti» asari hind adabiyotidagi roman janrining dastlabki namunasidir. Uning mazmuni, tuzilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar hind xalqi uchun sevimli asarlar sifatida mutolaa qiladi. Dandin o'z kitobxoniga adabiyotda deyarli uchramaydigan ahloqsizlikni, yashashdan maqsad hayot lazzatini har qanday yo'l bilan bo'lsa-da totish ekanini yashashning eng to'g'ri yo'li sifatida o'qtira olgan dastlabki va yagona yozuvchidir. Hind adabiyotida Dandindan keyin ham, undan oldin ham hali hech kim bunday noo'rin mazmundagi, lekin o'rinli, o'ziga xos ajoyib, takrorlanmas bir asarni yaratmagan.

Dandinning «She'riyat ko'zgusi» asari ham hind she'riyatining shoh asarlaridan hisoblanadi. Dandin bu asari bilan o'zining sanskrit she'riyati ilmini qanchalik chuqur egallaganligini namoyon qilgan. Asar uch qismdan iborat:

- *Birinchi qismda* adabiy turlar va uslublar hakida so'z boradi.
- *Ikkinchi qism* esa so'z bezaklarining turlari haqida.
- *Uchinchi qismida* she'riyatni bezash usullari haqida so'z boradi.

Dandinning aytishicha, she'riyat ilmiga uzoq mehnat natijasidagina erishish mumkin. Buning uchun ilm ma'budasi *Sarasvatiga* ibodat qilish lozim deb targ'ib etadi. Bu asarda she'riyatning barcha nozik tomonlari haqida nazariy ilmlar to'plangan, jumladan, so'zning kitobxonga ta'siri, tinglash ta'siri va boshqalar haqida ma'lumot olish mumkin. She'rda go'zal so'zlarning kitobxonga ta'siri natijasidagina she'rning muvaffaqiyatiga erishish mumkin deb yozadi Dandin. Umuman olganda, «She'riyat ko'zgusi» asari Dandinning qadimiy hind she'riyati ilmiga qo'shgan katta hissi bo'lib, uning tarkibidagi qonun - qoidalar bugungi hind she'riyatida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Dandinning bu asariga undan keyin yashagan nazariyotchilar ham murojaat etib, asarga yuqori baho berganlar.

Dandin qadimgi hind adabiyotida roman janriga asos solgan yozuvchi. Uning yuqorida tilga olingan ikki asari hind adabiyotida ko'pgina kitobxon va mutaxassislar e'tiborini qozonib ular tomonidan yuqori baholangan. Bu ikkala asar ham - birinng syujet va mazmun jihatdan boyligi, ikkinchisining nazariy jihatdan boyligi - Dandinning qobiliyatli va o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lgan takrorlanmas adib ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi hind adabiyoti agar ikki yo'nalishda - she'riyat nazariyasi va badiiy adabiyot yo'nalishlarida rivojlanib kelgan bo'lsa Dandin ikkala yo'nalishni ham o'zining bebaho asari bilan boyitib ketgan. Shu bois, hind romanchiligi deganda, dastlab, Dandinning «O'n shahzoda sarguzashti» nomli asari tilga olinadi. She'riyat ilmi deganda esa nazariyotchilar Dandinning «She'riyat ko'zgusi» asarini o'rganishni she'riyat ilmining asoslarini o'rganish bilan barobardir deb hisoblaydilar. Dandin bundan boshqa asarlar ham yaratgan bo'lishi mumkin, lekin aniq ma'lumotlar bo'lmaganligi sabab Dandinning shaxsiyati va ijodi shu ikki asar asosida o'rganiladi.

6.4 Qadimiy hind satirasi. Xaribxadra ijodi.

Haribhadra

Qadimiy hind adabiyotida Bxaratrixari ijodida, va qisman, Dandin ijodida tanqidiy adabiyot shakllana boshlandi. Taraqqiyot ilgari surilgan sari tanqid ham shunchalik kuchga kira boshladi. Qadimiy hind adabiyotida

xuddi shunday tanqid satira darajasiga ko'tarilganligini Xaribxadraning «*Dxurtakxyana*», ya'ni «*Firibgarlar haqida qissa*» nomli asarida yaqqol kuzatishimiz mumkin. Bu asar melodning VIII asrida yashab ijod etgan olim *Xaribxada Suri* tomonidan yozilgan. Bu asarda bir tomondan, hind reaksiya g'oyaparastlari, ikkinchi tomondan, saroy adabiyoti tanqid ostiga olingan.

Qissaning mazmuni quyidagicha:

O'sha vaqtlarda, ya'ni butun Hindiston bo'ylab odatda yomg'ir mavsumi boshlanganida Ujjayn shahrining maydonlaridan birida ko'plab firibgarlar yig'iladilar. Ular orasida shundaylari ham bor ediki, ular firibgarlikda boshqa firibgarlardan ustun turar edilar. Bular *Muladeva*, *Kandarika*, *Elashadxa*, *Shasha* va ayyor qiz *Kxandapana* edilar. Ularning hammasini sovuq va ochlik qiynar edi. Yomg'ir vaqtida ularning firibgarlik ishlari to'xtab qolar va ular qanday qilib bo'lmasin ovqatlanish va isinish yo'llarini qidirishar edi.

Shunda *Muladeva* o'ylab-o'ylab bir taklif kiritadi: «*Hamma o'zi haqida gapirib bersin va kimning aytganlari rost deb tan olinmasa, o'sha hammamizni qornimizni to'ydirishi kerak bo'ladi. Agarda Brahmanlar, Upanishadlar, Puranlar, Ramayana va boshqa muqaddas kitoblarda aytilgan gaplar yordamida uning aytganlari rost ekanligi isbotlansa, u holda o'sha firibgar «firibgarlar shohi» deb e'lon qilinadi va uning sharafiga ziyofat beriladi*» - deydi.

Taklifga hamma rozi bo'ldi va hamma birma - bir o'zi haqida turli to'qima va yolg'on voqealarni so'zlab bera boshladi. Masalan, *Muladevaning* hikoyasi quyidagidan iborat bo'ldi: «*Eshitinglar, yoshlik vaqtimdagi kunlardan birini gapirib beraman. Bir kun men o'z omadimni qidirib ketdim. O'shanda juda yosh edim. Suv uchun bir qovoq oldim, qo'limga bir soyabon oldim va yo'lga tushdim. Yura-yura to'satdan oltindek tovlanib turgan urush xudosi Skanda ibodatxonasiga duch kelib qoldim. Birdan, qaerdan paydo bo'ldi bilmayman, bir qutirgan fil men tarafga qarab chopib kelayotganini ko'rib qoldim. Uning vajohatini ko'rib qo'rqib ketdim. Hech qaerga qochishning iloji yo'q edi. Qo'rquvdan men tezda qovoqni ichiga kirib oldim.*

Fil ham qovoq ichida izimdan olti oy quvladi. «*Nega u meni tinch qo'ymayapdi*», - deb o'yladim va qovoqdan xuddi do'zaxdan otilib chiqqandek chiqdim. G'azabdan fil ketimdan yana quvlay boshladi. Biroq qovoqdan chiqa turib fil o'zining dumi bilan qovoqqa yopishib qoldi. Birdan men tiniq daryoni ko'rib qoldim va undan bir qadam tashlab o'tib ketdim, va nihoyat, Skanda ibodatxonasigacha yetib keldim. U yerda men

och, jazirama issiqda oyoqda roppa-rosa yarim yil turdim. So'ngra olti boshli Skandaga tazim qilib bu yerga, Ujjaynga yetib keldim va xursand bo'lib sizlar, ya'ni hurmatli firibgar janoblar bilan uchrashdim.

«Agar sizlar bu aytganlarimni to'g'ri deb hisoblasangiz unda meni «firibgarlar shohi» deb tan olasizlar, agarda bu to'qima yaramasa unda sizlarga ziyofat berishga to'g'ri keladi» - dedi.

Kandartaka Muladevani gaplarini inkor etdi. «Kim seni yolg'onchilikda ayblay oladi.? Kimning Puranlar, Mahabxarata va Ramayanalardan xabari bo'lsa o'sha buning hammasi chin ekanligini tasdiqlaydi. Sen bizga fil va o'zingni qovoq ichida kechgan sarguzashtlaringni aytib berding. Eshit, brahmanlar nima deganlar: «Xudoni og'zidan – brahmanlar, qo'llaridan kshatriylar, qornidan vayshyalar va oyoqlaridan shudralar chiqqan ekanlar. Agarda Brahman tanasidan butun odamzot chiqqan bo'lsa, nimaga endi sen fil bilan qovoq ichida berkinmachoq o'ynay olmaysan? Toshqin paytida butun tirik mavjudot halok bo'ladi, va faqat, Vishnu o'z taxtida qoladi va u dunyoni yarata boshlaganda uni kindigidan nilufar guli o'sib chiqqan. Gulda esa qo'llarida qovoq ko'tarib turgan brahman paydo bo'lgan. Sen va filning qovoqdan chiqqanligingizni hech qanday ajablanarli joyi yo'q - debdilar boshqa firibgarlar. Shu yo'sinda navbat bilan beshtala firibgar o'z sarguzashtlarini aytib beraibdi.

Xaribxadranning ushbu «Dxurtakxyana» asari hind satirasining eng cho'qqisi desak xato bo'lmaydi. Chunki, adib satira yaratishda nafaqat hind jamiyatining bezori, tekinxo'r va dangasa shaxslarini tanqid ostiga olgan, balki ularning hikoyalari asosida hinduizmning muqaddas kitoblari, ularning mazmunidagi hayot talablariga javob bera olmaydigan, g'ayri tabiiy va kezi kelsa yolg'on deb hisoblagan xolatlarni ham ochiqdan-ochiq tanqid ostiga oladi. Bu yo'sindagi tanqid har bir firibgar hikoyasidan o'rin olgan. Asar mazmunidan namoyon bo'ladiki, Xaribxadra o'z xalqini, hind jamiyati va uning ichki dunyosini va qadimiy muqaddas hind kitoblarini juda yaxshi bilgan, o'tkir zehnli va qobiliyatli yozuvchi bo'lgan. Afsuski, muallifning bundan boshqa hech qanday asari haqida ma'lumot topilmagani sabab Xaribxadranga birgina, lekin o'tkir satira bilan qoplangan mana shu asari asosida kuchli satirik yozuvchi deb baho berib, qadimiy hind satirasining esa o'zaig xos tarzda, hind jamiyatiga va davr talabiga javob bermay qo'ygan hinduizmga qattiq tanqidiy nazar ostida shakllanganligini kuzatish mumkin.

7 Bob Hindistonda forsiyzabon adabiyot Farsi Sahitya

Mo'g'ullar bosqini davrida shoirlar, adiblar, va umuman, ilm va madaniyat ahlining **xurkitilgan** qushlar galasidek Eron, Xuroson va O'rta Osiyodan har tomonga ko'chib ketish holati vujudga keldi. Tinchroq joy qidirib, o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan **muhojirlar**ning bir qismi Hindistonni tanlagan edilar.

Hindistonda hali saljuqlar davrida tashkil bo'lgan forsiy tildagi adabiyot markazi mavjud edi. Bu hol u yerda forsiy tildagi adabiyotning yana taraqqiy etishiga olib keldi. Hindiston forsiyzabon adabiyotining eng yirik, jahon ahliga tanilgan namoyandasi Amir Xusrav Dehlaviydir.

7.1 Amir Xusrav Dehlaviy **Amir Khusro Dehlavi**

Amir Xusrav XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida Hindiston madaniyati tarixida mo'tabar o'rin egallab, fors va urdu tillarida ijod etgan shoirdir. Uning to'liq ismi Yaminiddin Abul Xasan Amir Xusrav Dehlaviydir. U 1253 (651 x.) yilda Hindistonning Gang daryosi bo'yidagi Patyoli nomli shaharchada dunyoga keldi. Otasining ismi Amir Sayfuddin Maxmud bo'lib, O'rta Osiyoning turkiy qabilalaridan chiqqan. Mo'g'ullar istilosi vaqtida o'z tug'ilgan joyi Kesh, hozirgi Shahrizabzni tashlab, Hindistonga ketishga majbur bo'lganlardan. Uning o'g'illaridan biri Yaminiddin Xusrav edi.

Xusrav umrining ko'p qismini Dehlida o'tkazgani uchun «Dehlaviy» degan nisba olgan. Xusravning otasiga Dehli sultonlaridan biri turk Shamsiddin Iltutmish (1211 - 1236) amirlik unvonini bergan. Sulton saroyida katta obro'ga ega bo'lgan Amir Xusrav saroy hayotiga yaqin muhitda o'sdi. Yaxshi ilm, yaxshi tarbiya olishga muvaffaq bo'ldi. Uning otasi 1261 (660 x.) yilda mo'g'ullarga qarshi jangda halok bo'lgan. Xusrav bu vaqtda sakkiz yoshda edi. Shoirning o'z so'ziga qaraganda, bobosi Imodul Mulk uning tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berdi. O'yin o'rganishi, yaxshi ilm olishi ustida ko'p qaygurdi. Xusrav, asosan Dehlida **tahsil** oldi. 1273 yilda yigirma yoshli Xusrav Malik Chxaju nomi bilan mashhur bo'lgan Keshluxon saroyiga jalb qilindi. Shundan boshlab, shoir saroy bilan aloqada yashadi. U Hindistonga mo'g'ul xujumlarining **guvohi** bo'ldi.

Amir Xusrav 1290 yildan 1320 yilgacha Dehli sultonlari saroyida xizmatda bo'ldi. Umrida uch sulolaga mansub yetti sulton huzurida xizmat qilgan Amir Xusrav o'sha davr an'anasiga muvofiq o'z asarlarini shu sultonlarga bag'ishlagan. Amir Xusrav saroy shoiri bo'lgan bo'lsada, saroy hayotining tubanligini qoraladi. Amir Xusrav shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni uning asarlaridan anchagina topsa bo'ladi. Ayniqsa, 1299 yil shoir uchun juda og'ir alamli yil bo'ldi. Shu yili u mehribon onasi

Davlatnozxonimdan va ukasi Xisomiddin Kutlug'dan ajradi. Shoir asarlari va boshqa manba'lardan ma'lum bo'lishicha uning ikki qizi va to'rt o'gli bo'lgan. Amir Xusrav hayotida uning piri Shayx Nizomiddin Avliyo katta o'rin egallaydi. Shoir ijodida sufiyona kayfiyatlarning kuchayishida ham uning ta'siri katta bo'lgan.

Abduraxmon Jomiy Amir Xusravning Nizomiddin Avliyoga munosabati haqida to'xtalib «Sulton Muxammad shoh Xelji vafot etgach, xazrat shayx Nizomiddin Avliyoning doimiy xizmatida bo'ldi va tarkidunyochilikka berilib ketdi ...» deb yozgan edi. Saroy hayotining fosidligidan bezgan shoir o'sha zamonda o'zining yorqin g'oyalari uchun tasavvufdan boshqa yo'lni ko'ra olmasligi tabiiy edi. Uni XIII - XIV asrda Hindistonda keng tarqalgan tasavvuf g'oyalari qamrab oldi. Zamon zayli uning hayoti va ijodiga tamg'asini bosdi.

Amir Xusrav ijodiga, va ayniqsa, g'azalchilik mahoratiga katta ta'sir ko'rsatgan kishilardan biri ulug' fors shoiri Sa'diy Sheroziy bo'ldi. Davlatshoh Samarkandiy: «... Amir Xusravning Shayx Sa'diyga nisbatan zo'r e'tiqodi ... bo'lgan», degan holda uning quyidagi so'zlarini keltiradi:

*Xusravi sarmast andar sog'ari ma'ni birixt,
Shira az g'amxonai masti, ki dar Shiroz bud.*

Bunda Xusrav Dehlaviy Sheroz shahri orqali Shayx Sa'diyni ko'zda tutayotganligi ko'rinib turibdi. Shoir yana boshqa joyda «Jildi suxanam dorad shirozai Shiroziy» («So'zim mukavasining sherozasi Sherozdan»), der ekan, yuqoridan fikrini yana bir bor tasdiqlaydi.

Amir Xusrav juda yoshligidan she'riyatga ixlosmandlik ko'rsatib, she'r yozishni mashq qila boshladi. Bu haqda uning o'zi «G'urratul kamol» devonida: «... Tish tushadigan bolalik chog'larimda she'r aytardim va og'zimdanda gavhar tomardi» deydi.

Xusrav Dehlaviy ilk asarlarini «Sultoni» tahallusi bilan yozdi. Uning bu tahallusi birinchi devoni «Tuxfatus sig'ar»da ko'plab uchraydi.

Amir Xusrav she'riy, tarixiy hamda adabiyotshunoslik va musiqaga oid juda ko'p asarlar yozgan. Adib va shoir asarlarining miqdori haqida turli fikrlar mavjud. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha: «... Amir Xusrav o'z risolalarining birida «Mening she'rlarim besh yuz ming baytdan kamroq, ammo to'rt yuz ming baytdan ortiq» deganligini aytadi.

Abduraxmon Jamiyning qayd qilishicha, Amir Xusrav to'qson to'qqiz kitob ta'lif etgan. Eron adabiyotshunosi Badiuzzamon Xurosoniyni yozishiga qaraganda: «Shoirlardan hech kim o'zidan keyin Amir Xusravchalik ko'p she'r qoldirmagan».

Shoir asarlarining turli davrda ko‘chirilgan ko‘lyozma nushalarini dunyoning deyarli barcha kutubxonalaridan topish mumkin. Dadil aytish mumkinki, Amir Xusrav asarlari nodir ko‘lyozmalarining ko‘pchiligi Rossiya va O‘rta Osiyo roespublikalari, jumladan, O‘zbekiston kutubxonalarida saqlanmoqda.

Xo‘sravning lirik asarlari (qasida, g‘azal, kit‘a, ruboiy, tarjiband lug‘z, muammo) asosan besh devonga to‘plangan. Ular: «*Tuxfatus sig‘ar*» («Yoshlik tuxfasi»), «*Vasatul hayot*» («hayot o‘rtasi»), «*G‘urratul kamol*» («Kamolotning boshlanishi»), «*Bakiyaun nakiya*» («Saralarning sarasi»), «*Nixoyatul kamol*» («Kamolot cho‘qqisi») nomlari bilan mashhur.

Bu besh devonga yig‘ilgan she‘rlar shoirni mohir lirik sifatida olamga mashhur qildi.

U avvalo g‘azal ustoz. Shuning uchun ham Alisher Navoiy uni mislsiz g‘azallar ijodkori Xo‘ja Xofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy kabi ustozlar qatoriga qo‘yib deydi:

*G‘azalda uch kishi tavridur ul nav,
Kim, andin yaxshi yo‘q nazm extimoli.
Biri mo‘‘jaz bayonliq soxiri hind,
Ki ishq ahlini o‘rtar so‘zu holi...*

Adabiyotimizda g‘azal Xusrav Dehlaviy bilan deyarli bir zamonda yashagan Sa‘diy (1203-1291) ijodida voyaga yetib, alohida janr darajasiga ko‘tarilganligi musallam bo‘lgan. Xofiz Sheroziy (1300-1389), Kamol Xo‘jandiy (vafoti 1390), Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ijodida esa g‘azal yanada yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Ammo Sa‘diyning kichik zamondoshi Xusrav Dehlaviyning g‘azal taraqqiyotidagi xizmati ham, fikrimizcha, Sa‘diy xizmatidan kam emas. hech bo‘lmaganda, u Sa‘diy bilan Xofiz Sheroziylar orasida, ular ijodini bog‘lab turgan zanjirning mustahkam va muhim xalqasidir. Alisher Navoiy o‘zining g‘azalchilikdagi salafлари haqida gapirganida Sa‘diy nomini emas, Xusrav Dehlaviy nomini keltirishi ham bejiz emas.

Amir Xusravning, ayniqsa, ishqni kuylashdagi mahoratini, g‘azalchilikdagi fasohatini yuqori baholagan Navoiy uning haqida: «Ishq ahlining pokbozlari va shavqu niyoz ahlining nazmtiroz va afsonapardozlari mataqaddimindin andokim, nazm beshasining gazanfari va dardu ishq otashidasining samandari va zavqu hol vodusining pokravi Amir Xusrav Dehlaviydurkim, pok nafas va guftori, pok alfoz va ma‘nolik ash‘ori ishq ahli orasida g‘avg‘o va vajdu hol anjumani fazosida alolo solibdir», deydi. Amir Xusravni Xofiz zamonasigacha bo‘lgan lirik she‘riyatning mashhur siymosi hisoblaydilar.

Alisher Navoiy gʻazallaridan birida faxr bilan:
Demanggiz bulbul Navoiyni samandardekki bor,
Nazmi ichra shu'lai Jomiy-yu so'zi Xusraviy.

- deydi.

Amir Xusrav epik janrda ham qalam tebratib, koʻpgina dostonlar yaratdi. Bir qism dostonlarda shoirning oʻz koʻzi bilan koʻrgan va ishtirok qilgan tarixiy voqealar tasvirlanadi. Ularni mutaxassislar «Tarixiy masnaviylar» deb yuritadilar. Ular:

1) «Qironus - sa'dayn» («Ikki saodatli sayyoraning qoʻshilishi»).

Dostonni 1289 yilda yozganligi va uning 3944 baytdan iboratligi haqida shoirning oʻzi xabar berib oʻtadi. Bu asarda, asosan, Dehli sultoni Muiziddin Qayqubod (1287-1290) bilan Bangola Sultoni Nasriddin Bugraxon va ota bilan oʻgʻil uchrashuvi tasvirlanadi. Hind xalqining moʻgʻullarga qarshi olib borgan kurashlari ham dostonda oʻz aksini topgan. Asarda shoir baʼzan lirik chekinishlar ham qiladi. U tarixiy voqea va hodisalarni yoritir ekan, ular orasiga lirik gʻazal, ruboiy kabi sheʼrlarni ham kiritib ketadi.

2) «Miftoxul futux» («Gʻalabalar kaliti»).

Ushbu asar baʼzi manbalarda «Fathnoma» deb ham yuritadilar. Bu asar 1291 yil 20 iyunda yozib tugatilgan. Doston unchalik katta emas, 700 baytdan ziyodroq.

Asarda Jaloliddin Firuzshoh Xelji (1290-1296) hukmronligining ilk davri, ilk yurishlari va harbiy uslubi yoritiladi. «Miftoxul futux» moʻgʻul bosqinchilaridan nafratlanish ruhi bilan sugʻorilgan.

3) «Xazoyinul futux» («Gʻalabalar xazinasi»).

Bu nasriy asar boʻlib, Alouddin Xelji (1296-1310) va uning yurishlari haqidagi muhim tarixiy manbaʼdir. Asarda shoir oʻz koʻzi bilan koʻrgan, ishtirok etgan tarixiy voqealarni tasvirlaydi. «Xazoyinul futux»ni tarixiy madhnoma deyish ham mumkin, zero, shoir-tarixchi sultonning faqat gʻalabalari, muvaffaqiyatlarini vasf etadi, uning magʻlubiyatlari haqida hech narsa demaydi. Kitobning nomi ham «Gʻalabalar xazinasi» boʻlib ismi jismiga munosibdir.

4) «Duvalroniy va Xizirxon».

Manbaʼlarda bu doston nomini yana «Ishqiya», «Xizrnoma», «Xizirxoniy va Duvalroniy», «Oshiq» tarzida ham uchratamiz, ammo shoirning oʻzi shunday yozgan edi:

Xitobi in kitobi oshiqiy baxr -
«Duvalroniy Xizirxon» mond dar daxr.

Amir Xusrav bu doston ustida to'rt oydan ko'proq ishlab, 1316 yilning 1 fevralida yozib tugatgan. Bu dostonni tojik olimi M. Bakoyev o'rganib, risola yozgan. Dostonning she'r bilan yozilgan qismi avvaliga 4200 bayt bo'lgan. Keyinchalik uni 4519 baytga yetkazgan.

Shoir bu dostonda juda muhim masala - Hindiston xalqlari o'rtasidagi ittifoqlik masalasini ko'taradi. Buyuk shoir musulmonlar bilan hindlar orasidagi nifoqning mamalakat mustaqilligi va taraqqiyoti uchun salbiy rol o'ynashligini his qila oldi.

5) «Nux sipexr» («To'qqiz qavat osmon»).

Asar 1318 yilda tugatilgan bo'lib, 4509 bayt, 9 bobdan iborat. Dostonning 1 va 2-boblarida Qutbiddin Muborakshoh Xelji (1316-1320) hukmronlik qilgan ilk davr va Xusravxonning g'alabalari tasvirlansa, 3-bobda Hindistonning tabiati, tili, hayvonlari va bazi bir mo'jizalari madh qilinadi. 4-bobda shoir shohlar, aslzodalar, qo'mondonlarga murojaat qilib, o'rni kelganda ularga nasihat qilsa, 5-bobda Sulton shikorini vasf etadi. 6-bob Sulton Muxammadga bag'ishlangan. Bu bo'limda valiaxd Muhammadning tug'ilishi, tarbiyalanishi tasvir etiladi, 7-bobda bahor va navro'z madh etilsa, 8-bobda sultonning chavgon o'yinidagi mahorati tarannum etiladi. So'nggi 9-bobda Amir Xusrav o'zining shariyatdagi xizmatlari to'g'risida gapirib, hatto buyuk shoir Sadiy Sheroziy va Xakim Xumom Tabriziydan ham o'zib ketganligini qayd qiladi.

6) «Ejozi Xusraviy» («Xusrav mo'jizasi»).

Asar badiiy uslub haqidagi asar bo'lib, besh risoladan iborat. Asarda shoir nasr uslubi va hamda badiiy sanatlar haqida so'z yuritadi va o'zi ijod qilgan badiiy sanatlar to'g'risida ham malumot beradi.

«Ejozi Xusraviy» 1316-1319 yillarda yozilib, 1876 yilda Hindistonda toshbosma usuli bilan nashr kilingan.

Shuningdek, G'iyosiddin Tug'luq va Nasriddin Xusravxon oralaridagi kurashni tasvirlovchi «Tug'luqnoma» nomli masnaviy, «Torixi Dehli» va boshqa asarlar ham Amir Xusrav Dehlaviy qalamiga mansub.

Shoirning Hindistonda turli hind elatlari orasida shuhrat qozonishiga sabab, uning hindcha, hindaviy, urdu tillarida ijod etgan asarlari - sherlar, qo'shiqlar, topishmoqlari bo'ldi. Amir Xusravning o'zi «G'urratul kamol» devonining debochasida «Turkiy Hindistonam man, hindaviy go'yam chu ob» (Men Hindiston turklaridanmenu, hindaviyni suvdek ichaman) deydi. Uning otasi O'rta Osiyo o'zbeklaridan, onasi esa hind qizi bo'lgan.

Juda ko'p tadqiqotchilar Amir Xusravni urdu adabiyoti asoschilaridan biri hisoblaydilar. Amir Xusravning o'zi bir sherida: «Men hind to'tisiman, agar siz mendan haqiqatdan ham biror narsa so'ramoqchi bo'lsangiz mening

hindaviyimga murojaat qiling. U tilda men sizga ajoyib narsalarni bayon qilishim mumkin» deb yozgandi. Amir Xusrav, shuningdek, o'z istedodini «Rixta» («shiru shakar») uslubida sher yozishda ham sinab ko'rgan. Rixtalarining xususiyati shundaki, g'azaldagi baytning bir misrasi sof fors tilida bo'lsa, ikkinchisi sof hindaviy tilda bo'lgan.

O'rta asr hind adabiyoti tarixida Amir Xusravning juda katta xizmati bor. U kxari bo'li tilida sherlar ijod qilib, musulmon hukmdorlarining diqqat etiborini hind tiliga jalb etgan. Amir Xusrav «*Holiqbori*» lug'atini ham yaratgan, degan fikrlar ham mavjud. Bu lug'atda ko'p ishlatiladigan arab, fors so'zlarining hindaviy tilidagi manolari shery shaklda berilgan. U o'z vatanida shuhrat qozongan ajoyib sozanda hamdir. Manba'lar uning juda xushovoz **xonanda** va mohir sozanda bo'lganligini qayd etadilar. Buyuk shoir ham sheryat, ham musiqiy ilmda barkamollik kasb etgan. Uning musiqaga oid uch to'plami mavjud bo'lgan. Hatto hind kuylari bilan bir qatorda, fors taronalarini ham bastalashda ajoyib mahoratlar ko'rsatib, ikki xalq musiqasini hamohang etgan va «yangi musiq olamini» yaratgan.

Amir Xusrav Dehlaviy tarixiy dostonlari bilangina emas, balki o'lug' Ozarbayjon shoiri *Nizomiy Ganjaviy*ning «*Xamsa*»siga izdoshlik qilib yozgan besh dostoni bilan ham mashhurdir. Shoirning o'z so'ziga qaraganda, bosh **xomiysi** Sulton Alovuddin Xeljiga bag'ishlangan bu «*Xamsa*»sini uch yilda (1298-1301) yozib tugatgan. «*Xamsa*» qo'yidagi dostonlardan iborat:

1) «*Matla'ul anvor*» («*Yoritkichlarning chiqish manbai*»).

Asar 1299 yilda ikki xafta davomida yozilgan bo'lib, 3310 baytdan iborat. Nizomiyning «*Mahzanul asror*» («*Sirlar xazinasi*») asariga javoban yozilgan bo'lib, 20 maqola - suhbat va **xotimadan** iborat. Asarda muallif tarbiyaviy - ahloqiy masalalar ustida fikr yuritadi. Doston tasavvuf ruhida yozilgan. Buyuk mutaffakirning inson kamoloti yo'lidagi kurashida muhim bosqich bo'lgan bu asar hali yaxshi o'rganilmagan.

2) «*Shirin va Xusrav*».

Doston 1299 yil rajab (aprel) oyining boshlarida tugatilgan, 4124 baytdan iborat. Amir Xusrav bu masnaviysini Nizomiyning «*Xusrav va Shirin*»iga javoban yozgan.

Muallif dostonda mumtoz sharq she'riyatining badiiy tasvirlash vositalaridan juda keng, unumli foydalangan. Uning asari ta'sirli epiteta, rango-rang istioralar va ajoyib tashviqotlarga boy. Shoir yaratgan obrazlar sodda va tushunarli.

3) «*Majnun va Laylo*».

Klassik sharq adabiyoti an'anasiga binoat Dehlaviyning «Majnun va Layli» dostoni ham **Oll**oxga murojaat qilish, xokim sultonni va shayx Nizomiddin Avliyoni madh qilish bilan boshlanadi. Shuningdek, dostonning kirish qismida ikki dev va cho'pon haqidagi ikki hikoyat ham mavjudki, ular asar g'oyasini ochib berishga xizmat qiladilar va kitobxonni keyingi voqealarga boshlab kiradilar.

Asar boshlanmasidagi didaktik harakterdagi «Farzandga yo'llanma» bobida shoir o'g'liga nasihat qilib, o'zining ahloqiy idealini izhor qiladi. Dostonning yozilgan yili va hajmi haqida shoirning o'zi ma'lumot beradi. U 2660 baytdan iborat bo'lib, Nizomiyning «Layli va Majnun» masnaviysiga javoban, 1299 yilda yozilgan.

4) «Oinai Iskandariy» («Iskandar ko'zgusi»). **ShU YeR**

Bu doston Ye.E.Bertels tomonidan Nizomiy va Alisher Navoiyning Iskandar haqidagi dostonlari bilan birga bir oz o'rganilgan.

Doston shayx Nizomiddin Avliyoni madh qilish, so'z qudratini ko'klarga ko'tarish bilan boshlanadi. Shuningdek, Iskandarning kelib chiqishi haqidagi mavjud rivoyatlarga shoir o'z munosabatini bildirib, Iskandarni payg'ambar sifatida talqin qilishlikni rad etadi, uni faqat «vali» sifatida tan oladi.

5) «Xasht bexisht» («Sakkiz jannat»).

Nizomiyning «Xaft paykar»iga izdoshlikda 1302 yilda yozilgan bo'lib, 3344 baytdan iborat.

«Xasht bexisht»ning asosiy qismi Baxromning otasi o'lgach, taxtga o'tirishi bilan boshlanadi. Doston dunyoning foniyligi haqida mulohaza yuritish va kitobxonga nasihatlar qilish bilan tugaydi. Asar ahloqiy - tarbiyaviy misralarga juda boy. Shoir o'zining hayotiy xulosalarini dostonning suyak-suyagiga singdirib yuborgan. Mana ulardan namunalar:

*Ekilmasa hosil berarmidi don,
Yersiz nimaga ham yaraydi osmon.
Ayol ham mard bo'lib, tadbirli bo'lsa,
Igna bilan dug'i bo'lur o'q-nayza.
Er agar tariqcha bir ish qilsa, deng,
Xotin sarishtasi qilur birni ming.
Ishbilarmon eldan ajrab chiqqan choq,
Topilur undan ham ishbilarmandroq.
Zangi tani misli qaro loy erur,
Onasi nazdida to'lun oy erur.*

Amir Xusrav bu asari bilan Nizomiyning «Xamsa»siga munosib javob berdi, ijodiy musobaqa qilib, o'z poetik mahoratini namoyish eta bildi. Nizomiy «Xamsa»siga izdoshlik qilgan shoirlar haqida Navoiy:

Ko'p kishi ham qildi tatabbu' xavas,

Sarvu gul o'rtusiga keltirdi xas, -

degan edi. Fors adabiyoti mashhur bilimdoni Abdurahmon Jomiy ta'biricha, Nizomiy «Xamsa»siga boshqa hech kim forsiy tilda Amir Xusravchalik yaxshi javob yoza olmagan.

Amir Xusrav «Xamsa»siga Navoiy ham nihoyat yuksak baho beradi:

Kishi mundoq bo'la olmay guxarrez,

Magar u hinduyi zodi shakarrez...

Ne gavhar, balki ilmu fazl koni,

Dema konkim, degil ko'xi ma'noiy.

Amir Xusrav «Xamsa»sining tili shirin, yengil, nazokatli, tushunarli va hali didiga juda yaqin bo'lganligi uchun ham u Sharqda juda keng tarqalgan, sevib o'qiladi. Shoirning ayrim dostonlarini urdu tiliga ham tarjima qilganlar.

Amir Xusrav Dehlaviy ijodi hamsachilik, tarixiy dostonchilik va g'azalchilikda O'rta va Yaqin Sharq xalqlari adabiyoti taraqqiyoti jarayonida muhim bosqichlaridan biri bo'ldi.

8 Bob Hind sufiy adabiyoti

Hindi Sufi Sahitya

Sufiy adabiyot bugungi kunda jahon adabiyoti tizimida alohida bir sahifani tashkil etuvchi adabiyotga aylangan. Jahon geografiyasida uning hududlari juda kattadir. Bu hududning kattagina qismini Hindiston egallaydi desak hato bo'lmaydi.

Sufiy atamasiga ilmiy adabiyotda turli ta'riflar mavjud. Ularni takrorlamasdan bir so'z bilan shuni aytish mumkinki, sufiy aslida, hind bxaktlariga o'xshab, diniy fanatizmga qarshig'oyalarni shakllantirgan shaxslardir. O'rta asrlarda din o'z mohiyatidan yiroqlashib unda fundamentalizm kuchaya borgan, buni birinchi bo'lib anglab yetgan va dinning asl mohiyatini kayta tiklash uchun kurashga otlangan shaxslar sufiylardir.

Tasavvuf tizimiga, ma'lumki, islom dini tarqagan mamlakatlar (Arab mamlakatlari, Eron, Afg'oniston, Turkiya, O'rta Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Pokiston va Hindiston) kiradi. Bu mamlakatlarning har birida turli davrlarda sufiy adabiyot shakllangan va uning ma'lum bir qismi bizgacha yetib kelgan. Jahon miqyosida sufizm shakllanishiga xronologik

jihatdan nazar tashlasak, quyidagicha ma'lumotga ega bo'lamiz: Sufizm 8 asrda O'rta Osiyo va Afg'onistonda, 9-asrda Irok, Suriya, Mag'rib va Eronda, 12 asrda Hindistonda, 15 asrda Xitoyda shakllanganligini kuzatish mumkin.

Hindiston aslida islom mamlakatlari tizimiga kirmaydi. Lekin shunday bo'lsa-da bu mamlakatga ayrim ijtimoiy-siyosiy hodisalar sabab islom dini kirib kelgan va bu yerda mahalliy dinlar qatoridan mustahkam o'rin egallagan.

Islom dini dastlab 7-asrlarda arab halifaligining Hindiston hududlariga bostirib kirishi natijasida birinchi bor kirib kelgan bo'lsa, ulardan keyin bu yerga eronliklar yurish qilgan. Islom dinining Hindistonda mustaxkamlanishiga uchinchi sabab O'rta Osiyolik musulmonlarning yurishi, xususan, Boburiylar saltanatiga asos solinishi va uning Hindistonda uch yuz yil mobaynida hukmronlik qilishi sabab bo'lgan.

Islom dinining jahon mamlakatlariga tarqalishi turli mamlakatlarda turli millatlar mafkurasi bilan sug'orilgan islom mafkurasining shakllanishiga olib keldi. Shunga ko'ra, sufizm o'zi paydo bo'lgan mamlakat xalqi mafkurasi ta'siri ostida shakllandi va bugungi kunda jahonda turli milliy xususiyatlarga ega bo'lgan (jumladan, arab sufizmi, hind sufizmi, eron sufizmi, xitoyda uyg'ur sufizmi, O'rta Osiyo halklari sufizmi va boshqalar) sufizm mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Hindistonda ham sufizm hind milliy ruhi bilan sug'orilgan holda rivojlandi va o'zidan boy adabiy meros qoldirdi.

So'fiy adabiyot shakllangan davr Hindiston tarixida "oltin davr" deb baholanadi. Boburiylar sulolasi vakili Akbar shohning bu taraqqiyotda ahamiyati kattadir. U hukmronlik qilgan davrda diniy va milliy xilma-xilliklar kuchaygan bo'lib, jamiyatda turli nizolar chiqish extimoli kuchaygan edi. Bularni o'z vaqtida anglab yetgan Akbarshoh shunday bir diniy siyosat yuritadiki, unda barcha dinlarning tengligi ta'minlanadi. U o'zi yaratgan diniy tenglik g'oyasini "Dini-ilaxi" deb atagan va bu yangi din uchun Akbarshoh mahsus saroy ham qurdirgan. Unda barcha din vakillari to'planib muqaddas kitoblardagi mushtarak g'oyalar haqida do'stona bahs va munozaralar olib boradilar. Akbar shohning e'tiqod tengligini ta'minlovchi bu siyosatining yaratilishiga shu davrda Hindistonda «Yaratgan oldida barcha tengdir» shiori ostida keng tarqalgan bxakti diniy-islohotchilik harakati ham asos bo'lgan. Akbarshoh bu siyosati bilan o'z maqsadiga erisha oldi va mamlakatda diniy bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalik uzoq yillargacha hukm surdi. Shular bilan bir qatorda adabiyot

ham o'zining bugungi kunda bizgacha yetib kelgan boy va go'zal merosiga ega bo'ldi.

Sufiy adabiyot shakllanish tarixini hind mutaxassislari to'rt asosiy davrlarga ajratadilar:

1. *Shakllanish davri* 7 - 9 asrlar
2. *Rivojlanish davri* 9-10 asrlar
3. *Ravnaq davri* 10-15 asrlar
4. *Susayish davri* 15-18 asrlar

Sufiy adabiyot shakllangan davr o'ziga xos bir adabiy jarayon sifatida baholanadi va bu o'ziga xoslik Hindistonning ko'pdinliligi bilan bog'liq. Ko'pdinlilik mafkuralar xilma-xilligini keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra, XIU-XUII asrlar adabiyotini uch turdagi adabiyotga ajratish mumkin: 1) saroy adabiyoti 2) xalq adabiyoti 3) diniy sektalar va tariqatlar yaratgan adabiyot. Til jihatdan saroy adabiyoti asosan fors (qisman urdu) tilida, xalq adabiyoti mahalliy dialektlarda, diniy sektalar esa braj va avadxi tillarida, sufi tariqatlari urdu tilida ijod qildilar.

Sanab o'tilgan mafkuralar orasida yetakchi mafkura sifatida biz bxakti va sufizm mafkuralarini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim, chunki bu davr adabiyotining eng katta qismi mana shu ikki mafkuraga tegishlidir. Hind adabiyotshunosligida ularni odatda hind va musulmon adabiyoti deb yuritadilar.

Tasavvuf adabiyoti, albatta, so'fiy maktablar a'zolari ijodiga mansubdir. Manba'larda o'n beshtadan ortiq so'fiy maktablarining nomi tilga olinadi, lekin ular orasida eng ahamiyatlilari oltitadir, ular: *Naqshbandiya, Chishtiya, Qodiriya, Suxarvardiya, Madhaviya, Sattoriya*.

Chishtiya tariqati sharqiy **Xuroson**da XII-XIII asrlarda yuzaga keldi, ammo bu tariqat asosan Hindistonda taraqqiy etib Hindistonda eng katta nufuzga ega bo'lgan tariqatga aylanadi. «Chishtiya» so'zi Hirotdagi «Chisht» qishlog'i nomidan olingan bo'lib, tariqat asoschisi *Sharifuddin Abu Ishoq Shomiy* (vafoti 1097) dir. U kishi so'fiylar orasida «Sharifuddin» nomi bilan mashhur edi, ammo keyinchalik u Abu Ishoq Shomiy Chishtiy nomi bilan elga tanildi. Abdulhakim *Shar'iy Jo'zjoni*ning «*Tasavvuf va inson*» kitobida bu tariqatga Xoja Ahmad Abdol tomonidan asos solingan deyiladi. «*Siriya ul-aqtob*» asarida: tariqatning asoschisi deb *Ishoq Chishtiy* nomi tilga olinadi. Chishtiydan so'ng bu tariqatni u kishining bir qancha shogirdlari hamda avlodlari davom ettirganlar. *Hazrat Xoja Mu'iniddin Husayniy Hasan al-Sanjariy Chishtiy Ajmiriy* (1142-1236) keyinchalik Chishtiya tariqatini Hindistonda taraqqiy ettirdi. Mu'iniddin Hasan al-Husayniy Sanjariy Chishtiy Ajmiriy Hindistonda «*Hindul nabiy*» laqabi

yoki «*Xojai G'aribnavoz*» nomi bilan ham mashhur bo'lgan. XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Chishtiya tariqati *Gujarat, Uttar Pradesh va Bixarda* keng tarqaldi. Bu yerlarda ham Chishtiya tariqati katta nufuzga ega bo'ladi. Chishtiya tariqatini Hindistonda nafaqat musulmonlar, balki hindular ham qo'llab-quvatlaganlar.

Chishtiya tariqati shayx *Nizomidan Avliyo* (1325 yilda Dehlida vafot etgan) davrida o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqib, Hindistonning sharq va g'arbida yoyildi. Bu davrga kelib shayx *Nizomiddin Avliyo* Chishtiya tariqatining tarmoqlaridan bo'lmish «*nizomiya*» tariqatiga asos soladi. Keyinchalik bu tariqat mustaqil bo'lib ajralib, o'zining boshqa tarmoqlariga ham ega bo'ldi.

Nizomiddin Avliyoning vafotidan so'ng tug'luqlar silsilasidan bo'lmish *Dehli sultoni G'iyosiddin Muhammad ibn Tug'luq shoh II* (1325-1351) Chishtiya tariqatiga kuchli tazyiq o'tkazib ularni viloyatlarga tarqatib yuboradi va islom ta'limotini siyosiy sohalar va chetda tarqatish uchun o'zlarini bag'ishlashga buyuradi. Shunday qilib, chishtiylar tariqatining eng muhim bosqichi uning 1325 yilda viloyatlarga tarqalib ketishi bilan tugadi.

XV asrga kelib *Uttar Pradeshda* Chishtiya tariqatining bir tarmog'i hisoblangan *Alouddin Ali Ibn Ahmad as-Sobir* (vafoti 1291) asos solgan «*sobiriya*» tariqatiga asos solindi. Bu tariqat Chishtiya tariqatining zamirida yuzaga kelgan eng umriboqiy tariqatlardan bo'lib qoldi. Uning arboblardan *Muhammad Ilyos Kandhlaviy* (vafoti 1944) va *shayx Abdulquddus* (vafoti 1537)larning nomini tilga olish mumkin.

XVIII asrining boshlariga kelib shayx *Kalimulloh Jahonbodiy* (1660-1729) Chishtiya tariqati asosida yuzaga kelgan «*nizomiya*» tariqatini yangilab yuzaga olib chiqdi. Uning targ'iboti anchagina muvaffaqiyat qozondi va uning muridlari *Panjob, Uttar Pradesh, Sind va Dekanlarda* Chishtiya tariqatining xonaqolarini tiklashdi. Qayta dunyoga kelgan *nizomiya* tariqatining vakillaridan *G'ulomhaydar Ali shoh* (vafoti 1908)ning nomini keltirish mumkin. Hindistonda tashkil topgan har qaysi tariqat shu mintaqada azaldan mavjud bo'lgan diniy rasm-rusumlar ta'sirida chetda qolmadi. Bu yerda taraqqiy etgan Chishtiya tariqati yoglarning mashqlarini, oila qurmasdan toq o'tish va boshqa bir qator mahalliy urf-odatlarini o'zlashtirib oldilar. XIII asrga kelib hind urf-odatlaridan bo'lmish hurmatli insonning xoki poyini ko'zga surtish odati ham chishtiylar tomonidan o'zlashtirib olindi va murid murshidining xoki poyini ko'zga surtishi shart deb hisoblandi. .

Hind mutaxassislari *sufizmning adabiy merosi* sifatida quyidagi asarlarni tilga oladilar: 14 asrga tegishli Said Muxm. Bandanavozning

"Miraj ul ashikin" asari, 15 asrga oid Burxoniddin Janamnig "Kalemat ul xakaek", (dakxini va forsi aralash) Movlono Doudning "Chandayan" asari, Badayunining "Shayx Burxonga tazkira" nomli asari, 16 asrda yaratilgan Aminuddin Alining "Taronae ishq" asari, Miran Xusayn shohning bir qancha sufiyona asarlari, Kutubanning "Mrigavati", Jayasining "Padmavat", "Akxravat", "Chitrarekxa", va "Akxiri kalam" asarlari, Manjxanning "Madhumalti" asari, Shayx Rizkullaxning "Pemvan job" va "Niranji" asarlari, 17 asrga oid Usmonning "Chitravali" asari, Shayx Nabining "Gyandip" asari, 18 asr ga tegishli Qosimshohning "Xans javohir" asari, Nur Muxammadning "Indravati", "Anurag bansuri"(Ali, Fotima Xasan Xusan haqida) kabi asarlar.

Bu davr adabiyotidagi **janrlar** masalasiga kelsak islom dini tasavvuf bilan bir qatorda hind adabiyotiga forsiy adabiyoti orqali yangi she'riy janrlarni olib kirgan, ular: *g'azal, ruboiy, qit'a, masnavi* va boshqalar. Bu janrlar hind adabiyotida islomgacha mavjud bo'lmagan, lekin bu yerga kirib kelib hind she'riy janrlariga shoirlar uchun, ayniqsa urdu shoirlari tomonidan ko'proq qo'llaniladigan janr darajasiga yetgan va bugungi kunda hind va urdu adabiyoti nazmini bu janrlarsiz, ayniqsa, *g'azal* janrisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Demak, hind so'fiy adabiyoti shakllangan davrda o'ziga xos murakkab va boy adabiy jarayon hukm surgan. Unda mavzular, janrlar va tillar xilma xilligi bu davr adabiyotining nixoyatda boyligidan darak beradi. Bu davr adabiy tillari bo'lmish *braj, avadxi va urdu* tillaridan tashqari bir qancha boshqa tillar (jumladan, *rajastxani, bundeli, chxattisgarxi, panjabi* va boshka bir qancha) va dialektlarda adabiy asarlar yaratilgan bo'lib, ularda asosan yuqorida tilga olingan g'oyalar va obrazlar o'z aksini topgan.

9 Bob Bxakti adabiyotining shakllanishi

Bhakti Sahitya

Yaratgan **Xudo** nafakat din peshvolariniki, balki xalqniki ham ekanligi, shu bois oddiy bir inson ham o'z mehr-sadoqati bilan Xudoga yetishishi mumkin ekanligini tushunish kutilmaganda hind xalqini chidab bo'lmaydigan haqoratlardan ozod etdi. Bu **xushxabar** butun mamlakat bo'ylab yoyilganidan keyin paydo bo'lgan adabiyot esa butunlay yangi xalq adabiyoti bo'ldi.

R. Tagor

R. Tagorning yuqorida keltirilgan so'zlarini bxakti diniy-islohotchilik harakatiga berilgan haqqoniy ta'rif deyish mumkin.

«Bxakti» soʻzi sanskrit tilidan olingan boʻlib «ibodat», «sadoqat» degan maʼnolarni anglatadi. Oʻrta asr hind adabiyotida esa «bxakt» atamasi mavjud, yaʼni adabiyotda «bxakt» obrazi oʻrta asr adabiyotining yetakchi obrazidir. Aslida, «bxakt» soʻzining etimologiyasi hind diniy-falsafiy qarashlarining eng qadimiy davriga, jahonda hali xech qaysi din shakllanmagan bir davrga borib taqaladi. Chunki, «Mahabxarata» va «Ramayana» eposlarida maʼbud Krishna va Ram oʻz oʻgitlarida qadimda yashab oʻtgan buyuk bxaktlar nomini namuna sifatida tez-tez tilga oladilar. Demak «bxakt» soʻzidagi «sadoqat» maʼnosida maʼlum bir dinga, qolaversa, oʻsha davrda Yaratuvchi sifatida tan olingan maʼlum bir maʼbudga boʻlgan sadoqat, unga boʻlgan ishonch va chuqur eʼtiqod nazarda tutilgan. Bxaktlar haqida qadimiy hind adabiyotining namunalari - *Puranlar*, *Brahmanlar*, *Aranyaklar* va *Upanishadlar*da ham juda koʻp hikoyatlar mavjud. Demak, «bxakt» atamasi Hindiston diniy-falsafiy qarashlarida qadimdan mavjud boʻlgan, lekin adabiy jarayonga atama sifatida, maʼlum bir gʻoyani targʻib etuvchi obraz sifatida oʻrta asrlarda bxakti xarakatining adabiyotga taʼsiri natijasida kirib kelgan.

Bxakti diniy harakat sifatida avval X-XII asrlarda Hindistonning janubida, u yerdan quvgʻinlikka uchraganidan soʻng esa XIV asrlardan boshlab Hindistonning shimolida keng yoyila bordi va XV-XVI asrlarga kelib shimoliy Hindiston bxaktining harakatining eng yirik markaziga aylandi.

Bxaktiga asos solgan ham, uni xalq orasida targʻib qilgan ham, asosan, shu davr hind faylasuflari boʻldilar. Agar janubda bxaktining asoschilari *Ramanand* va *Ramanujya* kabi yirik faylasuflar boʻlsa, *Vallabxacharya*, *Chaytannya*, *Nimbarkacharya*, *Xit Xarivansh* kabi faylasuflar bxaktining shimoldagi markazini yaratdilar. Faylasuflarning bxaktini targʻib qilishdan bosh maqsadlari umidsizlikka tushib qolgan hind xalqini hayotga qaytarish, ularning ongida soʻngan ishonch va eʼtiqodni yana qayta uygʻotish, kelajakka, ertangi kunga ishonib yashash tuygʻunlarini uygʻotish va mutahkamlash edi. Ular bxakti nima ekanligini tushuntirish, uning natijasiga erishish yoʻlida nafaqat targʻibot ishlarini olib bordilar, balki buning uchun lozim boʻlgan yashash tarzida, avvalombor oʻzlari, yashadilar va bu yoʻlning toʻgʻri ekanligini amalda isbotlab berdilar. Buni oʻz koʻzi bilan koʻrib, shaxsan shohid boʻlgan hind xalqi toʻla ishonch bilan bxakti yoʻlini tanlay boshladilar.

Bxakti ikki shior, yaʼni «*Yaratgan oldida barcha tengdir*» hamda «*Yaratganga mehrli va sadoqatli boʻlish*» gʻoyalarini ilgari suruvchi shiorlar orqali oddiy xalqning, ayniqsa past tabaqa vakillarining, eʼtiborini oʻziga jalb etdi. Buddizmdan keyin hinduizmning kastachilik tizimiga qarshi koʻtarilgan

bxaktining bu shiorlari oddiy xalq orasida bxakti tarafdorlari sinining oshib borishiga hinduizmnining esa xalq orasida mavqei pasayib borishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, diniy xilma-xillik hukm surgan o'rta asr uchun bxakti ta'limoti tarixiy zarurat edi. Turli din vakillaridan tashkil topgan hind jamiyatini birlashtirib mamlakatda tinch-totuv hayotni ta'minlash uchun shunday bir g'oya zarur ediki, bu g'oyani har bir din vakili shak-shubhasiz qabul qilishi lozim edi. Aynan mana shunday g'oyani hind jamiyati ongiga bxakti diniy islohotchilik harakatigina singdira oldi va shu bois o'rta asrlarda Hindiston shunday rivojlandiki, bu davr tarixda Guptalar davridan keyingi ikkinchi «oltin davri» nomini oldi. Bxakti davrida yaratilgan ko'pgina arxitektura, adabiyot, san'at va madaniyatga oid jahonga mashhur bebaho yodgorliklar hanuzgacha o'z qimmatini yo'qotmagan, hattoki jahonga nomi taralgan *Toj Mahal* ham bxakti davri yutuqlaridandir.

Bxakti ikki yo'nalishda shakllandi: **Nirgun** va **Sagun** bxakti. Sagun bxakti ham o'z navbatida ikki yo'nalishda: **Ram bxakti** va **Krishna bxakti** yo'nalishlarida shakllandi. Nirgun bxakti ta'limoti islom dinining Yaratgan haqidagi ta'rifiga yaqin bo'lgan, ya'ni hech qanday qiyofaga ega bo'lmagan, inson yuragida yashaydigan abstrakt Xudoga e'tiqod qilish g'oyasini ilgari suradi. Sagun bxaktida esa, aksincha, Yaratgan haqidagi hinduizm diniga oid tushuncha, ya'ni aniq bir qiyofaga ega bo'lgan Xudoga e'tiqod qilish tushuniladi. Hind xalqi uchun esa bu qiyofalar Ram va Krishna ma'budlari qiyofasida tasavur qilinadi. Ma'bud Krishnaga e'tiqod qiluvchilar *Krishna bxakti* vakillari va Ram ma'budiga e'tiqod qiluvchilar *Ram bxakti* vakillari hisoblanadi.

Nirgun bxaktining eng yirik vakili shoir *Kabirdir*. Sagun bxaktida Ram bxakti yo'nalishining ko'zga ko'ringan namoyandasi shoir *Tulsidas* bo'lsa, Krishna bxaktining eng mashhur vakili shoir *Surdasdir*.

Bxaktining borliq, inson va Yaratuvchi haqidagi qarashlari aslida hinduizm qarashlariga asoslangan holda, lekin undagi inson ruhiyati va ongining taraqqiyoti uchun to'siq bo'ladigan, odamlarni ko'r-ko'rona e'tiqod, diniy fanatizm yo'liga olib boradigan qarashlarni islox qilgan holda shakllandi. Jumladan, hinduizmida inson bu dunyoga jazo uchun yuboriladi va u o'z gunohlarini tuzatmasa qayt-qayta turli jonzot qiyofasida tug'ilaveradi degan degan ta'limot bor. Bu ta'limot haqida to'liq ma'lumot hinduizmnining qadimiy kitoblaridan biri Upanishadlarda berilgan. Unda bu ta'limot «qayta tug'ilishlar zanjiri» deb yuritilib undan ozod bo'lishning besh asosiy yo'li mavjudligini tushuntirib beriladi. Bu yo'llar: **karma, dxarma, gyana, yoga va bxakti** atamlari bilan yuritiladi. Ta'limotga ko'ra, bu yo'llarga to'g'ri rioya qilininsa, ular inson ruhining qayta tug'ilishdan

ozod etib Oliy Ruhga butunlay qo'shilib ketishini ta'minlaydi deb tushutiradi. Ularning mohiyati esa quyidagichadir. <> <>

Karma (amol) yo'li. Bu insonning amoli, har bir bosgan qadami, o'ylagan fikrlari, qilgan amollari bilan bog'liq. U o'zining hayot tarzi bilan o'zining kelajagi va bugungi kunini belgilaydi. O'z qilmishlariga ko'ra inson ruhi yoki butkul ozodlikka erishadi yoki turli jonzot qiyofasida jazo uchun qayta-qayta bu dunyoga kelaveradi. Hind xalqi orasida hatto salbiy ma'noda «*punarjanam ki chakkar me raxo*», ya'ni «qayta tug'ilish zanjirida yashagin» degan badduo ham mavjud.

Dxarma (qonun, ya'ni din) yo'li. Bu Yaratgan tomonidan insoniyat uchun nozil qilingan muqaddas diniy kitoblar mazmunida bayon etilgan yashash tarzi bo'lib, ularga amal qilgan inson o'z burchini ado etgan bo'lib qayt tug'ilish zanjiridan ozod bo'lishi mumkin. Ularning mazmunida barcha kasta vakillari uchun yashash tarzini ifoda etuvchi turli qonun-qoidalar mavjud. Unga ko'ra bir kasta vakili boshqa kasta vakili qoidalari asosida yashashi mumkin emas. Bu esa o'z-o'zidan inson ruhiyati taraqqiyoti uchun turli to'siqlar yaratadi. Dxarma yo'lida ruhiy ozodlikka erishish uchun din qo'ygan talablarni bajarish kiradi, ya'ni ma'budlarga qurbonlik keltirish, ibodatxona va turli muqaddas ziyoratgohlarni ziyorat qilish va boshqalar. Lekin past tabaqa vakillarining bu shartlarni bajarishga xuquqi ham, imkoniyati ham yo'q. Demak, kambag'al xalq hech qachon ruhiy ozodlikka, ya'ni Yaratganga yetisha olmaydi, xudo faqat yuqori tabaqa vakillarini degan xulosa kelib chiqadi.

Gyana (bilim) yo'li. Bu yo'l bilim orqali, ya'ni qadimiy vedalar, upanishadlar, puranlar va boshqa muqaddas kitoblarni chuqur o'rganib, Yaratgan haqidagi bilimlarini oshira borish orqali ruhiy ozodlikka erishish tushuniladi. Bu yo'l ham savodsiz kambag'allar uchun berk, faqat yuqori kasta vakillari uchun mo'ljallangan yo'ldir.

Yoga (tana va ruh pokligi) yo'li. Bunga ko'ra, inson ruhiy ozodlikka tana va ruhni bab-barobar pok tutish yo'li bilan erishishi mumkin. Buning uchun maxsus mashqlar mavjud bo'lib, ularni faqat ustoz yordamida amalga oshirish mumkin. Bu yo'lda ham past tabaqa vakillari va oddiy xalqning imkoniyati cheklangan.

Bxakti yo'li yuqorida sanab o'tilgan to'rt yo'l orasida ilgari ham mavjud bo'lgan, lekin xalq orasida yetakchi bir diniy yo'l sifatida eng keyin shakllangan, shu bilan bir qatorda eng odil yo'l bo'lib, u har bir dinning asl mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan. Dinning asl mohiyati esa inson yuragida mavjud bo'lgan mehr, sadoqat, tenglik g'oyalarini tushunishdan, uni amalda qo'llashdan iborat bo'lishi lozim. Bxakti g'oyasi barcha

dinlarning asosiy talabi, lekin aynan mana shu g'oya ko'pincha amalda unutiladi. Bxakti esa bu g'oyalarni har bir inson uchun kundalik hayotiy zarurat darajasida targ'ib etib din eshigini har bir insonga ochib berishga erishdi. Bxakti ta'limoti shuni ta'kidlaydiki, inson qaysi din, qaysi kasta vakili bo'lishidan qat'iy nazar o'z diniga, e'tiqodiga mehrli va sadoqatli bo'lishi, barchani teng ko'rishi lozim va o'zi tanlagan yo'lga sadoqatli bo'lishi lozim, shundagina u biron bir natijaga erishishi mumkin. Bxaktida a'molsiz hech qachon hech narsaga erishib bo'lmaydi.

Bxakti mafkurasining adabiy jarayonga ham ta'siri juda katta bo'lgan. Faylaso'flar bxakti g'oyalarini oddiy xalq orasida targ'ib qilishni maqsad qilib qo'yganliklari sabab ular o'z faoliyatlarini mahalliy xalq tillarida turli sektalar qoshida olib bordilar. Braj va avadhi tillari Hindiston shimolida bu davr adabiy tili bo'lgan. Shu bois bxaktlarning barchasi aynan mana shu tillarda ijod qilgan. Braj tili tarqalgan hududlar esa o'sha davrda «*Brajbxumi*» («Braj mamlakati») deb yuritilar edi. Bu davrda Hindiston shimolida bxakti targ'iboti bilan shug'ullangan to'rt asosiy sektaning nomini aytib o'tish mumkin, ular quyidagilar:

№	Sekta nomi	Asoschisi	Ibodot ob'ekti
1	Radxavallabxa	Xit xarivansh	Radxa Krishna
2	Nimbark	Nimbarkacharya	Radxa Krishna
3	Goriya	Madxavacharya	Radxa
4	Pushti (Vallabxa)	Vallabxacharya	Krishna

Sektalar orasidagi farqni, jadval asosida, quyidagicha ajratish mumkin. Bu sektalar, avvalambor, hinduizmning Krishna bxakti yo'nalishiga tegishli bo'lib, ulardan ayrimlari Radxa - Krishna juftligini tan olsalar, boshqalari faqat Krishnani va yana boshqasi faqat Radxani o'z ma'budlari deb tan oladilar. Lekin shunday bo'lsa-da, ularni bxaktining yetakchi g'oyalari birlashtirib, umummaqsad yo'lida faoliyat ko'rsatganini kuzatish mumkin. Faylaso'flar bxaktlarning Yaratganga xizmati asosida bxaktining to'qqiz turini ajratadilar, ular:

- 1) *shravan bxakti* – tinglash yo'li;
- 2) *kirtan bxakti* – hamdu sanno qilish yo'li;
- 3) *archani bxakti* – yaratganni mehr bilan kuylash yo'li;
- 4) *pad-sevana bxakti* – yaratganga sidqidildan xizmat qilish;
- 5) *vandana bxakti* – turli rasm-rusumlarni bajarish;
- 6) *smarana bxakti* – yaratganni doim betakror eslash;
- 7) *dasya bxakti* – o'zini yaratganga qul deb sanash;

8) *sakxya bxakti* – yaratganni do‘stlik mehri bilan sevish;

9) *atmanivedana* – o‘zini yaratganga butkul baxshida etish.

ShU YeR 11.08. Insonning yuragida Yaratganga bo‘lgan mehr turli yo‘llar orqali paydo bo‘lishi mumkin, kimdir u haqida ko‘p tinglash orqali, kimdir turli rasm-rusumlarni amalga oshirish orqali va yana kimdir uni doim, betakror eslab turish orqali unga yaqinlashadi. Bxakti esa mehr bo‘lmaguncha hech qaysi yo‘l hech qachon Yaratganga yetkaza olmaydi deb takror-takror eslatadi.

Xulosa qilib aytganda, bxakti diniy-islohotchilik harakati hinduizm fanatizmiga qarshi bunyodga kelgan. Bu diniy harakat nafaqat dinni, balki jamiyatni ham tozalashda, mamlakatning rivojlanish yo‘lidan borishida, ilm-fan ravnaqida, xalqning baxtli va farovon hayot kechirishida katta imkoniyatlar yaratib berdi va Hindiston hududlarida deyarli uch yuz yil yetakchi va hukmron mafkura sifatida yashadi.

9.1 Nirgun bxakti vakili Kabir

Nirgun Bhakt Kabir

Hindiston o‘rta asr buyuk shoiri, bxakti oqimining yirik namoyondasi «Banoraslik oddiy tikuvchi» Kabirning (1440-1518) nomi na faqat Hindistonlik uchun balki jahon ahlining ko‘pchilik qismi uchun ham tanishdir.

Xar bir shaxsning hayoti va uning dunyoqarashi, u yashayotgan davr ruhiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois Kabirni to‘g‘ri tushunish uchun avvalo u yashagan davrni o‘rganish, o‘sha davr muammolari haqida tushuncha hosil qilish lozim.

Kabir yashagan davr Dehli saltanati inqirozga yuz tutgan bir davr hisoblanadi. Mamlakatda tinchlik buzilib siyosiy turg‘unlik yo‘qolgan bir davr edi. Dehli saltanatining inqirozi qonxur, uzoqni ko‘ra bilmaydigan va qattiqqul Muxammad Bin Tuglak (1325-1351) davridan boshlanadi. Undan keyingi taxt hukmdori Firuz Shoh Tuglak (1351-1388) davlatni yo‘lga solish maqsadida insonparvar va yumshoq siyosat olib borishga har qancha intilmasin mamlakatda vujudga kelgan ochlik va kambag‘allikni yo‘qota olmadi. Bularning barchasi mamlakatni mudofaasini susayishiga olib keldi va aynan shu davrda Hindistonga bostirib kirgan Timurga hind xalqi yetarlicha qarshilik ko‘rsata olmadi natijada Tuglaklar davlatni qo‘ldan boy beradilar. 1398 yili Timur mamlakatni bosib olib bu yerda o‘zining yirik bir davlatini vujudga keltirdi.

Timurdan keyin mamlakatni afg‘onistonlik saidlar (1414-1450) va ulardan keyin Lodilar (1451-1526) dinastiyalari bosib oldilar. Ularning

davlati tarkibiga Dehli shahri va uning atrofidagi bir qancha kichik-kichik shahrchalar kirgan edi.

Mana shunday bir siyoiy beqrorlik hukm surgan mamlakatda ahli faqat darbadar, qishloqma-qishloq yashash joyini bir necha martadan o'zgartirib yashashga majbur bo'ldi. Ko'pchilik qatori Kabirlar oilasi ham mana shunday ko'chmanchi hayot kechirdi. Kambag'al xalqning ko'pchiligi islom dinini qabul qilishga majbur bo'ldilar. Islom dinini qabul qilganlarga o'sha davrda juda ko'p imtiyozlar berilar edi. Mana shu imtiyozlar ham kambag'allarning musulmon diniga o'tishiga sababchi bo'lgan. Islom diniga kirishning yana bir sabablaridan biri bu islom dinidagi barchaning tenglik g'oyasi bo'lib kastachilik, ya'ni insonni bir-biridan ajratuvchi hinduizm g'oyasi hind xalqini ayniqsa uning kambag'al qismini juda tang ahvolga olib kelgan edi. Shu bois islom diniga hindularning past tabaqa vakillaridan ko'pchilik o'z xohishi bilan o'tgan. O'sha davrda keng tarqalgan siddx va natx sektalari vakillari ham hinduizmning ko'pchilik fanatik qonun qoidalaridan charchagan bo'lganlari sababli islom dinini osonlikcha qabul qilganlar. Afg'onlar har-qancha harakat qilmasinlar davlatni uzoq vaqt o'z qo'llarida ushlab tura olmadilar. Chunki 1526 yili Hindistonga Bobur kirib kelgan edi. U Iskandar Lodining o'g'li Ibroxim Lodini Panipat maydonidagi buyuk jangda yengib Dehlini o'z qo'liga oladi va bu yerda o'zining katta bir davlatini tashkil etib yildan - yil o'z davlati sarhadlarini kengayтира boradi. Bobur Hindistonda Boboriylar sulolasi davlatini barpo etdi. Bobur o'z davlatida bor yo'g'i besh yilgina (1526-1530) hukmronlik qiladi. Uning vafotidan keyin taxtga uning o'g'li Xumoyun o'tiradi.

Bu davr siyosiy jihatdan yangi davlatning vujudga kelishi bilan karakterlansa, ma'naviy jihatdan esa bu davr diniy-islohotchilik harakati bxakti g'oyasining keng tarqalishi bilan bog'liq bir davrdir. Bu harakat ma'lumki hinduizmning fanatizmiga qarshi shakllangan bo'lib barchaga tenglikni targ'ib qiluvchi, yaratganga mehr va sadoqatli bo'lishni targ'ib qiluvchi diniy harakat edi.

Ma'lumki, bxaktining asosan ikki yo'nalishi mavjuddir: Nirgun va Sagun bxakti. Kabir abstrakt, inson yuragida yashovchi olloxnigina sevishni, ungagina xizmat qilishni targ'ib etuvchi nirgun bxaktining eng yirik vakilidir. Nirgun bxaktining bu davrdagi asosiy markazi ham aynan Kabir yashab ijod etgan Banoras shahri edi.

Kabirning hayoti haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Uning hayoti turli afsona va rivoyatlar bilan bog'liqdir. Kabir hayoti haqidagi ma'lumotlar esa mana shu afsona va rivoyatlar orqali bizgacha yetib kelgan. Rivoyatlardan birida aytilishicha Kabir bir beva brahman ayolning noqonuniy farzandi

bo'lgan va bu ayol o'zini jamiyat orasida gap so'z bo'lishdaen saqlash maqsadida o'z farzandi chaqalokligida Ganga daryosi bo'yiga tashlab ketadi va u yerdan bolani bir tikuvchilar oilasi topib olib o'ziga farzand qilib boqib oladi. Kabir hayoti bilan bog'liq rivoyatlarda uning ustozlari Ramanandning nomi doim uchraydi. Shunday rivoyatlardan biriga ko'ra kunlardan bir kuni Ramanand Laxar Talab ko'li (Banoras shahri yaqinida joylashgan) yonidan o'tib ketayotganida suvda bir narsani yaltirayotganini ko'rib qoladi. Kelajakda buyuk shaxs bo'lib yetishadigan boladagina mana shunday nur yog'ilishi mumkinligini Ramanand bilar edi. Shu payt bu yerga kelgan Niru va Nima ismli tikuvchilar oilasi ham bolani ko'rib qoladilar. U nilufar guli ustida yotar edi. Ular uzoq o'ylab turib bolani o'zlariga farzand qilib olishga qaror qiladilar va bolani olib o'zlari bilan olib ketadilar. Yana bir boshqa rivoyatga ko'ra bir brahman o'zining og'ir oyoq bo'lib qolgan qizini Ramanand oldiga olib keladi va u brahmanga qizi o'g'il ko'rishini bashorat qiladi. Ota o'z qizini sharmandalikdan halos qilish uchun uning tug'ilgan o'g'lini Laxar Talab ko'liga tashlab ketadi va u yerdan Niru va Nima er-xotinlar bolani boqib oladilar. Ular bolaga ism qo'yish uchun musulmon domlari chaqiradilar. U bolaga ism qo'yish uchun Qur'on kitobini ochganida undan to'rtta nom chiqadi: *Kabir, Akbar, Kibra* va *Kibuliya*. Barcha ismlarning esa ma'nosi bir edi, ya'ni «buyuk» degan ma'noni anglatar edi. Domla bir kambag'alning bolasiga bunday buyuk nomni qo'yishni istamay yana boshqa nomlarni izlab ko'radi, lekin har yerdan Kabir nomi chiqib kelaveradi. Shunday qilib domla unga Kabir ismini beradi. Kabirning dunyoga kelishi haqida mana shunday rivoyatlar yetib kelgan.

Kabir o'sha davrning taniqli faylasofi bixakti g'oyalarini targ'ib etuvchi Ramanandning shogirdi bo'lgan. Ramanand bixakti tarbiyotchisi bulganligi sababli uning g'oyalarining ta'siri Kabir dunyoqarashiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Kabir Ramanandni o'zining eng sevimli ustozlari deb bilgan. Kabir she'rlarida u o'zining sevimli ustozlari sifatida Yaratganni tilga oladi va mana shu Yaratgan bilan tanishtirgan va ungagina mehr qo'yish kerakligini o'rgatgan ustozlari Ramanand ekanligini Kabir o'z asarlarida tan olgan. U o'z she'rlaridan birida shunday deb kuylaydi:

*Ya shel putem,(prolojennim) lyudmi i Vedami,
(No) vpered i vstretilsya (mne) istinniy guru i dal
(mne) v ruki svetilnik.*

*(Istinniy guru) dal svetilnik(znaniya),napolnenniy
maslom (lyubvi),fitil kotorogo nikogda ne sgorit*

Kabir juda zehnli va zukko shogirdlardan bo'lib tez kunlarda uning shaxsiy g'oyalari ham uning she'rlari orqali xalq orasida tanila borgan. Yaratganni kuylash, uni tushunish va uni qanday ekanligini targ'ib etish borasida Kabirdek shoir na faqat Hindistonda balki jahon adabiyotida ham deyarli uchramaydi. Chunki Kabir Yaratganni olqishlash yo'lida asosan insonni olqishlagan. Unigina buyuk qilib ko'rsatgan. Chunki uning g'oyasiga ko'ra Yaratgan faqat inson dilidagina yashashi mumkin va inson bo'lmasa yaratgan ham mavjud emasligini, inson bo'lmasa Yaratganning buyukligini kuylovchi ham bo'lmasligi haqidagi juda insonparvar va inqilobiy fikrlarini o'z she'rlarida targ'ibetgan. U o'z she'rlarida: «insonga xizmat qilish yaratganga xizmat qilish bilan tengdir», yoki bo'lmasa «Hali kim ulug' - Yaratganmi yoki insonmi, bu aniq emas, chunki Yaratganning buyukligini o'ylab topib, uni ko'klarga ko'tarib kuylayotgan inson bo'lmasa Yaratganning buyukligini qaerdan bilish mumkin?» degan insonni ulug'lovchi misralar Kabir she'riyatining asosiy kismini tashkil etadi. Uning asosiy g'oyasi bxakti g'oyasi, ya'ni «Yaratgangina mehrli bo'lish» - g'oyasidir. Jumladan,

*Odin bxakt sozersaet (Vsevishnego),
drugoy, lishenniy istinnoy lyubvi, ridaet(po Nemu).*

* * *

*(O Vsevishniy) kak sobesh s puti togo,kogo Ti
napravit po puti (lyubvi)?*

* * *

*Bxakt, slovno dorogoe polotno, k kotoromu(nikogda)
ne pristanet gryaz.*

* * *

Kabir o'z zamonasidagi barcha dinlarning fanatizmiga qarshi o'tkir fikrlarini o'z she'rlarida qo'rqmasdan bayon etadi. hindularning mandirini, xristianlarning cherkovini, musulmonlarning masjidini va yogalarning turli mashqlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Xudoni hech qanday mandir yoki masjiddan topib bo'lmaydi, bu quruq jonsiz imoratdan xudoni qanday qilib topish mumkin, u faqat inson dilidagina yashaydi, shu sabab uni insondan qidir deb ta'kidlaydi Kabir:

*Kabir: ne priobretay porokov, sobiray dobrodeteli,
Kak pchela(sobiraet nektar s kajdogo svetka,tak i ti)
iiyi v kajdom serdse Vsevishnego.*

* * *

*Otdal (svoyu) dushu,poluchil dushu Gospoda,
Bez dushi (Vsevishnego) net dushi chelovecheskoy.*

* * *

Tot, kto vladeet svoey dushoy, mojet stat samim Bojestvom.

* * *

*Moya dusha rastvorilas v dushe Vsevishnego,
kak vseleennaya rastvorilas v efire i ogne*

Kabir o'zi savodsiz bir tikuvchi bo'lgan. U juda saxiy va ko'ngilchan bo'lgani uchun ayniqsa kambag'allarni har tomonlama qo'llagan. Ularga doim o'z matolaridan ulashib qo'lidan kelgan barcha moddiy va ma'naviy yordamni ko'rsatib kelgan va, aksincha, xalqni ezuvchi, ularni turli qonunlarni pesh qilib xonavayron bo'lguncha bor yo'g'ini yig'ib olib ketuvchi, o'zi asl haqni tanib yetmagan, lekin o'zini jamiyatga yo'l boshchi, ustoz qilib ko'rsatuvchi turli din peshvolari, feodal va brahmanlarni achchiq-achchiq so'zlari bilan o'z she'rlarida xaqorat qiladi va tanqid ostiga oladi.

*Prinyav lichinu (svyatogo),
stal gospidinom, pil i yel dosita.*

* * *

*Vse mogut zanimatsya yogoy tela,
(no) redok tot, kto (sovershaet) yogu dushi.*

* * *

*Vse siddxi dostigli saxadja,
(potomu chto) zanimalis yogoy dushi.*

* * *

*Chem tebe navredili volosi, ili breesh (golovu)
sotni raz?*

Pochemu ne obril dushu, polnuyustrastey?

* * *

*Stal vishnuitom, no sto s togo?
Ved ne obrel znaniya (Boga)*

Kabirning mana shunday o'tkir tanqidiy she'rlari tufayli unga dushmanlik qiluvchi yuqori tabaqa vakillari, din peshvolari juda ko'p bo'lgan va ular bir necha bor Kabirga suiqasd ham uyushtirganlar. Bu borada Kabir o'z she'rlaridan birida: «Menga suiqasd uyushtirib fil oyoqlari ostida bosib o'ldirtirmoqchi bo'lganlarida Yaratganning o'zi filga meni tanitgan va fil oyoqlarini meni bosib o'ldirishdan to'xtatib qolgan edi» - deb yozgan edi Kabir.

Kabir ijodi ko'p yillargacha og'zaki ijodda og'izdan og'izga o'tib kelgan. Keyinchalik uning shogirdlari uning she'rlarini bir to'plamga to'plab unga «Kabir grantx» deb nom beradilar. Kabir she'rlari sikxlarning muqaddas kitobi «Adigrantx»da ham uchraydi. Bulardan tashqari «Kabir

vani» («Kabir ovozi») degan to'plam ham mavjud. Kabir nomi bilan juda ko'p she'rlar topilgan, lekin ularning ko'pi aniqlanishicha uning shogirdlari tomonidan yozilib ular o'z she'rlariga o'z ustozlari nomini qo'yib yozganlar. Kabir she'rlari o'z davrining xalq tili bo'lmish avadxida yaratilgan.

Kabir ijodi na faqat Hindistonda balki chet mamlakatlarda ham juda qiziqish bilan o'rganilgan. Uning gumanistik va inqilobiy dunyokarashi na faqat o'z davri uchun balki har bir davr uchun «labbay» deb javob beruvchi g'oya va fikrlar majmuasidan iboratdir. Kabir ijodi rus tiliga N. Gofurova va N. Sazanovalar tomonidan tarjima etilgan.

Kabirning ijodi Hindistonda hanuzgacha sevib o'rganiladi. Chunki o'z she'rlarida avvalom bor Yaratganni va u orqali insoniyatni ulug'lagan bir shoirdir. Kabir xhqni tanishning eng to'g'ri yo'lini, ya'ni «mexr» yo'lini o'z she'rlarida targ'ib etgan va dinning barcha xurofot bilan to'lgan vakillarini qattiq tanqid ostiga olgan. Kabir xalq shoiri, Kabir bxakt shoir, Kabir insonparvar shoir, Kabir inqilobchi shoir, va nihoyat, Kabir o'lmas shoir deb juda ko'p adabiyotchilar, shoir va yozuvchilar uning ijodiga yuksak baho berib ketganlar. Ko'pchilik shoir va yozuvchilar esa o'z ijodlarida Kabir g'oyalarining ta'siri katta bo'lganligini va aynan Kabir misralaridan ta'sirlanganlaridan so'nggina shoir bo'lish ishtiyoqi tug'ilganligi o'z so'zlari bilan ta'kidlab ketganlar. Uning ommabop bo'lishiga sabablardan yana biri uning she'rlarida jaranglagan hindu va musulmonlarning, xristian va sikxlarning, ya'ni har bir insonning, u qaysi din yoki qaysi kasta vakili, qaysi millat yoki elatning vakili bo'lishidan qat'iy nazar yagona Yaratganning bandasi ekanligini targ'ib etganligidir. Barchani teng ko'rishlik ayniqsa ko'pdinlilik hukmronlik qilgan o'rta asr hind jamiyati uchun juda dolzarb masalalardan biri edi. Kabir mana shu g'oyasi bilan ham hind jamiyatida o'zining o'lmas nomini va adabiyotda esa o'chmas iz bo'lib qolgan she'riyat ummonini yaratib ketgan.

Kabirni Hindistonda hindular ham musulmonlar ham birdek sevib o'qiganlar va o'qib kelmoqdalar. Uning hind jamiyatida sevimli bir shaxs bo'lganligini uning o'limi haqidagi rivoyat tasdiqlaydi. Ma'lumki, Kabirning dunyoga kelishi haqida turli rivoyatlar mavjud edi. Ularning ayrimlari Kabirni hinduligini tasdiqlasa boshqalari uni musulmonligini isbotlaydi. Xuddi shuningdek Kabirning o'limi haqida ham shunday rivoyat yetib kelgan. Bu rivoyatda ham Kabirning aslida qaysi din vakili ekanligini aniqlab bo'lmaydi. U ikkala din vakillari tomonidan birdek sevimli bo'lganidan mana shunday rivoyat xalq orasida tarqalib bizgacha yetib kelgan. Unga ko'ra:

Kabir vafot etganida uni qanday dafn etish masalasi kun tartibida turib qolgan. Chunki hindular: «Kabir hindu, bizning shoirimiz» - deb o'z urf-odatlariga ko'ra dafn etmoqchi bo'lganlar, musulmonlar esa: «Kabir musulmon, u bizning shoirimiz» - deb uni musulmoncha dafn etmoqchi bo'lganlar. Natijada Kabirning dafn masalasi hindular va musulmonlar o'rtasida bahs masalasiga aylanib ketgan. Lekin ko'mish uchun murda ustiga yopilgan matoni olganlarida murda o'rnida bir quchoq gul turgan bo'lgan. Aytishlaricha, Kabir o'limidan keyin ham hech kamni xafa qilmaslik aqsadida, barchani teng ko'rib bir quchoq gulga aylanib olgan ekan. Natijada hindular va musulmonlar gullarni teng bo'lib olib har bir din vakili o'z urf-odatlariga rioya qilgan holda Kabirning dafn marosimini o'tkazgan ekanlar. Kabir mana shunday buyuk inson, buyuk shoir va buyuk bxakt bo'lgan ekanki tangri ham uni sevganidan uning murdasini gulga aylantirib qo'ygan ekan.

9.2 Surdas krishnabhakt shoir.

Krishnabhakt kavi Surdas

Surdas o'rta asr hind bxakt shoirlari sirasiga kiradi. U o'rta asr xalq tili bo'lmish braj tilida ijod etgan. U braj tilini adabiy jarayonga olib kirib uni o'sha davr bosh adabiy tiliga aylantirgan shoirdir. Braj tilidagi adabiyot Hindistonning shimoliy qismida *Dehli*, *Agra*, *Matxura*, *Vrindavan* kabi shaharlar atrofida shakllanib rivojlangan. Surdas xalq tili bo'lmish brajda badiiy jihatdan yuqori darajadagi asarlar yaratib braj she'riyatini yuksak darajada rivojlangan she'riyatga aylantirgan.

Surdas Hindiston Shimolida Buyuk Mug'ullar (Boburiylar) imperiyasi hukm surgan davrda yashab o'tgan. U o'sha davr bxakt shoirlari Tulsidas va Kabirlarning zamondoshi bo'lgan. Bu davr ma'lumki Hindistonda bxakti xarakati avj olgan bir davr edi. Bxaktining ma'lumki ikki yo'nalishi: Nirgun va Sagun bxakti yo'nalishlari mavjud bo'lib Sagun bxakti vakillarini Hindistonda vishnuitlar deb atashgan. «*Vishnuit*» so'zi Vishnu ma'budi nomidan olingan bo'lib, u o'zining himoyalash, saqlash xususiyatiga ko'ra yer yuziga inson qiyofasida kelib insoniyatni yovuz kuchdan himoya qiluvchi ma'bud tarzida tushunilgan. Bular Vishnuning Ram va Krishna qiyofasidagi tajassumlaridir. Shu sabab Ram yoki Krishna ma'budlariga sig'inuvchi hindlarni vishnuit deb ataydilar. Surdas ham Krishnani o'z xudosi deb tan olgani, ungagina ibodat qilgani tufayli uni ham vishnuitlarning krishna-bxaktlar guruhiga kiruvchi shoir deb hisoblaydilar. Krishna bxakti yo'nalishi vakili bo'lgan Surdas o'z asarlarida asosan Krishna ma'budini, uning hayotiga oid bo'lgan voqealarni tarannum etgan.

Surdas hayoti haqidagi ma'lumotlar ko'p yillargacha tahmin bo'lib kelgan. Asrimizning boshida hind adabiyotshunoslaridan biri *Prabxudayal Mittal* (1960-70 yillar) «Pushti» sektasi vakili bo'lmish Xarirayning «*Surdas ki varta*» («Surdas hayoti») nomli qo'lyozma asarini topib uni qayta nashr ettiradi. Bugungi kungacha mana shu kitob Surdasning yoshligi va o'spirinlik davrlari haqidagi yagona manba'dir. Surdasning Vallabxacharya bilan tanishib bxakti yo'liga kirgandan keyingi hayoti haqida «Pushti» sektasi vakili Gokulnatxning «*Chaurasi veyshnavan ki varta*» («84 vishnuit hayoti») asarida ham ma'lumotlar mavjud. Bu ikkala asar ham agiografik janrdagi asar bo'lib, bugungi kunda o'sha Surdas yashagan davrdagi turli bxaktlarning hayoti haqidagi yagona manba' bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Surdas bir kambag'al brahman oilasida oltinchi farzand bo'lib 1478 yili Agra yaqinidagi Lamxi qishlog'ida dunyoga keladi. Otasi harbiylardan bo'lgan. Uning ota-buvalari avlodida shoir ham, olim ham, harbiy ham bo'lgan ekan. Surdasning asl ismi *Suraj Chand* bo'lib, ko'zi ko'r bo'lgan. Uning qachon ko'r bo'lib qolgani noma'lum. Bu haqda turli rivoyatlar mavjud. Ayrimlarning aytishicha u tug'ma ko'r bo'lgan. Shu sababli oilada uni otasi ham, onasi ham chiqishtirmagan. Ayniqsa u tug'ilganidan keyin oilada baxtsizliklar ko'p bo'lgani sababli ota-onasi uni shumqadam deb ortiqcha mehr bermaganlar. Oilaning kambag'alligiga yana turli baxtsizliklarning qo'shilishi natijasida Surdas o'zini bu oilada begona his qilib olti yoshligidayoq o'z ota-onasi uyidan bosh olib chiqib ketadi va o'zini taqdirga topshiradi. Ayrim mutaxassislar esa Surdasni ko'zi ochiq bo'lgan, lekin keyinchalik ma'lum bir sabablarga kuo'a ojiz bo'lib qolgan deb tahmin qiladilar. Chunki uning she'riyatida tabiat, inson va boshqa bor mavjudot va ularni yaratgan Krishna shunchalik go'zal va qiziqarli tasvirlanganki ularni ko'rmasdan turib bunchalik aniq va go'zal qilib tasvirlash tug'ma ko'r bo'lgan insonning imkoniyatidan chetdadir deb hisoblaydilar.

Surdas uyidan chiqib ketib qishloqma-qishloq darbadar kezib yuradi. Uning ovozi juda shirali bo'lgan va u doim ayriliq haqidagi qo'shiqlarini kuylab yurgan. Surdas Agra yaqinidagi bir tepalikda daraxt tagida yashab kun kechirib yurgan. Keyinchalik borib Surdas elga taniqli shoir bo'lib yetishganidan keyin u yashagan joyni «*Surkuti*», ya'ni «Surdas makoni» deb nomlab bir muqaddas ziyoratgoh sifatida tan oladilar. Bugungi kunda «*Surkuti*» Agra shahrida Jamuna daryosi bo'yida hanuzgacha ziyoratgoh sifatida mavjuddir. Sekin asta Surdas qo'shiqlarining dovrug'i butun qishlog'iga va boshqa qo'shni qishloqlarga ham yoyila boradi. Ko'r

bolaning g'amgin qo'shiqlari ommaning ham sevimli qo'shiqariga aylanib odamlar og'zidan og'ziga ko'chib butun Brajga yoyila boshlaydi. Bu davrdagi bxakti targ'ibotchilari bo'lmish yirik-yirik faylasuflar qishloq-ma qishloq yurib odamlar orasidan asl bxaktlarni qidirib topib ularni o'z shogirdliklariga olar edilar. Faylaso'flar ularga ustozlik qilib, panoh berib mana shu shogirdlariga bxakti g'oyalarini tushuntirar va ulardan esa bxakti g'oyalarini xalq orasida targ'ib etishda foydalanar edilar. Kunlardan bir kun taniqli faylaso'flardan biri bxakti targ'ibotchisi bo'lmish Vallabxacharya odamlar orasida tarqalgan Surdas haqidagi turli xabarlarini eshitib qoladi va uni o'z ko'zi bilan bir ko'rib uning qo'shiqlarini tinglagani o'sha daraxt tagiga boradi. 1510 yili Surdas birinchi bor Vallabxacharya bilan uchrashadi va bu uchrashuvdan so'ng uning hayotida tub burilish yuz beradi. Surdasning shirali ovozidan va g'amga to'la qo'shiqlaridan ta'sirlangan Vallabxacharya unga shogirdlikni taklif etadi va uni o'zi bilan Gokul qishlog'iga olib ketadi. Vallabxacharya Surdasni o'zi tashkil qilgan «Vallabxa» (Keyinchalik «Pushti», ya'ni «Qo'llash» nomi bilan dong taratgan) sektasiga a'zo qilib unga bxakti nima, uning bosh g'oyalari nimadan iboratligi haqida, Krishna haqida tushunchalar bera boshlaydi. Bu davrda Surdas o'n sakkiz yoshda edi.

Vallabxacharya Krishna ma'budi bilan Surdasni tanishtirar ekan bu ma'bud bxaktlarning haloskori ekanligini, uning hayoti juda go'zal, sevgiga va mehrga to'la ekanligini hikoya qilib beradi. Surdas bor vujudi bilan bu hikoyalarni tinglab sekin-asta Krishnaga mehr qo'ya boshlaydi. Surdasning o'zi yoshlik gashtini sura olmaganligi tufayli ustози Vallabxacharyaning Krishnaning erkalik bilan o'tkazgan yoshligi haqidagi hikoyalarni juda qiziqish bilan tinglardi. Keyinchalik borib «Balkrishna», ya'ni «bola Krishna» mavzusi uning ijodining bosh mavzusiga aylanib ketadi.

Surdas Vallabxacharya bilan uchrashgunga qadar faqat ayriliq haqidagi, g'am-anduxga to'la va tushkunlik ruhidagi qo'shiqlarni ijro etardi. Vallabxacharya esa unga hayotning go'zal sahifalarini ochib hayot faqat ayriliq va g'am-g'ussadan emas balki Krishna yaratgan turli xursandchilik onlaridan ham iborat ekanligini uqtiradi va bunga Krishnaning butun hayotini: uning go'zal va erkalik bilan o'tgan bolalik yillarini, enagasi Yashodaning u bilan qilgan turli xangomalarini, Krishnaning o'spirinlik yillarida Radxa bilan o'tkazgan sevgi laxzalarini hamda do'stlari bilan o'tkazgan xursandchilik onlarini misol qilib so'zlab beradi.

Vallabxacharya Surdasning ovozi shirali bo'lganligi tufayli «Krishnamandir»lardan (Krishna ibodatxonalari) biriga «kirtankar» (ya'ni, «yaratganga maqto'v qo'shiqlarini kuylovchi») vazifasiga ma'bud Krishnani

olqishlovchi qo'shiqlarni kuylovchi qilib tayinlaydi. Shu-shu Surdas Krishna ibodatxonasida Krishnaning hayoti bilan bog'liq qo'shiqlarni ijro etib, xalq orasida bxakti g'oyalarini targ'ib etishda o'z ustoziga madadkor bo'lib yuradi. Bu davr mobaynida Surdas Krishnaning butun hayoti bilan yaqindan tanishib, «Mahabxarata» eposi va u orqali nozil bo'lgan hindlarning muqaddas diniy kitobi «Bxagavadgita»ni yoddan bilib oladi va o'z ijodida asosan mana shu ikki muqaddas kitobga tayanadi.

Surdas «Pushti» sektasida o'z faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettiradi. Ustozi Vallabxacharya va uning o'g'illari doim o'z shogirdlariga «*Krishna-lila*» («Krishna-o'yinlari») haqidagi turli hikoyalarni, hikoyalar orqali esa insoniyat va yaratgan o'rtasidagi munosabatlar haqida, uning asos va negizlari hamda oqibatlari nimadan iborat ekanligini ibodatxonalarda o'tkaziladigan turli suhbatlar chog'ida o'rgatib, tushuntirib borar edilar. Bu suhbatlardan ruxlangan Surdas va boshqa turli shoir va musiqachilar Krishnaga, uning sarguzashtlariga bag'ishlangan she'r va qo'shiqlarini bastalab xalq orasida uni yana ham ommabop bo'lishiga o'z hissalarini qo'shib kelganlar. Bu she'r va qo'shiqlar oddiy xalq uchun tushunarli bo'lishi uchun na faqat Surdas balki boshqa shoirlar ham o'z ijodlarini braj tilida davom ettirganlar. Natijada o'rta asr adabiyotida braj tilida yaratilgan «Braj she'riyat ummoni» vujudga keladi.

«Pushti» sektasiga Surdasdan keyin Vallabxacharya yana bir qancha shoirlarni va musiqachilarni olib keladi, ularni ham o'z shogirdligiga olib, o'z sektasi faoliyatini xalq orasida targ'ib etishga ularni jalb etadi. Vallabxacharyaning o'g'li Vithalnatx «Pushti» sektasi qoshida «*Ashtachxap*»ni («Sakkiz shoir ittifoqi») tashkil etadi va bu tashkilotga raxbar qilib Surdasni tayinlaydi. Bu shoirlar ittifoqi Surdas raxbarligida qariyb qirq yil faoliyat ko'rsatadilar. Bu ittifoq a'zolariga Surdasdan tashqari yana yetti shoir kirgan. Ular: *Parmanandadas*, *Krishnadas*, *Nandadas*, *Chxitsvami*, *Xitsvami*, *Govindsvami* va boshqalar. «*Ashtachxap*»ning o'rta asr hind she'riyatiga qo'shgan hissasining qanchalik kattaligini uni o'rgangan mutaxassisgina tasavvur eta oladi. Bu sakkiz shoirning she'riyati butun hind adabiyotining eng katta sahifasini egallaydi desak hato bo'lmaydi. hind adabiyotida o'rta asr bxakti ta'sirida bunyodga kelgan she'riyatni «braj she'riyat ummoni» deb bejiz aytilmagan. Bu she'riyat tarkibida o'sha qadimgi hind eposlari «*Ramayaana*», «*Mahabxarata*» va hinduizmning muqaddas kitobi «*Bxagavadgita*»lar yana qayta ishlangan deb bimalol aytish mumkin. Krishna ma'budi braj she'riyatida avvalgidan ham go'zalroq bo'lib, avvalgidan ham sevimliroq bo'lib qayta dunyoga, hind xalqi orasiga kirib kelgan. Bxakti xarakati

ta'sirida «Ashtachxap» bunyodga kelgan bo'lsa, «Ashtachxap» shoirlari ijodi ta'sirida hind xalqining Krishna ma'budiga bo'lgan mehri va e'tiqodi yana ham kuchayib, yana ham chuqurlashib ketgan.

«Ashtachxap»ning faoliyati hind musiqa san'atining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. XU1 asrda Hindiston shimolida asosan uch musiqa markazi mavjud edi: Boburiylar sulolasi imperiyasi saroyi musiqachilari (mashhur musiqachi va musiqashunos *Tansen* boshchiligida), *Gvalior* musiqa markazi va Braj tili hududlarida gi Krishna ibodatxonalaridagi «Ashtachxap» shoirlari yaratgan musiqa markazi. Bu davr Boburiylar sulolasi imperatori Akbar shoh saroyida o'nlab musiqachi va qo'shiqchilar mavjud edi. Buyuk musiqachi Tansen ularning barchasiga ustozlik va boshchilik qilar edi. Ular orasidan ko'pchiligi Gvalior musiqa maktabi vakillari edi. Tansen esa avval Brajdagi kuchli musiqachi *Svami Xaridas* qo'lida ta'lim olgan, keyin Gvaliorga ketgan va u yerda Muhammad Gausiga shogird tushgan. Bu maktabda Gujaratlik *Bayju Bavra* ham ta'lim olar edi. Brajdagi musiqa markazlari *Gokul*, *Govardxan* va *Vrindavan* shaharlarida joylashgan edi. U yerlarda «Vallabxa» sektasi ibodatxonalari mavjud edi. Bu sektalarda kirtanlarni ijro etish uchun musiqa bo'lishi zarurat edi. Shu sabab «Vallabxa» sektasi musiqachilarining o'z uslubi, tajribasi va an'anasi mavjud bo'lib «Ashtachxap» shoirlari va musiqachilari faoliyati davomida u yanada takomillashib, boyib o'ziga xos uslub va e'tiborga ega bo'la bordi. Natijada «Ashtachxap» vakillari yaratgan musiqa va uning turli yo'nalish va usullari alohida olingan bir katta musiqa maktabiga aylanib ketadi.

Surdas ijodi haqida so'z borar ekan bu davrning muhim g'oyaviy yo'nalishi haqida eslab o'tish lozim. Ma'lumki, bu davrda asosan uch g'oyaviy yo'nalish adabiyotda o'z aksini topgan. Bular: Hindistondagi islom dini bilan bog'liq bo'lmish sufizm g'oyasi va hinduizmning sufizmga o'xshash yo'nalishi bo'lgan bxakti g'oyasi. Bxakti esa nirgun va sagun bxakti yo'nalishlarida adabiyotda o'z aksini topgan. Sagun bxaktidagi Ram bxakti va Krishna bxakti g'oyalarining adabiyotga ta'siri natijasida o'rta asr hind adabiyotida «*Ram kavya*» (Ramga bag'ishlangan she'riyat) va «*Krishna kavya*» (Krishnaga bag'ishlangan she'riyat) shakllangan.

Bxaktining ayniqsa «Yaratgan oldida barcha teng» degan shiori past tabaqa vakillari uchun ayni muddao bo'ldi. Ular asrlar osha kastachilik tizimi azobidan qutulib, o'zlarini inson sifatida his qila boshladilar. Mana shu tenglik g'oyasi adabiyotga ham kirib keldi va oddiy savodsiz xalq orasidan ham yetuk shoir va yozuvchilarning yetishib chiqishiga sababchi bo'ldi. Surdas mana shunday shoirlardan biri edi. U ham brahman

kastasidan chiqqan bo'lgani bilan o'ta kambag'al oiladan farzandi bo'lgan, savodsiz, o'zini taqdir oqimiga to'liq ravishda topshirgan ko'zi ojiz bir inson edi. Bxakti ta'sirida u bor mehrini Krishnaga berib undan yordam va panoh topib, o'zining bor qobiliyatini uni olqishlashga bag'ishlab natijada yetuk bir shoir bo'lib yetishadi.

Surdas ijodiy merosi haqida ham ko'p yillargacha aniq bir ma'lumot bo'lmagan. Chunki Surdas o'z asarlariga «Sur» tahallusini qo'ygan. hind adabiyotchilari esa «Sur» tahallusi ostida o'ttizdan ortiq asarlarni qo'lga kiritganlar va ularning qaysi biri Surdasning qo'lga mansub ekanligini ko'p vaqtgacha aniqlay olmaganlar. hind adabiyotida shunday bir an'ana bor. Shogird ko'pincha ustoziga hurmat yuzasidan o'z she'riga ustozining nomini qo'ygan. Bundan ular asosan ikki maqsadni ko'zlanganlar: birinchisi ustozga hurmat bo'lsa, ikkinchisi ustozining nomi orqali o'z she'rini omma orasida kengroq va tezroq tarqalishini ta'minlash bo'lgan. Shu sabab Surdas ijodiy merosida ham mana shunday holatlar kuzatilib Surdasning o'zining yozgan asarlarini aniqlash qiyin bo'lgan. hozirgi kunda Surdas qalamiga mansub deb quyidagi asarlar aniqlangan:

-*Vinaylar - diniy qo'shiqlar to'plami*

-*Sursagar - Surdas she'riyati ummoni*

Ikkala asar ham nazmda braj tilida yaratilgan.

Surdas haqida bir so'z bilan aytish mumkinki, u she'riyatda Krishnaning bosh kulovchisi. Braj she'riyatida Surdaschalik hech bir shoir Krishna ma'budini bunchalik mehr bilan kuylay olmagan. Ayniqsa Krishnaning bolalik chog'ini kuylashda butun hind adabiyotida Surdasga teng keladigan bironta bir shoir yo'q. Surdas deganda butun hind adabiyotida barchaning ko'z oldiga bola Krishna («*Balkrishna*») keladi desak hato bo'lmaydi. O'rta asr hind adabiyotida Krishnani kuylovchi shoirlar juda ko'p, lekin Surdasning o'tkir mehri uning har bir misrasida aniq ko'zga tashlanib turadi. Uning ijodining maxsuli «*Sursagar*» she'rlar to'plamiga to'plangan.

«Sursagar» («Surdas she'riyat ummoni») «Sursagar»

«Sursagar» o'rta asr hind adabiyotining shoh asarlaridandir. Ushbu asarni yaratishni xar bir shoir yoki yozuvchidek Surdas o'ziga maqsad qilib qo'ymagan. Bu asarni u o'zi bilmagan holda yaratgan. Aniqrog'i u faqat o'zining Krishnaga bo'lgan beqiyos mehrini she'riyatda, qo'shiqda ifoda etgan. Surdasning o'zi eas aslida savodsiz va basr bo'lgan. U Krishnadan boshqa hech kimni va hech narsani ko'rishni ham eishitishni ham istamagan. Keyinchalik bunday misralar juda ko'payib ketganidan keyin shogirdlari uning she'rlarini saqlab qolish, keyingi avlodga ham yetkazish

maqsadida bir to'plamga to'plab unga o'zlari «Sursagar», ya'ni «Surdas she'riyat ummoni» deb nom berganlar. Bu she'rlar yaratilishiga albatta bir necha o'n yillar sarf bo'lgan. Ular avval og'zaki ijodda yashab kelgan, keyin esa yozma adabiyotga kirib kelgan. Asar to'rt yarim ming misradan iborat. «Sursagar» turli hajmdagi o'n ikki bo'limdan iborat. Agar o'n bir bo'lim uch betdan iborat bo'lsa, o'n to'rtinchisi uch yarim betdan iborat, to'qqizinchi bo'lim esa yetmish to'rt betdir, asarning asosi bo'lmish o'ninchi bo'lim 1462 betga boradi. Bunday bo'linishni Surdas hindlarning muqaddas kitobi bo'lmish «Bxagavadpurana»dan olgan deyishadi. Mazmun jihatidan «Sursagar» «Bxagavadpurana» asarining qayta ishlovi deyish ham mumkin. «Sursagar»ni yaratishda Surdas asosan Krishna hayoti bilan bog'liq ikki muqaddas asarlarga «Bxagavadpurana» va «Mahabxarata» eposlariga tayangan. Shu sabab ham uning barcha qahramonlari «Mahabxarata» eposi kahramonlari, o'sha asar voqealari bo'lib faqat bxakti g'oyasi bilan sug'orilgan holda juda mehr bilan yaratilgan.

Asarning birinchi bo'limi har doimgidek Vishnu ma'budini maqtovi bilan boshlanadi. So'ngra «Bxagavadpurana» va «Sursagar» asarlarining kelib chiqish tarixi beriladi. Uning davomida avliyo Vyasaning o'g'li Shukadevaning dunyoga kelish tarixi, uning onasi haqida ma'lumot hamda Shukadevaning ona qornida otasidan «Bxagavadpurana»ni eshitib tug'ilganidan keyin buyuk donishmand bo'lib yetishib bu asarni shoh Parikshitga so'zlab berishi va Parikshit orqali ushbu kitobning hind xalqiga nozil bo'lish tarixi hikoya qilinadi. Bu qismda avliyo-darvesh Parasharning qizi Satyavatiga bo'lgan muhabbati va bu muhabbatning mevasi bo'lmish avliyo Vyasa Dvaypayananing tug'ilishi hikoya qilinadi. «Bxagavadpurana»da Vyasa Vishnu ma'budining tajassumi deb ta'rif etiladi. Shular bilan bir qatorda ma'bud Krishnaning kekkaygan Duryodxanning saroyida to'xtashdan bosh tortib, kamtarin Vidurning kulbasini afzal ko'rgani haqida so'z boradi. Yana bu qismga kiritilgan voqealar: Krishnaning Pandavlar ayoli Draupadini qutqargani, shoh Parikshit o'limi tarixi bilan bog'liq voqealardir. Ushbu voqealar tafsilotidan keyin Surdas kitobxonni aql eshigini ochib mana shunday hatolar qilayotgan vaqtda, qiyinchilikka duch kelgan vaqtda Vishnuga sodiq bo'lgan bxaktlargina uning himoyasida bo'lishlari, Vishnudan yuz o'giranlar esa o'lim yoqasiga kelib qolishi haqida tushuntiradi.

Ikkinchi bo'limda (o'ttiz sakkiz misra) Vishnu maqtovidan keyin Vishnuning bxaktlari maqtovi keyin esa undan yuz o'giranlarning ahvoli nima kechishi haqida so'z yuritiladi. har bir inson uchun bxaktlar bilan muloqotda, suhbatda bo'lish katta foyda keltirishini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Uchinchi bo'lim (o'n uch misra) Vidurning tug'ilishi haqidadir. Bu bo'limda Brahmaning o'g'illari - Sanaki, Sanandana, Sanatkumar va Sanatanalarning dunyoga kelishi hamda ularning Vishnuning sodiq davomchilari bo'lib yetishishlari haqida hikoya qilinadi, Yetti buyuk avliyo-donishmandlarning - Marichi, Bxrigu, Vasishtxi va boshqalarning dunyoga kelish tarixi ham mana shu bo'limdadir. Jay-Vijay ismli aka-ukalar haqida ham hikoya qilinadi. Ular kunlardan bir kun Sanakyalarni (Braxma o'g'illari) Vishnuni ziyorat qilish uchun kelganlarida ularning yo'llarini to'sganlar va natijada ulardan keyingi uch marta qayta tug'ulishingda ham devzot bo'lib dunyoga kel degan qarg'ish oladilar va shunga ko'ra ular yer yuzida keyingi tug'ilganlarida Jay devzot Xiranyaksha (Oltin bosh), Lanka shohi yovuz Ravan va Chedi o'lkasining yovuz shohi Shishupala (keyinchalik Krishna tomonidan o'ldirilgan) bo'lib, Vijay esa yovuz asur Xiranyakaship (e'tiqodi juda baland Praxladning otasi), Kunbxakarna (Ravanning ukasi) hamda yovuz Kansa (Krishna qo'lida o'lgan) bo'lib dunyoga keladilar.

To'rtinchi bo'lim. (o'n uch misra). Vishnuning mashhur donishmand Atri va uning ayoli Anusuyining farzandi donishmand darvesh Dattatrei bo'lib dunyoga kelishi hikoya qilinadi. Atri o'g'il so'rab xudoga murojaat qilganida birdaniga uch xudo javob beradi. Shuning uchun Anasuyi yana bir o'g'il yovuz donishmand Durvasani dunyoga keltiradi. Qisqacha Shiva va Parvati ma'budlari haqida ham hikoya kiritilgan.

Beshinchi bo'lim (to'rt misra). Bu bo'lim Vishnuning navbatdagi tajassumi shoh Rishabxa haqida. U otasidan keyin taxtga o'tirib xalq farovonligi yo'lida ko'p ishlar qilib xalq e'tiborini qozonadi. Indra ma'budi bundan norozi bo'lib yomg'irni to'xtatib qo'yadi. Natijada qurg'oqchilik boshlanadi. Shunda Rishabxa o'z qudrati bilan yomg'irni yog'dirib Indra ma'budini yengib xalqni qurg'oqchilikdan olib chiqadi.

Oltinchi bo'limida (sakkiz misra) shoh Parikshitning Shukadevaga «Bxarata do'zaxdan qanday qilib chiqib olgan?» degan savoliga javobi berilgan. Chunki u katta gunohi uchun duzaxga tushgan edi, lekin Vishnu ma'budi «gunohlardan ozod etuvchi» demakdir, kimda-kim unga chin dildan murojaat etsa u albatta gunohlardan ozod bo'lishi so'zlab beriladi.

Oltinchi bo'lim «Bxagavadpurana» haqidagi ikki afsona bilan tugatiladi.

Etтинchi bo'lim (sakkiz misra). Vishnuning Nrisinx obrazida dunyoga kelishi hikoya qilinadi. Vishnuga ibodat qiluvchi Praxlad va uning yovuz otasi Xiranyakaship haqidagi hikoya ham mana shu bo'limda.

Sakkizinchi bo'lim (o'n yetti misra). Vishnuning fillar shohini krokodildan qutkargani haqida. Bu bo'limda Vishnuning katta toshbaqa qiyofasida yerga tushib insoniyatni yuzini yovuzlikdan halos qilish uchun tug'ilgani ham so'zlanadi.

To'qqizinchi bo'lim (bir yuz yetmish to'rt misra) Ram haqida hikoya. Shoh Pururvasa va uning ayoli Urvashi hayoti haqida ham so'z boradi. So'ngra osmondan tushirilgan daryo deb sanaladigan Ganga daryosining donishmand Bxagiratxi yordamida yer yuziga tushirilgani haqida hikoya.

O'ninchi bo'lim eng asosiy bo'lim bo'lib, «Krishnayana» deb nomlanadi. U 4309 misradan iborat.

O'n birinchi bo'lim (to'rt misra). Vishnuning yer yuzida Narayana obrazida paydo bo'lishi haqida.

O'n ikkinchi bo'lim (besh misra). Vishnuning Budda ko'rinishida dunyoga kelishi hikoya qilinadi. Bu bo'limda Vishnuning keyingi tajassumi Kalki ekanligi haqida ham so'z yuritiladi. Bu Kalyugdagi yovuzlikni tugatish uchun Vishnuning navbatdagi yer yuziga tushishidir deb hikoya qiladi Surdas. Surdas Kalyugni, ya'ni «temir asr»ni shunday ta'riflaydi: «Kalyugda raxbarlar nohaqliklarga juda ko'p yo'l qo'yadilar, kuch bilan hosillarni tortib oladilar. Raxbarlar ko'proq laganbardor va poraxo'rlarni o'z atroflariga yig'adilar, rostgo'y va halol ishlaydiganlarni chiqishtirmaydilar, ularni har joydan chetlatadilar. Insonlar diniy qonun-qoidalariga bo'ysunmay qo'yadilar, kastachilikni tan olmay qo'yadilar. Uy bekalari o'z vazifalarini unutadilar, mehmonnavozlik yo'qoladi. haqiqat, baxt va yaxshilik borgan sari kamayib boradi. Yomg'ir oyida yomg'ir ham yog'may quyadi, xalq ochlikdan azob chekadi. Insoniyatning umri qisqarib boradi va ular ko'proq aysh-ishratga berilib ketadilar» -deb ta'riflaydi. Umuman olganda hind falsafasidagi to'rt davr: «Satyayug» (Oltin asri), «Dvapr» (Kumush asri), «Treta» (Mis asri), «Kalyug» (Temir asri) orasida Kalyug «Bxagavadpurana»da quyidagicha tasvirlanadi: «Kalyug»da gunoh, ma'naviy buzulqilik ko'payadi, tabiiy ofatlar kuchayadi, turli kasalliklar va ochlik keng tarqaladi, inson umri qisqaradi. Insonlar ahloq-odobi buziladi. Ayollar iffatini yo'qotadi, savdogarlar nohaq bo'la boradilar, raxbarlarning esa qahri qattiqlashib xalqni unuta boradilar». Shu bo'limda hind falsafasiga ko'ra tabiatning davrlarga bo'linishi va har bir davr nimaga teng ekanligi, Brahmaning tun va kuni (kalp) mazmunlari ochib beriladi. Bu hisobga ko'ra Brahmaning bir kuni 4 320 000 000 yilga teng deb beriladi. Dunyoda vaqti vaqti bilan bo'lib turadigan tabiiy ofatlar (pralay) va oxirgi qiyomat qoin (maxapralay)ning bo'lishi va unda Brahmaning o'zi ham olamdan o'tib haqqa qo'shilib ketishi tushuntiriladi.

O'n ikkinchi bo'limda shoh Parikshit o'g'li shoh Janamajayning tarixi beriladi.

Shunday qilib, Surdasning «Sursagar» asari hind eposi «Mahabxarata» voqealari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buning sababi asosan Krishna ma'budidir. Surdas butun hayoti va borligini Krishna ma'budiga bag'ishlab, ungagina mehr berib, Krishnanigina kuylashdan o'z baxtini topgan va hayotdagi asosiy yashash maqsadiga ham Krishnaning iltifoti orqali erishganligini qayta - qayta asarlarida ta'kidlagan. Shu sabab «Sursagar» «Mahabxarata»ning bxakti g'oyasi, ya'ni mehr va sadoqatni bosh g'oya qilib olgan holda o'rta asrda qayta yaratilgan nusxasi deb baholasak hato bo'lmaydi. Surdas ijodining keyingi davr adabiyotiga ta'siri juda kuchli bo'lib, Surdas ijodiga mansub asarlarni to'plashda «Sur» yoki «Surdas» tahallusi bilan yozilgan yuzlab asarlar topilgan, lekin ularning turli davrlarga oidligi va ularning tilidagi farqlar bu asarlar bir shaxs qo'liga mansub emasligini yaqqol ko'rsatib turuvchi omil bo'lib, bu asarlar faqat Surdas ijodi, uning she'rlarining o'zidan keyingi davr shoir va yozuvchilariga bo'lgan ta'sir mevalari deyish mumkin. Ular Surdasni shunchalik sevganlaridan o'z she'rlariga ham Surdasning nomini qo'yib nashr ettirganlar. Natijada, Surdas ijodini o'rganishda juda ko'p anglashilmovchiliklarga yo'l qo'yilgan. Aslida esa Surdas o'z she'rlarini faqat og'zaki ijro etgan, savodsiz bo'lganligi sababli birontasini ham o'zi yozmagan. Bular sevimli qo'shiq tarzida og'izdan - og'izga ko'chib yozma adabiyotga uning shogirdlari orqali kirib kelgan.

Surdas ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Buning asosiy sababi albatta Krishna ma'budi nomi bilan bog'liqdir. Krishna hind xalqining savimli ma'budi bo'lib, sevgi, muhabbat bilan bog'liq, mehr va sadoqat bilan bog'liq har bir sharoitda unga ibodat qilib, undagina madad so'raydilar.

9.3 Ram bxakt Tulsidas ijodi ***Tulsidas Rambhakt kavi***

O'rta asr mashhur bxakt-shoiri Tulsidas 1532-1623 yillarda yashab ijod etgan. U yashagan davr Hindiston tarixida juda katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar yuz bergan bir davr edi.

Siyosiy jihatdan bu davr Hindiston shimolida buyuk Boburiylar sulolasi hukmronlik qilgan bir davr va bu davrning yetakchi g'oyasi bxakti diniy-islohotchilik harakati bo'lgan. Hind mutaxassislari - veda va buddizmdan keyin hind jamiyati ongini tubdan ijobiy tomonga o'zgartira olgan g'oya bu bxakti g'oyasidir - deb baholaydilar.

Mana shu davrda yashab ijod etgan Tulsidas 1532 yili *Jamuna* daryosi bo'yida *Rajapur* qishlog'ida obro'li brahman *Atmaram Dube* oilasida dunyoga keladi. Tulsidasning otasi qishloq oqsoqollaridan biri edi. Rivoyatlarga qaraganda brahmanning xotini xomilasi o'n ikki oyligida bir o'g'il ko'radi. Tug'ilgan bola ko'rinishidan besh yashar bolaga o'xshar, uning og'zida tishlari ham bor edi. Uning dunyoga kelib birinchi aytgan so'zi ham «*Ram*» bo'lgan ekan. Shu sabab bolaligidan uni «*Rambola*», ya'ni «*Ram* nomini tilga olgan bola» deb ham atashar ekan. Lekin bu bolaning tug'ilishi astrologlarning fikricha oilaga baxtsizlik olib kelar ekan. Keyinchalik uning onasi betob bo'lib qoladi va o'limi oldidan bir xizmatkor ayolni chaqirib unga butun qimmatbaho taqinchoqlarini berib shu o'g'lini olib ketishini va uni o'z tarbiyasiga olishini so'raydi. Bu ayol bolani besh yarim yil boqib, tarbiya qiladi, lekin kunlarning birida bu ayolni ham ilon chaqib oladi va u olamdan o'tadi. Buni eshitgan otasi baxtsizlik keltiruvchi bu bolani uyga olib kelmayman deydi. Shundan keyin bola yetim qolib daydi bo'lib ko'cha kuyda kun kechirib yuradi.

Kunlarning birida *Rambola* bir ibodatxona oldida sadaqa so'rab o'tirganida bir *Narxari* degan darvesh uni ko'rib qoladi va bolani boqib oladi. *Narxari* *Ram* ma'budiga sig'inadigan darvesh edi. U bolani o'z tangrisi *Ram* bilan tanishtiradi. *Sukarakshetr* degan joyga borib unga *Ram* hayoti haqidagi hikoyalarni so'zlab beradi.

Yillar o'tib *Rambola* o'z yaqinlarini ko'rish uchun o'z qishlog'i *Rajapur*ga boradi. Lekin u yerda uning yaqinlari qolmagan edi. Ko'pchilik qarindoshlari olamdan o'tgan, boshqalari esa ko'chib ketgan edi. O'z uyini esa u ayrim eski qo'shnilar yordamida zo'rga tanib oladi. Shundan so'ng *Tulsidas* o'z taqdirini tangrisi *Ram*ga topshirib butun umrini *Ram*ni olqishlashga, uni kuylashga bag'ishlaydi. Shu sabab ham uning barcha asarlari *Ram* nomi bilan, uning hayoti va sarguzashtlari bilan bog'liqdir. Uni jahonga tanitgan asar ham *Ram* hayotiga bag'ishlangan asardir. Bu asar o'z qadr-qimmatini jihatidan hind xalqi orasida *Ram* ma'budi nomi, uning hayoti va yer yuzidagi barcha sarguzashtlari bilan bog'liq qadimgi hind eposi «*Ramayana*»dan ham oshib ketadi. hind xalqining ikki muqaddas kitoblaridan biri «*Ramayana*» bo'lsa, *Tulsidas* o'zining «*Ramacharitamanasa*» asari bilan «*Ramayana*»ni ancha ortda qoldirib yuboradi.

Tulsidas ijodiga jami o'n ikkita asar mansubdir. «*Krishna* haqidagi qo'shiq» asaridan tashqari barcha asari *Ram*ga bag'ishlangan. Uning barcha asari nazmda yaratilgan, ularni hind adabiyotida «*Ram-kavya*», ya'ni «*Ram*ga bag'ishlangan nazm» deb ataladi. Ular quyidagilar:

- 1) *Ramacharitamanasa* - *Ram sarguzashtlari*
- 2) *Kavitavali* - *Misralar to'plami*
- 3) *Vinaypatrika* - *Vinaylar to'plami*
- 4) *Doxavali* - *Ikki misra*
- 5) *Veyragya-sandipani* - *Darveshlik targ'iboti*
- 6) *Krishnagitavali* - *Krishna haqida qo'shiqlar*
- 7) *Gitavali* - *Qo'shiqlar*
- 8) *Ramagya prashana* - *Ram fikrini bil* va boshqalar.

«*Ramacharitamanasa*» nazmda o'sha davr xalq tillaridan bo'lmish *avadxi* tilida yaratilgan. Tulsidas Ramni shunchalik sevganidan *Ramayana* asarini yoddan bilar edi. Keyinchalik bu asarni o'z davri xalqi tilida yanada go'zalroq va bxakti g'oyalari bilan sug'orilgan holda qayta yaratgan. U xalq orasida Ramning eng sevimli ma'bud sifatida tarqalishini, uni barcha xuddi u sevgandek sevrishini juda orzu qilgan. «*Ramachartamanasa*» asari bilan «*Ramayana*» asarlarini kiyoslagan har bir kitobxon Tulsidas asarida mehr, ya'ni bxakti ta'sirini o'tkirligini tezda anglab yetadi. U Ramni o'zining eng sevimli ma'budi sifatida, eng odil shoh sifatida, eng aqlli va sodiq o'g'il sifatida, eng mehribon aka va eng namunali umr yo'ldoshi sifatida ustalik bilan tasvirlagan.

«*Veyragya-sandipa*» asari didaktik harakterdagi asardir. Unga Tulsidasning dohalari, chaupailari (to'rtliklar) va sorathalari (ikki misrali she'rilar) kiritilgan. Jami olmish ikki misradan iboratdir. Asar to'rt qismdan iborat:

-*Birinchi qismda avliyolar va darveshlarga bag'ishlangan maqtovlar kiritilgan.*

-*Ikkinchi qismida mana shu avliyolarning fe'l-atvorlari, xususiyatlari haqida so'z boradi.*

-*Uchinchi qismida esa ularning buyukligi kuylanadi*

-*To'rtinchi qismida ularning sokinligi va xotirjamligi xaqida kuylanadi.*

«*Ramagya prashana*» («*Ram fikrini bil*») nomli ajoyib nazmda yaratilgan asari haqida bir rivoyat ham bor. Unda shunday deb aytiladi:

«Kunlardan bir kun Kashi shahri xokimining o'g'li o'z do'stlari bilan ovga chiqibdi. Bir vaqt xokimning qulog'iga ovga chiqqanlardan birini yo'lbars g'ajib tashlabdi degan ovoza yetib keladi. Bu gapni eshitgan xokim qattiq havotirlanib, «Bu mening o'g'lim emasmikin? - deb o'ylaydi va astrologni chaqirtirib unga «Bir kun ichida unga bu xabarni qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilib berishini noto'g'ri bo'lsa sovg'a olishini to'g'ri bo'lsa esa joni ketishini aytadi. Bunday topshiriqdan qattiq

xayajonlangan Ganga Ram ismli astrolog yo'lda Tulsidasni uchratib qoladi va ko'nglidagi bor gapni unga aytib beradi. Tulsidas unga yordam qo'lini cho'zib olti soat ichida uch yuz qirq uchta ikki misralik(doxa) she'r yozib beradi. Mana shu asarning nomi «Ramagya prashana» («Ram fikrini bil») deb nomlanadi. Bunda asarga «Ramayana»ning qisqartirilgan nushasi deb baho berilgan. Asar yetti qismdan iborat. har bir qism yetti bobdan va har bir bob yetti doxadan iborat. Shu sabab ham asarni ko'pincha «Doxavali Ramayana» («Yetti misrada Ramayana») deb ham nomlashadi.

Doxaning birinchi misrasida simvollar bilan «Ramayana»dan bir epizod keltiriladi. Ikkinchi misrasida esa bu narsa yaxshilikkami yoki yomonlikkami shu narsa aniqlanadi. Masalan, asarni ochganda Ram Lakshman va Sitani sargardon bo'lib qidirib yurgan epizodi tushgan bo'lsa, bu epizod yomonlikni bildiradi, yoki bo'lmasa asarni ochganada Ramning Jatayuni ko'mish marosimini o'tkazayotgani tushsa bu xushxabar keltiruvchi epizod sanaladi. Shunday qilib, astrolog ertalabgacha mana shu asardan hokim o'g'li taqdirini aniqlab o'tiradi. Ertalab esa hokim o'g'li sg'g-salomat uyiga kirib keladi. hokim astrologga yuz ming rupi in'om beradi. Astrolog pullarni Tulsidasga bermokchi bo'ladi, lekin u faqat o'n ikki ming rupinigina oladi va shu pullarga o'n ikkita Xanuman ibodatxonasini qurdiradi.

«*Ramagya prashana*» asari «*Ramacharitamanasa*» asaridan bir necha yil avval yaratilgan. Bu asarni yaratishda Tulsidas na faqat «*Ramayana*»ga balki Kalidasaning «*Ragxu avlodi*» asariga ham murojaat etgan.

Tulsidas haqqoniy tarzda faylasuf shoir, shoir ixtirochi deyish mumkin. Uning asarlari falsafiy fikrlarga to'ladir. Tulsidasning ijodiy yo'li juda keng va xilma-xildir. U o'z ijodini Lanka orolida, ya'ni Ram sarguzashtlari bo'lib o'tgan joyda ham davom ettirgan. «*Ramacharitamanasa*» asarida uch olam (jannat, yer va do'zax) haqida, o'n to'rt olam, yetti osmoniy va yetti yer osti olamlari haqida, koinotning cheksiz, sanoqsiz olamlari haqida so'z yuritiladi.

Bu yerda osmoniy olam kengroq tasvirlangan. U yerda yashaydigan ma'budlar hamda ularning ayollari, gandxaralar va kinnarlar (ya'ni osmoniy musikachilar), osmoniy raqqoslar, devlar, apsaralar hamda yerda yurib yangiliklar tarqatuvchi avliyo Narada haqida hodisalar tasvirlangan.

«*Ramacharitamanasa*» Tulsidas ijodidagi eng yorqin asardir. Bu asar o'zining chuqur ma'noliligi, boy estetik zavq beruvchi she'rlari bilan hind adabiyotini juda boyitgan.

Valmikining «*Ramayana*» asari hamda Tulsidasning «*Ramacharitamanasa*» asari o'rtasida ming yillarcha farq bor. Bu davr

ichida Ram haqida sanskrit, prakrit, apabxaransha va yangi hind tillarida turli janrlarda nazmda va nasrda juda ko'p asarlar yaratilgan. Tulsidas o'zining «Ramacharitamanasa» asarini yaratishda mana shu adabiy meros hamda Valmikiyning «Ramayana» eposiga tayangan.

«Ramacharitamanasa» asosan yetti kitobdan iboratdir.

-Birinci kitob «Bolalik» deb nomlanadi. Bu kitob asosan Ramning hayoti, o'spirin davri voqealari, uning o'rmonga avliyolarini devlardan ozod etish maqsadida o'rmonga borib ularni yengib u yerdan shoh Janaka e'loniga ko'ra qiz tanlov ko'rigida ishtirok etib uning qizi Sitani yutib o'z yurtlariga olib kelganliklari haqida so'z boradi. Birinchi kitobda kirish qismi juda katta. Unda muallif yuqoridagi voqealar bilan bir qatorda o'zining diniy-falsafiy dunyoqarashi, ma'naviy-etik va sotsial prinsiplari, hamda Ram ma'budining yer yuzidagi tajassumi sabablarini ochib beradi.

-*Birinchi kitobda* brahmanlar qarg'ishiga uchrab keyingi tug'ulishida yovuz devzot bo'lib dunega kelgan buyuk shoh *Pratachabxanu* haqida ham hikoya qilinadi.

-*Ikkinchi kitob «Ayodhya»* deb nomlanadi. Koshala shohligining poytaxti Ayodxyada yoshlar qaytganidan keyin shoh Dasharatxa qarilik yaqinlashgani tufayli taxt vorisligi masalasini hal qilish maqsadida to'rttala o'g'lini yig'ib maslahatlashib eng katta, eng aqlli va odobli o'g'li Ramni taxt vorisi deb e'lon qildirishini aytadi. Buning natijasida saroyda ro'y bergan noxushliklar haqida hikoya qilinadi.

Ram Dasharatxaning birinchi ayoli Koshalyaning farzandi edi. Ikkinchi ayoli Kekeyaning ham ikki o'g'li Bxarata va Lakshmanlar bo'lib, onasi o'z o'g'illarini taxt vorisi bo'lishini istaydi va yovuz enagasining gapiga kirib shohdan Ramni o'n to'rt yilga o'rmonga surgun qilib Bxaratani taxt vorisi deb e'lon qilishini talab qiladi. Bir vaqtlar Kekeyaga ikki istagini bajarishga va'da bergan shoh boshi berk ko'chaga kirib qolib, nima qilishini bilmay siqilaverib kasal bo'lib qoladi. Bu kasallik sababini bilgan Ram o'z xohishiga ko'ra o'n to'rt yilga o'rmonga ketadi. Bosh farzandini nohaq xafa qilgan va ayriliqqa chiday olmagan Dasharatxa dunyodan ko'z yumadi. Bxarata esa o'z onasi qilmishidan uyatda qolib onasi bilan urishib o'rmonga o'z sevimli aksini taxtga qaytarish uchun ravona bo'ladi. Bu xabarni eshitgan Ram endi otasining va'dasi har qanday holatda ham amalga oshirilishi kerakligini aytib taxtga qaytishdan voz kechadi va Bxaratani o'n to'rt davlatni boshqarib turishini so'raydi. O'rmonga Ram bilan birga uning ayoli Sita hamda ukasi Lakshman ham ketadilar. Ular o'rmonda o'zlariga bir kulbacha qurib shu yerda yashay boshlaydilar.

-*Uchinchi kitobning nomi «O'rmon» deb ataladi. Bu qismda ma'lumki o'n to'rt yillik o'rmon sarguzashtlari bayon etiladi. Ram bu yerda juda ko'p avliyo va darveshlar bilan uchrashib ulardan dunyo, inson va haet haqida juda ko'p saboqlar oladi. Ulardan Atri, Sharabxangi, Agasti va boshqalar. Ular turli devzotlar bilan ham to'qnashadilar, ular bilan urushib yengib chiqadilar. Jumladan, Shurpanakxa, Kxaru, Dushan, Trishir. Eng katta to'qnashuv yovuzlar yovuzi Lanka yurti shohi Ravana bilan bo'ladi. U Sitani o'g'irlab qochib uni o'z ayoliga aylantirmoqchi bo'ladi.*

-*Turtinchi kitobning nomi «Kishkindxa».* Bu maymunlar mamlakati poytaxtining nomidir. Bu yerda Ram maymunlar shohi Sugriv va uning bosh maslahatchisi Xanuman bilan uchrashadi. Sugriv esa bu vaqt akasi bilan taxt talashib yurgan bo'ladi. Ram esa unga taxtga qayta o'tirishiga yordam beradi va o'z navbatida Sugriv ham Ramga Sitani Ravana qo'ldan ozod etishga yordam beradi va maymunlar sardori Xanumanni Ram bilan Lankaga jo'natadi.

-*Beshinchi kitob «Go'zal» deb nomlangan. Bu qismda Xanumanning qanday qilib Lanka oroliga kirib borgani u yerdan Sitani topganligi haqidagi xushxabar bilan qaytgani hikoya qilinadi.*

-*Oltinchi kitob - «Lanka» deb ataladi. Maymunlar o'rmondan to Lankagacha zanjir bo'lib birlashib Ram va uning odamlarini Lankaga bostirib kirishiga yordam beradilar va ular u yerga kirib borib Sitani ozod qiladilar. Shu bilan bir qatorda yovuz Ravana qo'l ostida ezilayotgan Lanka xalqini ham ozodlikka chiqarib yovuz kuch vakili bo'lmish Ravanani o'ldiradilar.*

-*Etтинchi kitob «Oxirgi» deb nomlanib unda Ramning zafar bilan o'z yurti Ayodx'yaga kirib borishi tasvirlangan. U yana taxtni ukasi Bxaratadan o'z qo'liga olib mamlakatni odilona boshqarib butun Ayodxya xalqini baxtli-saodatli turmush kechirishini ta'minlovchi sevimli shoh sifatida dong taratadi.*

Tulsidas o'z asarini Valmiking «Ramayana»sidek yetti kitobga bo'lib yaratgan. har bir kitob sankrit tilidagi shloka bilan, ya'ni ma'budlarni maqtovchi she'r bilan boshlanadi keyin esa asosiy matn avadxi tilida davom etadi. U ko'pincha ilmlar ma'budasi Sarasvati, aql ma'budi Ganesha, Shiva va Parvati mabudlariga, Ram-Sita va Xanumanlarga maqtov qo'shiqlarini bag'ishlaydi.

Tulsidas «Ramayana» asarini xuddi bir kemaga o'xshatadi. Mana shu kema insoniyatni sansaradan, ya'ni bu dunyo tashvishlaridan olib o'tib uni ozodlik qirg'og'iga olib chiqadi. «Ramayana» bu dunyo iloni bo'lmish Kalyugni yutib yuboruvchi tovusdir deb baho beradi. Ayniqsa bxaktlar

uchun bu eng katta ma'naviy ozuqadir deb hisoblaydi. Tulsidas Ram haqidagi hikoyalar yer yuzida insoniyat uchun hayot bag'ishlovchi suv oqadigan daryodir, hamda undagi adashgan insonlardek suvni bulg'ovchi toshbaqa va qurbaqalarni kemiruvchi ilon, yer yuzida insoniyatni kuydirayotgan olovni (ya'ni, yovuz kuchlarni tugatuvchi) o'chiruvchi yomg'irni yog'diradigan bulut, qorong'ilikni haydovchi quyosh hamdir deb baho beradi.

Tulsidas hayoti va uning asarlari haqida juda ko'p izlanishlar amalga oshirilgan. Ularning soni yuzdan oshadi. Hindistonda uning ijodini o'rganish uchun bir necha mahsus guruxlar ham tashkil etilgan. Tulsidas davri bizdan qancha uzoqlashmasin uning ahamiyati shunchalik ortib bormoqda. hind adabiyotida Tulsidasning «Ramacharitamanasa» asaridan ruxlanmagan, undan ta'sirlanib ijod etmagan, hech bo'lmasa biron bir she'r yaratmagan shoir yoki yozuvchini topish qiyin. Ommaboplikda Tulsidasning «Ramacharitmanasa» asari hind adabiyotining eng yirik merosi bo'lmish «Ramayana» eposining o'rnini to'liq egallagan desak haqiqatga yaqin bo'ladi. Chunki «Bxagavadgita»dan keyingi hind xalqining muqaddas diniy kitobi bugungi kunda aynan Tulsidasning avadxi tilida yaratilgan «Ramacharitamanasa» asaridir. Ram va Krishna ma'budlari ma'lumki bugungi kunda hind xalqining ibodat qiluvchi ma'budlari sanaladi. Ram ma'budining ahamiyati esa Tulsidasning «Ramayaana»sidan keyin jamiyat orasida yanada ortib ketgan. har yili hind xalqi «Ram-navmi» (Ram tug'ilgan kuni)ni oktabr oyida nishonlaydilar. Shunda o'n ikki kun davomida Ram ibdatxonalarida «Ramacharitamanasa» asari xalq tomonidan to'liq o'qib bitiriladi va oxirgi o'n uchinchi kuni yovuz kuch Ravanni yengib uni xalq oldida yoqish marosimi o'tkaziladi va undan keyin g'alaba bayrami Dipavali (Divali) bayrami (ya'ni, olov bayrami nishonlanadi.).

Tulsidasning ushbu asarining syujeti asosida hind adabiyotida juda ko'p boshqa asarlar ham yaratilgan. Jumladan, M.Guptaning «*Saket*» asari, B.Sharmaning «*Urmila*» asari, Ayodxyasinxa Upadxyayning «*Vaydexi o'rmonlariga surgun*» asari, S.T. Niralaning «*Ram ma'budining Shakti ma'budiga ibodati*» hamda «*Tulsidas*» nomli asarlarini tilga olish mumkin.

Zamonaviy yozuvchilarni Tulsidas ijodida aynan nima qiziqtiradi? Rus hindshunos olimi Ye.P.Chelishev o'zining Suryakant Tripatxi Nirala kitobida: «Niralaning o'ttizinchi yillar asarlarining bosh qahramoni - kuchli, oliyjanob, har qanday yovuzlik bilan yolg'iz kurasha oladigan, hech kimga bo'ysunmas shaxsdir. Yozuvchi botir, qo'rqqas insonlar obrazini yaratishni istaydi va bunday qahmonlarni esa u ko'incha Tulsidas asarlarida uchratadi.

Niralaning «Tulsidas» asarining bosh gʻoyasi oʻz xalqiga, vataniga xizmat qilishdir. Adabiyotning bosh vazifasi jamiyat ongiga ijobiy taʼsir etib uni tarbiyalashdir deb hisoblagan Nirala oʻz asarlarida zamondoshlarini Tulsidasdek va uning asarlarida yaratilgan qahramonlardek boʻlishga davʼvat etadi.

Tulsidas ijodiy merosiga faqat hind yozuvchilari balki chet el yozuvchilari, ijodning boshqa turlari vakillari va sotsiologlar ham murojaat etganlar.

Angliyaning *Ost-Indiya kompaniyasi* vakili X.X.Vilson Tulsidas ijodiga murojaat etib u haqda 1828 va 1832 yillarda ikkita maqolasini chop ettirgan. Tulsidas ijodining hind xalqiga koʻrsatgan taʼsiri haqida gapirib u oʻz maqolalarida «hind xalqiga Tulsidas ijodining taʼsiri butun sanskrit adabiyoti taʼsiridan koʻra koʻproq boʻlgan» degan xulosaga keladi. Undan keyin fransuz hindshunosi Garsen de Tassi oʻzining ikki tomlik «hind adabiyoti tarixi» kitobida Tulsidasning «Ramacharitamanasa» asaridan parchalar keltirgan va bir qancha maqolalar ham nashr ettirgan.

Asrimizning boshlariga kelib Tulsidas ijodini oʻrganuvchi mutaxassislar orasida uning diniy-falsafiy dunyoqarashi borasida turli bahslarga bagʻishlangan ilmiy maqolalar ham paydo boʻla boshladi. Ayrimlar uni kastachilik sistemasini himoya qiluvchi, feodal-brahmanlar manfaatini koʻzlovchi shoir desalar, yana boshqalar hind adabiyotiga demokratik fikrlarni olib kirgan shoir deb baholaydilar. Jumladan, adabiyotshunos olim Ramchandra Shukla fikricha («Gosvami Tulsidas» kitobida, 1933 yil) Tulsidas hind xalqini jipslashtirishga hamda kastachilik sistemasining inkirozga yuz tutishi oqibatida yerga urilgan yuqori kasta vakillarining mavqeini tiklashga katta hissa qoʻshgan. «Tulsidas - deb yozadi P.Gupta - oʻz maqsadini xalqqa xizmat qilishda deb bilgan». Rus hindshunosi Ye.P.Chelishhevning aytishicha: «hech bir hind shoir ijodida Tulsidas ijodichalik xalq-demokratik va feodal-brahman tendensiyalari bir-biri bilan chatishib ketmagan». Tulsidasning sotsial va falsafiy qarashlarida uzluksizlik va qarama-qarshiliklarning koʻpligi haqida rus hindshunos olimi A.P.Barannikov ham oʻz vaqtda aytib oʻtgan edi. Shunday qilib, Tulsidas ijodi oʻrta asrlardan beri oʻrganilib kelinmoqda va u haqda turli xil fikrlarning paydo boʻlishi haligacha davom etib kelmoqda. Chunki uning diniy-falsafiy dunyoqarashi, koʻtarib chiqqan gʻoyalari, manfaatlari shunchalik xilma-xil va boydirki, u haqda hali yana koʻp fikrlar kelgusi izlanuvchilar tomonidan ixtiro qilinishi haqiqatdan holi emas.

«Ramacharitamanasa» asari bir qancha hind tillariga ham tarjima etilgan. hozirgi kunda barcha hind tillarida, yaʼni shimoliy va janubiy

shtatlar xalqlarining tillarida ham o'sha xalq milliy ruhi bilan sug'orilgan «Ramayana»lari mavjud. Ular o'z «Ramayana»larini yaratishda qadimgi sanskrit tildagi «Ramayana»ga emas balki (ayniqsa o'rta asarlardan keyingi davrdagi nushalarida) aynan Tulsidasning «Ramachartamanasa» asariga tayangan holda yaratganlar..

«Ramayana» asari rus va o'zbek tillariga ham tarjima qilingan. O'zbek tilidagi «Ramayana» asarining tarjimasini shoir Muxammad Ali rus tilidagi «Ramayana»ga asoslangan holda amalga oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, Tulsidas hind adabiyotida boy o'lmas meros qoldirgan o'rta asr bxakt shoiridir. U Ram ma'budiga bo'lgan o'z muhabbatini o'z she'rlari orqali ifoda etib, uni xalq tili bo'lmish avadxi tilida yaratib avadxi tilini ham adabiy jarayondagi mavqeini mustahkamlagan, bxakti g'oyalarini xalq orasida keng yoygan va shu orqali o'rta asr hind adabiyoti she'riyatini ham juda boyitgan shoir hisoblanadi. Bugungi kunda uning ijodidan ta'sirlanib ijod yo'liga, adabiyot sahnasiga kirib kelayotgan shoir va yozuvchilarning son-sanog'iga yetib bo'lmaydi.

10 Bob Urdu adabiyotining shakllanishi

Urdu Sahitya

Ikkinchi ming yillikning boshlariga kelib Hindistonda shunday bir voqealar yuz berdiki, ular Hindistonning iqtisodiy va ma'naviy jihatdan yangi pog'onaga ko'tarilishga, yangi-yangi o'zgarishlarning har sohaga kirib kelishiga sababchi bo'ldi. Gupta va Xarsha davlatlarining (VI-VII asr) qulashi Hindistonning bir butun davlat sifatida rivojlanish imkoniyatidan mahrum etdi. Hindistonning siyosiy jihatdan kuchsizlashuvi ko'pgina chet mamlakatlardan bosqinchilarning kirib kelishiga qulay sharoit yaratib berdi. Musulmonlarning Hindistonga birinchi bosqinchilik yurishlari VII asrda arab halifaligining Hindistonning janubiga kirib kelishidan boshlandi. Ular 712 yili Sind bo'yiga kirib kelib, mahalliy xalqning ko'pchilik qismini islom diniga kirishga majbur etadilar. Lekin ular Hindistonda uzoq vaqt bo'lmadilar. Undan keyingi bosqinchilar qatoriga eronliklar, undan so'ng esa O'rta Osiyoliklarning kirib kelishi Hindistonda islom dinining mustahkam o'rnashib olishiga sharoit yaratib berdi. Ushbu yurishlar orqasida albatta ikki mamlakat o'rtasida savdo va madaniy aloqalar doimiy ravishda saqlanib keldi. Ayniqsa turk shohi Gaznaning XI asrda Hindistonga bostirib kirishi va uning ketidan O'rta Osiyolik Boburning Hindistonda yirik bir davlatning barpo etishi Hindistonda Islom dinining to'la g'alabasini ta'minladi. Bu davrga kelib, Hindistonda musulmon diniga o'tganlarning ham soni ancha ko'pchilikni tashkil etib qolgandi. Bobur tashkil etgan mug'ullar imperiyasi XVI asrdan to XVIII asrgacha,

Hindistonga inglizlar kirib kelishi davrgacha yirik bir davlat sifatida Hindistonning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Demak, musulmolar Hindistonga VII asrdan boshlab kelib XVI asrga kelganda o'zining katta bir davlatiga ega bo'lib, Hindistonda musulmon adabiyotining shakllanishiga asos soldi.

Musulmon davlatida davlat tili ham, adabiy til ham avvaliga fors tili bo'lib keldi. Keyinchalik sekin asta fors tili mahalliy hind tillari bilan chatisha boshladi va buning natijasida urdu tili shakllana boshladi. Boburiylar imperiyasida O'rta Osiyodan kelgan shoir va yozuvchilar saroyda aaval fors tilida ijod etdilar. Bu adabiyot faqat saroy ahli uchungina tushunarli bo'lib, oddiy xalq bu adabiyotdan bexabar edi. Saroy tili yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek sekin asta mahalliy xalq tili bilan muomalaga kirishib, u bilan chatisha boshladi.

Musulmonlar kirib kelgan davrda Hindiston janubida ko'pgina mahalliy tillar shakllanib bo'lgan edi. Ular orasida Boburiylar imperiyasi hududida yashovchi xalq asosan kxari-bolida so'zlashar edi, bu davrdagi adabiy tillar ham hududiga qarab ba'zi yerlarda kxari boli, ba'zilarida esa braj hamda yana boshqa bir yerda avadxi tili hukm surar edi. Kxari boli va braj tillari asosida keyinchalik bugungi hindi tili hamda avadxi tili asosida esa musulmonlar tili bo'lmish urdu tili shakllanib chikdi. Fors tilining mahalliy tillarga ta'siri asosan yangi so'zlarning kirib kelishi va yangi yozuvning kirib kelishi bilan boshlandi. O'sha davr mahalliy tillari avadxi va kxari boliga fors tilining leksik ta'siri sekin asta yozuvning o'zgarishiga ham olib keldi. Musulmonlar Hindistonda yangi til yaratmadilar, faqat mahalliy tilga o'z so'zlari va yozuvlarini kiritib uni sekin asta adabiy jarayonga ham kiritib borib yangi turdagi hind tilini shakllanishiga sababchi bo'ldilar. Islom diniga o'tgan musulmon hindlar o'zlariga mana shu tilni o'zlashtirib, o'zlarini musulmon dini vakili sanab arab yozuvini qabul qiladilar. Natijada arab yozuvida yoziladigan, kxari boli, avadxi va fors tillari leksikasi chatishuvidan tashkil topgan yangi bir til vujudga keladi. U avvalom bor og'zaki nutqda, keyinchalik esa yozma adabiyotga ham kirib keladi. Bu tilni mahalliy xalq dastavval so'zlashuvda bozorlarda ishlatgani sababli uni «urdu» tili, ya'ni «bozor tili», «aralash til» nomi bilan ataydilar, vaqt o'tishi bilan urdu so'zi hind musulmonlari tilining nomiga aylanib ketadi. Fors leksikasining ta'siri ayniqsa adabiyotda yozma adabiyot shakllanganidan keyin kuchayadi. Urdu tili avvaliga «rexta», ya'ni «aralash» degan ma'nosida tilning nomi bo'lib kelgan. Keyin bu nom «hindustani» atamasi bilan almashtirdi. Urdu so'zi esa asosan XVII-XVIII asrdagina adabiy jarayonga kirib keldi.

Yangi tilning keng tarqalishiga ko'pchilik bxakti va sufizm g'oyalarining targ'ibotchilarining faoliyati ham sababchi bo'ldi. Ushbu ikki diniy harakat hinduizm va islomning fanatizmiga qarshi shakllangan diniy g'oyalar bo'lib, ular har bir dinning asl mohiyati xalq orasida yo'qolib, uning o'rniga, uning formal tomonlari, yangi tilning keng tarqalishiga ko'pchilik bxakti va sufizm g'oyalarining targ'ibotchilarining faoliyati ham sababchi bo'ldi. Ushbu ikki diniy harakat hinduizm va islomning fanatizmiga qarshi shakllangan diniy g'oyalar bo'lib, ular har bir dinning asl mohiyati xalq orasida yo'qolib, uning o'rniga uning formal tomonlari, fanatik yo'nalishlari kuchayishiga qarshi shakllangan. Bu borada ma'lumki, adabiyotning esa ahamiyati juda katta. Chunki g'oya asosan adabiyot yordamida keng yoyilishi mumkin. Bu g'oyalarning keng tarqalishi asosiy sabablardan biri ular asosan xalq manfaatini himoya qilib ularning muammolariga xayrixohlik bildirgan diniy yo'nalishlardir. O'z g'oyalarini xalqqa yetkazish uchun kurashayotgan targ'ibotchilar esa xalq tilida ularga murojaat qilishni qulay deb hisoblaganlar. Ular bu borada bxakti va sufizm uchun zarur bo'lgan tillar braj va urdu tillaridan foydalanganlar. Urta asr davri ko'pgina shoir va yozuvchilari mana shu bxakti va sufizm g'oyalari ta'siri ostida ijod etganlar. Sufizm g'oyalari na faqat hind adabiyotidan balki fors adabiyotidan ham kirib kelgan. Chunki bu davrda butun O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va boshqa bir qancha musulmon davlatlarida sufizm avjga olib rivojlangan bir davr edi. Bu g'oya O'rta asrning yetakchi g'oyalaridan biri sifatida ko'pgina mamlakatlarda ham keng tarqagan bir davr edi.

Hindistonga musulmonlarning kirib kelishi na faqat g'oyaviy yangiliklarga balki til va adabiyotda ham yangi - yangi yo'nalishlar, maktablarning shakllanishiga sababchi bo'ldi. Urdu tili dastavval og'zaki so'zlashuv tili keyinchalik borib esa adabiy til sifatida rivojlana boshladi. Urdu tilining adabiy shakllanishiga asosan ikki maktab faoliyati o'zining katta hissasini qo'shgan. Bu Dehli va Dekan maktablaridir. Urdu adabiyoti dastavval Boburiylar imperiyasi dargohida shakllandi. Ma'lumki, Boburiylar imperiyasi butungi Dehli hududining atroflariga joylashgan bo'lib, uning poytaxti Agra shahri edi. Boburiylar saltanatida fors adabiyoti ta'sirida mahalliy musulmon shoir va yozuvchilari urdu tilida ijod qilishga asos sola boshladilar. Ular fors adabiyoti ta'siri ostida hind adabiyoti mazmunidagi asarlarini yarata boshladilar. Ularning asarlarining g'oyaviy yo'nalishi asosan sufiyona yo'nalishda bo'lib, ular o'z davri muammolarini o'z she'riyati va asarlarida talqin eta boshladilar. Bu davrda saroyda ham undan chetda ham adabiyot asosan ikki tilda ham fors ham urdu tilida

shakllana bordi. Saroydan tashqarida esa mahalliy tillar kxariboli va avadxi tillarida mahalliy hindlarning adabiyoti yana bir yangi sahifa sifatida davom etardi. Ularning ham asarlarining asosiy g'oyasi bxakti va sufizm g'oyalari bo'lib, bu narsa ikki milliy adabiyotning, ya'ni yangi pog'onada, yangi yo'nalishda rivojlanishiga olib keldi. Shu sabab O'rta asr davri adabiyoti juda rivojlanib ketdi va o'zidan keyin juda boy adabiyo meros qoldirdi. Bu davr adabiyoti o'xshash g'oyali, lekin turli yozuvda, ya'ni hindi va urdu tillarida yaratilgan adabiyot sanaladi. O'rta asrda juda ko'p fors tilida ijod etgan hind musulmonlarini yoki bo'lmasa urdu tilida ijod etgan ko'pgina fors yozuvchi va shoirlarining asarlari bilan tanishish mumkin. Shu sabab ikki adabiyot, fors va hind adabiyotlarining sintezi hind adabiyotiga yangi obrazlar, janrlar, g'oyalar kirib kelishini va o'z navbatida fors adabiyotiga ham hind adabiyotidan yangi - yangi syujetlar, obrazlar, qahramonlar va g'oyalar kirib kelishiga sababchi bo'ldi. Bu davrda urdu tilida ijod etgan musulmonlarni yoki hindi tilida ijod etgan musulmon shoir va yozuvchilarni ham sanab o'tish mumkin. Bular o'z navbatida hindi va urdu adabiyoti sahifalarini boyitib bordilar. Jumladan, musulmon Muhammad Jayasi (XVI asr) o'zining «Padmavat» asarini hindi tilida yaratgan yoki bo'lmasa pandit Diya Shankar Kaul (1811-1843) Nasim tahallusida ijod etgan. Uning urdu tilida yaratgan «Gulzar-e Nasim» («Nasim bog'i») asari XIX asr urdu adabiyotining eng yuksak namunalaridandir.

Ko'pgina forsiyzabon shoir va yozuvchilar o'z traktatlarini o'sha davr tili sanalmish hindavida yaratganlar. O'rta asr tazkirachilaridan ko'pchiligining nomini uchratish mumkin.

Bulardan Masud Sad Salmon (I059-II2I) hindavida ijod etgan birinchi forsiyzabon shoirlardandir. U Laxorda ko'p yillargacha saroyda kattagina mansabda ishlagan. Lekin chaquv natijasida qamalib o'n to'qqiz yil qamoqda o'tiradi. Mana shu davrda u o'zining asosiy uchta traktatini yaratadi. Biri fors tilida, biri arab va yana bir hindavi tilida yaratilgan. Bu uch devoni, ya'ni she'rlar to'plamidan faqat bittasi fors tilidagisi bizga yetib kelgan. Uning asl nusxasi Tehronda saqlanadi. Asarlaridan ma'lumki, u hind xalqi hayoti, ularning urf-odatleri va muammolarini juda yaxshi bilgan. Salmonning asarlari hind syujetleri bilan bezalgan.

Xo'ja Ashraf Jahongir Sumnani (XII asr) kxari bolida nasrda ijod etgan birinchi yozuvchi. U o'zining «Sufiy ahloqi» («Axlak-e-tasavvuf») traktatini yaratgan. Ushbu asar falsafiy mazmundagi traktatdir. Sufiy shoirlar sirasiga Shayx Xamiduddin Nagori (1356 vafot etgan) ham kiradi. Uning saqlanib qolgan baytlaridan ma'lumki u mahalliy tilda ijod etgan. Uning baytlarida arab va .fors so'zlari ko'p ishlatilgan. Shu sababli bu tilni

hindavi deb atashgan. hindavi tili keyinchalik urdu tili nomi bilan rivojlanadi. Urdu tilining adabiy jihatdan shakllanishiga asos solgan shoir Amir Xusrav Dehlaviydir (1253-1325). Amir Xusrav O'rta Osiyolik turk Sayfuddin Maxmudning farzandidir. U Hindistonga Shaxrisabzdan borgan bo'lib u yerda qolib bir hind ayoliga uylanadi bu hind ayoldan o'g'il farzand ko'radi. Amir Xusrav sof ind shoiri bo'lgan. U birinchi bo'lib xalq tiliga murojaat qilgan shoirlardan. Uning ijodida hind she'riyatining boy merosi va fors tili she'riyatining go'zal ohangi mujassamlashgan. U o'zi ijod etgan tilni «hindavi» deb nomlagan.

Amir Xusrav asarlarining ko'pgina syujetlari hind syujetlaridir. U o'z asarlarida juda ko'p xalq maqollari, iboralari, matallaridan foydalangan. Uning ijodining o'ziga xos tomoni shundaki, uning she'riyatida ham fors ham hindavi tili bab-barobar ishlatilgan. Bir misrasi fors tilida va bir misrasi hindavida yozilgan she'rlari juda ko'pdir. hind xalqining urf-odatlarini maqol va matallari hamda xalq frazeologizmi Xusrav ijodining eng boy va go'zal tomonidir. Bu shundan dalolat beradiki, shoir hind xalqiga qanchalik yaqin bo'lgan va uni sevgan, o'z asarlarida hind obrazlarini sevib yaratgan.

Urdu adabiyotinin Dekan maktabi. (1400-1700). Feodal tuzumining inqirozi, tinimsiz bosqinchilik urushlari natijasida Hindistondagi ketma-ket shohlarning almashinuvi natijasida mamlakatning siyosiy va iqtisodiy ahvoli yomonlashib bordi. Dehli saltanati ham har jihatdan sustlashib borar edi. Ayniqsa 1398 yili Timurning qilgan Hindistonga yurishi mamlakatga juda katta talofot yetkazdi. Oqibatda adabiyot namoyondalari Dehlidan chetlarga qochishga majbur bo'ladilar. Shu bois urdu she'riyati ham chet - chetlarda rivojlanimda davom etadi.

XIII-XIV asrlarda musulmon raxbarlari Dekanga yurish qiladilar. Ular Dekanni Dehliga qo'shib oladilar. Natijada Baxmanidlar va Gujorat davlatlari barpo etiladi. Urdu adabiyoti esa yana janubga qarab yo'l oladi.

Dekandagi musulmon davlatlari na faqat hindular davlatlari bilan balki o'z hukmronliklarini mustahkamlash maqsadida qo'shni musulmon mamlakatlari bilan ham kurasha boshladilar. O'z mustaqilligini ta'minlash maqsadida ular mahalliy musulmonlar bilan til biriktirishga majbur edilar. Xalq bilan umumiy til topishib ular o'z mavqelarini qutqarmoqchi bo'ladilar.

Shu sababli saroyda fors tili bilan bir qatorda mahalliy til ham ishlatilar edi va uni «daxni», ya'ni «janubiy» til deb yuritilar edi.

Gujorat va Baxmanidlar davlatidagi ko'pgina ilm ahli va ziyolilar Shimoldan kelgan hindavida so'zlashadiganlar edi. Ular ko'p jihatdan shimol an'analari janubga olib keladilar. Ularning ko'pchilik qismi kelib

chiqishi O'rta Osiyo va Erondan bo'lib, o'z milliy an'alariga sodiq shaxslar edi. Ular mahalliy urf-odat va rasm-rusumlarni qabul qila olmas edilar. Lekin vaqt o'tishi bilan yerlik xalq bilan chatishuv ularni mahalliy an'analarga ko'nikishga majbur etadi. Bu yerda eron, turk va hind an'alarining chatishuvi yuz beradi. Musulmon raxbarlar ko'p jihatdan musulmon adabiyotining rivojlanishiga yaxshi shart-sharoit yaratib beradilar. Bu adabiyot asosan hindavida yaratilgan.

Shunday kilib, Hindiston janubida urdu adabiyotining rivojlanish markazlari bu janubiy davlatlar bo'lib qoldi. Ular Dehlida shakllangan adabiyotning davomchisi sifatida janubiy urdu adabiyotiga asos soladilar. Bugungi kunda u Urdu adabiyotining Dekan maktabi deb nomlanadi. Shimol va janub adabiy aloqalari ham o'z vaqtida davom etib keldi. Ayniqsa sufizm va bxakti targ'ibotchilari bu an'analarni saqlanib yanada rivojlanib borishiga katta hissa qo'shganlar. Bu davr adabiyotining ko'pchilik qismi ma'lumki sufizm va bxakti g'oyalari bilan sug'orilgan. Urdu adabiyoti janubda Dekan maktabida sifiyona g'oyalar asosida rivojlana bordi.

Sufiy g'oyalari targ'ibotchisi Aynuddin Ganj ul Ilm (1306-1396) Gujaratdagi birinchi nasrchilardandir. U keyinchalik Baxmanidlar davlati adabiyoti shakllanishiga katta hissa qo'shgan. U asosan diniy-mistik g'oyalar bilan sug'orilgan asarlar yaratgan. Uning asarlari Dehli saltanatida ham mashhur edi.

Shoir va yozuvchi Xoja Bandanavoz Geysudaroz (1320-1422) mashhur sufiy Nasiruddin Chirog'ning shogirdi, undan keyin esa Chishtining shogirdi bo'lgan. U Dehlida yashagan. Faqat Timur bostirib kirganidan keyin Dehlini tark etib Hindistonda sayoxat qilib yurishga majbur bo'ladi. Firozshoh Baxmani taklifiga binoan u Gulbargga borib yashay boshlaydi. Shu yerda u o'zining nasrda yaratgan asarlari: «Miraj ul Ashiqin» («Oshiqlar makoni»), «Xaft asrar» («Yetti sir»), «Xidoyatnoma» («Hacixatlar»), «Shikarnama» («Ov haqida hikoya») kabi asarlarini yaratgan. U fors va arab tillarini juda yaxshi bilgan. Uning hindavida yozilgan ushbu asarlarida xalq maqollari, matallari, kinoyali hikoyalarni ko'p uchratish mumkin. Ushbu janrlar yordamida u ma'lum bir sifiyona g'oyani ochib berishga harakat qiladi. Uning asarlari tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan didaktik asarlardir.

Dekan maktabida Shoh Miranji o'z ijodi bilan ko'pchilikning hurmatini qozongan shoir va yozuvchidir. Uning nazm va nasrda yaratgan asarlari ham sifiyona g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, o'z davri talabi muammolarini yorqin tasvirlab bergan. U 1496 yili olamdan o'tgan. Uning o'g'li Shoh Burxoniddin Januma va nabirasi Aminuddin A'lolardir.

Ularning ijodida masnaviy janri rivojiga yetadi. Ular yaratgan masnavilar: «Irshadnama» («Nasihatlar»), «Sukx Saxela» («Baxtli Saxela») va boshqalardir. Bu ikki asar Burxoniddin qalamiga mansubdir. Aminuddinining «Muxabbatnoma»si mistik sevgini kuylovchi asardir. U yaratganga bo'lgan muhabbatni ifoda etib, bilish sirlarini ochib bergan. Ular o'z oldilariga adabiy asar yozishni maqsad qilib qo'ymaganlar. Aksincha, davr talabi bo'lmish sufiyona g'oya tarafdori bo'lib uni o'z asarlarining asosiy bosh g'oyasi qilib oladilar. Bu maqsadda albatta adabiy formalardan keng foydalanadilar. Ular xalqqa yaqin asarlar yaratish, uni xalq ommasi orasida targ'ib etish maqsadida mahalliy dialektlardan ham foydalanadilar. hind mifologiyasiga murojaat qiladilar. hind musulmon birligiga chaqiradilar. Barchani yaratgan oldida tengligini asosiy g'oya qilib ko'tarib chiqadilar. Bu esa o'sha davrniig, ayniqsa Hindiston uchun, eng muhim g'oyalardan bo'lib, bxakti harakati asosida targ'ib qilinib borar edi. hind adabiyotida ham aynan mana shu g'oyalar o'z davrining muhim g'oyasi sifatida ko'p asarlarda o'z aksini topgan.

Bijapur va Golkondo davlatlarida dastavvval fors tili adabiyot va davlat tili bo'lib keldi. Yozuvchi va shoirlar bu davrda ko'proq fors adabiyotidan ta'sirlanib ijod etdilar. Lekin sekin-asta rivojlanib kelayotgan urdu tilidagi adabiyot fors tilini chetga chiqarib adabiy jarayonga o'zi kirib kela bordi. Yozuvchi va shoirlar endi ikki tilda ijod qila boshladilar.

XV asrda ijod etgan Geysudarozi Abdulla Xuseyni «Sevgi laxzalari» («Pishat ul-ashikin») nomli asarini yaratadi. Bu asar fors shoiri Abdul Qodir Gilanining sevgiga bag'ishlangan asariga javoban yaratilgan asardir.

Urdu tilida ijod etgan Dekan maktabi vakillaridan biri Mulk Qalamidir. U Nizomi Ganjavi hamsasiga kiruvchi «Mahzan al-asrar» («Sirlar xazinasini») asariga javoban o'z asarini yaratgan.

Malik Xushnud o'zining fors tilidagi masnaviylarining tarjimalari bilan urdu adabiyotiga katta hissa qo'shgan. U Amir Xusravning «Xasht Bixisht» («Sakkiz jannat bog'i»), «Yusuf va Zulayxo» asarlarini fors tilidan urdu tiliga o'giradi. Bijapurlik mashhur shoir Rustam ham urdu ham fors tillarida ijod etgan bo'lib u Chand Bardai (XII asr)dek qahramonlik she'riyatini yaratdi. Chand Bardai hind adabiyotida qahrmonlik she'riyatining yirik namoyondasi bo'lsa, urdu adabiyoti qahramonlik she'riyatining yirik vakili Rustamidir. Uning «Xavar noma» («Sharq haqida poema») asari fors epik poemasi syujeti asosida yaratilgan. Unda asosan qahramonlik kurashlari tasviri, ma'budlarning qayta - qayta yangi obrazlarda turli karomatlar ko'rsatishi kabi g'ayri tabiiy voqealar tasvirlangan.

Hind va fors adabiyotining chatishmasi urdu adabiyotining sahifalarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Bu chatishmani ayniqsa hind adabiyotiga kirib kelgan yangi - yangi nazm janrlarida koʻrish mumkin.

Bijapur davlatining oxirgi saroy shoirlaridan biri Muhammad Nusrati boʻlib u oʻzining goʻzal sheʼriyagi uchun «Malik ush - shuara» («Shoirlar sultoni») unvoniga ega boʻlgan. U 1684 yili olamdan oʻtgan boʻlib, umrining asosiy qismi saroy sheʼriyatiga xizmat qilish bilan oʻtgan. Nusrati barcha sheʼriy janrlarida ijod etgan va ularni toʻliq egallagan shoir edi. Uning qalamiga «Guldasta-i ishq» («Ishq guldastasi») nomli gʻazallar toʻplami, Odil shohga atab yozilgan qasidalar toʻplami, «Gulshane ishq» («Ishq gulshani») nomli masnavisi hamda «Odil shoh haqida qissa» hamda «Tarix-e Iskandar» («Iskandar shoh tarixi») kabi tarixiy asarlari ham mashhurdir. Tarixiy asarlari qahramonlik qoʻshigʻi sifatida yaratilgan. xuddi hind adabiyotidagi «virgaxa» («vir» - «qahramon», «git» - «qoʻshiq») qoʻshiqlaridek.

Bu qoʻshiqlarda adabiyot bilan birga tarix ham mavjud boʻlib u tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Qahramonlik qoʻshiqlarida Boburiylar imperiyasi davridagi odil shoh va Qutb shohlarning taxt uchun kurashlari, hamda maratxlar bilan boʻlgan taxt uchun kurashlar tasvirlangan. Nusrati ijodi Dekan maktabida shakllangan sheʼriyat nazariyalarining, qonun- qoidalarining yaqqol namunasidir. Unda tabiat tasviri, tarixiy voqealar tasviri hamda oʻsha davr turli urf-odatlar va anʼanalarining tasvirini koʻzatish mumkin.

Oʻsha davr adabiyotida Bijapurlik shoir Ibroxim Odil shoh (1580-1627) ijodi katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa uning «Naoras» («Toʻqqiz musiqa») asari qadimgi Hindiston qoʻshiqlariga taqlid qilib yaratilgan. Bu qoʻshiqlarda shoir anʼanaviy hind adabiyotidagi Vishnu, Indra, Sarasvati, Ganesha Ganga daryosi maʼbudlarini kuylaydi. hindlarning diniy rasm-rusumlarini kuylaydi. hind anʼanasi urdu tilida yaratiladi. Ibroxim Odil shohning qoʻshiqlaridagi musiqaviylik va mazmundorlik uning qoʻshiqlarini xalq orasida sevimli boʻlishiga sababchi boʻlgan. U sanskrit sheʼriyati uslublaridan ham ustalik bilan foydalangan. Ibroxim Odil shoh ijodi albatta fors adabiyoti taʼsiridan ham holi emas. Sufiy gʻoyalari fors adabiyoti qahramonlariga murojaat qilish, uning ijodiga arab va fors tillari soʻzlarining kirib kelishiga asos boʻlgan. «Naoras» asari Dekan maktabining urdu tilidagi dastlabki asarlari qatoriga kirib unda fors - hind adabiyotining chatishuvi mevalarni yaqqol koʻrishimiz mumkin.

Dekanda urdu adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan adiblardan yana biri XVI-XVII asr adabiyoti namoyondasi Golkonda

davlatida yashagan Muhammad Quli Qutb (1580-1611) shohdir. Yana bir adib Vajaxi bo'lib u 1660 yili vafot etgan. Ularning zamondoshi bo'lmish o'ayvosi va Ibn Nishotilar ham urdu adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan adiblardir.

Golkonda shohi Muhammad Quli Qutb shoh juda keng dunyoqarashli, o'tkir zaharli hamda she'riyatga qobiliyatli shoh bo'lgan. U siyosat borasida ham juda o'tkir aqli bilan ajralib turar edi. O'z zamondoshlari Akbarshoh va Ibroxim Odil shohlarga o'xshab dinda tenglikni xush ko'ruvchi shohlardan bo'lgan. Uning asarlarida hind musulmon birligiga chaqiriq hamda go'zallik va sufiyona fikrlar ham o'z aksini topgan. U shoh sifatida ham juda xalq sevgan shohlardan bo'lib, uning davrida Golkonda har tomonlama rivojlana boshlaydi. U hind musulmon tengligini faqat so'zda emas amalda o'z siyosatida ham amalga oshirar edi. Jumladan, hindlar bayrami Holini u o'z mamlakatida juda katta tantana bilan nishonlashni ananaga aylantirgan edi. Uning shohlik qilgan davrida ilm fan, arxitektura va boshqa barcha sohalar o'zining rivojlanish cho'qqisiga yetadi. Uning ko'p she'rlari xalq bayramlariga bag'ishlangan. Masalan, «Basant» nomli she'ri Hindiston bahorini tasvirlab beradi. hind adabiyotida kuylash an'anaga aylangan sevishganlar mavsumi yomg'ir oyi «barsat» haqida ham ko'pgina she'rlar yozgan. Quli Qutb shoh janubiy Hindiston tillarida ham ijod etgan. U asosan urdu fors va telugu tillarida ijod etgan. Shularning o'zi uning qanchalik keng dunyokarashli, ziyoli va odil shoh bo'lganligidan dalolat beradi. Kuli Kutb shoh Hindistonda birinchi Devon - she'rlar to'plamining muallifidir. U fors adabiyoti she'riy janrlarini ham chuqur egallab ularda ijod etgan juda qobiliyatli shoir va shohdir. Uning devoni uning g'azallari, ruboiylari, qasidalari, masnaviy va marsiyalari kiritilgan. Shoir birinchi bo'lib «g'azal-e musalsal», yani «tematik g'azallar» to'plamini yaratadi.

Quli Qutb shoh o'z she'riyatida tabiatga, hind urf-odatlariga, diniy rasm-rusumlariga ko'p murojaat qiladi. Uning asarlarining tili sodda va ravondir. Uning ijodida demokratik g'oyalarni ko'rish mumkin. Shu sabab hind xalqi uni birinchi hind xalq shoiri deb atashadi.

Dekan maktabi shoir va yozuvchilari urdu adabiyotini yanada takomillashib rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Ular yaratgan she'rlar doim bozorlarda, maydonlarda, ko'chalarda xalq tomonidan aytib yurilar edi. Shoirilar ham xalq oldida ko'pincha o'z ijodlarini namoyish etib uni xalq ongiga singishiga sababchi bo'lar edilar.

Hind demokratik g'oyalarini ijodida keng qo'llagan shoirlardan Ibn Nishotining nomini tilga olish mumkin. Uning hayoti oddiy xalq orasida

o'tgan. U hech qachon saroyga yoki baland nomlarga intilmagan. U yaratgan she'riyat faqat o'z dil so'zlari va xalq muammolari bo'lib, ularni she'riyatda ifoda etish uning uchun eng sevimli ish bo'lgan. U o'zining «Pxulban» («Gulshan») nomli asari bilan el og'ziga tushgan shoir. Uni urdu adabiyotining Dekan maktabi she'riyatining durdonasi sifatida baholaydilar. Asar bilan yaqindan tanishish muallifning fors adabiyoti bilan yaqindan tanishligini isbotlaydi. Uning badiiy uslublarini, g'oyalarini va syujetlarini chuqur egallagan shoirdir. Qutb shoh zamondoshi Mulla Vajaxidir. U Golkondaning yirik shoir. va yozuvchisidir. Uning masnaviysining qahramonlari Quli Qutb shohdir. Masnaviy «Kutb Mushtari» deb nomlanadi. Vajaxi poemasi lirik va romantik tarixdir. Unda tarixiy voqealar asosida ajoyib bir to'qima syujet yaratilgan. Asar janubiy Hindiston urdu tilining adabiy uslubining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Masnavi odatdagidek Ollohning maqtovi bilan boshlanadi. Kirish so'zi arab va fors leksikalari bilan yozilgan. Keyingi qismlarida sevgi voqealari aks ettirilgan. Ayrim joylarda arab va fors so'lari o'nini sanskrit va mahalliy dialekt so'lari eg'Kllagan. Mushtari «Dekanga atalgan gimn» desa ham bo'ladi. O'z yurtiga mehr va sadoqat asarda kuchli ifoda etilgan.

Golkondada nazm bilan bir qatorda nasr ham urdu tilida rivojlana boradi. Vajaxiga shuhrat olib kelgan asosiy asar uning nasrda yaratgan asarlaridir. «Sabras» asari uning eng yuksak asarlaridan hisoblanadi. Bu asar Sulton Abdulla Kutb shoh (1624-1672) talabiga ko'ra yaratilgandir.. Bu asar fors tilidagi «Husn-o dil» (Muxammad Yaxyo Sebak Fataxi Nishapuri asari) asarining qayta ishlanmasidir. Bu asar fors tilida 1473 yili yaratilgan edi. Fors adabiyotida juda katta shuhrat qozongan ushbu asar keyinchalik urdu tilida ham o'z nusxasiga Sabras nomi bilan ega bo'ldi. Asarning turk, o'zbek va boshqa bir qancha tillarga tarjimalari mavjuddir. Yevropa tillaridan ingliz va nemis tillariga ham tarjimasi mavjuddir. «Sabras» urdu tilidagi birinchi nasriy asardir. Bundan avvalgi nasrda yaratilgan asarlar jumladan, Geysudaro Sumnanining va boshqa bir qancha adiblarning asarlari asosan sufiyona g'oyadagi traktatlardir. «Sabras» esa birinchi badiiy asardir. Sufiyona ruhdagi traktatlarning ayrim joylarida sufiy obrazlarni uchratish mumkin, lekin ular badiiy asarlar qatoriga kira olmaydi. Ularda hali urdu tili badiiy til sifatida shakllanib ulgurmagan edi. Unda asosan falsafa, din va boshqa coxalapga oid atamalarnini ko'rish mumkin.

Vajaxining «Sabras» asari birinchi bor kitobxon talabini qondirgan urdu tilidagi birinchi badiiy asardir. U fors yozuvchisiga raqobatchi sifatida uning asarini hind adabiyoti go'zalliklari bilan bezab yaratgan. Asar bosh qahramoni Akl va Ishkdir. Bu ikki kuchli hissiyot o'zaro kurash davomida

dunyoviy hissiyotlar kurashi asosida ishq va aqlning kuch qudrati nimalarga qodir ekanligi hamda natijada qay biri kuchli chiqishi mumkinligi masalasini hal qiladi. Aql g'arb hukmdori Ishq esa Sharq podshosi etib tasvirlangan. Aql yurtini Siston va Ishk yurtini sharkda deb olingan. Ishk farzandi guzallik va Akl farzandi Yurak olingan. Ugli usgandan keyin Akl uni Badan mamlakatining shohi etib tayinlaydi. U yerda esa dil hayot ichimligi borligini eshitib uz vakili Nazarga shuni olib kelishni buyuradi. Vokeaga Nomus aralashadi, darvesh Buyuklik, shoh Kaxramonlik (Ximmat) Rakib Guzallik Zulf, vazir Vaxm va boshkalar aralashib vokealar sekin asta uz rivoji kulminatsiya va yechimiga boradi. Bu vokealar turli yerlarda shaxarlarda ya'ni Muvaffakiyat yoki Zuxd (darveshlik shaxarchasi) xamda Boylik joylarida vokealar bulib utadi. Shu yusinda Akl va Ishk urtasida kurash borib Akl Ishkka tan berishga majbur buladi. Lekin Vajaxi Ishk olovi vaktincha deb hisoblab olov uchgandan keyin Akl uz talabasini kulga kiritishini tasvirlab bergan. Asar kaxramonlari oxirida Xizr dargohida uchrashadilar va u ularga turli sir asrorlarni ochib suzlab beradi.

Vajaxi asarda kupgina tarbiyaviy ahamiyatga ega bulgan tomonlarni ochib bergan. Ishkning bema'ni oloviga ya'ni nafsga berilish insonni kancha yomonlik va hatolarga yul kuyishina sababchi buladi deb xulosa kiladi Vajax. Nafsga berilish insonga berilgan juda kup yaxshi xislatlarning yukolishiga olib keladi - deydi Vajaxi. Vajaxi Akl galabasini tugri deb hisoblaydi. Asar boshdan oxirigacha aql kushigidir. Hindistonda turli mayda-mayda davlatlarning taxt uchun kurashlari yuz berib halk ahvoli iktisodiy va siyosiy jixatidan ogirlashgan bir davrda u aklni ishga solishni dav'at etish maksadida ushbu asarini yaratadi. Vajaxi Golkondaning oxirgi shoir va yozuvchilaridandir. XVII asrga kelib Hindistondagi Mugullar imperiyasi inkirozga yuz tuta boradi. Ular Dekanga xam xujum kilib bu yerdagi tinchlikni buzib xar sohaga zarar yetkaza boshlaydilar. Bundan keyingi davr adabiyotida asosan pessimistik va tragediya diniy-mistik goyalar bilan sugorilgan asarlarning yaratilishini kurish mumkin.

Dekan shohliklarini bostirishni boshlagan Akbar ishini Aurangzeb tugatadi. (1658-1707) U Golkondani bosib oladi. Va bu hududni uz imperiyasiga kushib oladi. Urdu adabiyoti markazi yana inkirozga yuz tutadi. Kup shoir va yozuvchilar Aurangobodga kuchib ketadilar. Hindiston janubida urdu tilidagi adabiyot sekin-sekin rivojlanishda davom etadi. Dekan maktabining oxirgi shoiri mana shu yerda ijod kilgan. U Aurangabadi nomi bilan mashhur. Vali Aurangabadi Baba - i rexta yoki Adam - i urdu tahalluslari bilan xam mashhurdir. Bu degani "Urdu she'riyati otasi" dir Uning asarlari "Divane Vali" (Vali Devoni) tuplamida saklangan.

Uning hayoti va ijodi xakida kupgina ma'lumotlar mavjuda, lekin kuplari esa bizga yetib kelmagan. U XVII asrning 40- yillarida tugilgan. U Axmad obodda tugilgan. Hayotining kup kismi esa Aurangoyuodda utgan, shu sababli u Vali Aurangabadi deb nom taratgan. Uning ijodiga fors adabiyotining ta'siri katta bulgan. U xar kanday holatda xam Dekan maktabi vakili hisoblanadi. Va uning uzi xam bu bilan faxrlangan. U g'azal, qasida .masnaviy va ruboiylar yaratgan. Urdu tili she'riyatining uslubining shakllanishida uning she'riyatining ahamiyati kattadir.

Fors adabiyoti an'analariga murojaat etish urdu adabiyotiga birinchi bulib aruz sistemasini urganishni olib kirdi. Aruzni urganish urdu tilini uslub jixatidan yanada takomillashuviga olib keldi. Urdu adabiyotiga she'riy bezash koidalarini olib kirdi va urdu she'riyati misli kurilmagan darajada rivojlanib ketdi. Urdu adabiyoti fors adabiyoti she'riy janrlari bulmish g'azal, marsiya, ruboiy va kit'a kabilarni sekin asta uzlashtira bordi.

Urdu adabiyotini boyitgan eng yirik she'riy janrlardan biri bu g'azal janridir. G'azal janri fors adabiyotidan urdu adabiyotiga aruz sistemasining kirib kelishi natijasida shakllandi. G'azal janri urta asrda na fakat Hindiston yoki Eron kabi mamlakatlarda balki Urta Osiyo va boshka shark mamlakatlari adabiyotida keng tarkalgan va sevimli janr sifatida mavjud edi. G'azal janrining ijobiy xususiyatlaridan biri u musikaga tez tushadi, xamda kichik bir katorde katta bir ma'no, mazmunni mujassamlashtira oladigan uziga kitobxonni diqqat e'tiborini jalb eta oladigan janrdir. Bu janrga murojaat kilmagan shoir yoki yozuvchini topish kiyin. Urdu adabiyotidagi dastlabki g'azallar tanikli forsiy va urduzabon shoir Amir Xusrav Dehlaviy kalamiga mansubdir. U avvaliga fors tilida keyinchalik esa urdu tilida g'azallar yaratdi. Bugungi kunda uning g'azallari kuyga solinib hind kushikchilari g'azalchilari tomonidan xamisha kuylanib kelinadi.

Urdu adabiyotini ***g'azal*** janri bilan boyitgan mualliflardan kuyidagilarni nomini tilga olish mumkin: Kuli Kutb Shoh, Geysudarozi Bandanavze, Vali va boshkalar.

Urdu adabiyotiga fors adabiyotidan kirib kelgan yana bir she'riy janrlardan biri ruboiydir. Ruboiy janri xam ma'lumki Urta Osiyo va Eron, Afgon adabiyotlarida keng tarkalgan sevimli janrlardan biridir. Ushbu janrda Hindiston shoirlari xam juda keng miqyosda foydalanganlar. Ruboiy janrida ijod kilgan urdu adabiyoti vakillaridan Geysudarozi Bandanavoz, Kuli Kutb Shoh, Vali va boshka bir kancha shoirlarning nomini tilga olish mumkin.

Marsiya janri xam urdu adabiyotiga musulmon adabiyoti orkali kirib kelgan. Marsiya ma'lumki kushiklar bulib unda asosan kayguli vokealarni

kuylovich janr bulib, usha davr buyuk imom, mulla yoki ma'lum bir kaxramonlarning ayrim kurashlarda kaxramonlarcha halok bulganini kuylash maksadida yaratilgan. Shoirlar uz mamlakatlarida bulib, utayotgan turli fojiali voqealarga befark karay olmay, unda olamdan utib ketayotgan kancha-kancha begunohlarning fojiali hayotini uz marsiyalarida kulaganlar. Hindiston ozodligi uchun shaxid bulganlarning soni aynan shu davrda kupayib borgan edi.

Jumladan dekan maktabining shoirlaridan Shayx Doud Zeyfi Aurangzebga atab aloxida marsiya yozgan, va uning bu marsiyasi unga shuxrat olib kelgan.

Bundan tashkari urdu adabiyotiga fors adabiyoti ta'sirida **masnaviy** va **qasida** janrlari xam kirib kelgan. Masnaviyda ijod kilgan musulmon shoirlardan Geysudaroz Bandanavoz, Kuli Kutb Shoh, Gavvosi, Ibn Nishoti, Vajaxi (Kutb va mushtari), Vali kabi shoirlar kupgina marsiyalari (Pxulban) bilan urdu adabiyoti urta asr she'riyatini juda boyitganlar.

Qasida janri xam urdu adabiyotida xozirgacha mavjud she'riy janr bulib unda urta asrlarda Kuli Kutb Shoh va Vali kabi yana bir kancha kichik shoirlar ijod etganlar.

Umuman olganda yukorida sanab utilgan barcha she'riy janrlar urdu adabiyoti va umuman hind adabiyoti uchun butunlay yangi janr bulib, ular xozirda fors adabiyotidan kura urdu adabiyotida rivojlangan desak hato bulmaydi. Fors adabiyotning musikiyligi va hind adabiyotining mazmun va syujet va guzallik boyligi ushbu she'riy janrlarni yanada guzallashgan holda urdu adabiyotida shakllanishiga olib kelgan ayniksa g'azal janri bugungi urdu adabiyotining yuragi, dili desak fakt xak gapni aytgan bulamiz. Urdu adabiyotida bu janr ayniksa XVIII asrdan keyin avj olib rivojlanib bugungi kunda eng bosh she'riy janr hisoblanib, g'azal yaratmaydigan shoir yuk desak hato bulmaydi.

11 Bob Janubiy Hindiston adabiyoti.

Tulugu adabiyoti.

Telugu Sahitya

Telugu Hindistonning Andhra Shtatining tili bulib, u utgan yuz yillik oxirida shakllana boshlagan. Andhra Dekanning shimoli-garbida joylashagan. Uning territoriyasi asosan turt asosiy kismga bo'linadi. Uning territoriyasidan uch mukaddas daryolar -Godavari, Krishna va Pennar darelari okib o'tadi. Bu daryo bo'ylarida kichik-kichik shaxar va kishloklar shakllana borgan. Telugu halki eramizning oldingi 1- ming yilliklaridaek shimoldan kirib kelgan oriylar ta'sirida bulganlar. Oriylar Andhra territoriyasini butunlay bosib olib uz davlatlarini ham tuzganlar. Shimoldan

kiribkelgan oriylarning Andxra halkiga xar tomonlama ta'siri utgan. Diniy, ma'naviy va sotsial jihatdan o'zgarishlari oriylar ta'sirida amalga oshgan. Ayniksa shimoldan kirib kelgan brahmanizm dinining ta'siri kuchli bulgan.Uning kastachilik sistemasi xam xalqni guruxlarga, varnalarga bulinishga sababchi bo'lgan.

Andxra halki adabiyotida shimol va janubni bir-biridan ajratish, ularni kieslash xech kaerda uchramaydi. Telugu halki azaldan o'zini oriylar avlodi deb telugu tilini esa "buzilgan til", ya'ni payshachi praktiritga dravid tillarining ta'siri ostida bunedga kelgan til deb hisoblaydilar.

Hozirgi kunda andxra halki oriylarning dravidlar bilan chatishmasidan kelib chikgan degan tahminlar bor.Bular naga va yaksha nomidagi dravid kabilalaridir.

Vishvamitra xakidagi afsonalar sankrit adabietidagi andxra halki xaqidagi birinchi yozma esdaliklardir. "Mahabxarata" eposida xam andxra shohining kauravlar tomonida turganligi xakidagi ma'lumotni uchratish mumkin. Andxra xakidagi tarixiy xujjatlar esa eramizning oldingi Sh asarlardagi yezma xujjatlarda uchraydi. Ularda yezilishicha Andxra davlati usha davrda Mauriya imperiyasi tarkibiga kirib,unda Ashoka hukmronlik kilgan deb yezilgan.

Shatavaxanlar davridan boshlab eramizdan avvalgi u asrlarda shimolda shakllangan buddizm va jaynizm dinlarining g'oyalari kirib kela boshlaydi. Eramizning Sh asriga kelib Shatavaxanlar imperiyasi inkirozga yuz tutadi.624 yili esa Chalukya dinastiyasi shohining ukasi Kubja Vishnuvardxana Andxra o'z davlatini tuzadi va Venginini o'z poytaxtiga aylantiradi. Uning avlodlari Vengi Chalukya deb nomlangan. Ular keyingi besh yuz yilgacha hukmronlik kiladilar.Ular tashkil etgan davlat janubdagi uch yirik davlatlardan biri edi.

Chalukya davlatida birinchi bor Telugu davlat tili deb e'lon kilingan. Mana shu davrda birinchi adabiy asarlar ham yaratilgan. Telugu tilida yezma yedgorliklar eramizning 1X-X asrlarida mavjud edi. Lekin bu xakdagi ma'lumot ancha keyin ma'lum bulgan. Birinchi yozma yodgorlikning nomi "shasana" yezuvlari bulib,ular toshlarga uyib yozilgan yozuvlardir. Ularda Pallava davlatining konli kurashlari xakida yozilgan. Ular asosan tarixiy ahamiyat kasb etadigan yezuvlardir.Shasana yezuvlari o'z davri xaqida anchagina ma'lumot beradi.Urta asrlarda shoh hukmlari halk orasida anchagina obru- e'tiborga,shohnihalk orasida targibot kilish uchun xizmat kiluvchi omil sifatida ishlatilgan. Ularda asosan yer xujaligini yuritish, kurbonlik marosimlarini utkazish xakida,ibodatxonalar kurish shu kabi kundalik konunlar majmuasidan iborat ma'lumotlar bulgan.Telugu

tilidagi eng kadimgi yezuv 575 yilga oiddir.Undan oldin esa shohlar sanskrit yeki prakritlardan foydalanganlar.UP-USh asrlarga tegishli yezuvlar juda kam saklanib kolgan.Ularda fakat tarixiy ma'lumotlarga mavjud,adabietga oid bilimlar ularda hali shakllanmagan.

Shosana yozuvlarida yezilgan birinchi she'riy asar 1X asrga tegishli. Telugu tilidagi birinchi she'r esa 849 yilgi yezuvda Addanka kishlogidan topilgandir.U harbiy kumondon xakidagi she'r bulgan.Uning mazmuni kuyidagicha:

*V den perviy kogda sar koronovalsya,
On, oshutiv velikoe dovolstvo.
Na golovu vladiki Pandarangi
Nad voyskom vlasti vozlozil venes.*

Shosana she'rlari dravid razmerlarida yezilgan. Ularda sanskrit suzlari xam uchraydi.Sanskrit tilida yaratilgan "she'riyat ilmi xakida" ("Janashpryachxandamu") asari yakinda topilgan bulib,uni Janashray yaratgandir.Uni telugu she'riyati xakida traktat desa xam buladi. U U-U1 asrlarga tegishlidir.

Eramizning birinchi ming yilligida Andxrada hukmron din jaynizm bulgan. Shu sabab kupgina adabiet namunalari jaynizm dini goyalari ta'siri ostida yaratilgan. X1U-XU asrga tegishli adabiy yedgorliklar orasida telugu adabietining vakillari Padma va Sarvadevalar xakida ma'lumot topilgan. Ular uzlarini andxralik deb yezishgan. Lekin kannar halki orasida yashaganlar. Ular Rashtrakuta saroyida ijod kilib na fakat telugu tilida balki kannar tilida xam ijod etganlar. Padma 941 yillar atrofida telugu tilida "Jinendra xakida parana" nomli uz ustozlari xakida asar yaratgan. Sarvadeva esa ikkita poema yaratgan: "Adi puranam" (Azaliyat xakida poema),xamda "Viratamu" (Virat xakida kitob) kabi asarlarni yaratgan.

"Virata kitobi" asosan Mahabxaratadan olingan syujet asosida yaratilgan. Bulardan boshka jaynizm goyalari bilan sugorilgan asarlar yetib kelmagan.Bunga sabab brahmanizm fanatiklari eramizning 1- ming yilliklarida jaynlarni Andxra territoriyasidan haydab chikarib ularning yaratgan adabietini kulini kukka sovurganlar.Undan tashkari Andxra territoriyasini bosib olgan Tippu Sulton xam mahalliy halk adabietini XUSh asrlarda yuk kilib yuborgan.U kutubxonalaridagi suyaklar va palma barglariga yezilgan kulezmalarni yekib yuborgan. Ayrimlarini uzining ot va tuyalariga yemish kilib bergan.

X1-XP asrlarda Nanna Bxatt asos solgan "she'riyat ta'limoti" asta sekin rivojlandi. Andxra davlatida feodal tartiblarining yangicharivojlanishi

kanchalik chukurlashgan sayin shunchalik yerlik hukmdorlar telugu tilida adabiet yaratishga urinadilar.

Bizgacha eng erta yetib kelgan traktatlardan biri “*Shoirlar yashash joyi*” («*Kavijanashrayan*») bulib, uning avtori shoir Mamiya Richanadir. Raj Gokarna Deva va jayn monaxi Andxarvan-achariyaning analogik asarlari XP asr urtalariga tugri keladi.

Bir vaktning oʻzida telugu tilini ilmiy-badiiy adabietga kiritish xarakatlari ham kilingan. Bu tilda xar xil muammolar: falsafa, teologiya, xukukshunoslik, siesat, matematika, astronomiyaga bagishlangan turli xil sheʼr va ritmik prozalar yaratilmokda.

Brahman Pavuluru Mallaning “Matematika” («*Pavuluganitama*») traktati bir necha ming sheʼrlardan iborat bir katta tuplam bulib, u tahminan 1160 yilda yozilgan va oʻz ichiga nafakat algebra va geometriyaning umumiy maʼlumotlarini balki yer ulchov ishlariga bagishlangan bir necha mahsus bilimlarni xam olgan. Tarixchilarning maʼlumotlariga karaganda Guntur okrugining yashovchilari oldingi yuz yillikda shu kitobni oʻqib, oʻrganib, shu kitob buyicha yerlariga ishlov berganlar.

1908 yilda hind olimi Manavalli Ramakrishna tomonidan “Kumarning tugilishi” («*Kumarasambxava*») poemasining kulezmasi topilgan. Bu poemaning avtori Nannechoda boʻlib, u yirik feodal bulgan va Pakanada viloyatidagi minglab kishloklar uning kul ostida bulgan.”Kumarning tugilishi” telugu adabietidagi liro -epik poema (kavyamu) deb ataladigan eng birinchi namunadir. Bu janr 1-USh asrlarda yaratilgan “Mahabxarata” va “Ramayana” asarlaridan fark kiladi.

Nannaya Bxattning «Andxra Mahabxarata» asari juda mashhur asarlardan biridir. U bu asarni yozishda asosan oʻz oldiga bir maksadni qoʻygan. U xam boʻlsa - halk oldida kadimgi yashash konun koidalarini obru eʼtiborini kutarish,dinga eʼtibor berish, brahmanlar kastasiga xurmat bilan karash, xar bir shaxsning uz burchini toʻla toʻkis ado etishi kabi goyalarni targib kilishni bosh maksad kilib olgan.

«*Andxra Mahabxarata*» asari asosida Mahabxarata eposi yetadi. Nannaya Bxatta uz dusti kannar shoiri Narayana Bxatt bilan xamkorlikda Mahabxarata eposining avvalgi birinchi kitobini telugu tilida yaratadi. Uchinchi “Urmon xaeti” kitobi esa tugallanmay kolgan. Nannaya Bxatt uz Mahabxaratasini uz halkiga moslab yaratadi. Undagi ayrim joylarni uzgartirib, uz davri talabiga moslab yaratadi. U uz kaxramonlarini uz goyasiga kura xarakterlaydi. Ularning xarakterini oʻzgartiradi. Undagi obrazlar koʻproq ideallashtirilgan. Yaʼni ideal shoh, ideal oʻgʻil yoki uka

kabi kurinishda. «Andhra Mahabharata» asarida sanskrit soʻzlari juda kup ishlatilgan.

XI-XP asrlarda «sheʼriyat ilmi» yunalishi rivojlanadi. Unga asos solgan xam Nannaya Bhattadir. Andhra adabietini bu davrga kelib kuproq yukori tabaka vakillari dunekarashiga moslab adabiet yaratilgan. XI-XP asrlar oxiriga kelib «lakshanagrantsamu» - «sheʼriyat xakida traktatlar» paydo bulishi besabab emas. Buning sababi shoirlarni kanday sheʼr yaratishga urgatish bulgan. Bu traktatlardan bizga yetib kelgani «shoirlar maskani» bulib («*Kavijanashrayamu*») unda sheʼriyat ilmi xakida yozilgan. Uning muallifi Mallaya Rechanadir. Yana shu turdagi asarlar traktatlar XP asrlarda ham Gokarna Deva tomonidan xam yaratilgan.

Telugu tilini ilmiy tilga aylantirish jaraeni ham shu davrda boshlangan. Telugu tilida falsafa, teologiya, xukushunoslik, siesat, matematika, astronomiya xaqida turli kitoblar yaratiladi.

Bxakti xarakati Andhra ham kirib keladi va adabietda uz aksini topadi. Bxakti bu yerda avvaliga buddizm va jayнизм goyalariga karshi shakllanadi. Bxakti oʻz gʻoyasi bilan halk ommasini dilidan joy olib, sekin asta adabiyotga ham kirib keladi. Bu xarakatning janubda boshlovchi shaxs Basava (1132-1170)dir. U Karnatak shtatida tugʻilgandir. Basava koʻprok sanskrit tilida ijod qilgan. Kannar tilida xam yezma adabietini mavjud.

Telugu tilida esa Mallikarjuna ijod etgan. Uning asarlarining ayrim bulaklariga bizgacha yetib kelgan. Jumladan, «Shivaizm moxiyati» asari.

Oʻsha davr shoirlaridan yana biri Somnathdir, U olti tilda ijod etgan (sanskrit, telugu, kannar, tamil, maratxi va malayalam).

Somnath 1180-1190 yillarda falsafiy asarini «*Anubhavasaram*», yaʼni «*Bilish ilmi asoslari*» asarini yaratgan. Somnath ijodiga yana kuyidagi asarlarni kiritish mumkin: «*Basava paranam*» («*Basava xaei*»), xamda «*Panditaradhyacharitam*» («*Avliyo pandit xakida*») kabi asarlarni kiritish mumkin. Bu asarlar taxminan 1230 yillar atrofida yaratilgan.

Basava asarlarida brahmanlarga karshi fikrlar utkir tasvirlangan. Uning nazaryasiga kura brahman kupxudolikni targib etadi. U brahman bulgan shaxs kanday kilib bxakt bula oladi deb hisoblar edi. Bu xuddi yerga mango urugini sepib undan boshka meva hosilini olish bilan barobardir. Brahmanlar esa din talablarini bajarishni kattik turib talab kilar edilar. Basava esa aynan shu narsaga karshi turar edi.

Palkuriki Somnath xam shu goya tarafdori bulib, hind maʼbudlari uchligiga ishonuvchilarni, yaʼni Braxma-Vishnu-Shiva uchligiga eʼtikod kiluvchilarni tankid ostiga oladi.

Agiografik adabiyotda yezilishicha Somnatx Palkuriki telugu adabiyotiga qahramonlik balladalarini olib kirgan. Uning “*Basava xaqida Purana*”, “*Avlie pandit xakida hikoya*”, kabi balladalar mashhur. Somnatx telugu adabietida “*dvipada-kavyamu*” deb ataladi. Somnatx telugu adabiyotida ushbu janrni keng yeyilishigi katta xissa kushgan. Bu she’riy janrning dvupada deb nomlanishiga sabab u ikki misradan iborat edi. Bu ikki misra 15-18 matradan iborat she’r hisoblanadi. Somnatx o‘z she’rlari tilini oddiy, ravon va oddiy folk tushunadigan kilib yaratgan. Uning asosiy maksadi xam folk uchun xizmat kilish, o‘z g‘oyalarini sodda she’ri orqali folk ongiga yetkazish bulgan. Somnatx bxakti, ya’ni «yaratganga xakikiy muxabbat»ni kuprok targib kilgan shoirlardan. Uning uchun esa yagona xudo bu shivadir. Somnatx ijodiga o‘sha davr Karnataka va Tamilnad shtatlarida keng yoyilgan bxakti xarakati g‘oyalari katta ta’sir ko‘rsatgan.

Palkuriki Somnatx ijodi kup vaktlargacha hind adabietida o‘rganilmay kelingan. Bunga sabab uning brahmanlarga karshi chikkanligidir. Lekin XIX asrga kelibgina uning ijodiga kizikish kuchaya boradi. Uning she’riyat tili esa kupol va xunuk hisoblangan. Bu baholarning barchasi uning inkilobiy fikrlari uchun tan olinmaslik maksadida aytilgandir.

Telugu adabietida yana bundan keyingi davrlarda ijod etgan juda kupgina shoir va yezuvchilarni nomini tilga olish mumkin. Jumladan, *Sumati* (XP-XSh asrlar), *Tikkana Somayaji* (1210-1280), *Yerrana* (1280-1350), *Shrinatx*, *Potana Peddana*, *Ramarajbxushan* va boshqalar.

O‘rta asrlarga kelib Andxraga musulmonlar kirib kela boshlaydilar. Lekin buning adabietda unchalik katta ta’siri bo‘lmadi. Andxraliklar o‘sha an’anaviy adabietlarini davom ettiraverdilar. Urta asrda xam o‘sha Mahabxarata va Ramayana kabi eposlarning kayta ishlanishi, ulardan olingan syujetlar asosida asarlar yaratish davom etadi. XIU-XU asr adabiyoti deyarli avvalgi davr adabietidan farklanmaydi. Bu davr adabiyoti vakillari *Yerra Peggada* (*Andxra_Mahabxarata asari*) *Xulakki Bxaskara* (1295-1360) ning “*Bxaskara-Ramayanamu*” (“*Ram xakida kissa*) asari va boshkalar. Ushbu asarni yaratishda uch avlod ishtirok etgan va uni deyarli yuz yil davom etgan. Asarni asosan besh shoir yaratgan, ular orasida Xulakkining otasi va bobosi xam mavjud.

XIU - XU asrlarda telugu tiliga kupgina asarlarning tarjimasi ham amalga oshiriladi. 1420 yilda *Madiki Singxa* tomonidan «*Padma-puranamu*» (*Nilufar xakida purana*) telugu tiliga tarjima kilinadi. Undan keyin «*Varaxa-puranamu*» («*Varaxa xakida purana*»), «*Purana Narad*» («*Narad xakida purana*»), «*Parana Vishnu*» («*Vishnu xakida purana*») kabi asarlar tarjima etilgan. *Yeluganti Peddana* matematikaga oid asarlarni

tarjima kiladi. Bxayravi degan shoir «*Ratnashastramu*» («*Toshlar xakida ilm*») nomli kimmatbaho toshlar xakidagi she'riy asarni tarjima kiladi.

XU asrga kelib kadimgi hind ertaklarining ham telugu tilidagi variantlari paydo bula boshlaydi. Ulardan *Jakkayaning* (1409-1450) «*Vikrama charitramu*» («*Vikramarka xakidagi hikoyalar*»), *Anantamatyaning* «*Bxaja rajiya*» («*Bxaja shohi xakida*») 1434 yilgi tarjimasi, *Dubagunta Narayan* tarjima etgan «*Panchatantra*» kabi bir kancha ertak va masallar nomini tilga olish mumkin.

Bu davr shoir va yezuvchilaridan *Shrinatx* (1487-1530), bxakt-shoir *Bammer Potana* (1405-1480), Vijayanagar shohligi saroyida shoirlik qilgan *Krishnadev Ray* (1487-1530), uning zamondoshi *Alasani Peddana* (1475-1535) telugu she'riyatining rivojiga katta xissa kushganlar. Peddana hattoki «*Andhra she'riyati xudosi*» degan tahallusni xam olgan. *Krishnadev Rayning* «*Amuktamalda*» poemasi xam o'rta asr telugu adabietining eng tanikli namunalaridandir.

Telugu adabietida adabiy tarakkiet jaraenida asosan kuyidagi janrlar shakllangan va keng tarkalgan: «*marga kavita*» (ilmiy she'riyat), «*kavyamu*» («poema»), «*dvipada-kavyamu*» (hikoya, ballada janrlari), «*uddxarana-kavyamu*» («grammatik poema»), «*yakshaganamu*» («halk dramasi» liro-epik janr), «*prabandxa-kavyamu*» (poemaning bir turi). Prabandxa-kavyamu asosan XVI asrlarda keng tarkalgan janrlardan biridir.

Telugu adabiyoti bugungi kunda hind milliy adabietlaridan biri sifatida rivojlanishda davom etmoqda. Uning bugungi kun adabiyoti o'sha kadimiy adabiyot poydevoriga suyangani holda, o'sha davr adabiy merosi mazmunini davom ettirgan holda rivojlanmoqda. Telugu adabietini mustakil milliy adabiyot bo'lish bilan bir katorda hind adabiet bilan chambarchas bog'liq adabietdir. Na fakat telugu adabiyoti balki Hindiston subkontinentidagi barcha milliy adabiyotlar (jumladan, malayalam, tamil, maratxi, orissa, bengal va boshkalar) ham hind adabiyoti bilan mazmunan va shaklan bog'liqdir. Chunki bu barcha adabietlarning ildizi yagona, o'sha sankrit tilida yaratilgan «*Veda*», «*Mahabharata*» va «*Ramayana*» lar bo'lib ular turli hind milliy tillariga tarjima etilib, uning ta'sir ostida keyingi davr adabietini shakllangan. Shu sabab xam xar bir milliy adabiet uzining «*Mahabharata*»si yoki «*Ramayana*»siga ega bulib, keyingi davr shoir va yezuvchilari asosan mana shu buyuk eposlardan syujetlar olib nazm va nasrda turli janrlarda asarlar yaratib uz milliy adabietlarini boyitib borganlar va bugungi kunda xam mana shu an'ana davom etib kelmokda.

